

ARES

ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES

UIF: 6.1

SJIF: 5.7

SIS: 1.2

Cite Factor: 0.89

ASI-Factor: 1,3

2023/01

VOLUME 4

ISSUE 1



We increase scientific potential together!

ARES.UZ

Exact Sciences
Natural Sciences
Technical Sciences
Pedagogical Sciences
Medical Sciences
Social and Humanitarian Sciences





ISSN 2181-1385

VOLUME 4, ISSUE 1

JANUARY, 2023



www.ares.uz

EDITOR-IN-CHIEF

G. Mukhamedov

Professor, Doctor of Chemical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

EDITORIAL BOARD

U. Khodjamkulov

Associate Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

S. Botirova

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

B. Eshchanov

Associate Professor, Doctor of Physical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

S. Madayeva

Professor, Doctor of Philosophical Sciences, National University of Uzbekistan

R. Bekmirzayev

Professor, Doctor of Physical Sciences, Jizzakh State Pedagogical University

G. Nurshiyeva

Professor, Doctor of Philosophical Sciences, National University of Kazakhstan

I. Tursunov

Professor, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

G. Gaffarova

Professor, Doctor of Philosophical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

Y. Safronova

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Volgograd State Agricultural University, Russia

G. Ruzmatova

Professor, Doctor of Philosophical Sciences, National University of Uzbekistan

N. Shermuhamedova

Professor, Doctor of Philosophical Sciences, National University of Uzbekistan

B. Khusanov

Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

K. Tulantayeva

Associate Professor, Candidate of Historical Sciences, National University of Kazakhstan

O. Naumenko

Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, National University of Science and Technology MISIS

M. Rakhimshikova

Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, South Kazakhstan State University

Kh. Paluanova

Associate Professor, Doctor of Sciences in Philology, Uzbekistan State World Languages University

M. Gulyamova

Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Uzbekistan State World Languages University

N. Makhmudova

Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Uzbekistan State World Languages University

M. Sultonov

Associate Professor, Doctor of Chemical Sciences, Jizzakh State Pedagogical University

N. Zolotyx

Associate Professor, Candidate of Pedagogical Sciences, Volgograd State Agricultural University, Russia

J. Kholmuminov

Associate Professor, Doctor of Philosophical Sciences, Tashkent State University of Oriental Studies

A. Kholmakhmatov

PhD in Political Sciences, Ministry of Higher and Secondary Specialized Education

O. Hayitov

Professor, Doctor of Psychological Sciences, Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan

D. Karshiyev

Associate Professor, Candidate of Physical Sciences, Tashkent Paediatric Medical Institute

T. Shevchenko

Associate Professor, Candidate of Pedagogical Sciences, Volgograd State Agricultural University, Russia

R. Ikramov

Associate Professor, Candidate of Juridical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

C. Nasritdinov

Associate Professor, Chirchik Higher School of Tank Command-Engineering

Z. Yakhshiyeva

Associate Professor, Doctor of Chemical Sciences, Jizzakh State Pedagogical University

B. Yuldashev

Associate Professor, Tashkent Paediatric Medical Institute

Y. Islamov

Associate Professor, Candidate of Biological Sciences, Tashkent Paediatric Medical Institute

S. Allayarova

Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, National University of Uzbekistan

M. Djumabekov

Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, South Kazakhstan State University

K. Toshov

Senior Teacher, PhD, National University of Uzbekistan

T. Khojiyev

Associate Professor, PhD, National University of Uzbekistan

A. Shofkorov

Associate Professor, Candidate of Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical University

I. Ergashev

Professor, Doctor of Political Sciences, National University of Uzbekistan

J. Davletov

Senior Teacher, PhD in Philosophical Sciences, Urgench State University

A. Makhmudov

Doctor of Philosophy in Economical Sciences, Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan

A. Yuldashev

PhD in Philological Sciences, Uzbekistan State World Languages University

S. Pirmatov

Associate Professor, PhD in Physics and Mathematics, Tashkent State Technical University

ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES
SCIENTIFIC JOURNAL
VOLUME 4, ISSUE 1, JANUARY, 2023

D. Otajonova

Senior Teacher, PhD in Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical University

F. Rajabov

Associate Professor, PhD in Geographical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

J. Namozov

Associate Professor, PhD in Geographical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

N. Umarova

Associate Professor, PhD in Psychological Sciences, Tashkent State Pedagogical University

S. Toshtemirova

PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

U. Shermatova

PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

S. Akhunova

Associate Professor, PhD in Economical Sciences, Fergana Polytechnic Institute

N. Juraeva

Senior Teacher, PD in Economical Sciences, Fergana Polytechnic Institute

S. Iskhakova

Associate Professor, Candidate of Agricultural Sciences, National University of Uzbekistan

U. Rustamov

Acting Associate Professor, Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

I. Mambetov

PhD in Philological Sciences, Karakalpak State University

Z. Sanakulov

Senior Teacher, PhD in Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical University

D. Sharipov

Senior Scientific Researcher, PhD in Technics, Tashkent University of Information Technologies

O. Jabborova

Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

G. Tojiyeva

Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Karshi State University

A. Yekabsons

Acting Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical University

E. Makhkamov

Associate Professor, PhD in Physics and Mathematics, Chirchik State Pedagogical University

A. Seytov

Associate Professor, PhD in Physics and Mathematics, Chirchik State Pedagogical University

A. Tursunov

Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Navoi State Mining Institute

N. Bobomuradov

PhD in Pedagogical Sciences, Uzbekistan State University of Physical Education and Sport

U. Kasimov

Professor, Doctor of Philological Sciences, Jizzakh State Pedagogical University

Sh. Otajonov

Professor, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, National University of Uzbekistan

L. Sobirova

PhD in Pedagogical Sciences, Uzbekistan State University of Physical Education and Sport

Sh. Kurbanov

Associate Professor, PhD in Technical Sciences, Karshi Engineering-Economic Institute

B. Salimov

Associate Professor, Doctor of Philosophical Sciences, Tashkent State Transport University

R. Khudayberganov

Associate Professor, Doctor of Philosophical Sciences, Tashkent State Transport University

M. Vafoeva

Associate Professor, Candidate of Philological Sciences, Samarkand State University

K. Inakov

Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, National University of Uzbekistan

G. Rashidova

Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Jizzakh branch of National University of Uzbekistan

K. Mamadaliev

Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

Sh. Muradkasimova

Senior teacher, Doctor of Pedagogical Sciences, Uzbekistan State University of World Languages

T. Kuyliyev

Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, Tashkent State Agrarian University

N. Soatova

Associate Professor, Candidate of Philological Sciences, Jizzakh State Pedagogical University

S. Eshonkulova

Associate Professor, Candidate of Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical University

G. Imomova

Associate Professor, Doctor of Philological Sciences, Karshi State University

N. Beketov

Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

P. Turapova

Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Jizzakh State Pedagogical University

D. Niyazova

Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Karshi State University

B. Ramazonov

Associate Professor, PhD in Biological Sciences, Chirchik State Pedagogical University

N. Berdaliyev

Associate Professor, PhD in Political Sciences, Tashkent Institute of Architecture and Civil Engineering

N. Sultonova

Associate Professor, PhD in Philosophical Sciences, Tashkent Institute of Architecture and Civil Engineering

N. Yuldosheva

Associate Professor, PhD in Philology, Karshi State University

A. Narmanov

Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

F. Holikulova

Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Navoi State Pedagogical Institute

Editorial Secretary: T. Madalimov

O'ZBEKISTONDA BANKNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION XIZMAT TURLARINI JORIY ETISH YO'LLARI

Shaxlo Egamberdiyevna Nematova
o'qituvchi

Ilxomjon Ikromjon o'g'li Usmonaliyev
magistr, iqtisodiyot mutaxassisligi

ANNOTATSIYA

Bank tizimi moliya bozorining asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi, bir tomondan, mamlakat moliya sektori rivojlanishiga turtki bo'lsa, ikkinchi tomondan, real sektorni moliyalashtirish natijasida ishlab chiqarish ob'ektlari faoliyatining rivojlanishiga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish orqali iqtisodiyotning rivojlanishiga olib keladi.

Kalit so'zlar: bank, innovatsiya, kredit, kichik biznes, daromad, moliyaviy

ABSTRACT

The banking system is one of the main links of the financial market, the development of which, on the one hand, is an impetus for the development of the country's financial sector, and on the other hand, as a result of financing the real sector, leads to the development of the functioning of production facilities, the development of the economy

Keywords: banking, innovation, credit, small business, income, financial

KIRISH

Bugungi kunda bank tizimini rivojlantirishda banklarning texnik va texnologik rivojlanganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda zamonaviy innovatsion xizmatlar ko'rsatishni qat'iy yo'lga qo'yish, bank majburiyatini kafolatlash orqali unga aholi omonatlarini keng jalb etish tizim oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va liberallashtirish sharoitida moliya bozorining funksiyalarini takomillashtirish, uning asosiy ishtirokchisi bo'lgan bank tizimini muqobil ishlash strategiyasini ishlab chiqish muhim vazifalardan biridir. Bunda tijorat banklarining innovatsion moliyaviy xizmat turlarini mijozlarga taqdim etishi, ularning ommabopligini ta'minlashi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Ushbu vazifaning samarali amalga oshirilishini ta'minlashda bank tizimining jozibadorligini oshirish, ya'ni mijozlariga yaratilgan imtiyozlar, qulayliklar va eng asosiysi ularning ishonchini qozonish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning barcha bo'g'inlarida shu o'rinda bank tizimida ham zanjirsimon ketma-ketlik uzluksiz tarzda faoliyat yuritishi lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bank tizimida ketma-ketlikning uzilishi kutilayotgan daromadning kelmasligiga, bu esa barqarorlik va likvidlilik darajalarining pasayishiga olib keladi. Bugungi kunda banklarimizda amalga oshirilayotgan operatsiyalar kesimini tahlil qilsak, aktiv operatsiyalar tarkibida faqatgina kredit va lizing operatsiyalarida 15,02 foizga o'sish kuzatilgan, bu, albatta, ijobiy holat, biroq boshqa daromad keltiradigan aktiv operatsiyalar tarkibida faqat pasayish kuzatilgan bularga: oldi-sotdi amaliyotlari bo'yicha mablag'lar, ya'ni qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar bo'lib, bu banklarimiz kredit berish bilangina cheklanib qolayotgani, diversifikatsiya siyosatining mavjud emasligidan dalolat beradi.

Bunday holatni passiv operatsiyalarda ham ko'rish mumkin. Talab qilib olinguncha depozitlar salmog'i 60 foizdan ziyodni, muddatli depozitlar esa 20 foizdan ziyodni va jamg'arma depozitlari 10 foizdan ziyodni tashkil qilmoqda. Ushbu holat bugungi kunda banklarimizdagi depozitlar tarkibida balans yo'qligini, bu o'z-o'zidan depozitlar salmog'ida yuridik shaxslarning moliyaviy mablag'lari asosida shakllantirilganidan va yuqori risk asosida faoliyat yuritayotganidan dalolat beradi.

Bir omilning ikkinchi omilga bog'liqligini hisobga olsak, ushbu muammolarni hal etishda, bank tizimidagi tub o'zgarishlarni amalga oshirishda asosiy vazifa sifatida moliyaviy xizmatlarning salmog'ini oshirish, ularni innovatsion tarzda boshqarish, bank infratuzilmasini takomillashtirish va daromad olishiga ta'sir etuvchi salbiy omillarni bartaraf etish talab etiladi. Chunki xorij amaliyotida banklar 300 dan ortiq operatsiyalarni amalga oshirishini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimizdagi tijorat banklari faqatgina kredit berish va depozitlarni qabul qilish bilangina chegaralanib qolmoqda. Shuning uchun moliyaviy xizmat turlarini ko'paytirish, bankning daromad manbalarini kengaytirish asoslarini shakllantirish muhim vazifalardan biridir.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda banklarda taklif etilayotgan moliyaviy xizmat turlarining ommaboplik darajasini o'rganish lozim. Chunki taqdim etilayotgan xizmat, ya'ni bank mahsuloti o'z xaridoriga egami, talablarga javob beradimi, mijozning ushbu xizmat turidan foydalanish bilimi mavjudmi, o'zlashtirish ko'rsatkichlari qay darajada va

shu kabi ko'pgina savollarga javob topish, ularni tahlil qilish va samarali yechimini taklif etish bankning daromad olishini ta'minlaydi. Buning uchun esa bank mijozlarining ushbu xizmat turlaridan foydalanish imkoniyatlari qay darajada ekanligini o'rganish talab etiladi.

Shu bilan birga, tijorat banklarining moliyaviy xizmatlari bo'yicha mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining nazariy yondashuvlariga e'tibor qaratsak, O.F. Aliqoriyev: "Bank xizmati-mijozlarga taqdim etiladigan bank operatsiyalarining optimal bajarilishiga ko'maklashuvchi bank faoliyatining ko'rinishi", deb ta'kidlaydi. [1] Xorijiy iqtisodchi olimlardan A.N.Azriliyan "Moliyaviy xizmatlarni jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag'larini jalb qilish va foydalanish bilan bog'liq faoliyat", deb ta'riflaydi.[3] Yana bir iqtisodchi olim Y.B.Shirinskaya "banklarning maslahat xizmatlarini balansdan tashqari amaliyotlarga qo'shadi, chunki ularni taqdim etish aktiv va passivlarning o'sishiga olib kelmaydi, to'lov esa komission mukofot pulidan iborat bo'ladi", deb ta'riflaydi.[3] Amerikalik olim P.S.Rouz bank xizmatlariga pul zaxiralarini boshqarish, iste'mol krediti, naqd pul oqimlarini boshqarish, lizing, pensiya rejalarini sotish kabi bank faoliyati turlarini kiritgan.[2]

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning nazariy qarashlarini tahlil qilishda moliyaviy xizmatlar mijozlarning foydasini, ehtiyojlarini qondirish maqsadida va shu bilan birga, bank foydasini oshirishga yo'naltirilgan xizmat sifatida ta'riflanadi. Ushbu ta'riflarni umumlashtirgan holda moliyaviy xizmatlar - mijozlarning manfaatlarini va bankning daromadini innovatsion tarzda amalga oshirish mexanizmidir deyishimiz mumkin.

Bundan kelib chiqib, birgina moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishiga amaliy yordam ekanligi yaqqol namoyon bo'ldi. Yuqorida keltirib o'tganimizdek bir omilning ikkinchi omilga uzviy bog'liqligi, ya'ni gepotizasi shakllantirildi. Tijorat banklarining moliyaviy xizmatlarning ko'lamini kengaytirish asosida aktiv va passiv operatsiyalarini boshqarish imkoniga ega bo'lamiz, bu banklar daromadining oshishiga, likvidlilik darajasiga va barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Moliyaviy xizmat turlari ommabopligini ta'minlash asosida ushbu natijalarga erishish imkoniga ega bo'lamiz. Ayniqsa, qishloq joylarida iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetkazish: aholining real talablarini o'rganish, mavjud resurslar, imkoniyatlarga mos ravishda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, bugungi kun talablariga javob beruvchi texnologiyalar bilan ta'minlash, mijozlar ongini oshirish, xodimlar saviyasini ko'tarish va ommaviy axborot vositalarining tijorat banklari bilan uzviy faoliyatini yo'lga qo'yish asosida erishiladi.

Rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida keng qamrovli tashqi omillar ta'sirida quyidagi tendensiyalar: yangi axborot texnologiyalari bazasida yangi bank mahsulotlari va xizmatlari; virtual bank va moliya texnologiyalari: bank hisobraqamini boshqarish, naqd pulli hisob-kitoblar, elektron imzo, shartnomalar tuzish, moliyaviy tashkilotlar; yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan elektron va aralash marketing uchun majmuaviy foydalanish; ichki axborotni yig'ish, saqlash va tahliliy qayta ishlash; ichki nazorat va auditning yangi imkoniyatlari; bank mutaxassislari malakasidagi o'zgarishlar: mahsulot-menejer, brend-menejer, maslahatchi, tranzaksiyalar bo'yicha mutaxassis; yangi o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish avtomatlari aniqlanadi.

Tijorat banklarining aktiv va passiv instrumentlaridan foydalangan holda bank xizmatlari sifatini oshirish hamda mijozlarni jalb etish yo'li bilan aktiv operatsiyalarni samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish, aktivlarni sekyuritizatsiyalash, avtomatlashtirish, "New Privat" hamda masofaviy boshqaruv innovatsion usullarini aktiv operatsiyalarga yo'naltirish orqali boshqarishning innovatsion uslubini ishlab chiqish, aktivlarni sekyuritizatsiyalashda davlat dasturiga muvofiq berilgan kreditlar asosida ikkilamchi obligatsiyalar chiqarish orqali tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari va daromadlilikini oshirish taklifi asoslangan. Natijada, quyidagi xulosalar berilgan:

Bank xodimlari va mijozlar fikrini o'rgangan holda mijozlarni bankka jalb etishda innovatsion xizmat turlarini yanada keng joriy etish, mijozlarning vaqtini tejash maqsadida banklarda keng miqyosda barcha hujjatlashtirish ishlari bo'yicha onlayn rejimga o'tish choralarini ko'rish, aholi va xo'jalik sub'ektlarining bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshiradi. Aktivlarni sekyuritizatsiyalashni qo'llashda:

"Aktivlarni sekyuritizatsiyalash to'g'risida"gi Qonunni qabul qilish, qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini kengroq yoritish va resurslar jalb etish jozibadorligini oshirish maqsadida, ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari orqali aholiga aktivlarni sekyuritizatsiyalash amaliyotini targ'ib qilish. New Privat usuli orqali bank tizimiga zamonaviy xizmat turlari kiritiladi. Bu esa, mijozlarni jalb etish va bank daromadlarining ko'payish omili hisoblanadi .

XULOSA

Rivojlangan davlatlar misolida ko'radigan bo'lsak, Xaustova Mariya Nikolayevnaning "*Individualnoye bankovskoye obslujivaniye sostoyatelnix kliyentov kak segment mejdunarodnix finansov*" deb nomlangan i.f.n.dissertatsiya avtoreferatida moliyaviy xizmatlarning ommabopligi bo'yicha bir nechta takliflar keltirilgan. Private

banking xizmatlarini Wealth management, ya'ni moliyaviy sohalarga va Life Style management, ya'ni oyilaviy tarmoqlarga yo'naltirishni taklif etadi.[3] Iqtisodchi olim G.A. Dremina "Instrumenti povisheniya effektivnosti bankovskix uslug v usloviyax finansovoy nestabilnosti" deb nomlangan ilmiy maqolasida bank moliyaviy xizmatlarini amalga oshirishda va ommabopligini ta'minlashda "Lean banking", ya'ni kam xarajat, kam sarmoya talab qiluvchi tizim bo'lib, Lean-texnologiyalarni joriy etishni taklif etadi .

Bizningcha, ushbu mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlarini tahlili asosida ularning takliflari mamlakatimiz bank tizimida moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirishga imkon beradi deb xulosa qilishimiz mumkin.[1]

REFERENCES

1. Aliqoriyev O.Tijorat banklarida xizmat turlarini rivojlantirish yo'llari. T,2012.- 192 b.
2. Rouz P.S. Bankovskiy menejment.- M.: Delo, 1997. – S. 5-6.
3. Azrilyan A.N. Bolshoy ekonomicheskiy slovar. M.: Institut novoy ekonomiki, 2002.- S.588. Shirinskaya YE.B. Operatsii kommercheskix bankov. – M.: Finansi i statistika, 1995, S.16-17. G.Dremina. Instrumenti povisheniya effektivnosti bankovskix uslug v usloviyax finansovoy nestabilnosti. Vest.2010.№3.S160-164.
4. Олимова, Н. Х., Тешабаева, О. Н., & Жўраева, Н. Х. Қ. (2022). Ўзбекистонда инновацион жараёнларни такомиллаштириш орқали корхоналар рақобатдошлигини ошириш масалалари. Scientific progress, 3(3), 276-282.
5. Эргашев, А. Х., & Олимова, Н. Х. (2020). Инновацияларни яратиш ва уларни саноат кор-хоналари фаолиятига жорий этишнинг асосий масалалари. In Минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари (pp. 487-490).
6. Олимова, Н. Х., & Джурабаев, У. Б. (2020). Мамлакатимизда инновацион фаолиятнинг ривожланиши ва реал сектор корхоналарининг технологик инновацияларга бўлган талабини белгиловчи омиллар таҳлили. In Минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари (pp. 445-449).
7. Олимова, Н. Х., & Каримов, Ш. Х. (2020). Реал сектор корхоналарида инновацион янгиликларни жорий қилишнинг ташкилий иқтисодий механизмини такомиллаштириш. In Минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари (pp. 423-427).

8. Олимова, Н. Х., Абдухалилов, Н. Х. У., & Тургунов, Э. К. У. (2022). Вопросы эффективной организации инновационных мероприятий на строительных предприятиях и повышения их экспортного потенциала. *ceteris paribus*, (4), 30-33.
9. Олимова, Н. Х. (2015). Инновационно-инвестиционная деятельность интегрированных корпоративных структур: мирохозяйственные аспекты и национальные приоритеты. *Молодой ученый*, (18), 279-280.
10. Олимова, Н. Х., & Юлдашев, Д. Т. (2016). The role of small business and private entrepreneurship in the economic activities. *Молодой ученый*, (9), 682-683.
11. Юлчиев, А., Эрматов, Р., & Мохинур, Ж. (2022). Мамлакатимизда кичик бизнес ва тадбиркорликни ривожлантириш ва аҳоли бандлигини таъминлаш. *Research and education*, 1(2), 104-111.
12. Yuldashev Doniyor, &. (2022). Competitiveness of a family business ways to improve. *International journal of social science & interdisciplinary research* ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, 11(10), 175–183.
13. Zilola, S. (2022). Trends in the development of the industrial sector during the deepening of structural changes in Uzbekistan. *International journal of social science & interdisciplinary research* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(10), 167-174.
14. Nematova, S. (2022). Structural changes in the innovation-investment entrepreneurship of the economy of the region. *International journal of social science & interdisciplinary research* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(10), 184-187.



КОРХОНА ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ МОЛИЯЛАШТИРИШ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ УСУЛЛАРИ

Нодира Хамракуловна Олимова

и.ф.н.доцент

olimova_nh@mail.ru

Орифжон Обиджон ўғли Каримов

Фарғона давлат университети магистранти

АННОТАЦИЯ

Инвестицион-инновацион лойиҳаларни молиялаштириш-нинг самарали усулларини миллий ва халқаро андозаларга мувофиқ жорий этиш ўта муҳим вазифадир. Қолаверса, инвестицион-инновацион фаолиятда қалтисликни имкон қадар пасайтириш, ресурслар тақчиллиги шароитида йирик инвестиция лойиҳаларини замонавий моделлаштириш усулларини қўллашнинг ҳам алоҳида ўрни мавжуд.

Калит сўзлар: корхона, молиялаштириш, инвестиция, инновация, венчур, лизинг, форфейтинг.

ABSTRACT

The introduction of effective methods of financing investment-innovation projects in accordance with national and international standards is an extremely important task. In addition, there is also a special role in investment-innovation activities to reduce the risk as much as possible, to apply modern modeling methods for large investment projects in the context of a shortage of resources.


Keywords: enterprise, financing, investment, innovation, venture, leasing, forfeiting.

КИРИШ

Бугунги кунда инвестиция лойиҳаларининг молиявий-иқтисодий самарадорлигини баҳолашда хориж тажрибаси, шу билан бирга ЮНИДО томонидан ишлаб чиқилган услубга мувофиқ, замонавий баҳолаш усулларидан кенг фойдаланилади. Ривожланган давлатлар тажрибаси ва ЮНИДОнинг тавсияларини ҳисобга олган ҳолда инвестиция лойиҳаларининг самарадорлигини баҳолаш икки меъзон

асосида амалга оширилади.[3] Булар, молиявий ва иқтисодий баҳолаш меъзонларидир (1-расм).

Хўжалик юриштининг замонавий шарт-шароитларида иқтисодий ўсишнинг суръати ва сифатини таъминлаш, ишлаб чиқарилаётган маҳсулотнинг ички ва ташқи бозорлардаги рақобатбардошлигини ошириш, миллий иқтисодиётнинг барча соҳа ва тармоқлари мутаносиб ривожланишига эришиш инновацион характерга эга бўлмоғи лозим. Бунга эришишнинг бир мунча мураккаблиги корхона доим танлов олдида туриши, яъни агар янги турдаги маҳсулот ишлаб чиқарилмаса эртами- кечми таназзулга учраши, янги турдаги маҳсулотлар ишлаб чиқаришнинг катта харажатлар билан боғлиқлиги каби омиллар билан изоҳланади. Юқорида тилга олиб ўтилган омилларнинг таъсири боис, бугунги кунда иқтисодиёт тармоқларида фаолият кўрсатаётган корхоналарнинг жуда оз қисми-5 фоизигина, мустақил тарзда илмий-тадқиқот фаолияти билан шуғулланмоқда[2].



1-расм.Инвестицион-инновацион лойиҳанинг самарадорлигини баҳолаш усуллари[1]

Инновацион фаолиятни молиялаштиришнинг оқилона тизимини яратиш орқали молиявий ресурсларни жамлаш ва уларни инновацион жараёнларнинг устувор соҳаларига йўналтириш имкониятлари пайдо бўлади.

Инновацион фаолиятни молиялаштириш-янги турдаги маҳсулотларни ишлаб чиқариш жараёнини лойиҳалаштириш, тадқиқ этиш ва ташкил қилиш, ишланмалар ва ташкилий жараёнларни, янги турдаги техника ва технологияларни, иш ва хизматларни, шунингдек, бошқарувнинг янги шакл ва услубларини яратиш ва жорий этишга йўналтирилган пул маблағларидан фойдаланишдир.

Инновацион лойиҳанинг маҳсулот ҳаётийлик цикли барча босқичларида зарур молиявий ресурслар билан

таъминланганлигининг юқори даражаси бозор томонидан маҳсулот етарли даражада қабул қилинмаслиги билан боғлиқ хатарларни камайтиради ва инновацион фаолият самарадорлигини оширади.

Инновацион фаолиятни молиялаштиришнинг қуйидаги шакллари мавжуд:

1. давлат томонидан молиялаштириш;
2. корхонанинг ўз маблағлари ҳисобидан молиялаштириш;
3. банк кредитлари орқали молиялаштириш;
4. венчур молиялаштириш;
5. лизинг;
6. форфейтинг;
7. аралаш молиялаштириш ва бошқалар.

НАТИЖА

Янгидан ташкил этилаётган инновацион компанияларнинг (стартап) молияси замонавий корпоратив молия назарияси ва амалиётини ўрганишнинг объекти ҳисобланувчи ўрта ва йирик бизнес корхоналари молиясидан сезиларли даражада фарқ қилади. Ҳар қандай стартапдан фарқли ўлароқ, тараққий этган, операцион фаолияти яхши йўлга қўйилган компаниялар молияси замонавий корпоратив молияни ўрганиш объекти ҳисобланади. Ушбу ҳолатда компаниянинг операцион фаолияти дейилганда, компаниянинг маҳсулот ишлаб чиқариш ва сотиш, хизматларни тақдим этиш, ишларни бажариш билан боғлиқ асосий фаолияти тушунилади. Бундай компаниядаги молиячиларнинг вазифаси - молиявий оқимларни компания фаолиятининг самарадорлигини ошириш учун йўналтиришдан иборатдир.

Молиячи компания капитали қийматини ошириш учун унинг таркибини қайта кўриб чиқиши лозим, шу билан биргаликда у компания учун энг фойдали бўлган дивиденд сиёсатини белгилаши, фоиз тўловларини тўлаш борасида оптимал схемалар ишлаб чиқиши, оддий акцияларни сўндириш ва шу каби масалалар билан шуғулланиши керак бўлади.

Янгидан ташкил этилаётган бизнесда бундай глобал муаммолар йўқ бўлсада, тадбиркорнинг вазифаси анча мураккаб бўлиб, у ҳам бўлса корхона фаолиятини молиялаштиришга маблағлар излаб топиш ва уларни жалб қилишдан иборатдир. Корпоратив молия назариясига кўра, ҳар қандай компаниянинг барча пул оқимлари учта асосий гуруҳга бўлинади: операцион фаолиятдан олинувчи пул оқимлари,

инвестицион фаолиятдан олинувчи пул оқимлари ва молиявий фаолиятдан кўрилувчи пул оқимлари.

Агар биз ривожланишнинг дастлабки босқичида бўлган ёш инновацион компанияни таҳлил қиладиган бўлсак, у ҳолда тадбиркорнинг аслида ҳеч нарсаи йўқлигига, на активлари ва на ўз капитали борлигига гувоҳ бўламиз. Тадбиркорнинг биргина нарсаи бор, у ҳам бўлса, уни бозорга олиб чиқиш орқали пул ишлаши мумкин бўлган ихтиросидир холос.

Яна шуни қўшимча қилишимиз мумкинки, янгидан ўз ишини бошлаётан тадбиркорда умумий ҳолатда бизнесни ташкил этиш тўғрисида тасаввур ҳосил қилиш имконини берувчи бизнес-ғоя ҳам мавжуд. Бизнесни ташкил этишнинг дастлабки босқичида операцион, инвестицион ва молиявий фаолиятдан олинувчи пул оқимлари ҳақида гапиришга ҳали анча эрта. Ҳар қандай тадбиркор - янги инновацион лойиҳани ташкиллаштирув-чини-“Бизнесни яратиш ва ривожлантириш учун пулни қаердан олиш керак”-деаган муҳим бир савол қийнайди.

Бу вазифа шунчаки оддий эмас, чунки кўп ҳолларда кичик ва ўрта бизнес корхоналари корпорациялардан фарқли равишда тижорат кредити олишда жиддий муаммоларга дуч келадилар, чунки кредит олиш учун қуйидагилар бўлиши талаб этилади:

1. кредит таъминоти учун активлар;
2. фоиз тўловларини вақтида ҳисоб-китоб қилиш имкониятини берувчи операцион фаолиятда олинувчи пул оқимлари.

МУҲОКАМА

Янги ташкил этилган компаниялар аксарият ҳолларда кредит таъминоти учун ликвид акивларга ва етарлича ўз капиталига эга бўлмаганлари ҳолда, фоиз тўловларини тўлаш борасида жиддий муаммоларга дуч келадилар. Демак, инновацион стартапларнинг корпоратив молиядан яна бир фарқи шундаки, улар кўпчилик ҳолатларда кредит маблағлари ололмайдилар. Бундан ташқари, йирик компаниялар томонидан молиявий ресурсларни жалб қилиш учун кенг фойдаланадиган классик молиявий воситалардан (масалан, облигациялар, тижорат векселлари, банк акцептлари ва бошқалар) янги ташкил этилаётган корхоналар етарлича активлари мавжуд эмаслиги боис ҳали фойдалана олмайдилар.


Стартапда мавжуд озгина ўз капитали ихтироларни яратиш ва ишлаб чиқиш учун зарур бўлгани ҳолда, фақат унинг ёрдамидагина ўз фаолиятини янгидан ташкил этаётган



компания иўз фаолиятини янгидан ташкил этаётган компания инвесторларни жалб қилиши мумкин, аммо бунинг учун тадбиркор компания ғоясига асосланган ўз бизнес ғоясининг истиқболли эканлигига инвесторларни ишонтира олиши керак.

Ўз фаолиятини нолдан бошлаётган ҳар қандай компанияда молиявий қарорлар қабул қилиш билан компания фаолиятининг қолган бошқа барча жиҳатлари - жамоа, персонал, кадрлар, маркетинг, интеллектуал мулкни ҳимоя қилиш, ҳуқуқий жиҳатлар кабилар ўртасида узвий алоқа мавжуд. Бундан ташқари, одатда, катта корпорацияларда бўлгани каби, алоҳида молия бўлими ёки бўлинмасини ташкил этиш учун ўз фаолиятини янгидан бошлаётган корхоналарда етарлича маблағ йўқ.

• **Венчур ёки шамол капитал?** АҚШдаги машҳур кийим-кечак ишлаб чиқарувчи Banana Republic фирмасининг асосчиси Мел Зиглер спорт кийимлари ишлаб чиқаришга ихтисослашган ZoZa фирмасига асос солди. Ушбу корхона учун 165 млн. АҚШ доллари миқдорида сармоя киритган венчур фондининг вакили Гари Ричел “Business Week” журнаliga берган интервьюсида: “Агар сизда жасорат ва пул маблағи етарли бўлса, сизга истеъмол бозорларида ҳеч нарса хавф солмайди”-деб, таъкидлайди. Орадан унча кўп вақт ўтмасдан, унинг фикрлари нотўғри эканлиги аён бўлди. 2001 йилнинг баҳорида ZoZa ўзининг биринчи коллекциясини чиқарди - юз минглаб костюмларда кўрсатилган ўлчамлар ўзининг ҳақиқий ўлчамларидан салкам икки пунктга юқори эди бозордан қайтган маҳсулотларнинг улуши 80% дан ошиб кетди ва икки ойдан сўнди, ZoZa банкротга учради. Бундан хулоса шуки, тадбиркордаги дадиллик, яхши ғоя ва ғояни амалга ошириш учун молиявий маблағларнинг мажбурлиги бозорга ёриб кириш учун етарли бўлмасада, лекин бозорда муваффақиятсизликка учраш учун етарли ҳисоб-ланади. Шундай қилиб, стартапларнинг молияси катта компанияларнинг молиясидан тубдан фарқ қилади (2-расм), чунки корпорациялар ва кичик инновацион компанияларнинг молиявий оқимлари ўртасида сезиларли фарқ мавжуд.




2-расм. Корпоратив молия ва инновацион стартап молияси [1]

Шу билан бирга, анъанавий тарзда урф бўлган қарз молиявий ресурсларнинг аксарияти қисмидан (банк кредитлари ва ссудалари, компания облигацияларини чиқариш ва сотишдан олинган маблағлар, бошқа нобанк ташкилотларининг кредитлари) ёш инновацион компаниялар фойдалана олмайдилар. Бундан ташқари, барча ҳал қилувчи аҳамият касб этувчи барча молиявий қарорлар, кўпинча махсус молия таълимга ёки молия соҳасида ишлаш тажрибаси бўлмаган компания муассислари жамоаси томонидан амалга оширилади.

Янги компаниянинг шаклланиш ва ривожланиши жараёни шартли равишда босқичларга бўлинган бўлиб, уларнинг ҳар бирининг ўзига хос аниқ вазифалари ва уларни ҳал этиш усуллари мавжуд. Ҳаётийлик циклининг куйидаги босқичлари мавжуд:

- ривожланишнинг дастлабки босқичлари - экиш босқичи ва стартап (Seed Stage, Startup);
- илк босқич (Early Stage);
- кенгайтиришни ривожлантириш босқичи (Development, Expansion).

Баъзан лойиҳани технологиянинг сусайиш (ўлим) босқичи ҳам фарқланади. Компаниянинг жами (тўпланган) пул оқимларининг белгиси ва динамикаси компаниянинг шаклланиш ва ривожланиш даврларини босқичларга ажратиш меъзони ҳисобланади. Шу билан бирга, ҳар бир босқичда бизнесни ривожлантириш учун зарур молиявий ресурсларнинг даражаси ҳам ўзгариб боради (3-расм).



3-расм. Инновацион фаолиятни молиялаштириш учун зарур бўлган энг минимал маблағ миқдорини аниқлаш [1]

Инновацион тадбиркорликда молиялаштиришнинг анъанавий усуллари ва манбаларидан фойдаланиш


имкониятлари жуда ҳам чекланган, баъзи ҳолатларда эса бундай манба ва усуллардан фойдаланишнинг умуман иложи йўқ. Эртами-кечми ҳар қандай стартап асосчисининг олдида: “Зарур молия-лаштириш манбаини қаердан топиш мумкин, ва уларнинг оптимал таркиби қандай бўлиши керак?”-деган савол пайдо бўлади.

Бунда маблағлар киритиш борасида қарорлар қабул қилишда тадбиркорликнинг ривожланиш босқичи ва молиявий қайтимнинг ноаниқ истикболлари ҳал қилувчи аҳамият касб этади. 4-расмда ривожланишнинг барча босқичларини муваффақиятли тарзда босиб ўтган компания даромадлари ўзгаришининг одатий модели акс эттирилган. Дастлаб, даромадлар эгри чизиғи инвестициялар даражасининг фойда даражасидан ортиқчалигини акс эттирган ҳолда, кескин пасайиб боради. Сўнгра, бозорга янги маҳсулот ёки хизматларнинг кириб бориши асносида даромадлар эгри чизиғи кўтарилиб боради. Қачонки, компания етуклик даражасига эришар экан, даромадлар эгри чизиғининг ўсиши секин-лашиши мумкин. Бироқ, кўпчилик компаниялар ички ўсиш ёхуд ютиб юбориш ёки бирлашиш дастурлари натижасида ўзларининг етуклик босқичида ҳам ривожланишда давом этишлари мумкин.

Ёш компаниялар ривожланишининг дастлабки босқичларини молиялаштиришга “экиш босқичи” (seed stage), ишга тушириш босқичи (start-up) ва илк ўсиш даври (Early Stage) босқичлари киради. Ушбу ҳолатда “экиш” ва “стартап” босқичлари ўртасидаги чегара шартли ҳисобланади, чунки ҳар иккала босқичда ҳам салбий пул оқимига эга бўлган, ўз фаолиятини самарали йўлга қўйишда тажрибага эга бўлган ёки тажрибаси етарлича бўлмаган ёш инновацион компаниялар назарда тутилади. Ушбу оқимлар кўпчилик ҳолатларда ёки умуман амалда мавжуд бўлмаган ёки бўлсада, унчалик ҳам аҳамияти катта бўлмаган операцион фаолиятдан кўри-лувчи оқимлар ҳисобига қопланиши мумкин эмас. Компания бозорда ўхшаши бўлмаган ёки мавжуд бўлганларидан сифат жиҳатидан фарқ қилувчи янги маҳсулотларни таклиф қилади.

Маҳсулот ишлаб чиқишни ниҳоясига етказиш, маҳсулотнинг дастлабки ишчи намунасини олиш, бизнес-режа тайёрлаш учун экиш босқичида етарлича катта маблағ сарфлансада, ҳали мазкур босқичда операцион фаолиятнинг тўлиқ йўлга қўйилмаганлиги боис, ижобий пул оқимларини таъминлашимиз анча мушкул. Одатда, бу босқич маҳсулотнинг ҳали тўлиқ ишлаб чиқилмаганлиги ёки синовдан ўтмаганлиги билан тавсифланади. Натижада, биз компания фаолиятининг ривожлана бориши асносида инвестицион фаолиятдан салбий пул оқимларига эга бўламиз.

Компания ривожланишининг экиш босқичида ташқи молиялаш-тириш манбаларини жалб қилишнинг жуда қийинлиги ва баъзан мумкин ҳам эмаслиги натижасида компания тадбиркорлик субъектларининг ички ресурслари ва грантлар, ОЎЮ, бизнес-инкубаторларнинг маблағлари каби беғараз ва текинга олинган ташқи манбалар ҳисобига кун кечиради.



4-расм. Компания ривожланишининг турли босқичларида молиялаштириш.[1]

Бундан ташқари, ўз фаолиятини эндигина бошлаётган кўпчилик корхоналарнинг ташқи қарз манбаларидан фойдаланмасликлари, одатда бундай молиялаштириш манбаларининг йўқлиги билан эмас, балки фаолиятнинг дастлабки босқичларида тадбиркорнинг ўз фаолияти натижаларини бошқалар билан бўлишиш истагидан йироқ бўлган стратегияни танлаши билан ҳам изоҳланади. Стартап босқичида пул оқимларининг компаниядан четга чиқиб кетиш ҳолатлари ҳам кузатилади. Бу маҳсулот ёки хизматни ишлаб чиқиш ва такомиллаштириш билан боғлиқ бўлган ва кўпинча операцион фаолиятдан олинувчи даромадлар эвазига қопланувчи қўшимча инвестицияларни акс эттиради.

Ушбу босқичда тадбиркорлар жамоаси азалдан росмана фаолият кўрсатаётган корхона сингари ўзларини тута бошлайдилар ва юридик шахс сифатида расмий рўйхатдан ўтган компанияга айланадилар. Ушбу даврга келиб, компаниянинг дастлабки истеъмолчилари маълум бўлади, маҳсулотнинг прототипи устида иш кенг қамровли ишлар йўлга қўйилади, компания жамоасини тўлдириш учун қандай инсонларни жалб қилиш лозимлиги ҳақида дастлабки тасаввурлар пайдо бўлади. Шу билан биргаликда, молия-лаштириш жараёнида компания қийматини баҳолаш, инвесторлар билан битимларни пухта тузиш каби бирламчи саволлар пайдо

бўлади. Керакли инвестицияларни ўз ҳисобидан молиялаштириш, кўпинча сўнгги ўринларда кўрилади, чунки инновацион бизнес одатда тегишли маблағга эга бўлмаган янгидан ўз фаолиятини ташкил этаётган корхона ҳисобланади. Бошланғич сармоя ёки устав капитали инвестицияларни молиялаштиришнинг асосий манбаи бўла олмайди, чунки у доимо бир меъёрда сақланиб туриши лозим, акс ҳолда етарлича устав капиталига эга бўлмаган корхона тугатилиши табиий ҳолдир.

Юқорида таъкидлаб ўтганимиздек, молиялаштиришнинг биринчи навбатдаги манбалари – бирламчи институционал инвесторлар – инновацион лойиҳаларнинг илк босқичларини молиялаштирувчи венчур фондлари, бизнес-фаришталар ҳисобланади. Шунингдек, университетлар, бизнес инкубаторлар, технопарклар каби молиялаштириш манбалари ҳам катта аҳамиятга эга.

Компаниянинг бизнес модели, тадбиркор ва унинг жамоасининг тажрибаси ва обрў-эътибори, шунингдек молия бозорларидаги вазиятга, молиялаштиришнинг у ёки бу турини жалб қилиш имкониятлари кўп жиҳатдан боғлиқ. Венчур фондлари ёки стратегик инвесторлар каби институционал инвесторларнинг маблағларини осонгина жалб қилиш имкониятига эга бўлган тажрибали тадбиркорлардан фарқли ўлароқ, компанияни ташкил этишнинг дастлабки босқичларидаёқ, янги тадбиркор ўз маблағларини сарф қилишга, ўз яқинлари ва бизнес-фаришталар орасидан инвесторларни излаб топишга, шунингдек, давлат грантлари ва тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш дастурларига умид қилишига тўғри келади.[4]

Янгидан ўз фаолиятини бошлаётган корхоналарнинг технологияси катта компания учун янги маҳсулот яратишга, янги сотиш бозорларининг очилишига ёки харажатларни сезиларли даражада қисқартиришга имкон берганида катта компаниялар янгидан фаолият бошлаётган инновацион компаниялар билан ҳамкорлик қилишга қизиқиш билдирадilar. Стратегик шерикчилик турлича кўринишларда амалга оширилиши мумкин. Бу истиқболли технологияга эга бўлган стартап улушини катта компания томонидан сотиб олиниши ёки катта компания томонидан биргаликда ишланмаларни амалга ошириш учун пул маблағлари ажратилиши (JDA-Joint Development Agreement) кабилар бўлиши мумкин. Joint Development Agreement шароитида компания улушини сотиш амалга ошмайди. Технологияларни ишлаб чиқиш ва илмий-тадқиқот ишларини амалга ошириш учун ҳамкор-компания томонидан ажратилган пул маблағлари технология ёки маҳсулотдан эксклюзив ҳуқуқлар асосида фойдаланиш мақсадида ажратилади.

Ҳар бир инвесторнинг якуний мақсади - бу фойда олишдир. Инновацион компания бизнесни йўлга қўйиш ва илк ўсишни таъминлаш муаммоларини ҳал қила бошлагач, рентабеллик кўрсаткичлари ва бозор қиймати кўрсаткичлари аста-секин ўсиб боради. Бунинг натижасида инвестор компанияга киритилган маблағларни нафақат қайтариб олиш, балки муайян даражадаги фойда олиш имконини берувчи шарт-шароитлар таркиб топади. Компаниянинг барқарор иқтисодий ўсиш фазасида тадбиркорга инвесторсиз ўзи мустақил тарзда қарорлар қабул қилиш имконини берувчи ва инвесторга лойиҳадан фойда билан чиқишни таъмин этувчи, венчурли инвесторларга маълум бир фойда билан сарфланган барча маблағларни қайтариб олишга изн берувчи иқтисодий натижаларга эришиш лозим.

ХУЛОСА

Шундай қилиб, барқарор ўсиш ва кенгайишнинг якуний босқичи бўлиб, бу инвестициялардан чиқиш фазасига тайёргарлик кўриш ҳисоб-ланади. Ушбу босқичда компания фойда ёки зарарни қайд этиш мақсадида инвесторнинг компаниядаги улушини сотишни кўзда тутувчи лойиҳадан чиқишни истиқболли режалаштиришга ўтиши ва узок муддатли корпоратив стратегияни ишлаб чиқиши лозим. Инвесторнинг компаниядан чиқишининг: тўғридан-тўғри сотиш; оммавий оферта (шу жумладан, IPO) орқали сотиш; ҳисобдан чиқариш; имтиёзли акцияларни қарзларни тўлаб бериш; бошқа венчур капитали эгасига сотиш; молия муассасасини сотиш каби усуллари мавжуд.[4]

REFERENCES

1. А. Абдувоҳидов ва бошқ. Инновациялар иқтисодиёти, олий ўқув юртлири талабалари учун ўқув қўлланма. Т., «Мумтоз сўз»-2020.
2. А. Ильяков. Проблемы финансирования инновационной деятельности предприятия. Современные исследования социальных проблем. №1(09), 2012 г.
3. UNIDO (United Industrial Development Organization)
4. <https://www.cfin.ru/investor/venture/e-coach.shtml>
5. Олимова, Н. Х., Абдухалилов, Н. Х. У., & Тургунов, Э. К. У. (2022). Вопросы эффективной организации инновационных мероприятий на строительных предприятиях и повышения их экспортного потенциала. *Ceteris paribus*, (4), 30-33.
6. Олимова, Н. Х. (2021). Анализ развития и факторов конкурентоспособности промышленных предприятий региона. *Cognitio rerum*, (7), 32-35.



7. Олимова, Н. Х., & Суфиев, Р. А. (2021). Перспективные направления перехода отечественных предприятий на международные стандарты финансовой отчетности (МСФО). *Cognitio rerum*, (7), 39-42.
8. Olimova, N. K., & Sotvoldiev, N. N. (2021). Prospects for the transition of domestic enterprises to international financial reporting standards (IFRS). *Ceteris Paribus*, (2), 14-17.
9. Olimova, N. K., & Ergashev, A. K. (2021). Prospects for effective use of marketing strategies to increase investment activity of Fergana region. *Ceteris Paribus*, (2), 11-14.
10. Олимова, Н. Х., Тешабаева, О. Н., & Жўраева, Н. Х. Қ. (2022). Ўзбекистонда инновацион жараёнларни такомиллаштириш орқали корхоналар рақобатдошлигини ошириш масалалари. *Scientific progress*, 3(3), 276-282.
11. Юлчиев, А. О. (2022). Ўзбекистон иқтисодиёти ривожлантиришда бюджет таъминоти молиялаштириш. *Modern scientific research achievements*, 1, 6-11.
12. Tolipov, A., & Teshabaeva, O. (2021). Innovative entrepreneurship is a factor in the development of the economy of modern production in Uzbekistan. *Студенческий*, (2-4), 96-99.
13. Олимова, Н. Х., & Эргашев, А. Х. (2017). Особенности оценки инвестиционной привлекательности реального сектора экономики. *www.issledo.ru* Редакционная коллегия, 120.
14. Олимова, Н. Х. (2021). Оценка и анализ уровня использования основных фондов текстильного предприятия «Aynur Universal Po». *Cognitio rerum*, (2), 25-31.
15. Олимова, Н. Х., & Ахунова, О. Э. (2019). Научно-теоретические аспекты организации торговли текстилем. In *Тенденции развития мировой торговли в XXI веке* (pp. 66-69).
16. Тешабаева, О. Н., & Нишонбоев, Д. Э. Ў. (2021). Корхоналарнинг маркетинг салоҳиятини баҳолаш омиллари. *Scientific progress*, 2(7), 657-661.
17. Юлчиев, А., Эрматов, Р., & Мохинур, Ж. (2022). Мамлакатимизда кичик бизнес ва тадбиркорликни ривожлантириш ва аҳоли бандлигини таъминлаш. *Research and education*, 1(2), 104-111.



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА АГРАР СЕКТОРДА ТАДБИРКОРЛИК РИВОЖЛАНИШИНИНГ ЎЗИГА ҲОС ЖИҲАТЛАРИ

Одина Насридиновна Тешабаева

Фарғона давлат университети ўқитувчиси

odina_0505@mail.ru

Насибохон Хасановна Ташматова

Фарғона давлат университети магистри

АННОТАЦИЯ

Мамлакат ялпи ишлаб чиқаришида хусусий тадбиркорлик улушининг ортиб бораётгани ички бозорни рақобатбардош ва сифатли товарлар билан тўлдириш, замон талабларини инобатга олган ҳолда хизматлар кўрсатиш соҳасини кенгайтириш, экспорт таркибида жаҳон бозорларида харидоргир, юқори қўшимча қийматга эга маҳсулотларни кўпайтириш, аввало ёшлар учун янги иш ўринларини яратиш ва шу асосда аҳоли даромади ҳамда фаровонлигини оширишнинг муҳим омилларидан бири ҳисобланади.

Калит сўзлар: тадбиркорлик, экспорт, аграр сектор, жаҳон бозори, кичик бизнес, меҳнат.

ABSTRACT

Increasing the share of private entrepreneurship in the gross production of the country is one of the important factors in filling the domestic market with competitive and high-quality goods, expanding the sphere of provision of services taking into account the requirements of the time, increasing products of high added value in world markets in the export structure, creating new jobs

Keywords: entrepreneurship, export, agrarian sector, world market, small business, labor.

КИРИШ

Бугунги кунда мамлакатимизда иш билан банд бўлган жами аҳолининг 80% кўпроғи хусусий тадбиркорлик соҳасида меҳнат қилмоқда. Мавжуд барча хўжалик субъектларининг 90 фоизидан ортиғини кичик бизнес корхоналари ташкил этади. Ҳозирги кунда ялпи ички маҳсулотнинг 53,9% яқини, ишлаб чиқарилаётган саноат маҳсулотларининг 27,5%



ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг 97,0% айнан шу соҳа –хусусий тадбиркорлик ҳиссасига тўғри келмоқда.

“Ишбилармонлик муҳитининг яхшиланиши кичик бизнес секторининг мустаҳкам асосда иқтисодий тараққий этиши ва барқарор суръатларда ўсишига замин яратиб берди. 2005–2020 йиллар давомида ЯИМда кичик бизнеснинг улуши 38,2% дан 53,9% га ёки 15,7 пунктга, жумладан кичик корхоналар ва микрофирмаларнинг ЯИМдаги улуши мос равишда 21,5% дан 35,2% га ёки 13,7 пунктга ўсди. Кичик бизнес секторидан банд бўлганлар сони 2008 йилда 8,0 млн. 2017 йилда 9,9 млн. кишини ташкил этгани ҳолда, 2020 йилда ушбу секторда банд бўлганлар сони 10,4 млн кишини ёки Республика иқтисодий фаол аҳолисининг 78,3 фоизини ташкил қилди.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Таққослайдиган бўлсак, умумий бандликда кичик бизнеснинг улуши АҚШда 54%, Буюк Британияда 56%, Германияда 69,5%, Италияда эса 71 %ни ташкил қилади. Кичик бизнес соҳасида бандликнинг ортиши кам таъминлаган аҳоли даражасини қисқартиришда муҳим омил саналади. Янгидан ташкил этилаётган кичик бизнес субъектларининг барқарор ўсиши, қулай бизнес – муҳитнинг барпо этилиши, ягона солиқ тўловлари бўйича солиқ ставкаларининг пасайтирилиши, ишлаб чиқариш инфратузилмаси ва ресурсларга етишиш шартларининг соддалаштирилиши ва шунингдек, йирик компаниялар билан кичик бизнес субъектлари ўртасида кооперацион алоқаларнинг ривожланиши эвазига саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришда кичик бизнеснинг улуши 2005 йилдаги 9,8%дан 2020 йилда 27,5 %гача ўсди”.

1-жадвал

Кичик бизнеснинг 2005-2020 йилларда ривожланишининг асосий кўрсаткичлари[2]

№	Кўрсаткичлар	Ўлчов бирлиги	2005	2010	2017	2020
1.	ЯИМда кичик бизнеснинг улуши	%	38,2	52,5	53,3	53,9
2.	Шу билан бирга кичик корхоналар ва микрофирмалар	%	21,5	32,7	36,3	36,7
3.	Кичик бизнесдан банд бўлганлар сони	Млн киши	6,7	8,6	9,9	10,4
4.	Умумий бандликдаги улуши	%	65,5	74,3	78,3	79,4

Кичик бизнес секторининг жадал суръатлар билан ривожланиши кўп жиҳатдан таркибий ислохотларнинг муваффақиятини белгилаб берди. “Ҳаркатлар стратегиясида хусусий мулк ҳуқуқи ва кафолатларини ишончли ҳимоя қилишни



таъминлаш, хусусий тадбиркорлик ва кичик бизнес ривожига йўлидаги барча тўсиқ ва чекловларни бартараф этиш, унга тўлиқ эркинлик бериш, “Агар халқ бой бўлса, давлат ҳам бой ва кучли бўлади” деган тамойилни амалга ошириш борасидаги тадбирларга алоҳида эътибор қаратилган”[1].

Натижада кичик бизнес субъектлари товарлар бозорида давлат корхоналари эгаллай олмаган катта улушларга эга бўлди. Кичик корхоналар томонидан маҳсулот ишлаб чиқариш улушининг бир мунча юқори 16,1 пунктга ўсиши озиқ – овқат саноатида кузатилди, мазкур тармоқда кичик бизнес субъектлари томонидан ишлаб чиқариш ҳажми 2008 йилга нисбатан 2020 йилда 33%га ўсди. Фермер хўжаликларини ривожлантиришга катта урғу берилиши натижасида қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришида кичик бизнеснинг улуши 2005 – 2020 йиллар оралиғида 85,7% дан 97,0% гача ўсди.

2-жадвал

2005-2020 йилларда иқтисодий тармоқлари маҳсулотига кичик бизнеснинг улушининг ўзгариши[2]

№	Кўрсаткичлар	2005й	2010й	2017й	2020й
1.	Саноат	9,8	18,8	39,6	27,5
2.	Қишлоқ хўжалиги	85,7	97,8	99,0	97,0
3.	Қурилиш	49,4	53,1	65,1	72,4
4.	Чакана савдо	43,7	50,3	88,4	82,4
5.	Пуллик хизматлар	52,5	47,0	50,5	51,5

Уй – жой массивларини бунёд этиш билан бир қаторда кичик бизнес субъектлари томонидан ичимлик суви тармоқлари, қишлоқ врачлик пунктлари, умум таълим муассасалари, ижтимоий инфратузилма, сервис ва хизмат кўрсатиш объектлари қуриб фойдаланишга топширилмоқда. Республика вилоятларида қурилиш ишлари умумий ҳажмининг 90%дан ортиғи кичик бизнес субъектлари томонидан бажарилмоқда, хусусан бу кўрсаткич Андижон вилоятида – 94,3%, Наманган вилоятида – 93,9% ва Самарқанд вилоятида – 92,3% ни ташкил этади. Чакана товар айланмасида кичик бизнес субъектларининг улуши 112,2 % ўсиш суръатида 2020 йилда 47,4%га етди, бу эса 2005 йилга нисбатан 3,7 пунктга кўп. Худудлар кесимида умумий чакана товар айланмасида кичик бизнес корхоналарининг улушини таҳлил қиладиган бўлсак, бу кўрсаткич 2005 йилга нисбатан 2020 йилда Бухоро вилоятида 14,7 пунктга, Сурхондарё вилоятида 8,2 пунктга ва Қорақалпоғистон Республикасида 8,9 пунктга ошганлигини кўришимиз мумкин. Бандликда эса, Андижон ва Самарқанд вилоятлари (84,5%), Наманган (93,9%), Хоразм (82,9%) ташкил қилди.



МУХОКАМА

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasida energiya resurslaridan oqilona foydalanish borasida hozirgi kunda amalga oshirilayotgan ishlarning qay darajada muhim iqtisodiy asosga ega ekanligini ushbu sohaga doir chiqarilgan prezident farmonlari orqali ham bilish mumkin. Jumladan O'zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan 2020-yildagi 19-iyunda imzolangan "Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida"gi O'RQ-628 sonli qarori bunga yaqqol misol bo'la oladi. [1]

Hozirda metalurgiya sanoatida, ishlab chiqarish korxonalarida qo'llaniladigan Prokatlash jarayonidagi termal qattiqashtirishning ko'p qismi elektromexanik tizimda ishlaydi, bu uning foydali ish koeffitsenti past bo'lishiga hamda suv bosimining barqaror bo'lmasligi sababli mexanizmlarning jumlanan suv nasoslari, ventillar, elektr kabellari va yuritmalarning ish muddati kam bo'lishiga, tez buzulib ish to'xtab qolishiga va ta'mirlash harajatlarining oshishiga sabab bo'ladi. Amaldagi termal qattiqashtirishning boshqaruvi rostlovchi kraniklarda qol orqali suvning oqimi o'zgartiriladi bu esa suv nasosi va uning yuritma divigatelini tez ishdan chiqaradi bunga sabab suv nasosining yuritma divigateli o'zgarmas tezlikda turadi bu degani suv chiqarish davleniyasi bir xildir, bu esa kerakli suv bosimini olishda ventillar orqali amalga oshiriladi bu esa nasos va ventil oralig'ida kuchli bosim xosil bo'lishiga va natijada yuritma kuyishiga olib keladi. [2]


Bu tizimni nazorat qilish xam qiyin kechadi va vaqt oladi va ishlab chiqarish samaradorligiga xalaqt beradi. Bu holatda suv nasosi yuritmasining foydali ish koeffitsenti 60÷65 % dan yuqori bo'lmaydi. Bu ko'rsatgichlardan energiya samaradorligi past

ekanligi ma'lum bo'ladi. Prokatlash jarayonidagi termal qattiqashtirishning avtomatik boshqaruv nazoratini qollash orqali quyidagi afzalliklarga erishish mumkin: yuqori foizli foydali ish 94% gacha, qulay boshqaruv, ta'mirlash qulayligi, tezlikni silliq va chizikli o'zgartira olish imkoniyati, kamandalarning tez bajarilishi va jarayon nazorati. [3,4,5]

NATIJALAR


Prokatlash jarayonidagi termal qattiqashtirishning avtomatik boshqaruv nazorati, quyidagi natijalarni beradi. Isitish yoki eritish pechidan chiqqan metalni prokatlash yoli bilan tarkibi o'zgartirilgan issiq metalga malum shakil berib uni zichligini oshirib termik ishlov berishda ya'ni zichligi oshirilgan issiq metalni aniq vaqt oralig'ida, belgilangan suv bosimida avtomatik sovutish, maxsulotning sifatli bo'lishi, belgilangan markalar olish imkoniyatini oshirish va ishlab chiqarish jarayoni uzluksizligi nazorati taminlanadi.

Prokatlash jarayonidagi termal qattiqashtirishni avtomatlashtirishda asosiy ish bajaruvchi qurilma bu suyuqlik bosimini o'lchovchi va signal beruvchi datchiklari, chastota o'zgartgich va kontrollerlar hisoblanadi. Tiristorli o'zgartgich tizimini va elektromexanik tizimdagi ko'rsatgichlarni o'zaro solishtiradigan bo'lsak, unda tiristorli qurilmada energiya samarador ko'rsatgichlar yuqori bo'lishini ko'rish mumkin. Prokatlash jarayonidagi termal qattiqashtirishni amalga oshiruvchi suv nasosining elektr yuritmasiga qarshilik ko'rsatuvchi momentlar mavjud. Bularga: ishchi mexanizm, ishqalanishda hosil bo'lgan qarshilik momenti va nasosdagi kuraklarning suvga bog'liq bo'lgan qarshilik momentlari ham inobatga olinadi. Termal qattiqashtirishda ishlatiladigan suv nasosining elektr yuritmasiga eng katta qarshilik ko'rsatuvchi moment bu bosimni nazorat qilishdagi ventillar hisoblanadi. Sababi shundaki termal qattiqashtirishdagi suyuqlikning bosimi ventillar orqali kamaytirilsa divigatel zo'riqadi va tok kuchi ortib duvigatel qiziy boshlaydi bu esa eskirishga va kuyishga olib keladi, Bundan tashqari suv quvurlari va nasos salniklari shikastlanishi kuzatiladi. Prokatlash jarayonidagi termal qattiqashtirishning avtomatik boshqaruv nazorati o'rnatilsa bunday kongilsizliklar kuzatilmaydi va samaradorlik ortadi. Inson omili kam qatnashadi, xavsizlik oshiriladi, energiya tejashligi va suv sarfi kamayishi kuzatiladi.



1-rasm Chastotnikdagi chastota o'zgarish grafasi

Nasos Elektr yuritmani ishga tushirishini avtomatlashtirish orqali ishga tushirish tokini cheklash va chiziqli ishga tushirish imkonini beradi. Chiziqli ishga tushirish elektromexanik qurilmani ravon ishga tushirib unga berilayotgan kuchni ma'lum bir vaqt ichida yengib o'tish imkoniga ega bo'ladi.



2-rasm. Nasos Elektr yuritmani o'tkinchi jarayonidagi tok kuchini vaqtga bog'liqlik grafigi.

Prokatlangan issiq metalni termal qattiqashtirishning boshqaruvi uch xil usul yo'lida tajribalar o'tkazildi.

1-To'g'ridan to'g'ri termal qattiqashtirish.

2-Qo'shimcha kraniklar, ventillar orqali termal qattiqashtirish.

3- Dachiklar orqali avtomatik boshqaruv nazorati bilan termal qattiqashtirish.

Energetik ko'rsatgichlar (132 KW yuritma o'rnatilgan suv nasos)	Prokatlangan issiq metalni termal qattiqlashtirishning boshqaruvidagi unumdorlik.		
	To'g'ridan to'g'ri termal qattiqlashtirishdagi unumdorlik.	Qo'shimcha qarshulik, kraniklar, ventillar orqali termal qattiqlashtirishdagi unumdorlik.	Dachiklar orqali avtomatik boshqaruv nazorati bilan termal qattiqlashtirishdagi unumdorlik.
1-soatdagi elektr energiya sarfi.	87 KVA	90 KVA	79 KVA
24-soatdagi elektr energiya sarfi.	2088 KVA	2160 KVA	1896 KVA
energiya isrofi. (sutkalik)	15%	11%	3%
Termal qattiqlashtirilayotgan maxsulot isrofi. (sutkalik)	11%	5%	0.8%

MUHOKAMA

Prokatlash jarayonidagi termal qattiqlashtirishning boshqaruvida, Elektr yuritgichlarini ishga tushirish usullari uning qo'llanilayotgan sharoitdan kelib chiqqan holda tanlanadi. To'g'ridan to'g'ri ishga tushirish usuli past quvvatli va bosibli yurima va nasoslar uchun, qo'shimcha qarshiliklar ulash orqali ishga tushirish juda chang va sharoiti yoman bo'lgan joylar uchun qo'llaniladi. Ishga tushurish va boshqarishning avtomatik boshqaruvi ish jarayonida texnologik jarayonning o'zgarishini uzliksiz nazorat qilish va elektr yuritgich quvvatini shu asosda boshqarish katta unumdorlikka va energiya tejamkorligiga erishishga yordam beradi. Nasos elektr yuritgich tezligi va quvvatining nominalda bo'lmasligi ortiqcha energiya yo'qotilishiga olib keladi. avtomatik boshqaruv nazorati orqali elektr yuritgichni optimal parametrlarda ishlatishini ta'minlashimiz mumkin. Bu usul har tomonlama zamonaviy, iqtisodiy va energiya tejamkor usul hisoblanib, optimal parametrlarini saqlash orqali elektr yuritgich va texnologik qurilmalarni uzoq vaqt xizmat qilishiga zamin yaratadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga tadbiiq qilish orqali nafaqat katta samaradorlik va energiya tejamkorligiga balki ishlab



chiqarish jarayonini to'la avtomatlashtirishga erishishimiz mumkin. Prokatlash jarayonidagi termal qattiqashtirishning avtomatik boshqaruv nazorati bilan texnologik jarayonning borishini to'la nazoratga olish, har qanday nonormal o'zgarishlarni sezish va o'z vaqtida sozlash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Texnologik jarayonni avtomatlashtirish orqali ishchilarning mehnatini osonlashtirish, havfli va murakkab sharoitlarda qo'llaniladigan toblashni boshqarishni soddalashtirish va hizmat muddatini oshirish mumkin.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan 2020-yildagi 19-iyunda imzolangan "Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida"gi O'RQ-628 sonli qarori 412-l-sonli Qonuniga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, № 4-5, 118-modda; 2003-yil, № 5, 67-modda;
2. Тогаев Ахрор Саъдулло угли, Эшонкулов Камол Эшниеъ угли, Бакирова Дилбар Тагаевна Ганиев Элбек Улугбек Угли Зависимость рабочих характеристик насоса от частоты вращения
Analytical Journal of Education and Development
<http://www.sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/3302>
3. Shodiyev , O. A., Yuldashev , E. U., Yuldasheva, M. A., Jalolov , I. S. "Konveyer transportini elektr yuritmasini teskari aloqali datchiklari vositasida boshqarish". Academic Research in Educational Sciences, <https://www.ares.uz/uz/maqola-sahifasi/konveyer-transportini-elektr-yuritmasini-teskari-alloqali-datchiklari-vositasida-boshqarish>
4. A. Teshaboyev, S. Zaynobidinov , E. Musayev (2006) "Yarim o'tkazgichlar va yarimo'tkazgichli asboblarni texnologiyasi" Toshkent 5 (323-234)
5. www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/440

ҚОРАБАЙИР ЗОТЛИ НАСЛЛИ АЙҒИРЛАРНИНГ ЭКСТЕРЬЕР ХУСУСИЯТЛАРИ

Ш. Н. Мадрахимов

қ.х.ф.н., Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти катта ўқитувчиси

Ш. Қ. Амиров

қ.х.ф.н, доцент, Тошкент давлат аграр университети Самарқанд филиали

Э. Д. Нурбаев

қ.х.ф.н, доцент, Самарқан давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети Тошкент филиали

Дж. Р. Садиқов

кичик илмий ходим, Қорабайир отчилик мажмуаси директори

Мамарежаб Гулямович Каримов

в.ф.н., доцент, Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети.

С. Х. Бегматов

кичик илмий ходим, Қорабайир отчилик мажмуаси мутахассиси

АННОТАЦИЯ

Мақолада, № АЛ524123061–сонли шартномага асосан “Самарали селекциялаш усулларида фойдаланиб, Қорабайир зотли отларнинг янги наслли гуруҳларини яратиш” лойиҳаси доирасида Қорабайир отчилик мажмуасида урчитилаётган ва улардан танлаб олинган Садаф 20-18, Сангар 20-18, Капитал 20-16, Лимон 19-18 лақабли айғирларнинг экстерьер хусусиятлари ҳақида маълумотлар ёритилган. Отларнинг экстерьер (тана ўлчамлари ва тана тузилиш индекслари) хусусиятлари уларни маҳсулдорлик йўналишлари билан узвий боғлиқликда бўлишини ўрганиш мақсадида экстерьер хусусиятлари аниқланган. Ўрганилган айғирларнинг экстерьерлари яъни тана тузилиши мутаносиб тузилишга эга эканлиги аниқланган. Айғирларни экстерьерлари куз билан чамалаб баҳоланганда тана тузилишида камчилик ва нуқсонлар кузатилмади. Қорабайир отчилик

мажмуасида ўрганилган ва танлаб олинган Садаф 20-18, Сангар 20-18, Капитал 20-16, Лимон 19-18 лақабли айғирлардан авлодлар олиш учун уларни экстерьер хусусиятлари қўйилган талабларга жавоб беради. Ўрганилган барча айғирлар конституция типи бўйича мустаҳкам-зич типга хос эканлиги ҳақида хулоса қилинган.

Калит сўзлар: Қорабайир, лойиҳа, отчилик мажмуаси, айғир, экстерьер.

ABSTRACT

In the article under the contract No. AL524123061, within the framework of the project "Creation of new breed groups of Karabair horses using effective breeding methods" and selected from them in the Karabair horse breeding complex, information is highlighted on the external signs of stallions named Sadaf 20-18, Sangar 20-18, Capital 20-16, Lemon 19-18. External characteristics of horses (values and indicators of body structure) were determined in order to study their relationship with the areas of productivity. It was determined that the exterior of the studied stallions, that is, the body structure, has a proportional structure. When evaluating the stallions by the exterior, no shortcomings and defects in the body structure were found. To obtain offspring from stallions named Sadaf 20-18, Sangar 20-18, Capital 20-16, Lemon 19-18, studied and selected in the Karabair horse breeding complex, they meet the requirements of their external features. It is concluded that all the studied stallions are typical for a dense-dense body type.

Keywords: Karabayir, project, equestrian complex, stallion, exterior.

КИРИШ

От-инсон учун ҳар томонлама фойдали, турли хусусиятларга эга бўлган қишлоқ хўжалиги ҳайвонидир. Дунёда йилқичилик билан шуғулланиш эрамиздан тўрт минг йил олдин Осиё ва Европа давлатларида пайдо бўлиб, кейинчалик кичик Осиё, Африка сўнгра Америка, Австралия мамлакатларида кенг тарқалган. Дунё бўйича жами отларнинг (2019 йил маълумоти бўйича) АҚШда 35,2%; Осиёда 24,3%, Жанубий Америкада 21,7%; Африкада 12,9%; Европада 5,4% ва Австралия ҳамда бошқа давлатларда 0,6% и урчитилмоқда.

Ўзбекистонда 2021 йил 1 январ ҳолати бўйича 254 001 бош отлар мавжуд бўлган. Республикада отларни энг кўп бош сони Тошкент вилоятида 55267 бош; кейинги ўринларда Қашқадарё вилоятида 38213 бош, Жиззах вилоятида 27875 бош ва Самарқанд вилоятида 27242 бошни ташкил қилади.

Инсонлар қадимдан отларнинг сифатини яхшилашга қизиқиб келган ва от зотларини яратган. Бу зотларни

яратишдан мақсад қилиб, одамларнинг эҳтиётини қондириш белгиланган. Шундай талаблар асосида отларнинг салт минилувчи, енгил ва оғир юк тортувчи йўналишлари бўйича зотларга асос солинган, ушбу типлар ичида 200 дан ортиқ зот ва зот гуруҳлари яратилган.

Ҳалқаро ва миллий дустурларни муҳим вазифаларидан бири, чорва ҳайвонларини генетик ресурсларини сақлаб қолиш, улардан самарали фойдаланиш йўллари ишлаб чиқиш ҳисобланади [5].

Отларнинг ўсиш ва ривожланишига кўп омиллар таъсир этади. Ёш отларни ўстиришни тўғри ташкил этиш, йилқичилик тармоғининг муҳим вазифаларидан бири ҳисобланади. Айғирларга мос равишда озиқлантириш ва сақлаш шароити яратиб берилмаса, уларни ўсиш ва ривожланишига салбий таъсир қилади. Натижада ирсий имкониятларини юзага чиқара олмайди [2;4].

Отлардан турли мақсадларда фойдаланилади ва бу жиҳати муҳим ижтимоий-иқтисодий аҳамият касб этади. Яйловларда отларни боқилиши, улардан арзон тан нархдаги озиқ-овқат маҳсулотлари бўлган гўшт ва сут етиштириш имконини беради. Бу жараёнда уларга кам ҳаражатлар сарфланади. Отлардан бир вақтни ўзида ишчи ва транспорт ҳайвони воситаси сифатида, маҳсулотлар (гўшт-сут) олиш имконияти, кўпқари каби миллий ўйинларда фойдаланиш аҳоли ҳамда деҳқон ва бошқа мулк шаклдаги хўжаликларда отларни кўпайтириш учун катта қизиқиш ўйғотмоқда.

От гўштини юқори биологик қиймати шундаки, уни кимёвий таркибида тўйинмаган ёғ кислоталарини миқдори кўп, бу ҳолат инсон организмда эримайдиган стеринлар пайдо бўлишини олдини олади.

Бия сути кимёвий таркиби ва биологик хусусиятлари билан аёл сутини таркибига яқин туради. Бия сутини таркибида юқори миқдордаги қанд ва кам миқдордаги ёғ моддасини бўлиши, парҳезбоп қимиз маҳсулоти тайёрланишига сабаб бўлади, бу маҳсулот яъни ичимлик, шамоллаш ва турли ошқозон-ичак касалликларида даволаш хусусиятини намоён қилади.

Ўзбекистонда туризм соҳасида, инсонларни ҳордиқ чиқариши ва спорт ўйинларида отлардан самарали фойдаланиш мумкин. Отлар билан инсонларни саломатлигини сақлаш ва даволаш фаолияти яъни – иппотерапия муҳим аҳамият касб этади.

Шундай қилиб, инсонлар йилқичиликдан турли мақсадларда фойдаланиши мумкин. Бунда отларнинг биологик ва экстерьер хусусиятларини билиш мақсадга мувофиқ бўлади. Отларнинг экстерьер кўрсаткич ва хусусиятлари улардан фойдаланиладиган мақсадларга тўғридан-тўғри боғлиқдир. Бу спорт ёки миллий

ўйинларда, транспорт ёки ишчи ҳайвон сифатида фойдаланишда қўл келадими шунга мос равишда хулоса қилинади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Экстерьер-(французчадан-exterior, лотинчадан-exterior-ташқи) ҳайвонни ташқи тузилиши маъносини англатади. Бу термин француз олими К.Буржел томонидан 1768 йилда фанга киритилган [1].

Отларнинг келиб чиқиши (генотиби) ва экстерьерлари маълумотлари отларни танлашда “Фундамент яъни асос” ҳисобланади [3].

Экстерьер-деганда, тананинг ташқи шакли тушунилиб, у отларни турли йўналишларга ажратишда асосий фенотипик белги ҳисобланади, табиий танлаш шароитида шаклланган, шунингдек унда инсон меҳнатининг ҳам улуши катта. Кўп тадқиқотлар натижалари шуни кўрсатадики, отларнинг экстерьер хусусиятлари билан иш қуввати ўртасида ижобий боғлиқлик мавжуд [1;3].

Ўзбекистонда ҳозирги кунда 10 га яқин от зотлари урчирилиб, асосий қисмини миллий бойлигимиз бўлган Қорабайир зоти ташкил қилади.

Юқорида таъкидланган фикрлар, экстерьер хусусиятларининг ирсийлигига ҳамда ташқи муҳит омиллари унга таъсирини ўрганишни Қорабайир зотли айғирларда ўргандик.

Қорабайир отчилиқ мажмуасида урчирилаётган насли айғирларни танлаб олиш ва уларнинг экстерьер хусусиятларини ўрганиш.

Қорабайир отчилиқ мажмуасида урчирилаётган Қорабайир зотли Сангар, Садаф, Капитал, Лимон лақабли айғирлар объект сифатида белгиланди.

Айғирларни келиб чиқиши, уларни насли карточкалари асосида ўрганилди, тана ўлчамлари улчов таъғи, вилькенс циркули ва ўлчов лентаси ёрдамида ўлчанди, айғирларнинг тирик вазни электрон тарозида аниқланди.

Тана тузилиш индексларини ҳисоблашда зоотехнияда умуқабул қилинган формулалардан фойдаланилди.

ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ ВА ТАҲЛИЛИ.

Тадқиқотлар Яккабоғ туманидаги “Қорабайир отчилиқ мажмуаси”да Ўзбекистон Республикаси Инновацион Ривожланиш вазирлиги томонидан молиялаштирилган №АЛ524123061 сонли шартномага асосан “Самарали селекциялаш усулларида фойдаланиб, Қорабайир зотли отларнинг янги насли гуруҳларини яратиш” мавзусидаги лойиҳа доирасида белгиланган вазифалар асосида олиб борилди.

Хўжаликда урчитилаётган айғирлар келиб чиқиши бўйича насли карточкалари маълумотларидан фойдаланиб танлаб олинди.



Лақаби Капитал, 2016 йилда туғилган



Лақаби Лимон, 2018 йилда туғилган



Лақаби Садаф 2018 йилда туғилган



Лақаби Сангар, 2018 йилда туғилган

Дастлаб, айғирларни тирик вазни эрталаб озиклантирилмасдан ва суғорилмасдан электрон тарозида аниқланди. Сўнгра экстерьеридан ўлчамлар ўлчов таёғи, вилькенс циркули ва ўлчов лентасидан фойдаланиб, тегишли тана ўлчамлари олинди ва маълумотлар умумлаштирилиб 1-жадвалда келтирилди.

1-жадвал

Айғирларнинг экстерьер кўрсаткичлари, см

Экстерьер кўрсаткичлар	Айғирлар (лақаби ва индивидуал рақами)			
	Садаф 20-18	Сангар 20-18	Капитал 20-16	Лимон 19-18
Отларнинг туси	Жайрон	Жайрон	Тўрик	Бурил
Тирик вазни, кг	475	480	457	472
Қарчиғай баландлиги	163,0	156,5	156,0	156,2
Гавданинг қия узунлиги	166,3	162,8	162,2	162,4
Олд оёқлар узунлиги	93,0	96,0	92,0	92,0
Кўкрак айланаси	175,0	175,2	174,5	175,0
Кўкрак кенглиги	39,6	41,0	38,0	38,5
Кўкрак чуқурлиги	70,0	66,0	73,0	64,0
Кафт айланаси	20,0	19,0	20,0	19,0

1-жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики, Сангар лақабли айғир тирик вазни бўйича, Садаф, Лимон ва Капитал лақабли айғирлардан тегишлича 5,0 кг ёки 1,0%; 8,0 кг ёки 1,7% ва 23,0 кг ёки 4,5% устунлик қилганлиги кузатилди. Қарчиғай баландлиги бўйича устунлик Садаф лақабли айғирда кузатилиб, Сангар, Капитал ва Лимон лақабли айғирлардан тегишлича, 6,5 см ёки 3,9%; 7,0 см ёки 4,3% ва 6,8 см ёки 4,2% га юқори кўрсаткични намоён этганлиги маълум бўлди. Гавдани қия узунлиги кўрсаткичи бўйича ҳам Садаф лақабли айғирда усунлик кузатилиб, тегишлича 3,5; 4,1 ва 3,9 см юқори бўлган.

Кўкрак айланаси ўлчамлари бўйича Сангар лақабли айғирда устунлик кузатилиб, Садаф ва Лимон лақабли айғирлардан 0,2 см, Сангар лақабли айғирдан эса 0,5 см юқори кўрсаткичда бўлди. Сангар лақабли айғирда олд оёқ узунлиги бўйича Капитал ва Лимон лақабли айғирдан 4,0 см ва Садаф лақабли айғирдан эса 3,0 см юқори кўрсаткичда бўлганлиги аниқланди. Сангар лақабли



айғирнинг кўкрак кенглиги энг юқори бўлиб, Садаф, Капитал ва Лимон лақабли айғирлардан тегишлича 1,4; 3,0 ва 2,5 см устунликни намоён қилди. Кўкрак чуқурлиги бўйича эса энг катта кўрсаткич Капитал лақабли айғирда бўлиб, Садаф, Сангар ва Лимон лақабли айғирдан мос равишда 3,0; 7,0 ва 2,0 см устунлигини кўрсатди. Айғирларнинг кафт айланаси кўрсаткичлари ўртасидаги фарқ ўртача 1,0 см ни ташкил қилди.

Тадқиқотларда айғирларнинг экстерьер кўрсаткичларига тўлиқроқ баҳо бериш мақсадида, уларнинг тана тузилиш индекс кўрсаткичларини ҳисобладик. Тана тузилиш индекслари маълумотлари асосида отларнинг гавдасини мутаносиб тузилганлиги ва конституциясига баҳо бериш мумкин.

Отларда қўйидаги: қўпол зич (қуруқ), қўпол бўш, мустаҳкам ва мустаҳкам-зич, нозик-қуруқ ва нозик-бўш конституция типлари учрайди. Айғирларни ушбу типлардан қайси бирига хослигини билиш учун тана тузилиш индексларини аниқладик (2-жадвал).

2-жадвал.

Айғирларнинг тана тузилиш индекслари, %

Тана тузилиш индекслари	Айғирлар			
	Садаф 20-18	Сангар 20-18	Капитал 20-16	Лимон 19-18
Чўзинчоқлик	102,2	104,0	103,9	104,0
Массивлилик	107,4	111,9	111,8	112,0
Зичлик	105,2	107,6	107,6	107,7
Кўкрақдорлик	42,9	42,2	46,8	40,9
Узуноёқлилик	57,1	61,3	58,9	58,9
Суякдорлик	12,3	12,1	12,8	12,2

2-жадвал таҳлили шуни кўрсатадики, насли айғирларнинг тана тузилиш индексларида фарқлар борлиги аниқланди. Хусусан чўзинчоқлик индекси Садаф 20-18 айғирда, 102,2 фоизни ташкил қилган бўлса, Сангар 20-18, Капитал 20-16 ва Лимон 19-18 айғирлардан тегишлича 1,8 %; 1,7 % ва 1,8 % га пастроқ кўрсаткичда бўлганлиги кузатилди.

Шунингдек, массивлилик индекси бўйича Лимон 19-18 лақабли айғир да 112,0 % бўлиб, Садаф 20-18; Сангар 20-18 ва Капитал 20-16 лақабли айғирларга нисбатан 4,6 %; 0,1 % ва 0,2 % га устунликда бўлди.

Тадқиқотлардаги барча айғирлар мустаҳкам-зич конституция типига хос эканлиги аниқланди.

ХУЛОСА

Шундай қилиб, отларнинг экстерьер (тана ўлчамлари ва тана тузилиш индекслари) хусусиятлари уларни маҳсулдорлик йўналишлари билан узвий боғлиқликда бўлади. Ўрганилган айғирларнинг экстерьерлари яъни тана тузилиши мутаносиб эканлиги аниқланди. Экстерьер куз билан чамалаб баҳоланганда ҳеч қандай камчилик ва нуқсон кузатилмади. Қорабайир отчилиқ мажмуасида ўрганилган ва танлаб олинган Садаф 20-18, Сангар 20-18, Капитал 20-16, Лимон 19-18 лақабли айғирлардан авлодлар олиш учун уларни экстерьер хусусиятлари қўйилган талабларга жавоб беради. Ўрганилган барча айғирлар конституция типи бўйича мустақкам-зич типга ҳос эканлиги маълум бўлди.

REFERENCES

1. Калашников В.В. и др. «Экстерьер лошади» Екатеринбург, 2004. с. 6.
2. Монгуш С.Д., Костомахин Н.М. Нагульные особенности и качества мяса лошадей Тувинской породы //Кормление сельскохозяйственных животных и кормопроизводство. 2016. № 8. с. 47-52-55.
3. Родионов Г.В., Юлдашбаев Ю.А., Монгуш С.Д. Животноводство. СПб. Лань. 2014. с. 640.
4. Суханова С.Ф. Экстерьерные показатели жеребят Орловской рысистой породы при скормливании им пророщенного зерна злаков. //Актуальные вопросы кормления, разведения и технологии животноводства в современных условиях: Сб. научных трудов. Курган: Изд. Курганского ГСХА.1999. с. 108-119.
5. Madrakhimov Sh.N., Nurboev E.D., Amirov Sh.K., Sadikov J.R. Improvements of the Horses of the Karabaayir Breed/ //CENTRAL ASIAN JURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY. VOLUME:03 ISSUE 12/DEC 2022 (ISSN: 2660-6836), p. 38-45.

ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШДАГИ МАВЖУД МУАММОЛАР ВА ЕЧИМЛАР

Элдоржон Элмуродов

Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви
академияси мустақил изланувчиси

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада таълим сиёсатининг муҳимлиги, хусусан олий таълим тизимини халқаро стандартлар асосида ислоҳ қилишга доир илмий-назарий ҳамда амалий масалалар таҳлил қилинган. Хусусан, инсон капиталини ривожлантиришда таълимнинг ўрни, ривожланган мамлакатлар олий таълим тизимидаги меъёрларни мамлакатимиз учун татбиқ этиш, жаҳон стандартларига интеграциялашуви каби жараёнлар қиёсий метод асосида тадқиқ этилган. Шунингдек, мазкур илмий мақолада олий таълим тизимида халқаро стандартларни қўллаш масалаларида ўз ечимини кутаётган бир қатор долзарб муаммо ва камчиликлар, уларнинг ечимига доир хулоса ва таклифлар келтирилган.

Калит сўзлар: таълим сиёсати, олий таълим тизими, таълим ташкилотлари, халқаро стандартлар, молиявий ва академик мустақиллик, илмий салоҳият, сифатли таълим ва рақамлаштириш.

КИРИШ

XXI асрнинг дунёда “яшаб қолиш” учун кураш ниҳоятда мураккаб воқеликлар билан кечаётган бир пайтда нажот фақат таълимда эканлиги яна бир бор ўз исботини топмоқда. Тараққиёт сари интилган ҳар қандай давлат аввало инсон капиталига сармоя сафарбар этиши таълим масаласининг қанчалик долзарб эканлигини кўрсатади. Глобал тенденциялардан ортда қолмаслик нуқтаи-назаридан инсон тараққиётига урғу бериш ҳар қандай мамлакат истиқболининг асосидир. Инсон капитали эса таълим сифатига, унинг халқаро андозалар негизида ривожланиши билан чамбарчас боғлиқдир. Янги аср арафасида Осиё ва Африка давлатлари ривожланиш бўйича деярли бир хил даражада эди. Ҳозир эса, Конго ёки Эфиопияни Жанубий Корея ва Сингапур билан қиёслаб бўлмайди. Жанубий Корея ва Сингапур инсон капиталига ўз вақтида эътибор қаратгани туфайли иқтисодий жиҳатдан юксалди. Буни Гана тарихи ҳам тасдиқлайди: 1990



йилларда ва 2000 йиллар бошида мамлакат таълимга кетадиган харажатлар миқдорини икки баробар кўпайтириш орқали асосий кўрсаткичларни кескин оширишга муваффақ бўлди. Натижада 1999 йилдан 2012 йилгача мамлакатда саводхонлик даражаси 64 фоизга етди, қашшоқлик даражаси эса 61 фоиздан 13 фоизга тушди. Халқаро андозаларга мос таълим сиёсати юритган ва уни самарали тасарруф этган кўпгина мамлакатларда инновацион тараққиёт кузатилди. Замонавий халқаро таълимнинг қўлланилиши ўз-ўзидан ижтимоий-иқтисодий муаммоларнинг ечимига хизмат қилди.

Кейинги йилларда мамлакатимизда ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг устувор йўналишларига ҳамда халқаро стандартлар талабларига мос келадиган олий таълим тизимини яратиш бўйича кенг қўламли ишлар амалга оширилмоқда. Масалан, 2017 йилда Инновацион ривожланиш вазирлиги, 2017-2020 йилларда жами 18 та илмий ташкилот, 10 та илмий марказ, 4 та технопарк, 1 та жамғарма ва 1 та миллий венчур фонди ташкил этилди. Бундай мисоллар кўплаб топилади. Умуман олганда, давлатимиз ҳукумати томонидан аҳоли билим савиясини ошириш, сифатли таълим тизимини янада ривожлантириш, унга халқаро стандартларни жорий этиш борасида ислохотлар амалга ошириб келинмоқда.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Ўтган давр ичида Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясининг тўртинчи устувор йўналиши, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ҳамда “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарорлари доирасида таълим соҳасида амалга оширилиши зарур бўлган масалалар, хусусан олий таълим тизимини ислох қилиш, замонавий хорижий тажрибаларни қўллаш орқали унинг самарадорлигини оширишга қаратилган бир қанча амалий ислохотлар амалга оширилди. Илм-фан тизимида давлат сиёсати ривожлантириб келинмоқда. Жумладан, Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси, Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси, “Илм-фан ва илмий-фаолият тўғрисида”ги ва “Инновацион фаолият тўғрисида”ги, “Таълим тўғрисида”ги қонунлар қабул қилинди. Мазкур қонун ва қарорлар орқали олий таълим тизимини ислох қилиш, уни замон талаблари асосида хорижий стандартлар асосида янада


ривожлантириш борасида амалий сай-ҳаракатлар олиб борилмоқда. Айнан замон талабларига мослаштириш мақсадида ЮНЕСКО томонидан жорий этилган “Таълимнинг халқаро стандарт классификацияси” ҳамда “ТХСК: Таълим ва касбий тайёрлаш соҳалари” асосида “Олий таълимнинг Давлат таълим стандарти. Асосий қоидалар” ва “Олий таълимнинг Давлат таълим стандарти. Олий таълим йўналишлари ва мутахассисликлари классификатори” каби ҳужжатлар орқали бизнинг олий таълим тизимимизнинг интеграциялашуви амалга ошмоқда.

Ўзбекистон олий таълим тизимида халқаро стандартларни жорий қилиш асосида таълим тизимини такомиллаштиришдаги мавжуд муаммоларга аниқлик киритилди. Мазкур масалалар бўйича илмий изланишлар олиб борилди. Бугунги олий таълим тизимида жаҳоннинг илғор стандартларини тадбиқ этишга оид сифат ва миқдорий таҳлиллар, қиёслаш ва эмпирик методлар – кузатиш ва тизимли ёндашув каби усуллардан самарали фойдаланилди.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР

Бугунги кунда республикада 159 та олий таълим муассасаси мавжуд бўлиб, шундан университет – 30 та, институт – 45 та, академия – 3та, консерватория – 1 та, филиал – 28 та, нодавлат ОТМлар – 24 та ҳамда 28 таси хорижий олий таълим муассасаси ва уларнинг филиаллари ҳисобланади (Диаграмма №1). Мамлакатда хорижий ОТМлар филиаллари йилдан йилга кўпаймоқда. Сўнгги 3 йилда хорижий олий таълим муассасалари сони 10 тадан 20 тага ошди. Хусусан, 2021/2022-ўқув йилидан Тошкентда Санкт-Петербург давлат университети филиали, Бутунроссия кинематография институти филиали, Венгриянинг Дебрецен университети филиали, 2022/2023-ўқув йилидан эса Россия тиббиёт университетининг Тошкент филиали таълим фаолиятини бошлайди. Шунингдек, геология йўналишида мутахассислар тайёрлайдиган Италиянинг Пиза университети филиали очилиши кутилмоқда.


Диаграмма №1



Мамлакатимизда олий таълимни тизимли ислоҳ қилишнинг устувор йўналишларини белгилаш, замонавий билим ва юксак маънавий-ахлоқий фазилатларга эга, мустақил фикрлайдиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш жараёнини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, олий таълимни модернизация қилиш, илғор таълим технологияларига асосланган ҳолда ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқларини ривожлантириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси қабул қилинди. Мазкур концепция Ўзбекистон олий таълим тизимида халқаро стандартларни қўллашда туб сифат ўзгаришларини амалга оширишга тurtки бўлди. Республикадаги камида 10 та олий таълим муассасасини халқаро эътироф этилган ташкилотлар (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education ёки Academic Ranking of World Universities) рейтингининг биринчи 1000 та ўриндаги олий таълим муассасалари рўйхатига киритиш; халқаро тажрибалардан келиб чиқиб, олий таълимнинг илғор стандартларини жорий этиш; ўқув жараёнини босқичма-босқич кредит-модуль тизимига ўтказиш; олий таълим муассасаларининг академик мустақиллигини таъминлаш; олий таълимнинг инвестициявий жозибadorлигини ошириш, хорижий таълим ва илм-фан технологияларини жалб этиш каби муҳим вазифалар белгилаб олинди.

Мазкур вазифалардан келиб чиқиб, 2018 йилдан Ўзбекистон ва хорижий олий таълим муассасаларининг ўзаро келишуви ҳамда қўшма таълим дастурлари асосида талабаларни ўқитишни ташкил этиш ва икки томонлама тан олинадиган диплом бериш амалиёти жорий этилди. Натижада, 2021-2022 ўқув йилига келиб, республика олий таълим муассасаларида 394 та қўшма таълим дастурлари жорий этилди (Диаграмма №2):

Диаграмма №2



Мамлакатимизнинг ҳар бир олий таълим муассасаси билан АҚШ, Буюк Британия, Франция, Италия, Нидерландия, Россия, Япония, Жанубий Корея, Хитой ва шу каби бошқа давлатларнинг етакчи илмий-таълим муассасалари билан ҳамкорлик алоқаларининг ўрнатилгани ўта муҳим аҳамият касб этади. Шу асосда ҳар йили 350 нафардан ортиқ хорижлик юқори малакали педагог ва олимларнинг мамлакатимиз олий ўқув юртларига ўқув жараёнига жалб этилмоқда. Илғор халқаро имтиҳон тизимлари (TOEFL, IELTS, CEFR, SAT General, SAT Subject ва ҳоказо) сертификатларига эга бўлган абитуриентларга тегишли фанлардан белгиланган энг юқори балл бериш ва ушбу фанлар тест синовидан озод қилиш тартиби жорий этилди.

Молиявий ва академик мустақиллик бериш тараққий этган давлатларда жорий этилган асосий демократик тамойиллардан бири ҳисобланади. Жумладан, олий таълим муассасаларига академик мустақиллик берилиши муҳим қадамлардан бўлиб, 2021/2022 ўқув йилидан бошлаб барча ўқув режа ва ўқув дастурлар ҳар бир олий таълим муассасаси томонидан мустақил равишда ишлаб чиқилиши ва тасдиқланиши жорий этилди. Шунингдек, республикадаги 10 та олий таълим муассасалари ўзини ўзи молиялаштириш тизимига ўтказилди. Бундай

амалиёт 2017 йилга қадар бўлмаган эди. Натижада ОТМларнинг академик мустақиллиги таъминланмоқда. Ҳар бир ОТМ мустақил бозорнинг мавжуд тамойилларини ҳисобга олган ҳолда рақобатга киришади. Сифатли кадрлар тайёрлашга хизмат қилади. Бу эса коррупция ва непотизм каби салбий иллатларни олдини олишда муҳим қадам бўлади. Шу сабабли ҳам сўнгги йилларда педагогларнинг ойлик маошлари 2018 йилга нисбатан 2,5 баробарга оширилди. Олий таълим муассасалари ҳузурида аниқ, табиий фанларга ихтисослаштирилган 6 та мактаблар ташкил этилиб, иқтидорли ёшларни саралаш тизими яратилди.

2017 йилга қадар олий таълим тизимига тўғридан-тўғри инвестициялар жалб этилмаган бўлса, 2017-2020 йилларда жами 4,3 млрд. доллар жалб этилди. Олий таълим муассасалари сони икки баробарга ошди. Хусусан, олий таълим муассасалари сони 2000 йилда 61 тани ташкил этган бўлса, 2020 йилга келиб 141 тага етди. Яъни охириги тўрт йил мобайнида 49 та янги ОТМлари ташкил этилди. Маълумки, хусусий ОТМлар 2016 йилга қадар мавжуд бўлмаган эди. 2017 йилдан то шу кунга қадар жами 10 дан ортиқ хусусий ОТМлар очилди. Хорижий ОТМлар (филиаллари) сони 4 баробарга оширилиб, бугунги кунда уларнинг сони 28 тани ташкил этмоқда.

Юқорида таъкидлаб ўтилган олий таълим тизимида халқаро стандартларни қўллаш масалаларида ўз ечимини кутаётган бир қатор долзарб **муаммо ва камчиликлар** сақланиб қолмоқда.

А) Олий таълим билан қамров даражасининг аҳоли сонига нисбатан етарли даражада эмаслиги: 2016 йилда битирувчиларни олий таълимга қамрови 9 фоизни ташкил этган бўлса, ҳозирда қамров даражаси уч баробарга оширилди. 2021 йилга келиб 28 фоизга етказилди. 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясининг 46-мақсадида белгиланганидек, келгуси беш йил ичида уни 50 фоизга етказиш муҳим вазифалардан бири қилиб белгиланди. Шунингдек, олий таълимнинг бакалаврият, магистратура ва сиртки шакллари учун квоталар оширилиб, кечки таълим шакли жорий этилди. Давлат грантлари сони 47 мингтага кўпайтирилиб, эҳтиёжманд оилаларга 2 мингта алоҳида грантлар ажратилди.

Б) Таълим сифатини таъминлаш соҳасида: 2026 йилга қадар 10 та салоҳиятли республика олий таълим муассасасини QS ва THE халқаро рейтингларига киришга мақсадли тайёрлашни олдимизга мақсад қилиб қўйган эканмиз, таълимнинг сифатига алоҳида эътибор бериш керак бўлади. Хусусан, давлат таълим стандартлари, дастурлари, низом ва талабларини халқаро стандартларга мос ҳолда замон

талаблари асосида шакллантириш орқали уларда Янги Ўзбекистон тараққиётини ўзида мужассам этишига эришмоғимиз даркор. Бу борада ижобий ўзгаришлар сезилмоқда. Хусусан, республика олий таълим тизимининг жаҳон таълим маконига интеграциясини жадаллаштириш ва замон талабларига мослаштириш мақсадида ЮНЕСКО томонидан жорий этилган “Таълимнинг халқаро стандарт классификацияси” ҳамда “ТХСК: Таълим ва касбий тайёрлаш соҳалари” асосида 2021/2022 ўқув йилидан бошлаб олий таълим стандартлари қайта ишлаб чиқилди ва тасдиқланди. Булар “Олий таълимнинг Давлат таълим стандарти. Асосий қоидалар” ва “Олий таълимнинг Давлат таълим стандарти. Олий таълим йўналишлари ва мутахассисликлари классификатори” деб номланган ҳужжатлардир. Сўнгги 3 йилда олий таълим муассасаларининг 1611 нафар профессор-ўқитувчиси хорижий олий таълим муассасаларида стажировка ўташи ва малака ошириши таъминланди. Халқаро ҳамкорлик доирасида хорижий олий таълим ва илмий муассасалар магистратура мутахассислигига 112 нафар, докторантурасига 51 нафар ёшлар таълим олишга қабул қилинди. «Эл-юрт умиди» жамғармаси орқали 46 нафар профессор-ўқитувчининг Канада, Буюк Британия ва Италия давлатларида стажировка ўташи таъминланди. 2017 - 2019 йилларда таълим жараёнига 1154 нафар хорижлик юқори малакали педагог ходим ва олим жалб этилди (АҚШдан 94 нафар, Европа мамлакатларидан 445 нафар, Осиё мамлакатларидан 299 нафар, МДХ мамлакатларидан 316 нафар).

В) Илмий салоҳият даражасининг пастлиги: Бугунги кунда олий таълим муассасалари аксариятининг илмий салоҳияти 50 фоизга ҳам етмайди. Бу жиддий муаммо. Ҳозирги кунда республика ОТМларидаги илмий даражалар берувчи илмий кенгашлар сони 84 тани ташкил қилмоқда (2017 йилда 48 та эди). Сўнгги 3 йилда 1693 нафар профессор-ўқитувчи докторлик диссертациясини ҳимоя қилиши натижасида олий таълим муассасаларида илмий даражага эга педагог ходимлар сони 9 636 нафарга етди (шундан 2130 нафари фан доктори (DSc), 7506 нафари фан номзоди (PhD) ҳамда республика олий таълим муассасаларининг илмий салоҳияти 5,1 фоизга ошишига эришилди. Илмий салоҳиятни ошириш мақсадида бир нечта энгилликлар амалга ошириб келинмоқда. Хусусан, олий таълимдан кейинги таълимнинг бир поғонали тизими жорий қилинган хорижий давлатларнинг рўйхати ҳар йили халқаро рейтингларда биринчи 300 та ўрндан бирини эгаллаган олий таълим ташкилотларида олинган фалсафа доктори (PhD) ёки фан доктори (DSc) илмий даражаси тўғрисидаги ҳужжатлари Ўзбекистон Республикасида фан доктори (DSc) сифатида

тўғридан-тўғри тан олиними ва нострификация қилиниши, шунингдек халқаро рейтингларда биринчи 300 та ўриндан бирини эгаллаган олий таълим ташкилотларида олинган профессор, доцент, катта илмий ходим ва уларга тенглаштирилган бошқа илмий унвонлар тўғрисидаги ҳужжатлар олий таълим муассасалари ва илмий ташкилотлар кенгашларининг тавсиясига асосан Ўзбекистон Республикасида кўшимча экспертиза ўтказмасдан ва бошқа синонларсиз тўғридан-тўғри тан олиш тартиблари жорий этилди.

Г) Олий таълимни рақамлаштириш борасида: 2020 йилда рўй берган пандемия бизнинг олий таълим тизимимизда рақамли технологияларни жорий этиш борасида олдинда бажаришимиз лозим бўлган кўплаб вазифалар борлигини кўрсатди. Аксарият аҳоли вакиллари ва кенг жамоатчилик масофа орқали онлайн тарзда олиб борилган дарс машғулотларининг сифати қониқарли эмаслиги, ўқув ва бошқарув таълим жараёни тўлиқ автоматлаштирилмаганлигидан турли эътирозларни билдира бошлади. Ваҳоланки, хорижий давлатларнинг юртимиздаги филиаллари бўлган Сингапур менежментни ривожлантириш институти, Турин политехника университети, Вебстер университети, Инха университети ва шу каби бошқа хорижий давлатларнинг филиалларида бу каби муаммоли масалалар ўқув таълим жараёнига татбиқ этиб келинмоқда. Шу сабабли юртимиздаги олий таълим тизимида авваллари мавжуд бўлмаган рақамлаштириш ишлари кенг миқёсда амалга оширилмоқда. Хусусан, рақамли университет лойиҳаси доирасида “Маъмурий бошқарув”, “Ўқув жараёни”, “Илмий фаолият” ва “Молиявий бошқарув” модулларидан иборат “Олий таълим тизимларини бошқариш ахборот тизими” жорий қилиниб, олий маълумот олганлик тўғрисидаги диплом маълумотларининг ягона электрон базаси яратилди. Давлат олий таълим муассасаларининг 50 фоизи ўқув жараёнлари кредит-модул тизимига ўтказилди. Узлуксиз касбий таълим электрон платформаси яратилди ва у орқали педагог ва раҳбар ходимлар хоҳлаган вақтда ва хоҳлаган жойда турли мобил қурилмалар орқали узлуксиз малакаларини ошириб бориш имконияти яратилди. Олдинлари ўқитувчилар ҳар 5 йилда ва раҳбар ходимлар ҳар 3 йилда малакасини ошириб келар эди.

Д) Рейтинги юқори дунё давлатлари таълими босқичига эришиш борасида: Давлат раҳбари Ш.Мирзиёев ўзининг маърузаларида сифатли таълим тизимини хорижий стандартлар асосида юртимизда йўлга қўйиш учун доимо изланишда ва ҳаракатда бўлишимиз кераклиги ҳақида сўз боради. Дарҳақиқат, биз дунёга очилмасак, замон талабларини ўзлаштирмасак рақобатбардош кадрларни

етказиб бера олмаймиз. Шу мақсадда бугунги кунда республика ОТМларида қўшма ўқув дастурлари доирасида ҳам амалий ишлар амалга ошириб келинмоқда. Хусусан, Ўзбекистондаги олий таълим муассасаларида МДХ ва Европанинг қатор нуфузли олий ўқув юртлари билан ҳамкорликдаги double degree таълим дастурлари асосида ўқитиш қамрови кенгаймоқда. АҚШ, Германия, Франция Италия, Финляндия, Нидерландия, Туркия, Индонезия, Исроил ва бошқа 22 та давлатнинг 104 та етакчи университетлари билан ҳамкорликда қўшма таълим дастурлари асосида бакалавриятнинг 83 та таълим йўналиши ва магистратуранинг 64 та мутахассислиги бўйича кадрлар тайёрлаш йўлга қўйилган. Уларда ахборот-коммуникация технологиялари, халқаро ҳуқуқий муносабатлар, бизнесни бошқариш, дастурлаш ва бошқа замонавий йўналишлар бўйича кадрлар тайёрланмоқда. Хорижий олий таълим муассасаларидан Сингапур менежментни ривожлантириш институти, Астрахан давлат техника университетининг Тошкент вилоятидаги филиалида ҳамда ТЕАМ университети, Фарғона шаҳрида Корея халқаро университети каби нодавлат олий таълим муассасалари фаолияти йўлга қўйилган.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Юқоридаги таҳлиллар ва билдирилган фикрлардан келиб чиққан ҳолда, биз Ўзбекистон олий таълим тизимида халқаро стандартларни қўллаш борасида қуйидаги ишларни амалга оширишни мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз:

1. Республикада таълим қамровини кенгайтириш жараёнида таълим сифатини ошириш борасидаги талаб ва мезонларни такомиллаштириб бориш лозим.

2. Таълим жараёни билан ишлаб чиқариш ўртасидаги ўзаро боғлиқликни тизимли ва халқаро касблар классификацияси стандартига мос тарзда шакллантириш. Олий таълим билан ишлаб чиқариш ўртасидаги интеграцияни сифатли таълим бериш орқали мавжуд меҳнат бозоридаги талаб ва таклифлар асосида амалга оширишни тўлиқ йўлга қўйиш лозим.

3. Мамлакат олий таълим тизимини 2021/2022 ўқув йилидан бошлаб рейтинг тизимидан кредит-модуль тизимига ўтказиш бошланди. Мазкур халқаро стандартларни олий таълимга “тажриба-синов босқичидан” тўлиқ жорий этилишига эришиш лозим. Буни таълимнинг халқаро стандарт классификацияси асосида амалиётга татбиқ этилишига алоҳида эътибор бериш лозим бўлади.

4. Олий таълим тизимини бошқариш жараёнида иштирокчилар, яъни таълим сиёсатини амалга оширадиган



сиёсий институтларнинг вазифалариларни аниқ белгилаш лозим. Ушбу иштирокчилар ўртасидаги мутаносиблик таълим соҳасидаги давлат сиёсатини самарали амалга оширилишини таъминлайди.

5. Олий таълим тизимини нафақат бошқарув жараёнига, балки унинг ўқув, илмий ва услубий каби жараёнларига ҳам очиқлик ва шаффофликни таъминлайдиган рақамлаштиришни янада жадаллаштириш лозим. Бунда талабаларни баҳолаш ва кредит тўплашини қайд этувчи автоматлаштирилган интернет платформалари, талабалар томонидан масофадан туриб фанлар ва ўқитувчиларни танлаш тизими, кредитларни тўплаш тизими ва шу каби хорижий стандартларга мос механизмларини жорий этиш олдимизда турган муҳим вазифаларимиздан биридир.

REFERENCES

1. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947-сон Фармони // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлар тўплами, 2017 йил, 6-сон, 70-модда, 20-сон, 354- модда, 23-сон, 448-модда.
2. 2022 - 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.10.2022 йилдаги ПФ-60-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон.
3. Илм-фан ва илмий-фаолият тўғрисидаги Ўзбекистон Республикасининг 29.10.2019 йилдаги ЎРҚ-576-сон қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.10.2021 й., 03/21/721/0952-сон.
4. Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясини тасдиқлаш тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрдаги ПФ-6097-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 09.11.2021 й., 06/21/3/1037-сон.
5. Инновацион фаолият тўғрисидаги Ўзбекистон Республикасининг 24.07.2020 йилдаги ЎРҚ-630-сон қонуни // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.07.2020 й., 03/20/630/1101-сон.
6. Олий таълим муассасалари // www.edu.uz/uz/otm/index
7. Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси



Президентининг 05.06.2018 йилдаги ПҚ-3775-сон Қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.03.2021 й., 07/21/5040/0243-сон.

8. Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-2909-сон қарори. 2017 йил 20 апрель // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 28.09.2020 й., 06/20/6075/1330-сон.

9. Салоҳўжаев Р. Инсон капитали тараққиёти замонавий иқтисодийотни ривожлантиришнинг ягона йўли // www.review.uz/oz/post/rauf-saloxojaev-inson-kapitali-taraqqiyyoti-zamonaviy-iqtisodiyotni-rivojlantirishning-yagona-yoli

10. Таълим тўғрисидаги Ўзбекистон Республикасининг 23.09.2020 йилдаги ЎРҚ-637-сон қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.10.2021 й., 03/21/721/0952-сон.

11. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясини тасдиқлаш тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 08.10.2019 йилдаги ПФ-5847-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон.

12. Хўжаев А. Халқаро стандартларни жорий этиш - жаҳон таълим маконига интеграция шarti // www.yuz.uz/news/xalqaro-standartlarni-joriy-etish--jahon-talim-makoniga-integratsiya-sharti

13. Шерқулов Р. Инсон капиталини ривожлантиришдаги узилишлар // www.xs.uz/uzkr/post/inson-kapitalini-rivozhlantirishdagi-uzilishlar

14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлис депутатлари ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 2022 йил 20 декабрь. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>

15. E.Elmuurodov. Transformation of higher education policy in Uzbekistan through the prism of internationalization: reality and challenges. International Scientific and Practical conference on “Raising a new generation in era of global transformation: challenges and prospects” April 1, 2022. Pucheon University. Baktria press. 2022, pp139-142

16. E.Elmuurodov, O.Adilov. Quality Assurance Issues in International Collaboration Programs in Uzbekistan in Higher Education: Dilemmas and Challenges in State Policy“Таълимдаги халқаро тадқиқотларнинг Янги Ўзбекистон тараққиётидаги ўрни” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция илмий ишлар тўплами. Тошкент: Таълим сифатини баҳолаш бўйича халқаро тадқиқотларни амалга ошириш миллий маркази, 2022. pp-252-256

КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИНИНГ АҲОЛИ ТУРМУШ ФАРОВОНЛИГИНИ ЯХШИЛАШ, МАМЛАКАТ ВА ҲУДУДЛАР ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИНИ ОШИРИШДАГИ ЎРНИ

Зилола Салимжон қизи Салимжонова
Фарғона давлат университети ўқитувчи
salimzilola142@gmail.com

Эркинжон Қобилжон ўғли Турғунов
Фарғона давлат университети магистр

АННОТАЦИЯ

Ўзбекистонда амалга оширилаётган иқтисодий янгиланиш ва ўзгаришлар шароитида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг экспорт фаолиятини кенгайтириш борасидаги мавжуд муаммоларни таҳлил қилиш. Тадбиркорлик функцияларини аниқлашнинг асосий мезони бўлиб унинг фаолияти натижаси ҳисобланиши керак. Ушбу мезонга асосланиб биз тадбиркорликнинг асосий функцияси бу – жамиятнинг доимо ўсиб, шаклланиб борувчи товарлар ва хизматларга бўлган эҳтиёжларини қондиришдан иборат. Тадбиркорликнинг ушбу асосий функцияси унинг бошқа функциялари, яъни товарлар ва хизматларни ишлаб чиқариш янги иш ўринлари яратиш, бюджетнинг даромад қисмини кўпайтириш ва бошқалар билан боғлиқ.

Калит сўзлар: кичик бизнес, хусусий тадбиркорлик, ташқи иқтисодий фаолият, экспорт, импорт, экспортни қўллаб-қувватлаш, солиқ ва божхона имтиёзлари, ҳаёт даражаси ва сифати.

ABSTRACT

Analysis of existing problems in expanding export activities of small business and private business entities in the conditions of economic renewal and changes taking place in Uzbekistan. The main criterion for determining the functions of entrepreneurship should be the result of its activity. Based on this criterion, we believe that the main function of entrepreneurship is to satisfy society's ever-growing needs for goods and services. This main function of entrepreneurship is related to its other functions, i.e. production of goods and services, creation of new jobs, increase of the income part of the budget, etc.

Keywords: small business, private entrepreneurship, foreign economic activity, export, import, export support, tax and customs benefits, standard and quality of life.

КИРИШ

Мамлакатимизда мустақиллик йилларида амалга оширилган кенг кўламли ислохотлар миллий давлатчилик ва суверенитетни мустаҳкамлаш, хавфсизлик, ҳуқуқ-тартибот, давлатимиз чегаралари дахлсизлиги, жамиятда қонун устуворлиги, инсон ҳуқуқ ва эркинликлари, миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенглик муҳитини таъминлаш учун муҳим пойдевор яратди. Халқимизнинг муносиб ҳаёт кечирishi, фуқароларимизнинг бунёдкорлик салоҳиятини рўёбга чиқариш учун асос бўлмоқда

Глобаллашув шароитида рақобат тобора кучайиб бораётгани давлатимизнинг янада барқарор ва жадал суръатлар билан ривожланиши учун мутлақо янгича ёндашув ҳамда тамойилларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш зарур. Қайси соҳада бўлмасин, юртимизда амалга оширилаётган ислохотларнинг провард натижаси халқ фаровонлигини таъминлашга хизмат қилади. Она диёримизда яшаётган ҳар бир инсон ҳаётдан мамнун бўлса, орзу - ҳавасларини рўёбга чиқара олса, хонадони тинч, оиласи тотув бўлиб, моддий жиҳатдан муҳтожлик сезмаса, давлатдан албатта миннатдор бўлади.

Глобал инқироз ва коронавирус пандемияси Ўзбекистон Республикасида хусусий тадбиркорликни ривожлантириш ва унинг экспорт салоҳиятини оширишда давлат томонидан тартибга солиш ва қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш талаб этилмоқда. Шунингдек, хусусий тадбиркорликни ривожлантириш ўзига ҳос ҳудудий хусусиятларга эгаллиги бу соҳада маҳсус илмий тадқиқотларни олиб боришни тақозо этмоқда.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Хусусий тадбиркорликнинг назарий асослари ва унинг иқтисодий табиати А.Смит., Р.Кантильон., Ж.Б.Сей., А.Хоскин., Й.Шумпетер., Хизрич Р., Питерс М. ва бошқаларнинг асарларида ёритилган. Тадбиркорликни ривожлантириш ва унинг инвестицион фаоллигини таъминлашнинг ҳудудий хусусиятлари ва истиқболлари бўйича рус олимларидан А.Г.Гранберг, В.Г.Гутман, И.А.Родионова, А.В.Бусыгин, В.М.Власова, А.М.Самозкин, С.Ф.Борисов, В.В.Радаев ва бошқалар тадқиқотлар олиб борганлар.[5]

Ўзбекистонда ва унинг ҳудудларида тадбиркорликни ривожлантириш ва унинг инвестицион фаоллигини таъминлашнинг ҳудудий хусусиятлари ва истиқболларининг назарий жиҳатлари ва айрим ҳудудий хусусиятлари иқтисодчи олимларимиз Абдусаломов М., Т.М.Ахмедов, А.М.Содиқов, Солиев А.С., О.Абдуллаев, А.А.Қаюмов, Ф.Т.Эгамбердиев, Ш.Ш.Шодмонов, Т.Т.Жўраев,

К.Муфтайдинов, Д.С.Алиматова, А.А.Кулматов, Н.К.Мурадоваларнинг илмий ишларида тадқиқ этилган.[6]

Юқорида келтирилган илмий ишларда иқтисодий эркинлаштириш даврида хусусий тадбиркорликнинг назарий асослари, моҳияти, уни ривожлантириш хусусиятлари тадқиқ этилган. Худудларнинг табиий-ресурс салоҳияти, худудий ишлаб чиқариш мажмуаларининг ривожланиш хусусиятлари ва унда ишлаб чиқариш кучлари ривожланиши истиқболлари кенг тадқиқ этилган.

Методологик нуқтаи назаридан тадбиркорликни давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг назарий асосларини такомиллаштиришда мавжуд институционал механизмнинг бир-бири билан ўзаро боғлиқлиги, улар ўртасида юзага келадиган номутаносибликлар ва узилишларни аниқлашни ўз ичига олувчи селектив ёндашувни қўллаш зарур.


6. Fayzievna, H. M. (2012). Ways Of Professional Training Of Children With The Limited Opportunities. *Social and Natural Sciences Journal*. <https://doi.org/10.12955/snsj.v4i0.289>
7. Habibov, N. (2012). Early childhood care and education attendance in Central Asia. *Children and Youth Services Review*. <https://doi.org/10.1016/j.childyouth.2012.01.006>
8. Hopp, H., Thoma, D., Kieseier, T., Jakisch, J., & Sturm, S. (2022). Early plurilingual foreign language teaching in mixed classrooms: Linguistic and metalinguistic predictors of foreign language development among majority-language and minority-language students in EFL classes. *System*, 108, 102828. <https://doi.org/10.1016/J.SYSTEM.2022.102828>
9. Jackson, R. (2011). The origin of Camphill and the social pedagogic impulse. *Educational Review*. <https://doi.org/10.1080/00131911.2010.510906>
10. Lunin, M., & Minaeva, L. (2015). Translated Subtitles Language Learning Method: A New Practical Approach to Teaching English. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 199, 268–275. <https://doi.org/10.1016/J.SBSPRO.2015.07.516>
11. McCreary, D. (2008). Looking Up “Hard Words” for a Production Test: A Comparative Study of the NOAD, MEDAL, AHD, and MW Collegiate Dictionaries. *Proceedings of the 13th Euralex International Congress*.
12. Melis, E., & Weber, M. (2003). Lessons for (Pedagogic) Usability of eLearning Systems. *Proceedings of World Conference on E-Learning in Corporate, Government, Healthcare, and Higher Education*.
13. Miles, M. B., & Huberman, A. M. (1994). *Qualitative Data Analysis: An expanded Sourcebook* (2nd Ed.) , 1994, 336 pp. In *Qualitative evaluation and research methods*.
14. Ministry of Public Education. (2017). *REPUBLIC OF UZBEKISTAN For 2013-2017* (Issue September 2013).
15. Rambe, S. (2019). Total Physical Response. *English Education : English Journal for Teaching and Learning*. <https://doi.org/10.24952/ee.v7i01.1652>
16. Rammohan, A., & Robertson, P. (2012). Do Kinship Norms Influence Female Education? Evidence from Indonesia. *Oxford Development Studies*. <https://doi.org/10.1080/13600818.2012.711303>
17. Sayfour, N. (2014). An Alternative Method of Literature Review: Systematic Review in English Language Teaching Research. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 98, 1693–1697. <https://doi.org/10.1016/J.SBSPRO.2014.03.595>

18. Shaturaev, J. (2014). *Comparative study on similarities and differences of teaching and learning process in primary schools in Indonesia and Uzbekistan* (1st ed.) [Repository Universitas Pendidikan Indonesia]. <https://doi.org/10.13140/RG.2.2.25852.28806>
19. Shaturaev, J. (2021a). A REVIEW OF NATIONAL EDUCATION SYSTEM OF INDONESIA AND UZBEKISTAN : Manuscript Info Abstract Introduction : - ISSN : 2320-5407. *International Journal of Advanced Research*, 9(02), 461–474. <https://doi.org/10.21474/IJAR01/12470>
20. Shaturaev, J. (2021b). *PUBLIC EDUCATION OF INDONESIA AND UZBEKISTAN: QUALITY OF EDUCATION & ACADEMIC OUTCOMES*. Lab Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/catalog/details/store/it/book/978-620-3-85465-7/public-education-of-indonesia-and-uzbekistan?search=shaturaev>
21. Shaturaev, J. (2022). A CASE STUDY INSIGHTS FROM THE PUBLIC EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN. *Academic Research in Educational Sciences*, 3(8), 126–137. <https://ares.uz/uz/maqola-sahifasi/case-study-insights-public-education-system-uzbekistan>
22. Shaturaev, J., & Khamitovna, K. K. (2023). A Computer-Based Approach to Teaching Foreign Languages. *ASEAN Journal Of Educational Research And Technology*, 2(2), 89–98. <https://ejournal.bumipublikasinusantara.id/index.php/ajert/article/view/163>
23. Ветчинова, М. Н. (2021). REVIEW OF THE MONOGRAPH: BOGUSLAVSKY M. V., SANAEV S. Z. “MIKHAIL NIKOLAYEVICH SKATKIN ’S PEDAGOGICAL SYSTEM: GENESIS AND MEANING” (Moscow, 2018. 258 p.). *Pedagogical Review*. <https://doi.org/10.23951/2307-6127-2021-1-169-173>
24. Учимся учить - традиционный и Юбилейный семинар ученых и преподавателей России и США. Старая Русса, 10 сентября 2016 г. (2016). *Общество. Среда. Развитие (Terra Humana)*. <https://cyberleninka.ru/article/n/uchimsya-uchit-traditsionnyu-i-yubileynyy-seminar-uchenyh-i-prepodavateley-rossii-i-ssha-staraya-russa-10-sentyabrya-2016-g/viewer>

QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA VUJUDGA KELAYOTGAN MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Azizbek Ro‘ziqul o‘g‘li Abdirayimov

Toshkent davlat agrar universiteti, assistent

abdirayimov9191@mail.ru

Najmiddin Shamsiddinovich Muminov

Toshkent davlat agrar universiteti professor,

muminov.najmiddin@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sifati va xavfsizligini taminlash hamda ularni eksport miqdorini oshirish bilan bog‘liq faoliyat yoritilgan. Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy tashqi bozorlari eksport geografiyasi, eksportining dinamikasi va tarkibi tahlil qilingan. Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini sifati va xavfsizligini taminlashni yangi bosqichga ko‘tarish bilan bog‘liq takliflar berilgan. Organic va Global G.A.P., ISO xalqaro standartlarni o‘rni alohida ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, mahsulotlar sifat va xavfsizligi, eksport, import, Global GAP, ISO 22000 standarti.

ABSTRACT

This article describes the activities related to ensuring the quality and safety of agricultural products and increasing their exports. Export geography, export dynamics and composition of the main foreign markets of fruit and vegetable products are analyzed. Proposals have been made to raise the quality and safety of agriculture and food products in our country to a new level. Organic and Global G.A.P., the role of ISO international standards is highlighted.

Keywords: Agricultural products, product quality and safety, export, import, Global GAP, ISO 22000 standard.

KIRISH

Yurtimizda so‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sifati va xavfsizligini ta‘minlash, eksport salohiyatini oshirish

yoʻnalishida bajarilayotgan keng koʻlamli ishlar, uzoq yillar davomida qishloq xoʻjaligi sohasini tubdan isloh qilish, unga ilgʻor va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlar qishloq xoʻjaligi va oziq-ovqat sanoatini butunlay yangi bosqichga olib chiqdi, desak mubolagʻa boʻlmaydi. Bu ayniqsa, mamlakatimizda qishloq xoʻjaligi va oziq-ovqat mahsulotlari, xususan, meva-sabzavot yetishtirish, ishlab chiqarish, saqlash, qadoqlash va eksport qilishdagi yuqori koʻrsatkichlarda yaqqol aks etmoqda.

Bugungi kunda eksport qilingan meva-sabzavotlarimiz dunyoning turli burchaklarigacha yetib boryapti. Oxirgi yillarda mahsulotlarni MDH mamlakatlaridan tashqari yirik tashqi bozorlar: — Xitoy, Germaniya, Turkiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Hindiston, Boltiqboʻyi davlatlariga eksport qilish yoʻlga qoʻyildi. Mamlakatimizda qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashda mahsulot sifatining yaxshilanishi, qadoqlash jarayonlarida zamonaviy texnologiyalarning qoʻllanilishi hisobiga dunyoda oʻzbek mahsulotlari, ayniqsa, gilos, anor, qovun, quritilgan mevalar, yongʻoq va uzumga boʻlgan talab ortib bormoqda.

Hozirgi zamon talabiga mos qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirish, ishlab chiqarish bilan shugʻullanadigan tadbirkorlarga qator imtiyozlar, imkoniyatlar, zarur shart-sharoitlar yaratilib, ayrim mahsulot turlari bojxona toʻlovlaridan ozod qilinayotgani, zamonaviy issiqxonalar barpo etish uchun imtiyozli kreditlar ajratilayotgani yurtimiz eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari eksport salohiyatini oshirish haqida gap borganida, eʼtibor qaratilishi zarur boʻlgan yana bir muhim jihat mahsulotning jahon standartlari talabiga javob berishi hisoblanadi.

Oxirgi yillarda bu yoʻnalishda ham sezilarli oʻzgarishlar koʻzga tashlanmoqda. Koʻplab dehqonlar, fermer xoʻjaliklari va qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini eksporti bilan shugʻullanuvchi tadbirkorlarga GLOBALG.A.P, Organic, HACCP kabi xalqaro sertifikatlarning berilishi noanʼanaviy bozorlar, jumladan, Yevropa davlatlariga yoʻl ochmoqda. Xalqaro sertifikatlarni qoʻlga kiritish koʻpchilik oʻylaganidek tez va oson kechadigan jarayon emas, balki buning uchun yillab vaqt kerak boʻladi. Masalan, dehqon yeriga uzum ekayotgan boʻlsa, yeri, suvining tarkibi va sifatidan tortib uzumning navi, hosildorlik darajasigacha tekshiruvdan oʻtkazilishi kerak boʻladi. Barcha jarayonlar tahlildan muvaffaqiyatli oʻtib, talabga javob beradi deb topilganidan keyingina xalqaro sertifikat beriladi. Bundan tashqari, mahsulot jahon bozorida oʻz oʻrnini topishi uchun eksportyor tinimsiz oʻz ustida ishlab, meva-sabzavot sifati, uzoq yoʻlga chidamliligi, eng muhimi, xaridor topishda bilim va tajribaga ega boʻlishi lozim.

Bugungi kunda ko‘plab tadbirkorlar, dehqon va fermer xo‘jaliklari ana shu jihatlarni o‘rganib, ko‘nikmalar hosil qilishi, ularga berilayotgan qator imtiyoz va imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanishi natijasida eksport borasida sezilarli yutuqlarga erishayotganini ham ta’kidlashimiz joiz. Ayniqsa, Farg‘ona vodiysi bu borada yetakchilik qildi.

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida xorijga meva va sabzavotlar eksport qilgan hududlar orasida Farg‘ona viloyati birinchi o‘rinni egalladi – 289,3 ming tonna. Davlat statistika qo‘mitasi dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, undan keyingi o‘rinlardan mos ravishda 217 ming tonna hamda 180,1 ming tonna meva va sabzavotlar eksport qilingan Toshkent viloyati va Samarqand viloyati joy oldi. Ushbu ko‘rsatkich qolgan hududlar bo‘yicha quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ldi:

- ❖ Surxondaryo viloyati – 157 ming tonna;
- ❖ Xorazm viloyati – 144 ming tonna;
- ❖ Namangan viloyati – 141,5 ming tonna;
- ❖ Andijon viloyati – 106,8 ming tonna;
- ❖ Toshkent shahri – 89,1 ming tonna;
- ❖ Jizzax viloyati – 77,1 ming tonna;
- ❖ Buxoro viloyati – 67,6 ming tonna;
- ❖ Qashqadaryo viloyati – 49,3 ming tonna;
- ❖ Sirdaryo viloyati – 45,4 ming tonna;
- ❖ Qoraqalpog‘iston Respublikasi – 23,7 ming tonna;
- ❖ Navoiy viloyati – 10,6 ming tonna.

Hozirgi kunda Respublikamiz qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ko‘plab turlarini yetishtirish, ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash hamda eksport salohiyatini oshirish borasida katta imkoniyatga ega. Lekin, bu imkoniyatlardan hozircha yetarlicha foydalanilayotgani yo‘q. Mamlakat eksport salohiyatining yuksalishida qishloq xo‘jaligi muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston joriy yilda xorijiy davlatlarga Davlat statistika qo‘mitasi dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida xorijga qiymati 1,0 mlrd. AQSH dollari qiymatidagi 1,6 mln. tonna meva va sabzavotlar eksport qilgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 168,3 ming tonnaga oshgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada tadqiqot metodologiyasi sifatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sifati va xavfsizligini ta’minlash, eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlarini yaratish, xalqaro standart talablari asosida tahlil qilish metodlari tanlandi. Maqolada tashqi



savdo aloqalari hamda savdodagi texnik to‘siqlarni bartaraf etish, eksport hajmi va tarkibini o‘rganish hamda eksport salohiyatini oshirishda zamonaviy ilmiy-tadqiqotlarini joriy qilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilishda muommolar va ularning yechimlarini tahlili ilmiy va nazariy hamda empirik usulda yondashuv uslublari qo‘llanildi.

Maqolada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sifati va xavfsizligini ta‘minlashda xalqaro standartlarni ahamiyati hamda ularni qishloq xo‘jaligida keng joriy etish bo‘yicha talab va tavsiyalar berildi.

Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi vazirligi hisobotlari, ma‘lumotlari, shuningdek mamlakat milliy statistika hisobotlari va ma‘lumotlaridan foydalanildi. Shuningdek mavzuni chuqurroq yoritish, eksportni rivojlantirish, tashqi va ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta‘minlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xavfsizligini ta‘minlashda texnik reglamentlar bilan bog‘liqligini tasvirlash uchun konsepsiyalar tuzilmasi ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mavjud ilmiy tadqiqotlar, adabiyotlar tahlili va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarni eksport salohiyatini oshirishda vujudga kelayotgan muammo va ularning yechimlari tahlillarining natijasiga ko‘ra, eksport salohiyatini oshirishda savdodagi texnik to‘siqlarni bartaraf etishda xalqaro standartlarni qo‘llash, sinov laboratoriyalarni ilmiy metodik tashkil qilish, rivojlantirish bevosita qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish samaradorligidan tortib xalqaro bozorlarda eksport hajmini oshirishga ta‘sir ko‘rsatadi.

Respublika meva-sabzavot mahsulotlari eksportining dinamikasi va tarkibi

1-jadval

	Eksport qilingan meva va sabzavotlar hajmi (ming tonna)
	2022 yil 11 oyi
Eksport hajmi	2054,2
meva va rezavorlar	335
quritilgan meva va rezavorlar	42
sabzavotlar	819
piyoz	199,5
karam	142
pomidor	71
uzum	218
mayiz	73,6
yeryong‘oq	18,3
tarvuz-qovun	135,8

Shu bilan birga o'z navbatida, bunday ijobiy ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash ushbu sohadagi mavjud qonunlarni va qonun osti hujjatlarini xalqaro standartlar (ISO, Global G.A.P., HACCP, ISO 22000) hamda organik qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish talablari asosida takomillashtirishni talab etadi.

Shu bilan birga, jahon bozorida mahsulotlarga qo'yilgan sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlari, organik qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talablarning tobora kuchayib borishi, respublikamizda yetishtirilayotgan mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi o'rni mustahkamlash qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sertifikatlashtirish jarayoni uchun qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rishni talab qilmoqda [3].

O'zbekiston bog'dorchilik, sabzavot-polizchilik singari qishloq xo'jaligining yetakchi tarmoqlarida boy tajriba va yuksak ilmiy salohiyatga ega mamlakat hisoblanadi. Bu, ayniqsa, keyingi yillarda soha istiqboliga qaratilayotgan alohida e'tibor tufayli yanada yaqqolroq namoyon bo'lmoqda. Natijada meva-sabzavot, uzum, poliz va kartoshka kabi mahsulotlarni yetishtirish hajmi tobora ortib, ularga bo'lgan ichki ehtiyojni to'liq ta'minlash barobarida, eksport salohiyati ortib bormoqda. Juda qisqa davr ichida o'rik, olxo'ri, gilos, uzum, yong'oq, karam, shuningdek, boshqa ko'plab meva va sabzavotlar eksport qilish hajmi bo'yicha mamlakatimiz dunyoda yetakchi davlatlar safidan mustahkam joy egallagani buning yaqqol tasdig'idir.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini samaradorligini oshirish, uni dunyo talablari darajasida tashkil qilishni ta'minlash bu sohaga fan va texnika yutuqlarini keng joriy etishni taqozo etadi. Buning uchun mutaxassis kadrlar turli shakldagi korxonalar faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish va boshqarishning ilg'or usullarini, iqtisodiy qonunlarning bozor iqtisodiyoti sharoitida amal qilish mexanizmlari, qishloq xo'jaligi soha korxonalarini eksport faoliyatiga keng jalb qilish, ularning mahsulotlarini xorijiy bozorlarga eksport qilish, eksport salohiyati hamda geografiyasini yanada kengaytirish va ushbu sohadagi eksportbop mahsulot ishlab chiqaruvchilarda yuzaga kelayotgan muammoli masalalarni tahlil qilish, chet el bozorlarida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishda ko'maklashish va sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni eksport qilish jarayonida vujudga kelayotgan muammolarni chuqur o'rgangan holda, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sifati va xavfsizligini ta'minlash, raqobatbardoshligi hamda eksport salohiyatini oshirish, eksportyor korxonalarining tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va respublikamizda milliy sifat

infratuzilmasini yaxshilash hamda “O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan” belgisi ostida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksport bozorlariga ortiqcha to‘siqlarsiz kirib borishiga imkoniyat yaratish eng oliy maqsadimizdir.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarni eksport salohiyatini oshirishda vujudga kelayotgan muammolar



Xodimlarni malakasini doimiy ravishda oshirib borish va ularni tajribalarini ilg‘or xorijiy davlatlarda malakasini oshirish va tajriba almashish borasida ishlarni amalga oshirish;



Texnik reglament qabul qilish choralarini kuchaytirish va amalda tadbiq etishni jadallashtirish;



Regional va halqaro tashkilotlar bilan uzviy va doimiy hamkorlik qilish hamda ular bilan o‘zaro aktual ma‘lumot almashishni yo‘lga qo‘yish;



Muvofiqlikni baholash idoralariga bo‘lgan talabni kuchaytirish.

XULOSA

Ushbu maqolada O‘zbekiston sharoitida yetishtirilayotgan eksportbop qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sifati va xavfsizligini ta‘minlash, raqobatbardoshligi hamda eksport salohiyatini oshirishdagi muammo va ularning yechimlari bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan. Bugungi kunda mamlakatimizda eksportga mo‘ljallab ko‘proq qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, xavfsizligini ta‘minlash hamda savdodagi texnik to‘siqlarni bartaraf etish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xavfsizligini ta‘minlashda xalqaro standartlar talablari bilan uyg‘unlashtirish, ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar, eksport va import qiluvchilarning sifatsiz chiqarilgan mahsuloti uchun javobgarlik darajasini oshirishga, bozorda xavfli mahsulotlar realizatsiyasining oldini olishga qaratilgan davlat nazoratini kuchaytirishga, mahalliy mahsulotlarning sifati va raqobatbardoshligini oshirish, umumiy va maxsus texnik reglamentlarni qishloq xo‘jaligiga keng joriy etish, mahsulotlarni xavfsizligiga qo‘yilgan talablar, xalqaro standartlarni eksportyor korxonalarida joriy qilish va ularni qo‘llab-quvvatlash, sertifikatlashtirish yo‘nalishlarida amaliy yordam ko‘rsatish eng asosiy vazifa bo‘lib hisoblanadi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-maydagi PF-5995-sonli “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqligini ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori.
3. Muminov Najmiddin Shamsiddinovich, Odinaev Mirzamad Isaevich, Abdirayimov Azizbek Ro‘ziqul O‘g‘li, Rajabov Sardor Jumaboy O‘g‘li, (2021). Problems Of Quality Assurance And Export Potential Of Grapes. *The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering*, 3(06), 38-44.
4. Н.Муминов, М.Одинаев, А.Абдирайимов Характеристика и оценка качества винограда 2021. 97-98.
5. Хакимов, Д. В., & Мирзаев, О. А. (2017). Задачи метрологического обеспечения в повышении качества агропромышленной продукции. In Современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования (pp. 1657-1660).
6. Хакимов Д.В. и др. Улучшения потенциала национальной инфраструктуры качества и проблемы экспорта плодоовощной продукции //Итоги и перспективы развития агропромышленного комплекса. – 2018. – С. 502-508.
7. Odinayev, M., Buriev, K., Sultonov, K., & Eralieva, S. (2021). Analysis of mechanical properties, biochemical composition and technological parameters of grape (*Vitis*) raisin varieties in conditions of Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 284, p. 03023). EDP Sciences.
8. Хакимов, Д. В.У., Мамажонов, А.А., & Саттаров, М.О. (2020). Управление внутренним аудитом в соответствии с международными стандартами. *Universum: экономика и юриспруденция*, (4 (69)), 4-12.

XORAZMSHOHLAR DAVLATI HALOKATINING AYRIM JIHATLARI

B. T. Xaitov

Chirchiq OTQMBYU Gumanitar fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xorazmshohlar davlatining mo'g'ullar bilan olib borgan diplomatik aloqalar, o'zaro elchilik munosabatlari yoritib o'tilgan. Chingizxon elchilarining O'trordagi dahshatli halokati o'zaro aloqalarning buzilishiga hamda Xorazmshohlar davlatiga mo'g'ul bosqinchilarining yurishiga asosiy sabab bo'lganligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Xorazmshohlar davlati, Chingizxon, elchilik aloqalari, kelishmovchilik, urush, O'tror qamali, Inolxon.

ABSTRACT

This article highlights the diplomatic relations and mutual embassy relations of the Khorezmshah state with the Mongols. It is stated that the terrible death of Genghis Khan's ambassadors in Otrar was the main reason for the breakdown of mutual relations and the march of Mongol invaders to the Khorezmshah state.

Keywords: State of Khorezmshahs, Genghis Khan, diplomatic relations, disagreement, war, siege of Otrar, Inol Khan.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida butun dunyoda keskin g'oyaviy kurashlar va turli mafkuralarning o'zaro to'qnashuvi, demokratiya yoki turli diniy ta'limotlar qarashlari bilan niqoblangan yovuz g'oyalarni singdirishga intilish kuchayib bormoqda. Dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari insoniyat xavfsizligi va mamlakatlar barqarorligini ta'minlash bilan aloqador muammolarni kun tartibiga olib chiqmoqda.

Tobora avj olib borayotgan ma'naviy xurujlar, yot g'oya va mafkuralar, zararli axborotlar oqimining ta'sirida inson qalbi va ongini zabt etishga harakat ham kengayib bormoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Hozirgi vaqtda jahonda va mintaqamizda harbiy-siyosiy vaziyat keskin o'zgarib, milliy va global xavfsizlik sohasida xatar va tahdidlar tobora kuchayib bormoqda. Ana shunday o'ta mas'uliyatli vaziyat va hayotning o'zi erishgan barcha yutuqlarimizni, shu bilan birga, yo'l qo'ygan kamchiliklarimizni chuqur va tanqidiy tahlil qilishni barchamizdan talab etmoqda" [1-223].

Vatanimiz o'zining ko'p ming yillik tarixi davomida ko'plab mash'um xatarlarni o'z boshidan o'tkazgan. Shunday asoratlar tufayli tilimiz, dinimiz va ma'naviyatimiz bir paytlar qanday xavf ostida qolganini yaxshi bilamiz. Ana shu fojiali o'tmish, bosib o'tgan mashaqqatli yo'limiz barchamizga saboq bo'lishi, bugungi voqelikni teran tahlil qilib, mavjud tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bo'lib yashashga da'vat etishi lozim. O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q [3-4].

Uzoq o'tmishdan Sharq va G'arb o'rtasidagi qadimgi savdo-sotiq, madaniy-ilmiy va diplomatik aloqalar yo'li bo'lgan Buyuk Ipak yo'li O'zbekiston hududidan o'tgan. Tabiiy iqlim sharoiti qulay, ulkan mineral-xomashyo zaxiralari va strategik materiallarga ega, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik yuqori darajada rivojlangan.

O'z davrida mamlakatimiz hududida vujudga kelgan barcha davlatlar yuqoridagi omillardan kelib chiqqan holda boshqa davlatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan, savdo-sotiq ishlarini yo'lga qo'yganlar.

O'rta asrlarda vujudga kelgan Xorazmshohlar hamda Mo'g'ullar davlati o'rtasidagi o'zaro aloqalar tariximizning eng muhim hodisalaridan hisoblanadi.

XII asr oxiri XIII asr boshlarida yuzaga kelgan xorazmshohlar davlati Xorazmshohning cheklanmagan hokimiyati ta'sis etilgan, qudratli qo'shinga tayanadigan monarxiya tuzumidagi davlat edi. Bu davlat o'z davrida harbiy qudrati bilangina emas, balki o'zining mehnatkash, jafokash xalqi bilan, o'z davri uchun yuksak madaniyatga ega bo'lgan katta-katta shaharlari bilan ancha yuqori ishlab chiqarish darajasiga erishgan qishloq xo'jaligi bilan, jug'rofiy jihatdan qulay savdo yo'llari va hamisha chet el savdogarlari mavjud gavjum bozorlari bilan ham mashhur bo'lgan.

Mo'g'ul urug' va qabilalari qudratli davlatga birlashuvi va jipslashuvi Temuchin (1155-1227) nomi bilan bog'liq. 1206-yilda Onon daryosi bo'yida chaqirilgan mo'g'ul urug' va qabila boshliqlarining qurultoyida Temuchin ulug' xon (qoon) deb e'lon qilinadi, unga "Chingiz" laqabi beriladi va Mo'g'ullar davlatiga asos solinadi.

Chingizxon ulug' xoqon, deb e'lon qilingan birinchi kundayoq o'zining eng yaqin kishilaridan 95 nafarini bahodur, mingboshilar etib tayinlaydi va bir necha ming kishiga tarxonlik yorliqlari beriladi. Chingizxon, ayni paytda, 10 ta oliy hokimiyat lavozimlarini ta'sis etadi va mingta "dovyurak" jangchilardan iborat shaxsiy gvardiya tuzadi. Butun mamlakatda kuchli temir intizom, qattiqqo'l tartib o'rnatilib, jangovar harbiy safarbarlik ishlari avj oldirib borildi. Bu hol Chingizxonning xorijiy ellarni zabt etishdan iborat o'z oldiga qo'ygan yovuz, agressiv maqsadlarini tez orada amalga oshirishga imkon yaratib berdi [4-135].

Chingizxon olib borgan urushlar natijasida Gobi sahrosining sharqiy chegarasidan to Tangritog' (Tyanshan) tizmasining g'arbiy etaklarigacha bo'lgan viloyatlar Mo'g'ullar davlati hukmronligi ostida birlashtirilgan edi. Endilikda Mo'g'ullar davlatining g'arbiy hududlari Sulton

Muhammad Xorazmshoh saltanatining chegarasiga bevosita tutashib ketdi [5-134].

Chingizxon va Xorazmshoh o'rtasida bir-birining kuch-qudratini bilib olishga va bu haqda ma'lumotlar to'plashga harakat qilinadi. Ikki o'rtada hatto elchilik aloqalari o'rnatiladi. Shunday ishni amalga oshirishda Chingizxon o'z huzuridagi musulmon savdogarlaridan foydalanadi. Har ikki tomondan savdo karvonlari safida yuborilgan elchi va vakillar o'z navbatida ayg'oqchilik vazifasini ham bajaradi [5-134].

Chingizxon qo'shni davlatdagi barcha sir-u sinoatlardan to'liq xabardor edi. U Xorazm davlatidan Mo'g'ulistonga qatnaydigan bir guruh yirik savdogarlardan iborat o'z josuslik mahkamasini tashkil qilib, ular xizmatidan foydalanib kelardi. Mahmud Yalavoch, Hasan Xoja, Yusuf O'troriy singari kishilar shular jumlasiga kirardi. Shu bois, Chingizxon va uning o'rdasi xorazmshohlar davlatida kechayotgan barcha ziddiyatli voqealardan, uning zaif nuqtalaridan xabardor edi [4-135].

Dastavval, 1216-yilda Chingizxon huzuriga Xorazmshoh Bahouddin Roziy boshchiligida o'z elchilarini yuboradi. Elchilarni Chingizxon iltifot bilan qabul qiladi. Hatto, elchilardan u Sulton Muhammadni G'arbning sohibqironi (G'arb mamlakatlari yerlarining sultoni), o'zini esa Sharqning podshosi deb hisoblashini Xorazmshohga yetkazishlarini so'raydi.

Chingizxon qimmatbaho sovg'alar va mollar ortilgan katta karvon bilan o'z elchilarini Xorazmga yuboradi. Elchilar xorazmlik savdogar Mahmud al-Xorazmiy (Mahmud Yalavoch) Ali Hojib al-Buxoriy, Yusuf Kanka al-O'troriydan iborat bo'lgan. Chingizxon elchilarini Sulton Muhammad 1218-yilning bahorida Buxoro shahrida qabul qiladi. Elchilar bunday deydilar: "... Sen bilan tinchlik, osoyishtalikda yashashni o'zim uchun majburiyat deb bilaman. Sen menga eng aziz o'g'illarimdan biri kabisan..."[6-54].

Eng ardoqli o'g'illari qatorida ko'rish "iltifoti", shubhasiz, Sharq ustomonligida "Chingizxonning Xorazmshohni o'ziga qaram qilib olish niyati bor" degan ma'noni anglatardi. O'zini Iskandari soniy (Ikkinchi Iskandar) deb hisoblab yurgan podshoga bunday "istiqlol" sira yoqmas edi. Xorazmshoh Mahmud Yalavochni tunda xufiyona o'z huzuriga chaqirtirib keladi. Elchiga xorazmlik bo'lgani uchun Chingizxonga emas, balki Xorazm shohiga xizmat qilishini, Chingizxon to'g'risidagi bor haqiqatni aytishini, keyinchalik xon qarorgohida Xorazmshohning josusi bo'lib qolishini talab qiladi [6-54].

Chingizxon o'z elchilarining ish natijalaridan mamnun bo'ladi. Chunki Mahmud Yalavoch Xorazm davlati va uning podshosi to'g'risida Chingizxonga, mo'g'ullar to'g'risida Xorazmshohga aytgan ma'lumotlariga qaraganda ham ko'proq axborot to'plab qaytgan edi.

Chingizxon ikki buyuk qo'shni davlatlar o'rtasida shartnoma tuzish uchun 1218-yilning o'zidayoq Xorazmga juda katta savdo va elchilar karvonini jo'natadi. Karvon ko'p miqdorda oltin, kumush buyumlar, xitoy ipak matolari, suvsar va qunduz mo'ynalari va boshqa xil qimmatbaho

mollar ortilgan 500 tuyadan hamda 450 musulmon savdogarlaridan tashkil topgan edi. Bu ulkan savdo karvoni mamlakat poytaxti Urganch shahri tomon borar edi. Ammo karvon yo'lda chegara shahar O'trorda ushlab qolinadi. Shaharning noibi G'oyirxon (Inolchiq) tomonidan karvon talanib, savdogarlarning hammasi qirib tashlanadi. Faqat bir tuyakashgina tasidifan o'limdan qutulib qoladi. U Chingizxonning qarorgohiga zo'rg'a yetib borib, karvonning dahshatli qismatidan xabar beradi [6-55].

Ushbu voqeadan keyin Chingizxon Xorazmshoh huzuriga Ibn Qafraj Bug'rani (uning otasi Sulton Takishning amirlaridan biri bo'lgan) ikki ishonchli mulozim kuzatuvchilar bilan Xorazmshoh huzuriga elchi qilib yuboradi. Elchilar Xorazmshohga quyidagi so'zlar bitilgan nomani topshiradi: "Sen savdogarlarning xavfsizligini ta'minlash, ulardan hech qaysisiga hujum qilmaslik to'g'risida muhring bosilgan hujjatni yuborgan eding. Lekin sen ahdingga vafosizlik qilding, bergan so'zingni buzding. O'z so'zida turmaslik yomon, ayniqsa, mo'minlar sultonining xiyonatkorligi yanada og'ir. Agar sen bu ish mening buyrug'imsiz, Inolxon tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblaydigan bo'lsang, u holda Inolxonni menga ber, uni jinoyatkorona ishi uchun jazolaylik, shu tariqa olomoni tinchitib, qon to'kilishini oldini olaylik. Aks holda – urush. Bu tufayli qancha aziz jonlar xoru xasga aylanadi, nayzalarning sopi majaqlanadi" [6-56].

Bu voqealar ikkita eng katta davlatlar o'rtasida savdo aloqalari va elchilik munosabatlari tamomila uzilganini bildirar edi. Xorazmshoh uyushtirgan bu voqea har ikki buyuk davlatlar o'rtasida urush boshlanishiga bahona bo'ldi.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, Xorazmshohlar va mo'g'ullar o'rtasidagi aloqalarning buzilishiga, Muhammad Xorazmshohning Arab xalifaligining poytaxti Bog'dodga amalga oshirgan 1217-yildagi yurishi muhim rol o'ynagan [6-39]. Aynan xalifa Nosir Xorazmshohga qarshi Chingizxonni yurish qilishga undagan hamda boshqa musulmon mamlakatlarni Xorazmshohni qo'llab-quvvatlamasligini ta'minlagan.

XIII asrning boshlarida Xorazmshohlar saltanati qo'shinining umumiy soni Chingizxon harbiy kuchiga nisbatan birmuncha oshiqroq edi. Ammo, Xorazmshoh hokimiyati siyosiy, xususan ma'muriy boshqaruv jihatidan mustahkam emas edi. Chunki, mansabdorlar davlat tang ahvolga tushib qolgan paytlarda o'z vazifalarini tashlab ketar, podshoga itoatsizlik qilar, o'zboshimchalik bilan o'z bilganlaricha yo'l tutar edilar. Hatto ayrim viloyat hokimlari Xorazmshohga nomigagina bo'ysunib, amalda deyarli mustaqil edi. Buning ustiga Sulton oliy dargohi ichida kuchli nizo hukm surardi. Ayniqsa, Turkon xotun, ya'ni "turklar onasi" nomi bilan shuhrat topgan Sulton Muhammadning validasi qo'shinining oliy sarkardalari hisoblangan qipchoq oqsuyaklari bilan urug'-qabila aloqalari orqali mahkam bog'langan edi. U o'z qabiladoshlari manfaati yo'lida saroyda ko'tarilgan barcha fitnalarga

boshchilik qilar, hatto ularda shohga qarshi adovat ruhini uyg'unlashtirib qo'yg'an edi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Xorazmshohlar va Mo'g'ullar o'rtasidagi o'zaro elchilik aloqalari ikki mamlakat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishidan ko'ra, bir-birlarining harbiy salohiyatini bilishga, aholining davlat hokimiyatini qo'llab-quvvatlashini aniqlashga, chegaralarning mustahkamligiga, harbiylarning tayyorgarligini o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan.

XIII asr boshlarida Xorazmshohlar davlatida ichki nizo, boshboshdoqlik va fuqarolarning noroziligi kuchayib, mamlakat siyosiy hayoti inqirozga yuz tutgan edi. Bunday o'ta xavfli vaziyatni bartaraf etish maqsadida Sulton Muhammad o'z hukmronligining so'ngida "Davlat kengashi"ni ta'sis etadi. Kengashga 6 nafar bilimdon vakillar jalb etiladi [6-53]. Unda eng dolzarb masalalar muhokama etilib, qaror qabul qilinsa-da, ammo u amalda ijobiy natija bermaydi. Ana shunday vaziyatda u jangari mo'g'ul qabilalarining Chingizxon boshliq bosqiniga duchor bo'ldi.

Chingizxon Movarounnahr yurishiga katta ahamiyat berib, puxta tayyorgarlik ko'rgan edi. Hali harbiy yurish boshlanmasdan o'z dushmanining kuch-qudrati va urushga tayyorgarligi to'g'risida savdogarlar orqali to'plagan ma'lumotlarni sinchiklab o'rgangan. Chingizxon Xorazmshohlar davlatining ichki ziddiyatlaridan to'la xabardor edi.

Xorazmshoh bilan sarkardalar o'rtasida mavjud ixtiloflar avval boshdanoq mavjud ustunlikdan foydalanishga imkon bermadi. Urush boshlanishi arafasida bo'lgan harbiy kengashda ular o'rtasidagi kelishmovchilik yaqqol namoyon bo'ldi. Kengashda dushmanga zarba berishning yagona rejasini yakdillik bilan belgilab olish o'rniga fikrlar bo'linib ketdi. Mamlakat harbiy vaziri Sh.Xivaqiy, Sulton Muhammadning o'g'li Jaloliddin, Xo'jand hokimi Temur Malik singari sarkardalar harbiy kuchlarni asosiy nuqtalarga to'plab, dushmanga zarba berishni taklif etadilar. Biroq Sulton katta qo'shinni bir joyga to'plashdan qo'rqar edi. Sulton nazarida bir joyga to'plangan qo'shin uni taxtdan ag'darib tashlashi mumkin edi. Shuning uchun ham harbiy kengashda sulton o'z qo'shinlarini turli shaharlarga bo'lib yuborib, urushda mudofaa taktikasini qo'llashga qaror qiladi. Shu tariqa mamlakat katta xavf ostida qoldi [6-58].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Xorazmshoh hukmdorining kaltabinligi, mnamlakat taqdiri, uning ertangi kuniga befarqlik, yirik sarkardalar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, harbiy tayyorgarlikning yetarli darajada emasligi, uzoqni ko'zlamasdan yuritilgan siyosat, davlat hokimiyatidan noroziliklar mamlakat hayotini butunlay izdan chiqishiga sabab bo'ldi.

"Bir fikrni hech qachon unutmashimiz kerak: armiyani moddiy jihatdan barcha zamonaviy zarur texnika va jihozlar, qurol-yarog'lar bilan ta'minlash mumkin. Ammo shaxsiy tarkib ma'naviy



jihatdan zaif bo'lsa, ya'ni askar va ofitserlarimizda jangovar ruh, Vatanga mehr va sadoqat, uning taqdiri uchun mas'uliyat bo'lmasa yoki ularning o'rtasida beparvolik hukm sursa, bunday holat nihoyatda noxush oqibatlariga olib kelishi mumkin" [2-162].

Mo'g'ullar istilosi oqibatida Movarounnahr va Xorazmning yashnab turgan obod dehqonchilik viloyatlari halokatga uchradi. Mamlakatning yirik shaharlari Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv va boshqa ko'plab shahar-qishloqlar xarobazorga aylandi.

Yirik dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq va ilm-fan markazi bo'lib kelgan shaharlar butunlay inqirozga yuz tutdi.

REFERENCES

1. Sh.M.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-tom, –T.: "O'zbekiston", 2017.
2. Sh.M.Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom, –T.: "O'zbekiston". 2018.
3. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: "Ma'naviyat", 2016.
4. Q.Usmonov va b. O'zbekiston tarixi. –T.: "Iqtisod-Moliya", 2016.
5. M.Rahimov, A.Zamonov. O'zbekiston tarixi. –T.: "Fan", 2019.
6. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. –T.: "O'zbekiston", 2006.
7. B.T Xaitov. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda axborot xurujlaridan himoyalash. Academic Research in Educational Sciences, 2(10) (2021), 257-263. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2021-10-257-263>.

БОЛАЛАРДА МИКРОНУТРИЕНТ ТАНҚИСЛИГИ, ОВҚАТ АЛЛЕРГИЯСИ ВА ЗАМБУРУҒЛАРГА СЕЗУВЧАНЛИК МУАММОСИГА ЯНГИЧА ЁНДОШУВ

Дилафруз Гайратовна Абдуллаева

Тошкент тиббиёт академияси, PhD, доцент

ORCID: 0000-0002-0858-4210

abdullaeva.dg1976@gmail.com

Шерзод Пармонович Ишназаров, Дилноза Исмоиловна Рахимова

Тошкент тиббиёт академияси, магистр

Ферузахон Алишер кизи Фаттахова

Тошкент тиббиёт академияси, болалар, ўсмирлар ва овқатланиш гигиенаси
кафедраси, Тошкент, Ўзбекистон

АННОТАЦИЯ

Ҳозирги кунда болаларда витаминлар ва минераллар алмашинувини ўрганишга бағишланган тадқиқотлар юртимизда олиб борилмоқда. Болалар орасида овқат аллергияси ҳамда замбуруғларга сезувчанлик муаммоси кўп ҳолларда эътибордан четда қолиши оқибатида ўсиб келаётган организм қаршилиқ кучининг пасайиши, натижада сурункали хасталиклар авж олишига замин яратиши мумкин. Тадқиқотлар натижасида юртимизда кенг тарқалган озик-овқат ҳамда замбуруғ аллергенлари, микронутриентлар етишмовчилиги ҳоллари аниқланди.

Калит сўзлар: овқат аллергияси, озик-овқат маҳсулотлари, витамин С, минераллар, замбуруғ аллергенлари.

ABSTRACT

Currently, in our country, studies are being conducted on the study of vitamin and mineral metabolism in children. Due to the fact that the problem of food allergies and sensitivity to fungi in children is often not taken into account, the resistance of the growing organism may decrease, and as a result, chronic diseases may develop. As a result of research in our country, widespread food and fungal allergens, micronutrient deficiencies were found.

Keywords: food allergy, food products, vitamin C, minerals, fungal allergens.

КИРИШ

Кейинги йилларда урбанизациянинг ўсиши, иқлимнинг глобал ўзгариши натижасида аллергия хавфини юзага келтирувчи вазиятлар юзага келиб, болалар ва катта ёшли аҳолида аллергик касалликлар ўсиши аниқланган. Иқлим ўзгариши оқибатида Ер юзасидаги ҳарорат кўтарилиши натижасида дарахтлар чанги, уларнинг аллергенлиги ошиши, ҳашоротлар ареалининг кенгайиши, денгизлар кўтарилиши, ёғингарчилик режимининг ўзгариши натижасида моғор замбуруғларининг кенг тарқалиши кузатилмоқда. Европа аллергологлари ва клиник иммунологлари Ассоциацияси (ЕААСИ) Муаммо комиссияси ҳужжатига кўра “аллергия” термини ташқи муҳит турли омиллари, яратилаётган кимёвий омиллар, озиқ-овқат бўёқлари, дори воситалари билан инсон мулоқотда бўлганда юзага келадиган барча кутилмаган реакцияларни тавсифлаш учун ишлатилади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Ҳозирги кунда аллергик касалликлар ЖССТ томонидан муҳим тиббий-ижтимоий муаммолардан бири деб эътироф этилган. Шаҳарларда катта йўлар яқинида яшовчи болалар транспорт чанги томонидан юзага келадиган атопияга кўпроқ чалиниши олимлар томонидан исботланган. Аллергик касалликлар ичида озиқ-овқатлар истеъмоли натижасида ноқулай реакцияларга нисбатан ҳар 4 бемордан бири шикоят қилади ва охириги 15-20 йил ичида овқат аллергияси эпидемия каби тарқалмоқда.

Овқат аллергиясининг тарқалишига ҳар бир ҳудуддаги овқат тайёрлаш усуллари ва парҳез хусусиятлари катта таъсир қилади, масалан, АҚШ да ерэнғоқ энг кучли аллергенлардан бири саналади ва ўлим билан тугайдиган анафилаксияларнинг 2/3 қисми ерэнғоқ оқибатида келиб чиқиши аниқланган, бунга сабаб унга юқори ҳароратда (150-180⁰) ишлов берилади, бунда оқсилнинг аллергенлик хусусияти янада ортади. 1997-2006 йилларда ёнғоқлар ва ерэнғоққа аллергия АҚШ да 3 марта кўпайган. Исроилда термик ишлов берилмаган ерэнғоқ ва кунжут ёш болалар таомномасига жуда эрта киритилиши унга нисбатан аллергиянинг кенг тарқалишига сабаб бўлади. Шунини таъкидлаш жоиз-ки, беморларни парҳез даволаш даврида ҳар бир маҳсулотнинг термик ишлов беришга чидамлилигини эътиборга олиш яхши натижа беради. Ёнғоқлар термик ишлов берилганда аллергенлик хусусияти ортса, сабзаёт ва меваларда аксинча, кўпинча термик ишлов ёрдамида аллергенлигини камайтиришимиз мумкин.

Витамин С иммунитетга, хемотаксис, фагоцитоз, пролиферация ва Т- ва В- лимфоцитлар дифференцировкасига ижобий таъсир қилиши исботланган. В- и Т-лимфоцитов. Атопик дерматит билан хасталанган болаларда витамин С, ҳамда А ва Е витаминлар етишмовчилиги аниқланган [2, 3]. Аскорбин кислота антиоксидант хусусиятга эга, деярли барча биокимёвий жараёнларда қатнашади, тўқималар регенерацияси, коллаген, стероид гормонлар, карнитин, проколлаген синтези, серотонин гидроксилланиш жараёнларида қатнашади. Протеолитик ферментлар фаоллашуви, пигмент, холестерин алмашинуви жараёнларида иштирок этади. Гистамин ажралиши жараёнини тормозлаши оқибатида яллиғланишга ва аллергияга қарши таъсирга эга [2].

Ҳозирги кунда боланинг ўсиш ва ривожланишига унинг оқсил ва минераллар (кальций, фосфор, магний, цинк ва бошқ.), витаминлар (А, D, Е, С, В ва бошқ.), биологик фаол қўшимчалар, қувват билан таъминланиши таъсир қилиши маълум. Оқсил, ёғ, углеводлар етишмовчилигидан фарқли равишда микронутриентлар етишмовчилиги болаларда “яширин очлик” термини билан аталади [2, 4].

Овқат аллергияси мультифакториал характерга эга бўлиб, турли алергик ва ноаллергик касалликлар келиб чиқишига замин яратиши билан характерланади. Озиқ-овқат алергенининг организмга кириш жойи ичаклар бўлсада, касаллик симптомлари терида, кўз, бурун ва нафас йўлларида шиллик қаватида намоён бўлади. Ушбу хасталик келиб чиқишида ирсий омиллар, ҳомиладорлик давридадаги токсикозлар, дори-дармонларнинг норационал қўлланиши, нотўғри овқатланиш, боланинг она сутисиз, суъний овқатлантирилиши ҳам муҳим аҳамиятга эга. Баъзан овқат аллергиясига ўхшаш сохта (псевдоаллергик) реакциялар клиник симптомлари ўхшашлиги билан ташхисотда шифокорларга ноқулайликлар туғдиради, чунки чин ва сохта аллергияни даволаш фарқ қилади [1,5].

Овқат аллергияси кўпинча болалиқдан бошланади, ирсий мойиллиги бўлган кўкрак ёшидаги болаларнинг овқат ҳазм қилиш аъзолари ва иммун тизимининг функционал етук эмаслиги оқибатида мураккаб жараёнлар натижасида организм томонидан **иммуноглобулин Е** типидagi алергик антитаначалар ажралиб чиқиши билан характерланади. Меъда-ичак тракти ҳар куни кўплаб потенциал алерген оқсиллар таъсирига учрайди, аммо озиқ-овқат маҳсулотларига ўта сезувчанлик реакциялари ҳимоя тизими самарали ишлаганда юзага келмайди. Шунини таъкидлаш жоиз-ки, беморларнинг аксариятида модда алмашинувининг

бузилиши, ферментлар тизимидаги ўзгаришлар, меъда-ичак шиллик қаватининг ўтказувчанлиги ошиши кузатилади.

Сохта аллергия касалликлар юзага келишида биологик фаол моддаларнинг дезактивланиш механизмлари бузилиши, гистаминаза ферменти фаоллиги пасайиши, гистамин, тирамин, фенилэтиламинга бой овқат истеъмоли, овқат қўшимчалари (бўёқлар, айниқса, тартразин ва натрий нитрит, ароматизаторлар, консервантлар, эмульгаторлар сульфитлар, глутаматлар ва ҳк.) сабаб бўлиши мумкин.

Овқат аллергияси ўз вақтида аниқланмаса, аллергия касалликларнинг сурункали тус олиши ва оғирлашишига олиб келади. Озиқ-овқат аллергияларига нисбатан сенсбилизация аллергия дерматит, ўткир қаварчиқлар, гастроинтестинал аллергия, аллергия шишлар келиб чиқишида асосий ўринга эга. Овқат аллергияси синдроми тери, меъда-ичак ва нафас олиш йўллари касалликларининг кенг спектрини қамраб олган бўлиб, расмий маълумотларга кўра шошилиш терапия бўлимларидаги анафилактик ҳолатларнинг 30-50% ини ташкил қилади.

Овқат аллергиясининг ўз вақтида ташҳис қилинмаслиги, “айбдор” аллергиянинг аниқланмаслиги натижасида клиник амалиётда беморларни парҳез даволашда касалликка сабабчи аллергияларни ва сабаб бўлмайдиган маҳсулотларни рациондан чеклаиб, натижада бемор болаларда ўсишдан орқада қолиш, вақт ўтиши билан тери симптомларига респиратор симптомлар қўшилиши кузатилади.

Чет эллик алергологлар беморларни даволашда “катта саккиз” (**сигир сути, тухум, балиқ, қисқичбақасимонлар, ерёнғоқ, соя, буғдой, ёнғоқлар**) аллергиялар гуруҳига таянишар эди, лекин ҳозирги кунда озиқ-овқат саноати ва янги технологияларнинг ривожланиши, ўсимлик маҳсулотларининг кенг қўлланиши натижасида (хайвон маҳсулотларида ҳам ўсимлик аллергиялари мавжудлиги, масалан, баъзи колбасаларда соя, ёнғоқ оқсилларининг қўшилиши) конкрет маҳсулотнинг таркиби ўзгариб бормоқда. Ўсимлик аллергияларининг роли ЕУ 2005 Директивасида ҳам ўз аксини топган, унга асосан аллергия хусусиятга эга маҳсулотлар, масалан, глютен сақловчи дон (буғдой, сули, жавдар), соя, ерёнғоқ, ёнғоқлар (бодом, кешью, писта, ўрмон ёнғоғи ва ҳк.), сельдерей, кунжут, хантал албатта маркировка қилиниши керак. Ген-модификацияланган маҳсулотлар ҳам оқсил таркиби ўзгаргани учун потенциал аллергия сифатида катта хавф туғдиради.

Юқорида келтирилган маълумотларни эътиборга олиб, юртимизда аллергия касалликларда, жумладан овқат

аллергиясида ташхисотни яхшилаш мақсадида бемор жисми учун безарар бўлган *in vitro* (организмдан ташқарида) замонавий ташхисот усуллари амалиётда қўллашни мақсад қилдик. Чет эллик (германиялик) мутахассислар билан биргаликда юртимизда кўп тарқалган турли ўсимлик ва маиший чанглар, озиқ-овқат ҳамда замбуруғ аллергенларига нисбатан бемор организмда ажралиб чиқадиган иммуноглобулин E махсус антитаначаларини аниқловчи аллерген панелларини ишлаб чиқдик ва клиник амалиётга киритдик. Бу усулнинг афзалликлари: ҳар қандай ёшда, хатто гўдаклар, эмизикли, ҳомиладор аёлларда, касаллик ҳужум қилган вақтда, беморларни даволаш даврида ҳам қўллаш мумкин. Бир вақтнинг ўзида ўнлаб аллергенларга сезувчанликни аниқлаш ва ҳар бир бемор учун индивидуал парҳез даволашга ёндошиш имконияти туғилди. Ҳозирги кунда республика аллергология илмий-амалий маркази, вилоятларидаги хусусий клиникаларда ушбу аллерген панеллари ёрдамида беморларда овқат аллергияси ва бошқа аллергик касалликлар эрта аниқланмоқда. Шифокорлар қабулга келган беморлардан тўлиқ анамнез (касаллик тарихи) йиғиб, клиник симптомлар, беморлар шикоятини эътиборга олиб, керакли лаборатор синамаларни тавсия қиладилар.

Изланишларимиз натижасида юртимизда кенг тарқалган озиқ-овқат аллергенларини аниқладик. Болаларда асосан глютен, гречка, буғдой уни, сугир сути, тухум, ёнғоқлар (ерёнғоқ, грек ёнғоғи, бодом), йогурт, лимон, қулупнай каби мевалар; катталарда помидор, картошка, асал, буғдой уни, сабзи, кунжут, олча, сельдерей, апельсин, шафтоли, нохот, олма, қулупнай, ананас, ёнғоқ, писта, ерёнғоқ, эчки ва сугир сути аллергенларига нисбатан ўта сезувчанлик кўп учрашини аниқладик.

Маълумки, овқат аллергенлари 2 гуруҳга бўлинади: **ҳайвон ва ўсимлик** маҳсулотлари аллергенлари. Шунини таъкидлаш жоиз-ки, ҳудудимизда ўсимлик маҳсулотларига нисбатан аллергик реакциялар ҳамда кесишган аллергик реакциялар кўпроқ учрайди ва тери, меъда-ичак, нафас тизими аъзоларининг аллергик яллиғланишига сабаб бўлади. Дарахт, гулларнинг чангига нисбатан аллергияси бор беморларнинг аксарияти ўсимлик оқсиллари ўхшашлиги натижасида келиб чиқадиган кесишган аллергик реакциялар оқибатида сабзавот, мевалар истеъмолдан кейин оғиз, лаб шишиши, қаварчиқлар, ринит, йўтал, бронхоспазм каби симптомларга шикоят қиладилар. Бу симптомлар баъзан анафилаксия (гемодинамиканинг бузилиши билан кечувчи ҳаёт учун хавфли ўткир оғир тизимли ўта сезувчанлик реакцияси) кўринишида намоён бўлиши мумкин. Кўпинча ёнғоқлар, сут, тухум, мевалар билан бир қаторда, уй чанги таркибидаги

каначалар (*Dermatophagoides pteronyssinus*, *Dermatophagoides farinae*, улар баъзан озиқ-овқат маҳсулотлари таркибида ҳам бўлади), овқат қўшимчалари, дори-дармонлар, латекс, ҳашоротлар анафилаксия чақириши мумкин. Бемор учун хавф туғдирадаган аллергенни вақтида аниқлаш, “айбдор” аллергенни элиминация қилиш, яъни у билан мулоқотни, истеъмолни чеклаш беморни даволашда муҳим ҳисобланади. Шифокорлар беморларга озиқ-овқат маҳсулотларини харид қилаётган вақтда ҳар бир маҳсулот этикеткасини ўқиб, таркибини синчковлик билан ўқиши кераклигини тушунтиришлари керак.

ХУЛОСА

Мактабгача тарбия ёшидаги болаларда витамин С етишмовчилиги, минераллардан кальций, магний танқислиги ҳолатлари кўп учрамоқда. Болаларда ёндош касалликларнинг келиб чиқиш сабабини ўрганиш, уларнинг профилактикаси бўйича чора-тадбирлар мажмуини ишлаб чиқиш, гўдакларни кўкрак сути билан боқиш, аҳолининг турли ёш гуруҳлари ичида тиббий кўрикларни тўғри ва сифатли ўтказиш, сурункали нафас, меъда-ичак, жигар-ўт йўллари касалликларини вақтида аниқлаш ҳамда даволаш, хаддан ташқари тўйиб овқатланишдан сақланиш, таркибида кўп миқдорда суъний қўшимчалар бўлган маҳсулотларни чеклаш, миллий овқатланиш хусусиятларини эътиборга олган ҳолда замонавий аллергологик ташҳисотнинг имкониятларидан фойдаланган ҳолда элиминацион ҳамда гипоаллерген парҳез рационларидан фойдаланиш овқат аллергиясини олдини олишга ёрдам беради.

REFERENCES

1. Д. Абдуллаева ОСОБЕННОСТИ ПИЩЕВОЙ АЛЛЕРГИИ В УСЛОВИЯХ ЖАРКОГО КЛИМАТА И ПЕРЕКРЕСТНЫХ АЛЛЕРГИЧЕСКИХ РЕАКЦИЙ НА ПИЩЕВЫЕ РЕАКЦИИ // ГАИ. 2022. №Д7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/features-of-food-allergy-in-hot-climate-conditions-and-cross-allergic-reactions-to-food>
2. Захарова И.Н., Айсанова М.Р. Недостаточность эссенциальных витаминов у детей первого года жизни. Медицинский совет. 2019; 11: 180-187. DOI: <https://doi.org/10.21518/2079-701X-2019-11-180-187>
3. Ревякина В.А., Кувшинова Е.Д. Оценка витаминного статуса у детей с пищевой аллергией. Российский вестник перинатологии и педиатрии, 2018;63: (4) DOI: 10.21508/1027-4065-congress-2018 p.159-160
4. Hannah Ritchie and Max Roser (2017) - "Micronutrient Deficiency". Published online at OurWorldInData.org. Retrieved from: 'https://ourworldindata.org/micronutrient-deficiency
5. Shaykhova G. I., Ermatov N. J., Abdullaeva D. G. To the problem of fungal pathology in the hot climate in children and adults //International Journal of Pharmaceutical Research and entitled. – 2021. – Т. 13. – №. 1. – С. 2319-2322.



ANALYSIS OF PROCESSES OF ADSORPTION OF ORGANVERMICULITE TO BENZENE AND WATER VAPOR

Mukaddas Tuychievna Alieva
Gulnora Akmalovna Ikhtiyarova
Noroy Ruzmatovna Kholturayeva
Tashkent State Technical University
a.muqaddas5854@gmail.com

ABSTRACT

In this article, the modification of chitosan synthesized from the died honey bee *Apis Millifera* with the mineral vermiculite and the physicochemical properties of the obtained sorbent using the Mac-Ben device, its meso- and microporosity, as well as the degree of crystallinity according to the results of X-ray diffraction analysis, are studied.

Keywords: wastewater, chitin, chitosan, vermiculite, organvermiculite, sorbent, Mac-Ben device, X-ray diffraction analysis, sorption isotherm.

ORGANVERMIKULITNING BENZOL VA SUV BUG'IGA ADSORBSIYASI JARAYONLARINI TAHLIL QILISH

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jonsiz asalari *Apis Milliferadan* sintez qilib olingan xitozanni vermikulit minerali bilan modifikatsiyalash va olingan sorbentni fizik-kimyoviy xossalari Mak-Ben qurilmasi yordamida mezo- va mikrog'ovakligini hamda rentgen nurlari difraksion tahlili natijalari asosida kristallik darajasi o'rganidi.

Tayanch so'zlar: oqava suv, xitin, xitizan, vermikulit, organovermikulit, sorbent, Mak-Ben qurilmasi, rentgen nurlari difraksion tahlili, sorbsiya izotermasi.

INTRODUCTION

Due to the fact that both organic pollutants and heavy metals are not removed from wastewater to MPC values by traditional water treatment methods, at the final stage of the water treatment process, as a rule, an adsorption post-treatment stage is introduced. The adsorption method can remove pollution of various nature to the minimum residual concentration in the absence of secondary pollution. In recent years, for these purposes, natural mineral sorbents - silicates, which usually include materials with a regular

structure (diatomite, flask, vermiculite, hydromica, and others) are increasingly used. Natural silicates are activated chemically or thermally to increase and regulate their pore structure, changing the nature of the surface.

LITERATURE ANALYSIS AND METHODOLOGY

Hence, a promising and very relevant trend is the development of new forms natural modified sorbents intended for local post-treatment of water. Modification of layered silicates with mineral acids leads to an increase in their sorption capacity [1]. The most complete study of the surface modification of layered silicates is presented in the monograph by Yu.I. Tarasevich and F.D. Ovcharenko [2].

It is known [3] that a natural polysaccharide (chitin, chitosan) is used as a surface modifier of natural silicates. The use of polysaccharides for the modification of vermiculites makes it possible to obtain new sorbents with a higher adsorption capacity [4, 5].

Vermiculite was modified as follows: 100 g of vermiculite heated to constant weight at a temperature of 120–150°C with a grain size of 0.10–0.05 mm was stirred in 200 ml of 7 (12, 20, 36.5)% hydrochloric acid solution for two days. Then the suspension was filtered and washed with distilled water until neutral. The resulting vermiculite was dried to constant weight. The main elements were analyzed and its important physico-chemical properties were determined.

DISCUSSION

It is important to conduct fundamental research based on the study of the sorption properties of chitosan. Chitosan and its derivatives are used in a number of industries of interest. The sorbents obtained during the study were stored at a temperature of 20-25°C for 1-7 days. After separating the solid phase, it was washed with distilled water, and the washed water was checked for the presence of Cl⁻ ions. The dried samples were then stored in a desiccator. The study of the adsorption of benzene vapors on the samples was carried out on Mac Ben device and on the basis of the desiccator method. To determine the adsorption activity in solutions, spectral analyzes were performed in the presence of dye solutions (methylene blue (MB), indigo and congo red (CR)). The concentration of dye solutions varied from 0.1 to 1 mmol/l.

RESULTS

We used vermiculite-modified chitosan obtained according to the procedure [6–7]. The adsorption isotherm was determined by the volumetric method. The convenience of this method lies in

the fact that it allows one to further expand the theoretical knowledge of adsorption based on thermodynamic laws. This organ-vermiculite based on chitosan from benzene and water vapor molecules is characterized by interaction with physicochemical forces (Fig. 1, Table 1).

As shown in fig. 1, the duration of the heat of adsorption is determined by the interaction of benzene and water vapors with the amino and hydroxide groups of chitosan due to van der Waals forces. The heat of adsorption is continuous, since the processes proceed with the same bond. Since the molecules of benzene and water vapor are initially sorbed on the surface of the organo-vermiculite membrane, the sorption is very strong. During the last adsorption of benzene and water vapor molecules, the heat of adsorption equalizes on the line of thermal condensation of benzene and water vapor at a temperature of 293–298 K.




Figure 1. Sorption isotherms of benzene and water vapor by vermiculite (A,C) and modified vermiculite (B,D)

Table 1 shows the results of benzene and water vapor sorption isotherm of organvermiculite and the values of

monolayer capacity, specific surface area, saturation volume, mesopore and pore radii were calculated. Compared

Table 1

Benzene and water vapor sorption isotherm of organvermiculite

No	a_m (single floor capacity) mol/kg	S (comparative surface) m^2/g	W_o Micropore	V_s Saturation volume	W_{me} , mesoporous	Pore radius Å, (nm)
In benzene vapor						
VC	0,146	35,14	0,0207402	0.0198545	0.00	11,3
VC+XZ	0,786	188,26	0,1865572	0,2818636	0,10	29,9
In water vapor						
VC	0,148	9,62	0,0744513	0,02448	-0.05	50,9
VC+XZ	1,383	89,84	0,0705948	0,111834	0,04	24,9

with vermiculite, chitosan-modified organvermiculite has higher single-layer capacity and specific surface area. This serves to further increase the adsorption properties of sorbents.

The main method for determining the crystal structure of organosorbents is X-ray diffraction analysis. X-ray diffraction lines for the original XZ, VK and synthesized XZ-VK show that the interplanar distance $d_{0.01}$ of vermiculite layers is 9.8 in Chitosan, respectively; 19.6; 22.5; 24.5 Å in the mineral vermiculite, at 15.8; 18.2; 21; 24; at 30 Å and 9.6 in chitosan-modified vermiculite; 26.2; 31; increased to 34.9 Å (Fig. 2,3-4) [10-12].




Figure 2. Results of X-ray diffraction analysis of chitosan.




Figure 3. Results of X-ray diffraction analysis of vermiculite




Figure 4. Results of X-Ray Diffraction Analysis of Chitosan + Vermiculite

CONCLUSION

According to the results of our research, the specific surface capacity, micro- and mesoporosity of the sorbent obtained by modifying vermiculite on the basis of chitosan was studied using modern physico-chemical methods using the Mc-Ben device, and the degree of crystallinity using the X-ray diffraction analysis method. Our studied sorbent allows us to use it as an import substitute sorbent for industrial wastewater treatment.

REFERENCES

1. Haroon, H., Waseem, A., & Q. Mahmood, (2013). "Treatment and

reuse of wastewater from beverage industry,” Journal of Chemical Society of Pakistan, V. 35, pp. 5–11.

2. S. Y. Lee and S. J. Kim, (2002). “Expansion of smectite by hexadecyltrimethyl ammonium,” Clays and Clay Minerals, V. 50, no. 4, pp. 435–445.

3. Bonczek, J., Harris, W. & P. Nkedi-Kizza, (2002). “Monolayer to bilayer transitional arrangements of hexadecyltrimethylammonium cations on Namontmorillonite,” Clays and Clay Minerals, V. 50, no.1, pp.11-17.

4. Shapkin, N., Khal’chenko, I., and other. (2017). // Inorganic materials. V.53. №10. P.1091.

5. Ихтиярова, Г., Умаров, Б., Исомитдинова, Д., & Туробджанов, С., (2021). Очистка сточных вод текстильного предприятия композиций на основе вермикулита и модифицированного хитозана. // Журнал композиционные материалы. -№4., С.116-118.

6. Khalchenko, I., Shapkin, N., & Shkuratov, A. (2017). // Water practice and technology. V. 12. № 1. P. 117.

7. Хальченко, И., и др. (2015). Химическая модификация вермикулита и исследование его физико-химических свойств. <http://butlerov.com/> *Butlerov Communications*. Vol.41. No.1. P.74-82.

8. Ikhtiyarova, G., and other. (2021). Очистка текстильных сточных вод вермикулитом модифицированного с хитозаном.// International Journal of innovative research.-V.9. Issue 9., pp.9780-9786.

9. Ikhtiyarova, G., and other. (2020). Extraction of chitosan from died honey bee *Apis Mellifera* // Chemical technology, control and management. International scientific and technical journal. Vol. Iss.2, Article 3. –P. 15-20.

10. Ikhtiyarova, G., and other. (2012). “Characterization of natural- and organo-bentonite by XRD, SEM, FT-IR and thermal analysis techniques and its adsorption behaviour in aqueous solutions,” Clay Minerals, V. 47, pp. 31–44.

11. Egamberdiev, E., Rakhmanberdiev, A., & Mardonov, A. (2018). Study of the sorption rate of composition paper samples obtained on the bases of cellulose-bearing plants cellulose and basalt fiber // Austrian journal of Technical and Natural Sciences. №1-2, p.56-62.

12. Egamberdiev, E., Shoabdullaev, Sh., & Saidov, D. 2020. Paper production based on secondary row materials // XVI XVI International Scientific and Practical Conference «Effective tools of modern science» Prague, p. 21-24.

ЁШЛАР МАЪНАВИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШ ТЎҒРИСИДАГИ ИННОВАЦИОН ҒОЯЛАР ВА ҚАРАШЛАР

Тухтасин Худайберганович Ташметов

Чирчиқ давлат педагогика университети доценти, фалсафа доктори (PhD)

E-mail:toshmetovtuxtasin@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Жамиятда маънавият соҳасини ривожлантириш янги технологияларни жорий этишни тақозо қилади. Чунки бу – маънавиятни ёшлар дунёқарашига таъсирини таъминловчи муҳим воситадир. Шу боис, ҳозирги вақтда маънавиятни ёшлар дунёқарашига таъсирини оширишда фундаментал ва амалий тадқиқотлар натижаларидан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этмоқда. Шу билан биргаликда, маънавиятни тарғибот қилишдаги инновацион ўзгаришлар, тизимга ҳар қандай янгиликнинг киритилиши бевосита шу соҳа вакили фаолиятини янгилаш ва ўзгартириш орқали амалга ошириш бугунги кун давр талабидир.

Калит сўзлари: Жамият, миллат, маънавият, мафкура, маърифат, қадрият, миллий ғурур, ахлоқ, ор-номус, интеллектуал, баркамол, тарғибот, тарбия, инновацион, таълим, постиндустриал, кашфиёти, идеосфера, бузғунчи ғоя, инсонпарварлик.

Ҳар қандай миллатнинг тараққиёти жамиятдаги ёшлар қатламининг маънавий қадриятларга муносабати, унинг ёшлар онги ва қалбига қандай таъсир этаётганлигига ҳамда амалий фаолиятларига қай тарзда таянишларига бевосита боғлиқ. Республикамизда ёшлар аҳолининг ярмидан кўпини ташкил этади. Ёшларнинг маънавиятни англаши, унинг эътиқод даражасига кўтарилиши улар ижтимоий ҳаётида, кундалик турмуш тарзида қандай янги қадриятлар шакллантирилганлигига ҳам боғлиқ. Чунки маънавият, бир томондан, ёшлар билан боғлиқ бўлган жараён сифатида қаралса, иккинчи томондан, ёшлар маънавиятнинг илғор ривожлантирувчилари ва келажак авлодга етказувчилари ҳисобланадилар. Учинчидан, ёшларнинг маънавият билан қуролланганлик ва уни англаш даражаси жамият тарққиётининг суръатини белгилайди. Бу ҳолат маънавият ва ёшларнинг ўзаро боғлиқлигини ифодаловчи омил сифатида эътиборлидир.

Шу боис, ҳозирги кунда ёшлар орасида маънавият, ор-номус билан боғлиқ маънавий, ахлоқий ва руҳий ҳолатлар муҳим аҳамиятга эга. Шу нуқтаи назардан, ёшларнинг олдида сохтакорликдан қочиш, мавжуд қийинчиликлар ва муаммоларни очиқ-ойдин баён этиш лозим[1]. Аини пайтда давлатимиз раҳбарияти олиб бораётган



ижобий ишлар ва мавжуд муаммоларни бартараф этиш учун олиб борилаётган саъй-ҳаракатлари ва эришилаётган амалий натижалар хусусида тарғибот ишларини олиб боришга ёшларни руҳлантириш, унинг давлатимизга бўлган ишонч-эътиқодини мустаҳкамлаш олимларимиз, пешқадам зиёлиларимиз, ижтимоий соҳа вакиллари, миллий мафкура билан шуғулланувчи барча тарғиботчиларнинг биринчи даражали вазифаси ҳисобланади.

Бу ўз навбатида, ёшларнинг миллий кадриятга муносабати масаласи маънавият асосида «Миллий тикланишдан миллий юксалиш сари» деган устувор мақсад ва манфаатларини умумлаштирадиган, шу мафкураларни бойитиш ва эътиқодга айлантириш билан боғлиқ. Бизнинг фикримизча, бу ишларни йўлга қўйиш учун қуйидаги масалага алоҳида эътибор бериш лозим:

биринчидан, жорий вазиятни, яқин келажагимизнинг ривожланиш тамойилларини, ундаги салбий ҳолатларнинг сабабларини объектив ўрганадиган мустақил ташкилотлар фаолиятини такомиллаштириш, уларнинг салоҳият ва имкониятларидан тўла фойдаланиш зарур;

иккинчидан, тез суръатларда ўзгараётган, тўхтовсиз янгиланаётган замон, ҳаётимизда тез-тез рўй бериб турган воқеа, ҳодиса ва жараёнлар, давлат мустақиллигининг ижтимоий, иқтисодий, ҳуқуқий, сиёсий, маънавий заминларини бундан ҳам мустаҳкамлаш ва барқарорлаштиришга бўлган талаб ва эҳтиёжлар маънавий, маърифий, мафкуравий ишларни янада жадаллаштириш йўлида сафарбар этиш;

учинчидан, маънавиятнинг таъсири, бир томондан, маърифат-тарғибот ишлари, унинг самарадорлигига боғлиқ бўлса, иккинчи томондан, ёшларнинг кундалик ҳаётда дуч келаётган масалаларни тушунишлари, уларнинг муносабатларига, уни қандай ҳал этаётганликларига боғлиқдир. Миллат келажаги ва Ватан учун фидойи ёшлар бўлмаса, маънавият мафкурасида кўзда тутилган мақсадларга эришиб бўлмайди[2]. Бу эса ёшларда миллий ғурурнинг баланд бўлишини тақозо этади.

Таҳлилимизга кўра, жамиятда маънавиятни тарғибот қилишдаги инновацион ўзгаришлар, тизимга ҳар қандай янгиликнинг киритилиши бевосита шу соҳа вакили фаолиятини янгилаш ва ўзгартириш орқали амалга оширилиши ҳам атрофлича ўрганилган. Инновацион фаолият – бу узлуксиз равишда янгиликлар асосида ишлаш бўлиб, у узоқ вақт давомида шаклланади ва такомиллашиб боради. Инновацион фаолият – янги ижтимоий талаблар билан анъанавий меъёрларнинг мос келмаслиги ёхуд амалиётнинг янги шаклланаётган меъёрининг юзага келган меъёр билан тўқнашуви натижасида вужудга келган қатор муаммоларни ечишга қаратилади. Инновациялар доимий равишда ижтимоий-сиёсий ҳаётга

янгиликлар олиб кириш орқали мафкуравий қарашлар ривожига катта таъсир кўрсатади. Агар инновацион ғоя шундай мазмунга йўғрилмаган бўлса у, албатта, яна бир янги типдаги бузғунчи ғоя ва қарашларни келтириб чиқариши муқаррардир.

Ҳозирги кунга келиб инновация феномени техник-иқтисодий соҳанинг тор доирасини энгиб ўтган. Буни инновациянинг турли маънавий соҳаларида қўлланилаётганида ҳам кўриш мумкин. Эндиликда, инновацион фаолият ривожланишнинг асосий шарти сифатида намоён бўлмоқда. Таълимий, илмий, ижтимоий ва ҳоказо инновацияларнинг мавжудлиги жамиятнинг турли маконларида юзага келган янгиликка интилувчанлик хусусиятини кўрсатади. Бу эса, ўз навбатида, замонавий социомаданий воқеликнинг характерли хусусиятидир. Э.К.Краснухиннинг таъкидлашича, ўтмишга муносабат ўзгармоқда ва жамиятда ижтимоий воқеликларни юзага келтирувчи асос сифатида анъаналардан кўра инновациялар аҳамиятлироқ ҳисобланмоқда.

Демак, инновация, энг аввало, ўз даври нуктаи назаридан асослашни тақозо этадиган мураккаб социомаданий феномендир. Бундан ташқари, инновация социомаданий ҳодиса сифатида ўз моҳиятига, нафақат, замонавий маданиятнинг барча тенденцияларини, балки у янгиликка йўналган феномен сифатида маданиятнинг келажагини ҳам сингдиради. Бизнинг фикримизча, инновацияга янги постиндустриал ривожланиш босқичи объективлашувининг социомаданий модели, деб таъриф бериш мақсадга мувофиқ.

А.И.Пригожиннинг фикрича, «янгилик киритиш махсус механизм сифатида кўплаб аниқ мақсадга йўналтирилган ўзгаришларда ўз ўрнига эга»[3]. Шундай экан, инновация тушунчасининг генезиси ва унинг замонавий адабиётлардаги таърифларининг таҳлили инновациянинг маданиятлашувини тадқиқ этиш ва шу орқали маданиятга ташқи омилларни киритиш ҳамда унинг таркибида янгиликни қарор топтириш механизми сифатида юзага келиб, XXI асрда техник-иқтисодий муаммолар доирасида янгиликни объективлаштириш, маданият ички салоҳиятини рўёбга чиқаришга қаратилган механизм сифатида таъкидлаш имконини беради.

Юқорида баён қилинган фикрларни умумлаштирган ҳолда «инновация» тушунчасига қуйидагича фалсафий таъриф бериш мумкин, деб ҳисоблаймиз: *Инновация кўп қиррали жамият ҳаётининг у ёки бу соҳасини ривожлантириш учун ишлаб чиқилган илгор ғоялар, улар асосида яратилган илмий-амалий лойиҳаларни илм-фанларнинг сўнгги ютуғи, техника ва технологияларнинг янги кашфиёти сифатида мамлакатнинг ижтимоий, иқтисодий, ҳуқуқий, сиёсий, маданий ва маънавий ҳаётида қўлланилишидир.*

Ушбу фалсафий таърифдан ҳам кўриниб турибдики, ҳар қандай инновацион ғоя жамиятнинг идеосферасида қуйидагича

илмий-амалий аҳамият касб этади: ҳар қандай янгилик, энг аввало, ғоядан бошланади. Шунинг учун ҳам жамият ҳаётининг мафкуравий соҳасини мунтазам равишда такомиллаштириб бориш учун, аввало, замонавий маънавият керак бўлади. Бундай ғоя, биринчи навбатда, олимлар ва бошқа фаол фуқаролар томонидан илгари сурилади. Модомики, жамият ҳаётини ривожлантиришнинг инновацион ғоялар тизими ҳақида илмий фикрлар баён қилинган экан, энди уни амалга ошириш механизмини ишлаб чиқиш лозим бўлади[4]. Бунда эътиборни яратилган инновацион маънавият асосида илм-фан ва техника-технологиялар орқали амалга оширилган илмий ишланмаларнинг қандай натижалар беришига қаратиш зарурдир. Маънавият жамиятнинг турли соҳаларини қамраб олади ва инновацион характердаги миллий ғояларнинг ёшлар ғоявий-мафкуравий, ахлоқий-маънавий ҳаётига татбиқ этилиши уларни бунёдкор ғоя ва мафкура руҳида тарбиялаш ва бошқариш ишларининг самарали тарзда ташкил этилишига олиб келади.

Ўз навбатида, инновациялар технологиялар асосида маънавий соҳага янгиликлар олиб кириш орқали ёшлар онги ва қалбида миллий мафкурани шакллантиришимиз бугунги куннинг долзарб жиҳатлардан биридир. Шу маънода миллий мафкура халқимизнинг азалий анъаналарига, удумларига, тилига, динига, руҳиятига асосланиб, келажакка ишонч, меҳр-оқибат, инсоф, сабр-тоқат, адолат, маърифат туйғусини онги ва қалбимизга сингдириши лозим. Ўрганишларимиз асосида «миллий мафкура» тушунчасининг уч асосий жиҳати мавжудлигини аниқладик:

биринчидан, ўзбек миллий мафкураси дейиш тушунчанинг мазмун-моҳиятини торайтириш билан бирга биқиқлик ва худбинликка олиб келади. Шунинг учун мазкур тушунчани мустақил давлатнинг миллий манфаатлар мафкураси – умумий мафкуравий ғояси деб тушуниш мақсадга мувофиқ;

иккинчидан, турли ҳаракатлар, сиёсий партиялар мафкураси, йўл-йўриғи мафкуравий ғоядан четда ёки тескари бўлиб қолмаслиги керак. Ваҳоланки, мафкуралар ягона, бир бутун жамият миллий мафкурасига айланиши лозим;

учинчидан, миллий мафкурамиз глобаллашув мафкураси билан узвий боғлиқ бўлиб, халқимиз қудратига суянган ҳолда, умуминсоний қадриятларга асосланиб, жаҳон мамлакатлари орасида тенг ҳуқуқли ҳамда муносиб ўрин эгаллашига доимий интилиш ҳиссини тарбияламоғи керак, деб ўйлаймиз.

Шу ўринда айтиш лозимки, ғоявий-мафкуравий тизим фаолиятида инновацияларни қўллаш учун сарфланган харажат ва кучлардан мақсад кўпроқ юқори натижани қўлга киритиш ҳисобланади. Бунда инновациялар ўзининг бошқариш кучига айланган ўзгарувчан омил сифатида катта аҳамиятга эга эканлиги билан фарқланади.

Инновация кенг қамровли тушунча бўлганлиги, уларнинг барчасини умумлаштирган ҳолатда бир мавзу доирасида тадқиқ қилиш мураккаблиги боис бу ўринда фақат ёшлар маънавиятини юксалтиришнинг инновацион технология жараёнлари ҳақида фикр юритамиз[5].

Бизнинг фикримизча, ёшлар маънавиятини юксалтиришда инновацион ёндашувлардан фаол фойдаланиш учун:

- а) уларда инновацион тафаккурни шакллантириш;
- б) интеллектуал салоҳиятини замон талаблари даражасида ривожлантириш;
- в) жамиятда ёшлар ижтимоийлашувини ривожлантириш, яъни турли ижтимоий гуруҳ ва қатламлар билан ягона мақсад йўлида ҳамкорликни мустаҳкамлаш;
- г) инновацион ғояларнинг моддий жиҳатдан тўлиқ таъминланишига эришиш;
- д) яратилган инновацион ғояларни амалиётга татбиқ қилишни тизимли равишда ташкил қилиб бориш лозим.

Маънавиятни тарғиб қилишда инновация шу соҳа сифатини яхшилаш мақсадини кўзлаган ҳолда амалга оширилади. Инновациялар долзарб, муҳим аҳамиятга эга бўлиб, маънавият тизимида шаклланган янгича ёндашувлардан иборат бўлади. Мазкур ёндашувлар ташаббуслар ва янгиликлар асосида туғилиб, маънавият тизимининг концептуал мазмунини ривожлантириш учун истиқболли асос бўлиб хизмат қилади.

Инновацион ёндашувлар асосида ёшлар маънавиятини юксалтиришда куйидагиларга алоҳида эътиборни қаратиш лозим, деб ўйлаймиз:

1. Ёшлар қалбида Ватанга садоқат, инсонпарварлик фазилатларини янада юксалтириш.
2. Миллий анъана ва қадриятларнинг ҳаётимиздаги аҳамиятини ҳар томонлама очиқ беришга йўналтирилган давра суҳбати ва учрашувлар ташкил қилиш.
3. Ёшлар онгига оила ва маҳалла, тарихий хотира, миллий ғурур ва ифтихор, баркамол инсон тарбияси билан боғлиқ туйғу ва тушунчаларни сингдириш.
4. Маънавият тарғиботини миллий ва умумбашарий қадриятлар уйғунлигида ташкил этиш.
5. Ислон дини ва фалсафасини ўрганишни миллий ғоя тамойиллари асосида амалга ошириш.
6. Ёшларда касби, маслағи ва эътиқодига содиқлик тушунчаларини шакллантириш.

Ёшларда мана шундай тафаккур тарзини ривожлантира олсак, Ватан осойишталиги ва эл-юрт тинчлиги ғояси устувор



бўлиб, миллий ғурур, миллий ифтихор жамиятимизнинг пойдеворига айланишига эришамиз.

Хулоса сифатида айтишимиз мумкинки, Президентимиз Шавкат Мирзиёев томонидан олиб борилаётган янги ислохотлар маънавият халқимизнинг куч-қудратига айланиши учун шароит яратди. Маънавиятни ҳар бир фуқаронинг нияти ва ҳаракатига айлантириш галдаги энг асосий вазифалардан бири ҳисобланади. Яхши фикр яхшиликка, ёмон фикр ёмонликка йўл очади. Бу борадаги тажрибаларимиз ахборот майдонини фақат негатив контент эгаллаб олмаслиги учун маънавиятнинг тарғиботини инновацион технологиялар орқали янгича мазмунда тўлдириш масаласига алоҳида эътибор қаратиш лозимлигини кўрсатмоқда.

REFERENCES

1. Ташметов Т.Х. Миллий ғояни ёшлар онгига сингдиришнинг замонавий усуллари. “Ёшларга оид давлат сиёсатининг ёшлар ижтимоийлашувидаги ўрни ва аҳамияти”. -Т.: 2019. В 191-195.
2. Т.Т Khudayberganovich. (2020). The importance of the use of innovative technologies in raising the spirituality of young people. International journal of multidisciplinary research (IJMR). –p. 25-27.
3. Пригожин А.И. Современная социология организаций. – М., 1995. –С. 185.
4. Т.Т Khudayberganovich. (2020). Prospects for relying on the basis of the national idea in protecting young people from hard and harmful ideas. International Journal for Innovative Engineering and Management Research. A Peer Reviewed Open Access International Journal. Elsevier SSRN 9 (11) –p. 81-85.
5. Tuxtasin Xudayberganovich Tashmetov. (2021). Global yutuqlardan foydalanishda milliy g‘oyaning samaradorligini oshirish mexanizmlari. Academic research in educational sciences, 2(3), 596-602.



ЎҚУВЧИ КУН ТАРТИБИНИ ОҚИЛОНА ТАШКИЛ ҚИЛИШ ОРҚАЛИ УЛАРНИНГ ФАОЛИЯТ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ

Наргиза Тохировна Авулова

СамДУ Мактабгача ва бошланғич таълим кафедраси ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақоламизда мактаб ўқувчиларининг маънавий ва физиологик ривожланишида оқилон ташкил қилинган кун тартибининг аҳамияти, мавжуд муаммолар таҳлил қилиниб, самарали кун тартибини ташкил қилиш шартлари изоҳланган

Калит сўзлар: бозор иқтисодиёти, замонавий шароитлар, кун тартиби, интизом, вақт бюджети, бўш вақт, ўқув юклагаси, психологик ривожланиш, таълим салоҳияти, вақт қадри.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИХ РАБОТЫ ЗА СЧЕТ РАЗУМНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ РАСПИСАНИЯ УЧЕНИКОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье значение рационально организованной повестки дня в духовно-физиологическом развитии школьников, анализируются существующие проблемы, объясняются условия организации эффективной повестки дня.

Ключевые слова: рыночная экономика, современные условия, повестка дня, дисциплина, бюджет времени, свободное время, учебная нагрузка, психологическое развитие, воспитательный потенциал, ценность времени.

INCREASING THE EFFICIENCY OF THEIR WORK THROUGH THE REASONABLE ORGANIZATION OF STUDENTS' SCHEDULE

ABSTRACT

In this article, the importance of a rationally organized agenda in the spiritual and physiological development of schoolchildren, the existing problems are analyzed, and the conditions for organizing an effective agenda are explained.

Keywords: market economy, modern conditions, agenda, discipline, time budget, free time, educational load, psychological development, educational potential, value of time.

КИРИШ

Ҳар бир бола табиат ва жамият томонидан индивидуал имкониятларга эга. Умуман, инсониятнинг ривожланиши маданият ва таълим контекстида аста-секин содир бўладиган жараён дир. Бугунги кунда ижобий ўзгаришлар билан бир қаторда мактаб таълимнинг ҳолати, шу сабабларга кўра, мактаб ўқувчиларининг таълим фаолиятига бўлган фаоллиги ва қизиқишининг пасайиши, уларнинг жисмоний ва психологик ривожланишининг секинлашуви, ахлоқий меъёрларнинг пасайиши билан тавсифланади [2]. Бу ҳолатга қуйидаги омилларни асос қилиб кўрсатиш мумкин:

- таълим юклагаси;
- психогигиеник талабларнинг бузилиши;
- ўқувчилар ва ўқитувчилар ўртасидаги шахслараро мулоқотнинг, психологик билимларнинг пастлиги [1].

Педагогик ва психологик адабиётларнинг таҳлили, кузатишларимиз мактаб ўқувчиларнинг соғлом турмуш тарзини шакллантириш технологияси етарли даражада ривожланмаганлигини тасдиқлади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯСИ

Маҳаллий тадқиқотчиларимиз **Ш.Мардонов, А.Халиков, А.Садикова, Ф.Ибрагимова, Н.Артикова, Р.Шерметов, Э.Ноқувватовлар, Н.Кошановалар** томонидан мавзуга ёндош мавзуларда, жумладан, мактаб ўқувчиларининг синфдан ташқари ишларини, фаолиятини ташкил қилишнинг назарий асослари ва амалий жиҳатларини ўрганилаган. **Г.Грушин, Г.А. Ефтеева, Б.И.Дубсон, В.В.Журавлев, Г.Е. Зборовский, С.А.Кравченко, Е.В.Бондаревская, Л.И.Новиковалар** умумтаълим мактаблари ўсмир-ёшлари бўш вақтининг фалсафий, шунингдек социологик жиҳатларини; **К.Д.Ушинский, А.С.Макаренко, С.Т.Шатский, П.П. Блонский, А.В.Мудрик, Н.Л.Селивянова, Н.Крупская, К.С.Романова** ва бошқалар бўш вақтни ташкил этишнинг психологик-педагогик жиҳатлари, унинг шахсни ривожлантириш ва мактаб ўқувчиларининг дунёқарашини шакллантиришга таъсири масалалари бўйича илмий тадқиқот ишларини олиб борганлар. Ижтимоий таълимнинг муоммолари **Г.М. Андреева, В.Р.Битинас, В.Г.Бочарова, В.З.Вулфов, А.Н.Леонтиев, А.В. Мудрик** ва бошқалар тадқиқот ишини олиб борганлар. Хорижий олимлардан **Л.Р.Арбек, Х.Грил, Р.Гвардини, М.Парментье, С.Хеллокампе, Ф.Шмейдр** ва бошқалар ўсмир ёшларда ўз-ўзини тарбиялаш муоммосини тадқиқ қилган. Бўш вақт муоммосини немис олимларидан

Л.Вебер, Б.Мюллер, В.Нарстедт, П.Плусква, В.Хорнштейн, Б.Энгхольм ўрганганлар. Маҳаллий олимларимизнинг бу мавзудаги изланишлари етарли даражада эмас.

Тадқиқот ишимизда анализ, синтез, умумлаштириш, қиёсий таҳлил методларидан фойдаланилди.

МУҲОКАМА

Бола кундалик тартибга риоя қилиш орқали интизомга ва шахсий имкониятларидан оқилона фойдаланишга ўрганади. Э.Кант “Педагогика ҳақида” номли асарида ота-оналар ўз фарзандларини эрта болалигидан меҳнасеваликка ва интизомлиликка ўргатиши лозимлиги ҳақида шундай дейди: *“Интизомсизлик маданиятсизликга нисбатан каттароқ иллатдир, чунки маданиятнинг ўрнини кейинроқ тўлдирса бўлади, аммо ёввойиликдан асло қутулиб бўлмайди, интизом борасида қўйилган хато, камчиликнинг ўрнини ҳеч қачон тўлдириб бўлмайди”* [3]. Кант инсон тарбиясида тартиб интизомли бўлиш лозимлигига алоҳида эътибор қаратади. У тартиб-интизомни инсондаги ёввойиликни жиловлаш ва енгиш воситаси эканлигини таъкидлайди. Шу сабабли болаларни оқилона кун тартибига ўргатишни муҳим деб ҳисоблайди. Болалар тарбиясига оид амалий тавсияларида болаларни махсус жисмоний машқлар, турли хил кўнгилочар тадбирларни ҳам педагогик жараёнга фаол равишда қўшиш мумкинлигини кўрсатиб берган. Болани ўқитиш ҳам мактабдаги ва мактабдан ташқари машғулотларини ўз ичига олишини таъкидлаган ҳолда, инсоннинг меҳнат қилувчи ягона мавжудотлигини таъкидлайди [4].

Савол туғилади? Нима учун мактаб ўқувчилари учун кундалик режим зарур? Заиф жисмоний ривожланиш, чарчоқ, летаргия, апатия, тез-тез асабийлашиш ва ёмон хулқ-атворнинг кучайиши каби ҳолатларнинг юзага келиши тўғридан-тўғри ёки билвосита ўқувчининг нотўғри кун тартибига боғлиқ. Афсуски, ота-оналар ҳар доим ҳам фарзандларининг кун тартибига етарлича эътибор беришмайди. Ваҳоланки, бола танасининг ўсиш ва такомиллашувининг муҳим босқичи, асосий характер хусусиятларининг шаклланиши, юқори асабий фаолиятнинг ривожланиши мактаб даврида юз беради. Айни пайтда ҳаёт ва меҳнат учун зарур бўлган билим ва кўникмалар шакллантирилади ва ўзлаштирилади. Рус педагоги **Куценко** амалий тадқиқотлари натижасида мактаб ўқувчиларининг кун тартибини оқилона ташкил этиш бўйича тавсиялар ишлаб чиқади ва амалиётга жорий этишни таклиф қилади. Инсон

табиатнинг бир қисми ҳисобланар экан, табиатда ҳамма нарса ритмик ҳолатда бажарилиши керак. Марказий нерв системаси таъсирида инсон аъзоларидаги барча тизимлар мувофиқлашади ва кетма-кет ритмик ишлайди. Уларнинг мураккаб фаолияти организмнинг атроф-муҳит билан ҳаётий бирлигини таъминлайди, табиат ҳодисаларининг ритми эса ҳал қилувчи таъсир кўрсатади. Масалан, уйқу ва уйғонишнинг ўзгариши кеча ва кундузнинг мунтазам алмашилиши, нафас олиш, юрак фаолияти, овқат ҳазм қилиш, ҳаракатланиш жараёнлари ритмик ва кетма-кет давом этиши билан боғлиқ. Инсон организмнинг тўғри ривожланиши бевосита уйқу ҳолатининг нормал ҳолатига ҳам боғлиқ. Уйқу меъёри бола ёшига қараб ўзгариб бориши бизга маълум. Жумладан, янги туғилган чақалоқ учун 23 соат уйқу вақти меъёр ҳисобланса, 7-8 ёшли болалар учун 10,5-11 соатни, 15-16 яшар ўсмирлар учун 9 соатни ташкил қилади [5]. Бундан ташқари овқатланиш ва дам олиш, юрак уруши меъёрлари ҳам бола ёшига қараб турлича меъёрларда бўлади. Демак, кун тартиби (кунлик режим) организм учун зарур бўлган тўғри физиологик жараёнларнинг аниқ аксидир. Режимга риоя қилинса, мактаб ўқувчиларида вақтни ташкил қилиш бўйича шартли рефлекслар, яъни вақтида ухлаш, дам олиш кўникмалари шаклланади. Агар ота-оналар фарзандларининг кундалик режимини тўғри ташкил қилишга ўргатсалар, болалар мактабда ҳам, уйда ҳам тетик ҳолатда бўлиб, яхши иш қобилиятига эга бўлади. Вақтида дам олган бола ўқув дарсларида дарс жараёнини яхши қабул қилади. Катталар томонидан бола кун тартибининг назорат қилиниши болаларни тартиб-интизомга ўргатади, уларда интизомнинг шаклланиши эса ўз навбатида муайян ишларни бажариш учун масъулият ҳиссини уйғотади. Ўқувчилар ўз вақтларини қадрлай бошлайди ва тизимли ҳаракатланиш кўникмаларига эга бўладилар. Демак, бола ўзи учун маълум бир кун тартиби белгилаб қўйилганлигини ва унга риоя қилиш мажбурий равишда эканлигини яхши билиши, энг муҳими, кун тартиби доимий ишлаши керак. Бола улғайгани сайин вақт ўтиб кун тартиби (кунлик режим)нинг алоҳида таркибий қисмларининг нисбати ҳам ўзгариб боради ҳамда фаолиятининг янги турлари пайдо бўлади. Муайян кун тартибини ташкил этиш вақтлари ва ўтказиш табиати ўзгаради. Мактаб ўқувчиси доимий равишда кундалик режимга риоя қилиб борса, тезда одатларни ўзлаштириб олади ва тез орада ўзи ҳеч қандай эслатмаларсиз бажаришга одатланади. Бу ўз навбатида уларнинг ҳаракатчанлигини оширади. Боланинг кун тартибини тузишда ёш ва индивидуал хусусиятлари эътиборга олиниши лозим.

Ўқувчиларнинг кунлик вақт бюджетида қуйидаги асосий компонентлар ажратилади:

- мактабдаги ва уйдаги ўқув жараёни;
- дам олиш, уйқу вақти;
- дарсдан ташқари машғулотлар;
- ўз-ўзига хизмат кўрсатиш шахсий гигиена қоидаларига риоя қилиш;
- овқатланиш, тоза ҳавода сайр қилиш;
- жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланиш ва ҳ.з.

Боланинг ҳаёти мактаб машғулотлари билан чекланмайди. Мактаб ёшидаги болалар ўзга хос қизиқиш билан тасвирий санъат, мусиқа, спорт тўғаракларига қатнашиш, концерт, кино ва театр томошаларига боришни ёқтиришади. Аммо муттасил равишда телевизор томоша қилиш, интернет ўйинларида вақтини ўтказиш ўқувчининг кун тартибининг бузилишига сабаб бўлади ва шу билан бирга соғлиғига жиддий таъсир кўрсатади. Маданий тадбирлар ва ўқувчи учун севимли машғулотлар болаларнинг ёш хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда тартибга солиниши лозим. Кўп ҳолатларда ота-оналар тез-тез шифокорларга фарзандларининг нотинч уйқуси ва жаҳлдорлигидан шикоят қилишади. Ўқувчиларнинг кунлик режимга қай тарзда риоя қилиши кўп жиҳатдан, ота-оналарнинг таълим салоҳияти ва масъулиятлилиқ даражасига боғлиқ бўлиб, бу борада уларни қуйидаги гуруҳларга ажратишимиз мумкин бўлади:

1-гуруҳ ота-оналари. Фарзандлари бўш вақтини нормал ҳолатда ташкил қила олмайдиган ота-оналар. Бунга ота-оналарнинг таълим салоҳияти пастлиги ёки фарзанд тарбиясига масъулиятсиз ҳаракатлари сабаб бўлиши мумкин.

2-гуруҳ ота-оналари. Дарсдан ташқари таълим юкламаларини меъёридан ошириб юборувчи ота-оналар. Фарзандлари бўш вақтини унумли ташкил қилиш мақсадида таълим ва спорт тўғаракларига уларни меъёридан ортиқ жалб қилувчи ота-оналар. Улар фарзандларини турли фан ва касбий тўғараклар ҳамда спорт машғулотларига мактабгача бўлган ёшиданок ёки мактаб даврида муттасил жалб қилиши оқибатида болада таълимдан бешиш ёки чарчаш ҳолатлари юзага келиши кузатилади.

3-гуруҳ ота-оналари. Таълим салоҳияти юқори бўлган ота-оналар. Фарзандлари бўш вақтидаги таълимий ва дам олиш вақтлари юкламаларини меъёрий талаблар асосида ташкил қила оладиган юқори салоҳиятли ота-оналар.

Кўп ҳолатларда ота-оналар ўзлари болалигида амалга ошира олмаган орзу-умидларини фарзандлари орқали амалга ошириш мақсадида уларни бўш вақтидаги таълимий ёки дам

олишига тегишли юкламаларини ошириб юборадилар. Мактаб ўқувчисининг кун тартибини ташкил қилишда оиладаги катталар режими билан мувофиқлаштирилиши катта аҳамиятга эга. Шу ўринда оилада ўрнатилган катталарнинг кундалик тартибига болани тўлиқ киритиш ҳам мумкин эмас. Тартиб, айниқса, ўқувчилар учун долзарбдир. Бу ўқувчининг янги ҳаётга кўникиши, дам олиш ва ўқишни уйғунлаштиришига ёрдам беради, асабийлашиш, кўзғалувчанликни олдини олади ва кун давомида боланинг ишлаш қобилиятини сақлаб қолади. Ўсмир ёшидаги бола физиологик жиҳатдан ўсаётган организмга эга бўлгани учун уйқу вақти катталарникидан 2-3 соатга кўпроқ эканлигини ҳисобга олиб эртароқ ухлаши лозим бўлади.

Уйқунинг миқдори ва сифати, овқатланиш ва ҳаракатчанлик мактаб ўқувчисининг соғлигига энг катта таъсир қилади. Етарли уйқу 2-2,5 соат бўлмаган болаларда ўқув жараёнидаги самарадорлик даражаси ўз меъёрида бўлмайди (1-жадвалга қаранг).

Мактаб ўқувчилари учун уйқу меъёри.

1-жадвал.

№	Синфлар	Уйқу вақти
1.	1-4 синфлар	10-10,5 соат
2.	5-7 синфлар	10,5 соат
3.	6-9 синфлар	9-9,5 соат
4.	10-11 синфлар	8-9 соат

Шу билан бирга, оилада бир-биридан мустақил иккита режим яратиш ҳам мумкин эмас. Оилада фарзандларнинг катталар кунлик режимида унинг ёши учун зарур бўлган асосий элементларнинг давомийлиги (уйқу, овқатланиш, тоза ҳавода сайр қилиш) бўлиши муҳим. Режимнинг барча таркибий қисмларини ўқувчининг индивидуал ва ёш хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда тўғри, уйғунлашган ҳолатдагина боланинг баркамол ривожланиши ва тарбияланишини таъминлаш мумкин. Айрим ўқувчилар бўш вақтида кўзланган мақсадига эриша олмайди. Агар ўқувчининг шахсий иши, кун тартиби тўғри ташкил қилинса, мазмунли кун режимида эришиш мумкин. Болалар учун яқшанба дам олиш куни ҳақиқий дам олиш куни бўлиши яна бир ҳафталик таълим жараёнига тайёргарлик вазифасини ўташи лозим. Аммо дам олиш жараёни ишлаб чиқилган кун тартибини бузмаслиги керак. Сабаби, болада шакланган рефлексни

бузиш осон, аммо қайта ўрнатиш қийинроқ вазифа ҳисобланади. Ўқувнинг дам олиш кунни жадвали доимий ўрнатилган кун тартибининг бир қисми сифатида одатдаги мактаб кунларидагидан сезиларли даражада фарқ қилмаслиги керак. Мактаб ўқувчилари учун эрталаб уйқудан туриш вақти 7-7:30 ларни қамраб олиниши мақсадга мувофиқдир. Ўқувчи кун тартибида уйга вазифани тайёрлаш алоҳида ўринни эгаллайди. Уйга вазифани тайёрлашда қуйи синфларда уйга вазифа мазмуни энгил шаклда бўлиб, жиддий мулоҳазали топшириқлар берилмайди. Аммо ўқувчи юқори синфга ўтганида топшириқлар қамрови кенгайиб боришини ҳисобга олган ҳолда, ўқувчи шахсий ишини ташкил қилишда уйга вазифаларни бажариш тартибини ўз имкониятларини ҳисобга олган ҳолда белгилаши мақсадга мувофиқдир. Чунки ўқувчиларнинг ўқув материални қабул қилиш ва бажариш суръати бир хил эмас. Шу сабабли ўқувчиларнинг уйга вазифани бажаришга ажратилган вақтини бир хил белгилаб бўлмайди. Ўқувчи уйга вазифасини осонроғидан бошласа тез чарчаб қолмайди ва унинг дарсларга тайёргарлик кўриш жараёни самаралироқ кечади.

Ўқувчиларнинг муваффақиятли ўқув фаолияти бўйича рус педагоги **К.Д. Ушинский**нинг фикрича, агар ўқувчи уйга вазифани узоқ вақт давомида катта юклама билан бажарадиган бўлса, ўқувчининг диққат ва хотираси пасайиб, муваффақияти камайиши мумкин. Бу борада рус педагоги **Г. Куценко** ўқувчи дарс столида узоқ вақт давомида дарс қиладиган бўлса, у ҳолда 40-45 минутдан танаффус қилиб туриши ақлий ва жисмоний томондан фойдали эканлигини айтади. Узоқ вақт руҳий зўриқиш ва катта юкланишлар билан ақлий меҳнат билан шуғулланиш ўқув жараёнида самарадорлик бермайди. Амалиёт шуни кўрсатадики, мактаб ўқувчиларининг кун давомидаги мустақил таълим фаолияти нотекис юкланади. Мактабнинг ўрта ва юқори синф ўқувчилари уйга вазифасига вақт ажратишида ўз реал имкониятларини ҳисобга олиши, яъни ҳар бир топшириқни бажаришга қанча вақт кетишини англаган ҳолда кунлик тартибини белгилаб олиши лозим. Уй вазифасини бажариш ўқув жараёнининг бир қисми сифатида кун тартибида асосий вақтни эгаллаши лозим. Ўқувчи шахсий фаолиятида уйга вазифаларини муваффақиятли бажариши уйда мавжуд шароит-шароитнинг яратилганлиги ҳам муҳим ҳисобланади. Ўсмир-ёшлар кун тартибининг нотекислиги фаолияти самарадорлигини пасайтирувчи омиллардан ҳисобланади.

НАТИЖА

Сўнгги йилларда мактаб дарсликларидagi маълумотларнинг замон талаблари асосида ўқувчилар



тафаккурини ривожлантириш мақсадида анчайин мураккаблашиб бориши ўқувчиларда юқори ўқув юкининг пайдо бўлишига сабаб бўлмоқда. Натижада, улар жисмоний фаолиятга нисбатан ақлий фаолиятга кўпроқ вақт ажратишмоқда. Шунингдек, ҳозирги техноген цивилизация даврида транспорт ва ахборот коммуникация хизматининг ривожланиши, бир томондан, инсоният елкасидаги меҳнат юкларининг камайишига сабаб бўлаётган бўлса, иккинчидан, нафақат ёшлар, балки катта ёшли авлодни ҳам кам ҳаракатланишига ва бунинг оқибатида инсон саломатлиги ҳолати, тананинг чидамлилиги йилдан йилга пасайиб боришига сабаб бўлмоқда. Бунинг натижасида сўнгги йилларда мактабда ва уйда ўқувчиларнинг кўпчилигида жисмоний ҳаракатларнинг етишмаслиги ҳолати мавжуд. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, ўрта ва юқори синф ўқувчиларининг кўпчилигида статик ўтириш вақти 82-85% ни ташкил қилади. Шундан куннинг 16 % ини жисмоний тарбиянинг ташкилиш шаклларига тўғри келади. Мактабга чиққан қуйи синф ўқувчиларида жисмоний фаоллик 50% га камайиши аниқланган. Жисмоний машқларни бажаришда қиз болалар ўғил болаларга нисбатан камроқ ҳаракат қилади. Ўқувчиларнинг жисмоний жиҳатдан кам ҳаракат қилиши тананинг функционал фаолиятига салбий таъсир қилиши натижасида мия фаолиятидаги эътибор ва хотира заифлашуви юзага келади ҳамда ҳаракатларини мувофиқлаштириш пасаяди. Ўқувчи шахсий ишини ташкил қилишда жисмоний ҳаракатлар юкларининг меъёрида бўлишига ота-оналар эътиборли бўлишлари уларнинг ҳар томонлама ривожланишида аҳамиятлидир. Мактаб ўқувчиси кунлик режими, шахсий фаолиятида жисмоний ҳаракатлар меъёрий юкларини билиши мақсадга мувофиқ.

Ўқувчи шахсий фаолиятидаги кун тартибида жисмоний ҳаракатлар қуйидаги кўринишларда бўлади:

- эрталабки бадантарбия машқлари;
- очик ҳавода пиёда сайр қилиш;
- спорт тўғаракларига қатнашиш;
- турли шакллардаги уй юмушлари билан банд бўлиш ва ҳ.з.

Баъзи ота-оналар кўриш қобилияти паст бўлган фарзандларини жисмоний машқларга жалб қилишидан кўрқишади. Аммо шифокор назорати остида жисмоний машқлар билан шуғулланиши мумкин. Ўқувчи кун тартибида жисмоний машқларга вақт ажратишининг ижобий томонлари қуйидагилардир:

- ўқувчи соғлиги мустаҳкамланади;

- жисмоний имкониятлари: чидамлилиқ, тезлик ошади;
- ахлоқий фазилатлари: қатъиятлиқ, жамоавийлик, иродавийлик кабилар ривожланади;
- қон-томирлар фаолияти яхшиланиши натижасида мия фаолияти фаоллашади ва ҳ.з.

Ўқувчи эрталабки бадантарбия машқларини доимий қилиши ва муайян вақтда бажаришга одатланиши мақсадга мувофиқдир. Ўқувчи шахсий ишида гигиена қоидаларига риоя қилиш мактаб ўқувчиларининг ҳаракат маданиятини оширади. Ўқувчи кун тартибида ота-оналарига уй юмушларида ёрдам бериши уларнинг масъулиятлилиқ даражасини оширади. Ўқувчиларда жисмоний машқларни бажариш кўникмаларини шакллантириш нафақат инсоннинг умумий маданиятининг бир қисми, балки боланинг ривожланиши ва физиологик ривожланишида муҳим аҳамиятга эга. Болаларнинг бўш вақтини унумли ташкил қилиш масаласи узоқ вақтлардан буён шифокор ва педагогларни ташвишлантириб келади. Ҳамма ўқувчилар ҳам вақтини мазмунли ташкил қилиш қобилиятига эга эмас. Бу борада **Г.Ушинский** агар бола бўш вақтини қандай ўтказишни билмаса, унинг ахлоқи бузилади деган эди.

Буюк рус ёзувчиси М.Горький инсон ҳар бир кунга кичик ҳаётдек қараши кераклиги ва бунда ҳаётда энг муҳим бойлик нималигига эътибор қаратиши лозимлигини таъкидлайди. Ўқувчиларнинг бўш вақтини оқилона ташкил этиш - бу унинг ривожланиш жараёнининг тўғри бўлишини таъминлайди. Тадқиқот ишларимиз давомида шуни аниқладикки, 12-14 ёшдаги ўсмир-ёшлар телевизор қаршисида ҳафтасига ўртача 20-24 соатгача вақтни ўтказадилар. Аксарият ўқувчиларнинг мобил телефондан, интернет тизимидан доимий, меъёридан ортиқ фойдаланиши оқибатида асосий вақти бесамар ўтаётганлиги сир эмас.

Болаларнинг ҳар бир ёши учун жисмоний фаолиятнинг ёшига хос нормаси мавжуд ва ишлаб чиқилган. Белгиланган оптимал нормалар асосида ташкил қилиниши ўқувчиларнинг таянч-ҳаракат тизимини мустаҳкамлашга, жисмоний ва ақлий фазилатларини тарбиялашга ёрдам беради. Тажриба-синов ишлари амалга оширилган мактаблардаги педагогик кузатишлар натижаси ўқувчиларнинг дарсдан ташқари фаолияти, яъни шахсий ишининг мазмунини ташкил қилишда бир қатор жиддий камчиликлар аниқланди.

Мамлакатимизда кўплаб мактабларда ўқувчиларнинг кунлик режими тартибга солинмаган. Илмий тадқиқот ишимизда ўқувчи кундалиқ тартибига салбий ва ижобий таъсир этувчи омиллар тизимлаштирилди. Булар қуйидагилардир:

- ўқувчининг жисмоний ҳаракатга муносабати (меъёрида ҳаракат қилиш ёки ҳаракатсизлик;

- атроф-муҳит ҳолати;

- ижтимоий-иқтисодий вазият;

- мактаб таълимини ташкил қилишнинг замонавий шароитлари ва ҳ.з.

Кўпчилик оилалар ҳаётининг тартибсизлиги, оилавий турмуш тарзида ўрнатилган ахлоқий-меъёр ва анъаналарнинг бузлиши ўсмир ёшлар тарбиясига салбий таъсир кўрсатувчи етакчи омилдир. Ўқувчининг кундалик фаолиятини оқилона ташкил қилиш муаммоси, ўқувчининг кун тартиби тиббий ва педагогик конференцияларида, ота-оналар йиғилишларида, умуман олганда, яқдилликда ҳал қилиш мумкин бўлган масалалар [5].

Ҳозирги бозор иқтисодиётига ўтиш шароитида ота-оналар фарзандларининг моддий таъминотларини қоплаш билан овора бўлганлиги сабабли ҳамда ўрта синфда ўқиётган фарзандларини катта бўлиб қолганлиги сабабли тарбиялаш унчалик шарт эмас, деб ҳисоблаётганлиги сабабли ўсмир-ёшларнинг шахсий иши доимий назоратда эмас. Ваҳоланки, бола учун энг таҳликали ва эътибор кўп талаб қилинадиган давр 12-14 ёш оралиғидаги давр ҳисобланади. Тадқиқот шуни кўрсатадики болалар бўш вақтининг унумли ташкил қилиниши бу борада ота-оналарнинг шахсий намунаси билан бевосита боғлиқ. Фикримизча, синф раҳбарларининг асосий вазифаларидан бири бўш вақтнинг моҳиятини ҳимоя қилиш, уни мактаб ўқувчилари учун мажбурий машғулотлар билан тўлдирмаслик, балки уларнинг учун мазмунли фаолиятни танлаш эркинлигини сақлаш ва болаларни ўз уни мазмунли режалаштиришга кўмаклашишдир.

ХУЛОСА

Хулоса қиладиган бўлсак, бўш вақтни тўлдириш борасида ўсмирлар барқарор қизиқиш ва эҳтиёжларга эга эмас. Шу нуқтаи назардан ўсмирлар бўш вақтни ташкил этиш шаклларини катталардан талаб қилиш зарур. Аммо бу усул ҳар доим ҳам жисмоний ва ақлий ривожланишида ижобий бўлавермаси мумкин. Ўқувчининг кун тартибига катталар томонидан бериладиган эътибор бу унинг келажагига берилган эътибор сифатида қаралиши лозим.

REFERENCES

1. Апанасенко, Г.Л. Валеология: право на самостоятельность/Г.Л. Апанасенко// Медицинская газета. 1996.-11 октября.-С.10-11.

2. Бедный М.С. Медико –демографическое изучение народфионаселения/М.С.Бедный.-М.,1979.160с.
3. И. Кант.Педагогика тўғрисида. М.Акбаров таржимаси. “Niso-Pligraf”/Тошкент.2013.-Б.33-38.(232)
4. Кант И. Сочинения в шести томах.Т.6.М.,1966. –С.18.(530). www.ziyouz.com.
5. Г.И.Куценко.,И.Ф.Кононов. Режим дня школьника.Москва. “Медицина.1987.-Б.8.(110С).



ЁРДАМЧИ МАТРИЦАЛАРНИ КИРИТИШ ВА УЛАРНИНГ ЭЛЕМЕНТЛАРИНИ АНИҚЛАШ УСУЛЛАРИ

Масъуджон Хикматиллаевич Эшмуродов

Самарқанд давлат архитектура-қурилиш университети, катта ўқитувчиси

m.eshmurodov@samdaqi.edu.uz

АННОТАЦИЯ

Ихтиёрый чизикли чегаравий шартларга эга масалани Дирихле масаласига келтириш йўли билан тўғри чизиклар методини қўллаш усули ишлаб чиқилган. Изланаётган функциянинг қийматлари чегараларда берилган деб фараз қилиб, Дирихле масаласини ечиш амалга оширилади. Функциянинг фараз қилинган қийматларини чегара тугунларида функциянинг янги топилган қийматлари билан чегара шартларининг яқинлашувларига мувофиқ равишда мослаштириш орқали изланаётган функцияларнинг чегаралардаги ҳақиқий қийматлари топилади. Кейин улар тенглама ва битта координата учун чегаравий шартлар яқинлашиши иккинчи тартибини таъминлаган ҳолда тўғри чизиклар усулини амалга оширишда фойдаланилди.

Калит сўзлар: Чекли айирмалар усули, Иссиқлик узатиш, Дирихле масаласи, Хос сонлар ва векторлар.

$$\frac{dU}{dt} = \frac{a^2}{h^2} AU + F \quad (1) \text{ тенглама ҳадларига вектор-устун шаклини бериш}$$

учун уч диагоналли матрицани кўпайтма кўринишида ифодалаймиз.

$$A = V \Lambda V^{-1} \quad (2) \text{ ни ўнгдан } V \text{ га кўпайтириб } VA = V \Lambda \text{ тенгликни оламиз.}$$

Тенгликнинг чап ва ўнг қисмларидаги ифодаларнинг s -устунларини ҳисоблаймиз. Натижани очиш

$$\begin{cases} (-2 - \lambda_s - 2\alpha_0 h)v_{0,s} + 2v_{1,s} = 0, \\ v_{p-1,s} + (-2 - \lambda_s)v_{p,s} + v_{p+1,s} = 0 \text{ агар } p = 1..N-1, \\ v_{N-1,s} + (-2 - \lambda_s)v_{N,s} = 0. \end{cases} \quad (3)$$

тенгламалар системасини беради. (3) система ечимнинг нотривиаллик шarti $D'_{N+1}(\lambda_s) = 0$ билан тўлдирилади. Бу ерда

$$D'_{N+1}(\lambda_s) = \begin{vmatrix} -2 - \lambda_s - 2\alpha_0 h & 2 & 0 & 0 & \dots & 0 & 0 & 0 \\ 1 & -2 - \lambda_s & 1 & 0 & \dots & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & -2 - \lambda_s & 1 & \dots & 0 & 0 & 0 \\ & & \dots & & \dots & & \dots & \\ 0 & 0 & 0 & 0 & \dots & 1 & -2 - \lambda_s & 1 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & \dots & 0 & 1 & -2 - \lambda_s \end{vmatrix}_{N+1}$$

$0 \leq |\lambda_s| \leq 4$ деб фараз қилиб, $-2 - \lambda_s = 2 \cos \theta_s$ белгилаш киритилади. У ҳолда детерминант куйидаги кўринишни олади:

$$D'_{N+1}(\theta_s) = (2 \cos \theta_s - 2\alpha_0 h) D_N(\theta_s) - 2D_{N-1}(\theta_s). \quad (4)$$

Бу ерда биз


$$D_n(\theta_s) = \begin{vmatrix} 2 \cos \theta_s & 1 & 0 & \dots & 0 & 0 & 0 \\ 1 & 2 \cos \theta_s & 1 & \dots & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 2 \cos \theta_s & \dots & 0 & 0 & 0 \\ & & \dots & & \dots & & \\ 0 & 0 & 0 & \dots & 1 & 2 \cos \theta_s & 1 \\ 0 & 0 & 0 & \dots & 0 & 1 & 2 \cos \theta_s \end{vmatrix}_n = \frac{\sin(n+1)\theta_s}{\sin \theta_s}$$

ёрдамчи детерминантдан фойдаландик. $\sin \theta_s \neq 0$ шартида (4) шакл алмаштиришлардан сунг $\varphi(\theta_s) = 0$ кўринишни олади. Бу ерда

$$\varphi(\theta_s) = \sin(N+2)\theta_s - 2\alpha h \sin(N+1)\theta_s - \sin N\theta_s. \quad (5)$$

Ушбу функция $\theta_s = 0$ ва $\theta_s = \pi$ да ноль қийматга эга ва $(0; \pi)$ ораликда эса қаррали илдизга эга эмас (2.1-расм). $\theta_s = 0$ ва $\theta_s = \pi$ чегаралардан $\delta (\ll 1)$ кичик масофада функция мос равишда $\varphi(\delta) = 2\delta(1 - \alpha_0 l)$ ва $\varphi(\pi - \delta) = (-1)^{N+1} 2\delta(1 + \alpha_0 l)$ қийматларга эга.

Ҳисоблашларда одатда $N+1$ жуфт қиймат деб олинади. У ҳолда $\varphi(\pi - \delta) > 0$, яъни $\varphi(\theta)$ функциянинг графиги $\theta = \pi$ да ўсувчи. $\alpha l < 1$ ва $\theta_0 = 0$ да ҳам функциянинг графиги ўсувчи Бундан келиб чиқадики, бу шартларда $\varphi(\theta) = 0$ тенгламанинг ечимлари сони жуфт бўлиб, ҳисоб-китоблар кўрсатганидек, барча θ_s илдизлар (5) тенгламадан аниқланади.



1-расм. $\varphi(\theta)$ функциянинг $N=9$ ва α_0 нинг турли қийматларидаги графиклари

$\varphi(\theta)$ функциянинг $l=1$, $N=9$ даги графиклари, $\alpha_0 h$ комплекснинг қийматлари ўсганда манфий қийматдан бошлаб тенгламанинг биринчи θ_0 илдизи чапга силжийди ва $\alpha_0 l=1$ да $\theta=0$ билан мос тушади. Шу муносабат билан, $\alpha_0 l=1$ да $\theta_0=0$ илдиз қабул қилинади. Мос равишда, $\cos \theta_0=1$ ва $\lambda_0=-4$. Ҳисоблашлар шуни кўрсатдики, $\alpha l > 1$ да $\varphi(\theta)=0$ тенгламанинг биринчи илдизи θ_0 йўқолади, яъни биз фойдаланган алмаштириш ўз маъносини йўқотади, чунки $0 \leq |\lambda_0| \leq 4$ шарт бажарилмайди.

Шуни таъкидлаш керакки, тўғри чизиқлар усулида учинчи жинсли чегаравий шартларнинг ўзига хос хусусияти хос сонларни аниқлашда сонли усулдан фойдаланиш ҳисобланади. Яъни, агар иккинчи жинсли аралаш ёки бир хил чегаравий шартларда α коэффициент, албатта, чекли-айирмали тенглама ўнг қисмида пайдо бўлса, у ҳолда учинчи турдаги чегара шартларда у ўтиш матрицасининг ўзида иштирок этади ва бу хусусий қийматлар учун масалани ечишда сонли усулдан фойдаланишни шартлайди.

Бошқа томондан, биринчи ва иккинчи жинсли чегаравий шартларнинг аралаш ёки бир хил чегаравий шартларида $-2 - \lambda_s = 2 \cos \theta_s$ алмаштириш ўтиш матрицасининг барча хос қийматларини аналитик усулда аниқлашни таъминлайди, у ҳолда учинчи жинсли чегара шартларнинг маълум ҳолларида

$0 \leq |\lambda_s| \leq 4$ шарт бажарилмаганлиги сабабли илдиз йўқолади. Лекин бу хос қийматлар масаласини ечишнинг тригонометрик усулидан воз кечиш учун сабаб эмас.

Шундай қилиб, аввал тригонометрик тенгламани $(0; \pi)$ оралиқда ечамиз. Буни ўнг учидан, яъни $\theta = \pi$ дан бошлаш маъқулроқ. $\theta_p = \pi$ (ўнг) ва $\theta_l = \pi - \Delta$ (чап) чегаралари бўлган кесмани ажратамиз ва бу ерда, масалан, $\Delta = \pi / 1000$. Шартли равишда $\varphi(\theta_p) > 0$ деб қабул қиламиз. $\varphi(\theta_l)$ ни ҳисоблаймиз ва $\varphi(\theta_l)\varphi(\theta_p) < 0$ шартнинг бажарилишини текшираемиз. Агар у бажарилмаса θ_l ва θ_p сифатида қабул қилинадиган $\theta_l - \Delta$ ва $\theta_p - \Delta$ янги чегараларга эга кейинги кесмага ўтамиз, $\varphi(\theta_p)$ қийматни эса $\varphi(\theta_l)$ билан алмаштираемиз. Яна $\varphi(\theta_l)$ ни ҳисоблаймиз ва $\varphi(\theta_l)\varphi(\theta_p) < 0$ шартнинг бажарилишини текшираемиз. Ва шундай жараёни шарт бажарилмагунча давом эттираемиз. Шарт бажарилганда, тенгламанинг k -чи илдизи тегишлилик кесмасининг қуйи чегараси сифатида θ_l ни хотирада сақлаймиз, $\varphi(\theta_p)$ ишорасини ўзгартираемиз. Ва $\varphi(\theta)$ функция ишорасининг ўзгариши бўладиган кейинги кесмани қидиришни давом эттираемиз. Ушбу жараён $\theta_l = 0$ га етгунча давом этади.

Натижада $\varphi(\theta)$ функция ўз қиймати ишорасини ўзгартирадиган барча кесмалар ажратилади. Ундан кейин дихатомия усулидан фойдаланиб, ҳар бир илдизнинг қийматларини керакли аниқликда топамиз.

Ушбу ечиш усулини қўллаш $\alpha l < 1$ ҳолда $N + 1$ хос қийматларни ва $\alpha l \geq 1$ ҳолда эса N та илдизларни топиш имконини беради. $\alpha l = 1$ ҳолида, юқорида айтиб ўтилганидек, биз $\cos \theta_0 = 1$ ва $\lambda_0 = -4$ деб қабул қиламиз. $\alpha l > 1$ ҳолида эса $\cos \theta_0$ шартли қийматни Виет теоремаси [26] асосида аниқлаймиз. D'_{N+1} детерминантни $c = 2 - \lambda_s$ бўйича ёйиш

$$D'_{N+1} = c^{N+1} + a_1 c^N + \dots + a_N c + a_{N+1}$$

кўпхадга олиб келади.

$N + 1$ нинг турли хил қийматлари учун ёйилма коэффицентларининг қийматларини ҳисоблаймиз, бу ерда биз $c = 2 \cos \theta_s$ ва $\beta = 2\alpha_0 h$ белгилашдан фойдаланамиз:

$$D'_1 = c - \beta,$$

$$D'_2 = \begin{vmatrix} c - \beta & 2 \\ 1 & c \end{vmatrix} = c^2 - \beta c - 2,$$

$$D'_3 = \begin{vmatrix} c - \beta & 2 & 0 \\ 1 & c & 1 \\ 0 & 1 & c \end{vmatrix} = cD'_2 - D'_1 = c(c^2 - \beta c - 2) - (c - \beta) = c^3 - \beta c^2 - 3c + \beta,$$

$$D'_4 = \begin{vmatrix} c - \beta & 2 & 0 & 0 \\ 1 & c & 1 & 0 \\ 0 & 1 & c & 1 \\ 0 & 0 & 1 & c \end{vmatrix} = cD'_3 - D'_2 =$$

$$= c(c^3 - \beta c^2 - 3c + \beta) - (c^2 - \beta c - 2) = c^4 - \beta c^3 - 4c^2 + 2\beta c + 2,$$

$$D'_5 = cD'_4 - D'_3 = c(c^4 - \beta c^3 - 4c^2 + 2\beta c + 2) - (c^3 - \beta c^2 - 3c + \beta) = c^5 - \beta c^4 - 5c^3 + 3\beta c^2 + 5c - \beta, \dots$$

Умуман олганда, қуйидаги қонуният кузатилади. Биринчидан, тенгламадаги c^N ҳад коэффициентлари $a_1 = -\beta$. Виет теоремаси ва киритилган белгилашларга кўра $\sum_{s=0}^N c_s = 2\alpha_0 h$ га, $\sum_{s=0}^N \cos \theta_s = \alpha_0 h$ га эга бўламиз. Бундан $\cos \theta_0 = \alpha_0 h - \sum_{s=1}^N \cos \theta_s$ ва $\lambda_0 = -2 - 2\alpha_0 h + 2 \sum_{s=1}^N \cos \theta_s$ ларни топиш мумкин.

Иккинчидан, кўпхаднинг озод ҳади қуйидаги кўринишга эга:

$$a_{N+1} = (-1)^{N+1} \prod_{s=0}^N 2 \cos \theta_s = \begin{cases} -2\alpha_0 h, & \text{агар } N+1 = 4m+1, \\ -2, & \text{агар } N+1 = 4m+2, \\ 2\alpha_0 h, & \text{агар } N+1 = 4m+3, \\ 2, & \text{агар } N+1 = 4m. \end{cases}$$

Ундан $\alpha l > 1$ да хос қийматларни топиш натижаларини текшириш учун фойдаланиш мумкин.

Шундай қилиб, $\alpha l < 1$ да A функция ўтиш матрицасининг барча хос қийматлари характеристик тенгламанинг тригонометрик кўринишидан сонли усул билан топилади.

$\alpha l = 1$ да ўтиш матрицасининг биринчи хос қиймати $\lambda_0 = -4$ каби аниқланди, қолган хос қийматлар характеристик тенгламанинг тригонометрик ифодасидан топилди.

А функция ўтиш матрицасининг биринчи хос қийматини аниқлаш учун биз характеристик тенгламанинг кўпхадли кўриниши ва Виет теоремасидан фойдаландик, қолган хос қийматлар эса характеристик тенгламанинг тригонометрик ифодасини сонли ечиш орқали аниқладик.

REFERENCES

1. Хужаев Ж.И. Алгоритм расчёта трёхмерного температурного поля хлопка-сырца // Вестник ТашГТУ. - Ташкент, 2014. - № 3 (87). – С. 36-39.
2. КМ Шаймов, МХ Эшмуродов, ИК Хужаев. ЧИСЛЕННЫЙ МЕТОД РЕШЕНИЯ ЗАДАЧ О ДВИЖУЩИХСЯ ТОЧЕЧНЫХ ИСТОЧНИКАХ ТЕПЛА ВНУТРИ ОБЛАСТИ ТЕПЛООБМЕНА//ТУИТ имени М.ал-Хоразми – Проблемы вычислительной и прикладной математики, Ташкент, 2020.-№1(25).- С. 59-68.
3. M Kh Eshmurodov, K M Shaimov, I Khujaev and J Khujaev. Method of lines for solving linear equations of mathematical physics with the third and first types boundary conditions//Journal of Physics: Conference Series 2131, 2021. -P.1-10.
4. М.Х. Эшмуродов, К.М. Шаймов. ИХТИЁРИЙ ЧИЗИҚЛИ ЧЕГАРАВИЙ ШАРТЛАР УЧУН ПАРАБОЛИК ТЕНГЛАМАНИ ЕЧИШДА ТЎҒРИ ЧИЗИҚЛАР УСУЛИНИ ҚЎЛЛАШ АЛГОРИТМИ//Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 11 | 2022. Б. 124-133.
5. М.Х. Эшмуродов. ТЎҒРИ БУРЧАКЛИ СОҲАДА ИССИҚЛИК ТЎЛҚИНЛАРИ ТАРҚАЛИШИ МАСАЛАНИ ЕЧИШ. Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 1 | 2023. Б. 111-115.
6. I. Khujaev, J Khujaev, M Eshmurodov and K Shaimov. Differential-difference method to solve problems of hydrodynamics. Journal of Physics: Conference Series 1333. 2019. -P. 1-8.

КОМПЬЮТЕР ИМИТАЦИОН МОДЕЛЛАР АСОСИДА ЯРАТИЛГАН ВИРТУАЛ ЛАБОРАТОРИЯ УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ЎҚИТИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА

Ф. Х. Ишқобилов
ҚарМИИ илмий изланувчиси

АННОТАЦИЯ

Умумтаълим мактабларида 7-синф “Биология” (зоология) фанини ўрганишда назарий, амалий ва лаборатория машғулотларини ҳамда мустақил уй иши топшириқларини мустаҳкамлаш йўлларидан бири, ўрганилаётган жараён ва ҳодисаларнинг намоишидан иборат ўқувчиларнинг экспериментал ишлари ҳисобланади. Ушбу мақолада эса “Зоология” дарслиги бўйича виртуал лаборатория моделини яратилиши, виртуал лаборатория иши таркиби ва ундан фойдаланиш методикаси ҳақида фикр юритилган.

Калит сўзлар: лаборатория, виртуал лаборатория, компьютер имитацион модели, эксперимент, зоология фани, умумтаълим мактаб.

КИРИШ

Ҳозирги кунда таълимнинг мазмуни ва сифатини такомиллаштириш масалаларига республикамизда алоҳида аҳамият берилмоқда. Шунингдек, дунёнинг ривожланган мамлакатлари сингари таълимга замонавий ахборот технологияларини жорий этиш, таълимни ривожлантириш, унинг самарадорлигини ошириш йўллари изланмоқда, таълимга ахборот технологияларини жорий этиш йўналишида олиб борилаётган тадқиқотлар такомиллаштирилмоқда, таълим тизимида замонавий ахборот коммуникацияси технология имкониятларидан фойдаланиш жадал тус олмоқда. Кейинги йилларда таълимда ахборот коммуникация технологияларини қўллаш соҳасида янги атама, яъни – виртуал ўқув лабораторияси тушунчаси шаклланди [4]. У масофавий таълим тамойилларига мос келади ҳамда ўқув жараёнининг моддий-техник таъминоти билан боғлиқ муаммоларни қисман бўлсада, ҳал этиш имконини беради. Ҳозирда виртуал ўқув лабораторияси тематикасида илмий-методик ишлар, виртуал асбоб-ускуналар ва улардан фойдаланиб, бажариладиган лаборатория машғулотлари тавсифлари жуда кам [2, 3]. Бизнинг фикримизча, умумтаълим мактабларида виртуал ўқув лабораторияси тушунчаси методологик нуқтаи назардан анча кенг маънога эга. У нафақат виртуал асбоб-ускуналар, балки

техник объектлар конструкциялари, виртуал ўқув хоналари, математик ва имитацион моделлаштириш тизимлари, амалий дастурларнинг ўқув ва саноат пакетларини ўзида интеграциялаши мумкин. Виртуал ўқув лабораториясидан ўқувчилар нафақат лаборатория машғулотида, балки уй ишлари ва топшириқларни бажаришда ҳам кенг фойдаланишлари мумкин.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Методик нуқтаи назардан эса виртуал ўқув лабораторияларни сунъий интеллект тизимларида қабул қилинган билимларни тасаввур қилиш моделлари типологиясидан келиб чиққан ҳолда процедура, декларатив ва гибрид (процедура-декларатив) типларга таснифлаш мумкин.

Процедура типигаги виртуал ўқув лабораторияси асосини амалий дастур пакетлари ёки мутахассис фаолиятини автоматлаштиришга мўлжалланган саноат аналоглари ташкил қилади. Уларни яратишда, асосан, математик, физик ва биологик жараёнларни моделлаштириш ҳамда ўрганилаётган объект ва жараёнларни оптималлаштириш масалаларига эътибор қаратилади. Баъзида биологик жараёнларни моделлаштиришга оид мураккаб объект ва жараёнларни тадқиқ қилишнинг ягона усули ҳисобланади. Бундай амалий дастур пакетларда ўрганиш предмети фаолиятнинг метод ва воситалари, масалан, зоология фани доирасида мавзуларни ўрганиш бўйича имитацион моделларни ўрни бекиёсдир.

Умумий ўрта таълим мактабларидаги 7-синф ўқувчилари “Зоология” фани ўрганишда компьютер имитацион моделлар ёрдамида яратилган виртуал лаборатория бўйича ташкил этилган ўқув амалий ёки лаборатория ишлари ўқитишда ўрни катта аҳамият касб этади. Албатта, бу мақсадда махсус ўқув хоналари билан таъминланса ўқувчи ёшларни билим олиши янада осонлашади [3]. Шунинг ҳам таъкидаш лозимки, имитацион моделлар асосида зоология фанини ўқитишда асосан шахсий компьютер ёки ноутбук ва проектор орқали ўқувчиларини билим, кўникма ва малакаларини ошириш мумкин.

Ҳозирги замон умумтаълим мактаблари ўқув лабораторияларини замонавий асбоб-ускуналар, жиҳозлар, конструкциялар асосан йирик таълим муассасаларида жуда катта маблағ ҳисобига ташкил этиш мумкин[4]. Бундай виртуал лабораторияларни яратиш ва улар билан ишлаш электрон дарсликларни яратиш ҳамда улардан фойдаланишга ўхшайди.

Яратилган имитацион моделлар асосида мактаб ўқувчилари зоология фанида доир мавзуларни ўрганишлари ҳамда бошқа бир қатор амалий ва лаборатория машғулотида бажаришлари мумкин. Масалан, ўқувчилар зоология фанидан ясси

чувалчанглар типи: сўргичлилар ва тасмасимон чувалчанглар синфлари мавзуси бўйича яратилган компьютер имитацион моделлар асосида ўзлари дарс вақтида ёки мустақил равишда уй иши топшириқларида ўрганадилар. Ўқув материални идрок этиш самарадорлигини ошириш учун ўрганиш объектини яхлит кўриш ва унинг ҳаётий жараёнлари билан танишиш имконини берадиган махсус технологик усуллардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Маълумки, умумтаълим мактабларида ўқувчилар билимларини оширишда фойдаланиладиган замонавий экспериментал қурилмаларнинг кўпчилиги анча мураккаб, катта ҳажмли ва қиммат турадиган мажмуалардан иборат бўлиб, улар нархи, ўлчамлари, ишлатилиши шартлари бўйича бироз мураккаб ва шунинг учун кўплаб умумтаълим мактабларининг ўқув жараёнида кўпгина амалий ва лаборатория ишларни талаб даражасида бажариш имкони бўлмайдиган ва экспериментлар ўтказилмайдиган [1].


Шунинг учун мавжуд муаммоларни ҳал қилиш усуллари билан бири – бу компьютер имитацион моделлар ва экспериментал дастурий воситалардан фойдаланиш ҳисобланади.

Умумтаълим мактабларида ўқитиладиган Зоология фани маълум маънода ҳам назарий, амалий ва лаборатория фанлари бўлиб ҳисобланади. Шу сабабли, унинг назарий хулосаларини амалда текшириб кўриш учун, унда содир бўладиган ҳодиса ва жараёнларни ҳамда асбоб ускуналарни чуқур ўрганиш учун албатта ҳар бир ўқувчи ёки фойдаланувчи эксперимент ўтказиш малакаси ҳамда кўникмасига эга бўлиши керак. Бунинг учун эса улар зоология фани бўйича бир қатор амалий ва лаборатория машғулотларини бажариши керак. Лекин, амалда кўпгина амалий ва лаборатория машғулотларини бажаришда қуйидаги бир қатор қийинчиликлар ҳам мавжуд: масалан, асбоб ускуналарнинг етишмаслиги ва улар билан ишлашнинг мураккаблиги; ўқувчиларда ўлчов асбоблари билан ишлаш малакасининг етарли эмаслиги; кўпгина биологик жараёнларни кўз билан кўриб бўлмаслиги. Шу камчиликларни бартараф этиш мақсадида ушбу ишда эса умумтаълим мактабларида ўқитиладиган зоология фани бўйича виртуал лаборатория яратиш методикаси такомиллаштирилган модели, виртуал лаборатория машғулотлари таркиби ва уларни қўллаш методикасининг асосий жиҳатлари келтирилган (1-расм).

Имитацион моделларни яратиш қуйидаги босқичларни ўз ичига олади: мақсадни аниқлаш; ишлаб чиқиладиган имитацион моделларни танлаш; имитацион моделларнинг имкониятларини аниқлаш; мазмунли ва моҳият вазифаларни аниқлаш; йўриқномасини

тузиш; моделни синовдан ўтказиш; виртуал эксперимент натижаларини ишончилигини баҳолаш ва таҳлил қилиш.

Мақсадни аниқлаш босқичи – материал, техник, вақт, кадр ресурслари, шунингдек таълим олувчиларнинг шахси ва ёш хусусиятларини ҳисобга олиб, энг самарали ва мос келадиган воситалар билан таълим натижаларига эришишда йўл қўйиладиган четланиш чегараларини белгилаш билан режалаштирилаётган амалий ва лаборатория машғулотларининг мақсадларини танлаш жараёнини кўзда тутади.



Расм-1. Зоология фанидан виртуал лабораторияни ишлаб чиқиш модели

Ишлаб чиқиладиган имитацион моделларни танлаш босқичи – қуйидаги бир қатор ҳолатлар билан боғлиқ: ресурсга етишиш режими, улардан фойдаланишнинг молиявий шароитлари, интерфейснинг тили ва мураккаблиги, ва албатта мазмуни билан, яъни ушбу имитацион модел режалаштирилаётган амалий ва лаборатория машғулотларининг мақсадига эришиш учун ўқувчилар ёки фойдаланувчиларга тақдим

этиладиган ёки тақдим этилмайдиган имкониятлар билан шартланади.

Имитацион моделларнинг имкониятларини аниқлаш босқичи – бу босқични ўқувчилар фаолиятини лойиҳалаш жараёнининг муҳим элементи сифатида қараш мумкин. Бу ерда ушбу лаборатория машғулоти доирасида қандай ҳаракат ёки жараёнларни ўтказиш ва кузатиш кераклигини, уни бажаришдан кейин (дидактик вазифалар) қандай хулосага келиши, қандай асосда малакаларини шакллантириш режалаштирилади.

Бунда таклиф этилаётган виртуал лаборатория машғулотларининг бошқа виртуал лабораториялардан фарқи қуйидагилардан иборат: барча виртуал лабораториялар ягона концепцияга асосланган бўлиб, уларнинг кейинги қўлланишининг ягона методикасига таянади, яъни ишлаб чиқилган виртуал лабораторияларни қўллаш методикаси асос қилиб олинган; виртуал лабораториялар асосида виртуал экспериментлар устувор бўлган ўргатувчи дастурлар мажмуаси бўлиб, у зарур маълумотнома, ҳисоб-китоб, тест ўтказувчи ва ўргатувчи компонентларни ўз ичига олади.

Виртуал лабораториялардан фойдаланишнинг қуйидаги методикаси таклиф этилган: таълим оловчиларнинг психологик, интеллектуал, шахсий хусусиятларини, шунингдек тайёргарлик даражасини ҳисобга олган ҳолда имитацион моделлар билан ишлаш имконияти яратилади. Ўқитувчига реал вақт режимида виртуал экспериментни бажаришга ёрдам бериш ва унинг кечишини назорат қилишга имкон берувчи виртуал лабораторияларнинг компьютер ҳамда мобил иловалар ёрдамида ҳам ўрганиш учун ишлаб чиқилган. Бундан ташқари, мобил илова ёрдамида ўрганувчилар учун жуда қулай; ўқитиш жараёнида виртуал лабораториялардан фойдаланиш, одатда алоҳида лабораторияларни бажариш вақтини анча қисқартиради, бу эса лаборатория амалий кўринишини кенгайтиришга имкон беради. Бундан ташқари виртуал лабораториялар ҳатто реал лаборатория қурилмалари етарли бўлмаган шароитида ҳам энг қиммат, ҳаёт учун хавфли, аммо ўқитиш учун зарур бўлган экспериментларни ўтказиш имконини беради; масофадан ўқитишда, виртуал лабораториялардан шу жумладан, компьютер ва мобил иловалардан фойдаланишнинг ҳам ўзига хослиги ва умумий қоидалари катта имкониятлар яратади, чунки имкониятларни ҳисобга олган ҳолда ўқув муассасасидан ташқарида уй иши ёки топшириқларни ўз вақтида бажариш учун жуда қулайдир.

Сўрғичлиларнинг баргсимон танаси қалин кутикула билан қопланган. Воягаётган даврида умуртқали ҳайвонларда, личинкаси умуртқасиз ҳайвонларда паразитлик қилади. Жигар қурти сўрғичлилар синфининг типик вакили ҳисобланади.


Жигар қурти қорамол, қўй, эчки, чўчка, туя ва бошқа йирик сүт эмизувчилар жигарида паразитлик қилади. Жигар қуртининг узунлиги 3–4 см, шакли баргсимон бўлиб, танасининг олдинги учида оғиз сўрғичи, ундан сал кейинроқда эса қорин сўрғичи жойлашган. Паразит сўрғичлар ёрдамида жигарнинг ўт йўллари деворига ёпишиб олади. Ушбу юқорида такидланган жараёнларни биз компьютер имитацион моделлар асосида виртуал анимацияларини ишлаб чиқдик ва бу жараёнларни кетма-кет танишиб чиқамиз.

Юқорида қайд этилган маълумотларни эътиборга олган ҳолда “Биология” (зоология) фанининг “Ясси чувалчанглар типи: сўрғичлилар ва тасмасимон чувалчанглар синфлари” мавзуси қуйидаги имитацион моделларни ўз ичига олган:




Жигар қуртининг тузилиши

Ҳазм қилиш системаси оғиз сўрғичи ўртасида жойлашган оғиз тешигидан бошланади. Оғзи қисқа ҳалқум орқали икки шохли ичак билан туташган. Ичакнинг ҳар қайси шохи яна кўп ён шохларга ажралади. Жигар қурти ўт суюқлиги ва қонни сўриб озиқланади. Ушбу жараёнларни компьютер дастурий воситалар ёрдамида виртуал анимацияларни кузатишимиз мумкин.



1-og'iz so'rg'ichi;



2-og'iz;

Виртуал лаборатория ишлари мажмуаси ўқувчиларнинг “Биология” (зоология) фанининг “Ясси чувалчанглар типи: сўрғичлилар ва тасмасимон чувалчанглар синфлари” мавзуси

бўйича амалий ёки лаборатория машғулотларини мустақил бажариши, амалий ва лаборатория машғулотларини дарс жараёнида ёки уй ишиларида бажариш кўникмасини ҳамда малакасини эгаллаш ва назарий билимларини мустаҳкамлашга қаратилган. Ҳар бир амалий ва лаборатория иши ўрганилаётган мавзунинг назарий тавсифи, ўлчаш бажариладиган стенднинг тавсифи, вазифалар ва уларни бажариш методикаси ҳамда асосий ва қўшимча адабиётлар рўйхатига эга. Ҳар бир амалий ҳамда лаборатория машғулотлари бўйича имитацион моделлар ишлаб чиқилган уларнинг ишлар жараёнини видео, аудио ва ҳаракатли анимация кўринишдаги моделларига эга.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб шуни таъкидлаш жоизки, ўқув жараёнида ахборот технологиялардан фойдаланишнинг самарали томонлари кундан-кунга ўзининг исботини топиб бормоқда. Бунда ўқитувчи ва ўқувчи доимо изланишга, ўрганишга, ўз фикрини мустақил ифода этиш борасида амалий кўникма ва малакаларини ривожлантириб боришга мажбур бўлади. Бу эса ўз навбатида уларнинг келажакда ўз қизиқишлари бўйича фанларни ўрганишда чуқур билимларни эгаллашлари учун замин яратади.

REFERENCES

1. Ишқобилов Ф. “Компьютер имитацион моделлар асосида ўқувчиларнинг зоология фани бўйича билимларини ошириш методикаси” Замонавий таълим илмий-амалий оммабоп журнал. №10 (107) 2021.
2. Ишқобилов Ф. “Компьютер имитацион моделлар асосида зоология фанидан угленоидларнинг тузилиши ва ҳаракатларини виртуал лабораториясини яратиш технологияси” ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ. 2022 1/1.
3. Ishqobilov Farrux Hayrilloevich, Ta'limda virtual aboratoriyalarni qo'llash. “Замонавий таълимда рақамли технологиялар: Филология ва педагогика соҳасида замонавий тенденциялар ва ривожланиш омиллари”, Тошкент-2021, март сони.
4. Закирова Э.И. Использование виртуальных лабораторных практикумов в образовательном процессе технического вуза // Дискуссия. – 2015. – Т. 59. – № 7. – С. 122-126.

«БОШҚАРУВ ТАМОЙИЛЛАРИ» ФАНИНИ ЎҚИТИШДА КЕЙС ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Зулфия Худайбергановна Носирова

Муҳаммад ал-Хоразимий номидаги ТАТУ ассистенти

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада “Бошқарув тамойиллари” фанини ўқитишда кейс технологияларидан фойдаланишни билим олувчиларга тушунарли ва фойдалилигини англатишдан иборатдир. “Бошқарув тамойиллари” фани иқтисодий билимларни эгаллаш билан бирга Ўзбекистон Республикаси ҳукумати томонидан қабул қилинган ҳуқуқий ҳужжатларни билишни ҳам талаб этади. Ҳамда, кейс технологияларидан фойдаланган ҳолда ўқитиш таълим соҳаси учун самарали ҳисобланади.

Калит сўзлари: Ўзбекистон, Республика, мамлакат, бошқарув, кейс, технология, тамойил, курс, талаба иқтисодий, ўқитиш, фан, предмети, мазмун, вазифа, корхона, ташкилот.

КИРИШ

Мамлакатимизда бозор муносабатлари таркиб топиши Бошқарув тизимида бир қатор вазифалар амалга оширилишини назарда тутди. Жумладан, олий таълим ва ташкилотларнинг бозор иқтисодиёти шароитида ўз мавқеларини сақлаб қолиши, уларнинг рақобатбардошлигини таъминлаш, ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш мақсадида бошқарув соҳасида амалга оширилиши лозим бўлган вазифаларнинг илмий ва амалий усуллари тўғри танланишини талаб этади. Фан-техника тараққиётининг тезлашиши иқтисодиётда ҳам туб бурилишлар ясади. Инсон технологик жараёнларни назорат қилувчи ва тартибга солувчига айланди. Ундан янги билимларни эгаллаш, касбий малакасини ошириш, мустақил фикрлаш, ижодий фаоллик ва ташаббускорлик талаб этила бошлади.

Бошқарув тамойилларини ўқитиш уч қисмдан иборат бўлиб, унинг маъруза қисмида назарий билимлар, кўникмалар ўргатилади. Талаба “бошқаришнинг ўзи нима, уни ташкил қилиш учун нима қилиш керак” ҳамда бошқарув тўғрисида ҳам ўз билимларини оширади. Бунда фан ўқитувчисидан талабага иқтисодий тушунчалар билан бирга ижтимоий таҳлил қилиш, бошқарув режалар тузишни ўргатиш ҳам талаб этилади.



АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛГИЯ

Фанни ўқитишнинг иккинчи қисми, яъни семинар қисмида ўқитувчидан назарий билимларга ва амалий топшириқлар билан бирга қўшимча равишда белгиланган мавзу юзасидан баҳс-мунозаралар олиб бориш талаб этилади. Мисол учун, талабалардан гуруҳларга бўлиниш ва кичик бир корхонни ташкил қилиш лозимлиги сўралади. Шунингдек, талабаларга график органайзерлар ёрдамида ҳар хил топшириқлар берилади. Масалан, иқтисодиётда ўз ўрнига эга бўлган бизнес корхоналарнинг муаммоли вазиятларини кейс технологияси ёрдамида таҳлил қилиш ва ҳоқозо.

Фанни ўқитишнинг учинчи қисми бу мустақил таълим қисми ҳисобланади. Бунда талабаларга фанга алоқадор маълум бир мавзу юзасидан мустақил ишлаш талаб этилади. Масалан, “Бошқарув тамойиллари” фани иқтисодий билимларни эгаллаш билан бирга Ўзбекистон Республикаси ҳукумати томонидан қабул қилинган ҳуқуқий ҳужжатларни билишни ҳам талаб этади. Чунки кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни такомиллаштириш мақсадида қабул қилинган ҳуқуқий ҳужжатларни яхши билиш, ҳуқуқий маданиятга эга бўлиш мақсадида талабаларга қўшимча топшириқлар берилади.

Ҳозирги пайтда таълим тизимини такомиллаштириш орқали ҳар томонлама етук, баркамол, мустақил фикрлашга қодир, иродали, фидоий ва ташаббускор кадрларни тайёрлашда кейс технологиясидан фойдаланиш юзасидан кўрсатмалар тайёрлаб амалиётга татбиқ этиш ҳисобланади.

Ушбу мақсадга эришиш учун қуйидаги вазифаларни амалга ошириш муҳим деб белгилаб олинди:

- “Бошқарув тамойиллари” фанини ўқитишнинг назарий масалалари очиб бериш;
- “Бошқарув тамойиллари” фанини ўқитишда кейс технологияларидан фойдаланиш юзасидан кўрсатмалар тузиш;
- Кейс-стади технологиясининг таълимий имкониятларини таҳлили
- Иқтисодий фанларни ўқитишнинг замонавий услублари, шу соҳадаги илғор таълим технологиялар, ахборот-коммуникация технологияларни ўқув жараёнига фаол татбиқ этиш йўллари жорий этилмоқда.

Изланишлар натижасида “Бошқарув тамойиллари” фанини ўқитишда кейс технологиясидан фойдаланиб қуйидаги амалий натижаларга эришилади:

- талабаларни муаммоли вазиятларда тўғри қарор қабул қилишларига кўмаклашиш;

- талабаларни бошқарувчилик қобилиятларини шакллантириш;
- ўқитишнинг узлуксизлигини таъминлаш;
- ўқитишни индивидуаллаштириш;
- ўқув материални мустақил ўзлаштириш учун етарли шароит яратиш;
- ўқитишни жадаллаштириш;
- фанни самарали ўзлаштиришга эришиш.

«Бошқарув тамойиллари» фанининг предмети корхоналарнинг самарали фаолият кўрсатишини таъминлаш ва ишловчилар эҳтиёжларини қондириш мақсадида персоналга мақсадга мувофиқ таъсир кўрсатиш билан боғлиқ бўлган билимлар тизимидир.

Ушбу курсни ўргатишдан мақсад-талабаларда бошқарув тизимидаги илмини амалиётда қўллай биладиган даражадаги кўникмалар ҳосил қилишдан иборат. У талабаларда ишлаб чиқаришдан кўзланган мақсадга эришишни таъминловчи бошқарув тамойиллари бўйича назарий ва амалий профессионал билимларни шакллантиришга йўналтирилган. Яъни, «Бошқарув тамойиллари» фанининг мазмуни корхона ходимларини бошқариш усуллари ва тамойилларини, бу борадаги назарий ва амалий масалалар тизимини; ташкилий шакллари ишлаб чиқиш ва татбиқ этиш жараёнларидан иборат.

Ушбу «Бошқарув тамойиллари» курси бўйича тузилган намунавий дастурда назарий фаолиятда учрайдиган муаммоларнинг мазмун моҳияти очиб берилишига асосий эътибор қаратилган

Бу муаммолар қуйидагилардир:

- фаннинг предмети, мазмуни ва асосий вазифалари;
- корхона ва ташкилотларни шакллантиришда инсон омили;
- бошқарув тизими функциясининг кенг ривожланиши;
- корхона ва ташкилотларда бошқарув тизимининг стратегияси;
- хизмат мартабасини бошқариш;
- ходимларнинг хизмат поғонасида кўтарилишини бошқариш;
- корхона ва ташкилот ижтимоий ривожланиши — персонал бошқаруви асоси;
- персонал хулқ-атворини бошқариш;
- кадрлар тизимидаги янгиликларни бошқариш;
- персонал бошқарувида меҳнат муносабатлари этикаси;
- бошқарув тамойилларида ихтилофлар ва стрессларни
- ечиш;

- корхона ва ташкилотларда персонал хавфсизлигини бошқариш;
- бошқарув персонали меҳнатини ташкил этиш.
- Юқорида таъкидлаб ўтилган муаммоларни ҳал қилиш юзасидан фан олдида қуйидаги асосий вазифалар қўйилган:
- бошқарув тамойиллари асосларини ўрганиш;
- корхона ва ташкилотларда бошқарув тамойиллари стратегияси ва тактикасининг моҳияти, мазмуни ва хусусиятларини ўрганиш;
- ишловчиларни профессионал танлаш, малакасини ошириш, ўқитиш ва лавозимларга тайинлаш масалаларини ўрганиш;
- ишга қабул қилиш ва ундан бўшатиш ҳамда Бошқарув тамойилларининг ҳуқуқий-норматив асослари бўйича назарий билим ва амалий кўникмаларга эга бўлиш;
- бошқарув тамойиллари бўйича иш юритиш жараёни ва унинг асосларини пухта эгаллаш, зарурий ҳужжатларни тўғри ва тез расмийлаштириш;
- бошқарув тамойиллари самарадорлигини аниқлаш ва уни янада ошириш йўллари белгилаш;
- корхона ва ташкилотларда кадрлар иш фаолиятининг мазмуни ва моҳиятини ўрганиш;
- меҳнат салоҳиятининг шаклланиши ва ривожланиши, кадрлар таркиби ва тузилиши ҳамда улардан фойдаланишни таъминлаш йўналишларини ўрганиш;
- бошқарув тамойиллари хизматининг шаклланиши ва бу хизматни ташкил этиш жараёнларини ўрганиш;
- бошқарув тамойиллари соҳасидаги хорижий тажрибаларни ўрганиш, таҳлил этиш, улардан мамлакатимиз хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда фойдаланиш ва ҳоказо.

«Бошқарув тамойиллари» фани ўз олдида қўйилган вазифаларни ҳал қилар экан, бир қатор ижтимоий, иқтисодий, ҳуқуқий фанлар тажрибаси ва назариясига таянади. Шу жиҳатдан, у «Фалсафа», «Иқтисодиёт назарияси», «Меҳнат иқтисодиёти», «Меҳнат ҳуқуқи», «Ходимларни бошқари» каби фанлар билан узвий боғлиқдир.

«Бошқарув тамойиллари» фани, жумладан, «Фалсафа» фани тамойилларини, яъни инсониятнинг тарихий шаклланиши, меҳнат жараёнининг моҳияти ва мазмуни инсоннинг асосий фаолияти сифатида намоён бўлиши, унинг ижтимоий ва фан-техника тараққиёти



билан боғлиқ тарзда ҳар томонлама ривожланиши каби муаммоларни биргаликда ўрганади.

«Бошқарув тамойиллари» фани, «Иқтисодий назария» фани билан ҳам чамбарчас боғлиқдир. У меҳнат бозори ва унинг таркибий қисмлари, ишсизлик ва уни камайтириш йўналишлари, меҳнат бозорини тартибга солиш, давлатнинг ижтимоий сиёсати каби масалаларнинг иқтисодий ҳамда назарий жиҳатларини биргаликда ҳал этади.

Бошқарув тамойилларида инсон омилига ташқи муҳитнинг таъсири, яъни ишлаб чиқариш жараёнида ишловчиларнинг ўз атрофидагиларга муносабати, ишлаб чиқариш муҳитининг, санитария-гигиена омилларининг инсон организмига, саломатлиги ва ишга бўлган муносабатига ҳамда ишлаш қобилиятига таъсири каби жиҳатлар, албатта, ҳисобга олиниши лозим. Булар ишловчиларнинг ўзи ишлаётган корхонага, ўз ишига бўлган муносабатида шаклланади. Шундай экан, «Бошқарув тамойиллари» фани ўзи чамбарчас боғлиқ бўлган «Иқтисод назарияси», «Бошқарув асослари», «Ходимларни бошқариш» каби фанларнинг бошқарув ҳамда меҳнатга муносабати борасидаги назарий томонлари ва тавсияномаларига амал қилиши лозим.

“Бошқарув тамойиллари” курсини ўрганиш давомида талабалар куйидаги талабларга жавоб бера олишлари зарур:

- ходимларни бошқарувининг асосий йўналишлари, вазифалари ва стратегияси;
- ходимларни танлаш ва ўқитиш, ташкилотда соғлом руҳий муҳит яратиш;
- инсон ресурсларини самарали бошқаришнинг асосий йўналишлари ҳақида тасаввурларга эга бўлиш;
- хўжалик фаолиятини ислоҳ қилишнинг замонавий босқичида ходимлар бошқарувига доир долзарб муаммоларни билиш;
- бизнес ҳамкорларни жалб этиш усуллари ва уни бошқариш;
- олинган билимлардан фойдаланган ҳолда мустақил хулосалар чиқара олиш;
- бошқарув тамойилларига доир ижтимоий-психологик усуллар ва турли тамойилларни қўллаш олиш;
- корхонада ижтимоий–иқтисодий сиёсатни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш;
- иш ўйинлари ва ҳолатли масалаларни ҳал қила олиш;
- бошқарув субъектларининг ҳаракатини рағбатлантириш каби билим ва малакаларга эга бўлиш.

«**Кейс-стади**» - инглизча сўз бўлиб, («case» – аниқ вазият, ҳодиса, «study» – ўрганмоқ, таҳлил қилмоқ) аниқ вазиятларни ўрганиш, таҳлил қилиш асосида ўқитишни амалга оширишга қаратилган метод ҳисобланади. Мазкур метод дастлаб 1921 йил Гарвард

университетида амалий вазиятлардан иқтисодий бошқарув фанларини ўрганишда фойдаланиш тартибида қўлланилган. Кейсда очиқ ахборотлардан ёки аниқ воқеа-ҳодисадан вазият сифатида таҳлил учун фойдаланиш мумкин. Буни 1-жадвалда кўриш мумкин.

Иш босқичлари	Фаолият шакли ва мазмуни
1-босқич: Кейс ва унинг ахборот таъминоти билан таништириш	<ul style="list-style-type: none"> • якка тартибдаги аудио-визуал иш; • кейс билан танишиш(матнли, аудио ёки медиа шаклда);ахборотни умумлаштириш; • ахборот таҳлили; • муаммоларни аниқлаш
2-босқич: Кейсни аниқлаштириш ва ўқув топшириғни белгилаш	<ul style="list-style-type: none"> • индивидуал ва гуруҳда ишлаш; • муаммолар долзарблик иерархиясини аниқлаш; • асосий муаммоли вазиятни белгилаш
3-босқич: Кейсдаги асосий муаммони таҳлил этиш ўқув топшириғи ечимини излаш, ҳал этиш йўллари ишлаб чиқиш	<ul style="list-style-type: none"> • индивидуал ва гуруҳда ишлаш; • муқобил ечим йўллари ишлаб чиқиш; • ҳар бир ечимнинг имкониятлари ва тўсиқларни таҳлил қилиш; • муқобил ечимларни танлаш
4-босқич: Кейс ечимини шакллантириш ва асослаш, тақдимот.	<ul style="list-style-type: none"> • якка ва гуруҳда ишлаш; • муқобил вариантларни амалда қўллаш имкониятларини асослаш; • ижодий-лойиҳа тақдимотини тайёрлаш; • якуний хулоса ва вазият ечимининг амалий аспектларини ёритиш

Кейс-стади муаммоли ўқитиш технологияларидан ҳисобланади. Ушбу инновацион технология асосини талабаларнинг касбий фаолияти билан боғлиқ вазиятлар ва уларнинг таҳлили ташкил қилади. Бўлғуси касбий фаолият билан бўғлиқ вазиятларни чуқур ўрганиш натижасида назариянинг амалиёт билан бўғлиқлиги

таъминланади. Ўқувчилар муайян вазиятларни ҳар томонлама ўрганадилар. Ўз навбатида улар фаол фикрлайдилар, назарий машғулотларда ешитган билимларини мустақил ўрганиш давомида тўплаган маълумотлар билан таққослайдилар, шахсий тажрибаларга мурожаат қиладилар. Турли вазиятларни ҳамкорликда ёки мустақил равишда таҳлил қилиш ва қайта ишлаш давомида кўшимча маълумотларга нисбатан зарурат сезадилар, статистик маълумотларни ўрганадилар. Натижада талабаларнинг билимлари амалий жараён билан боғлиқда мустаҳкамланиб борилади. Ўқувчиларнинг мантикий фикрлаш қобилияти, нутқ маҳорати, ҳамкорликда ишлаш кўникмалари ривожланади.

Кейс-стади технологияси ҳам барча технологиялар каби тур ва манбаларга ўз ичига олади. Булар орқали кейс-стади технологияси ҳақида талабалар тўлиқ маълумотлар оладилар ва ўқув машғулотларида қўллаш имкониятларига эга бўладилар. Кейсларни гуруҳлаштиришда, уларининг мазмун моҳиятига еътибор берилади, уларни гуруҳлаштиришда асосан мақсад вазифалар инобатга олинади. Шунинг учун ҳам кейсларни гуруҳлаштириш бир мунча қийин кечади. Ўқув жараёнида қўлланиладиган кейсларнинг ҳажми бир-икки варақ ёки ундан ортиқ бўлиши мумкин. Шунингдек ҳажм жиҳатдан катта кейслар, кичик ҳажмдаги кейсларга қараганда талабаларда баъзибир қийинчиликларни келтириб чиқаради. Бундай ҳолатларда муаммоли вазиятни босқичларга бўлиб ўрганиш тавсия қилинади. Кейслардаги муаммолар бир ёки бир неча қисмларга бўғланиб кетиши жараёнинг узлуксиз давом қилинишини таъминлайди.

Кейсларни тақдим қилишда қўлёзмадан ёки электрон вариетдаги матнлардан фойдаланиш мумкин. Матндаги суъратлар, диаограма чизмалар, жадваллар талабалар учун кўргазмали қурол бўлиб ҳизмат қилади.

Кейсларни таҳлил қилишда талабаларда башорат қилиш кўникмасини шакллантириш ҳам муҳим аҳамият эга . Башорат қилиш муаммоли вазиятда акс етган ҳодисаларни ечимини олдиндан кўра билишга ўргатади ва қаҳромонларнинг келгусидаги хати-ҳаракатларига нисбатан ижобий ечимларни топишга ёрдам беради.

Кейснинг ҳажми, унинг ўтказиш вақтини белгилаб беради. Ҳажми жиҳатдан кичик кейслар бир бетдан, бир неча бетгача ифодаланиб, у икки соатлик амалий машғулотларни бир қисмини ажратишга мўлжалланган бўлади. Ўртача ҳажмдаги кейслар икки соатлик машғулотларга мўлжаллангандир. Ҳажми катта кейслар ўн бетдан иборат бўлиб, ундан бир қанча амалий машғулотлар давомида фойдаланиш мумкин. Шунингдек кейслар иловали кейслар ҳамда иловасиз бўлиши

мумкин. Иловали кейслар мақсади: статистик ахборотларни ҳисоблаш, таҳлил қилиш, малакаларни шакллантиришдир. Шунингдек кейсларнинг таркибида муаммоли вазият ечимини топишга йўналтирувчи саволлар ҳам мавжуд бўлади, бу орқали талабалар вазият ечими сари йўналтирилади. Тажрибаларни кўрсатишча кейс-стади технологияси ўз олдига қўйган мақсадларни амалга ошириши ва самарали технологияга айланиши учун унинг таркибий тузилишида илмий-услубий маълумотлар бўлиши лозим. Шундагина кейс-стади технологияси самарали ўқув технологиясига айлана олади. Маълум бир жараёни ташкил қилишда биз бевосита шу жараёнга тегишли манбаларни излаб топишга ва фаолиятимизда қўллашга ҳаракат қиламиз. Кейс-стади технологиясидан, ўқув жараёнида фойдаланишда биз турли-хил манбаларга мурожаат қиламиз, айнан муаммоли вазиятларни ташкил қилишда, кўпгина манбалардан фойдаланамиз. Кейс-стади технологияси орқали дарс ўтишда, ўқитувчининг тажрибаси, илмий–услубий фаолиятининг ўрни каттадир. Барча технологиялар каби кейс-стади технологияси ўз манбаларига эга. Баъзи фикрларга кўра кейсларнинг асосий манбаси ҳаётий вазиятлар ҳисобланади. Ҳаётий ҳодисалар бахсларга сабаб бўлади, муаммони ечиш жараёнини жадаллаштиради. Ижтимоий ҳаётнинг барча кўринишлари кейсларнинг фактологик ва муаммовий базаси бўлиб хизмат қилади, шунингдек кейсларнинг таркибининг асосини ташкил қилади.

ХУЛОСА

“Бошқарув тамойиллари” фанини ўқитишда Кейс-стади технологиясининг асосий мақсади ўқув гуруҳ ўқувчиларнинг билим олиш жараёнини фаоллаштириш, мавжуд муаммоли вазиятларни ҳал қилиш орқали уларнинг илмий–ижодий қобилиятларини ривожлантиришдан иборатдир. Шунингдек технология талабаларнинг билим, кўникма, малакаларини ҳамкорликда қўллашга, таклиф қилинган ечимларни таҳлил қилиш орқали муқобил ечимини излашга ўргатувчи таълим технологиясидир.

REFERENCES

1. Абдурахмонов Қ. Ҳ.Холмуминов Ш. Р.Зокирова Н. Қ.Персонални бошқариш. Дарслик-Т: Ўқитувчи, 2008-655б.
2. Бозоров Т.Ю. Управление персоналом. Практикум. Учебной пособие.- М:ЮНИТИ-ДАНА, 2010-329стр.
3. Веснин В. Р. Управление персоналом. Теория и практика.Учебник .-М. : Проспект, 2010-423стр.

4. Кибанова А. Я. Основы управления персоналом. Учебник.-М: ИНФРА-М,2010-295СТР.
5. Потемкин В.Б. Управление персоналом. Учебник. М.: Дашков и К,2010-421стр.
6. Nosirova Zulfiya Xudaybergan qizi, Asliddinov Behzod Furqat o'g'li, (2022). XODIMLARNI BOSHQARISHDA IJODIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH USULLARI. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 6-11.
7. Носирова, З. Х. ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ НА ЭТАПНОМ РАЗВИТИИ ЭЛЕКТРОННОЙ ТОРГОВЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ.



ЎҚУВЧИЛАРНИНГ БЎШ ВАҚТЛАРИНИ ТЎҒРИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ

Наргиза Тохировна Авулова

СамДУ Мактабгача ва бошланғич таълим кафедраси ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақоламизда замонавий жамиятда ўсмир ёшларнинг бўш вақтини ташкил қилишдаги муаммолар, ўсиб келаётган ёш авлоднинг маънавий, жисмоний ривожланишида бўш вақтнинг аҳамияти, турлари ҳамда шакллари бўйича хорижий олимларнинг фикрлари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: техноген цивилизация, бўш вақт педагогикаси, ўқувчининг шахсий иши, “юқори фаолият”, “пассив фаолият”, вақтни бошқариш, ижтимоий фаоллик, жисмоний ҳаракатсизлик.

ПРАВИЛЬНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СВОБОДНОГО ВРЕМЕНИ УЧЕНИКОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются проблемы организации свободного времени подростков в современном обществе, значение, виды и формы свободного времени в духовном и физическом развитии подрастающего поколения.

Ключевые слова: техногенная цивилизация, педагогика свободного времени, личная работа студента, «высокая активность», «пассивная активность», тайм-менеджмент, социальная активность, гиподинамия.

CORRECT ORGANIZATION OF STUDENTS' FREE TIME

ABSTRACT

In this article, the problems of organizing free time of teenagers in modern society, the importance, types and forms of free time in the spiritual and physical development of the young generation are analyzed.

Keywords: man-made civilization, free time pedagogy, student's personal work, "high activity", "passive activity", time management, social activity, physical inactivity.

КИРИШ

Ҳозирги вақтда дунёда юз бераётган глобаллашув жараёни мамлакатларда иқтисодий, сиёсий, ижтимоий-маданий ҳаётда шиддатли ўзгаришлар рўй бериши билан бирга шахсининг маънавий барқарорлиги, миллий кадриятларни асраб-авайлаш қобилиятининг пасайиши кузатилмоқда. Шу сабабли ёшларнинг маданий, маънавий ривожланиши ва жисмоний саломатлигини сақлаш, шунингдек, мустақил фикрлайдиган, фаол интеллектуал салоҳиятли ахлоқий тамойилларга эга фуқароларни тарбиялаш зарурияти мавжуд. Бугунги ҳаёт ҳақиқати шуни кўрсатадики, ўсиб бораётган суръатлар глобаллашув, оммавий маданият, техноген цивилизация, экологиянинг ёмонлашуви шароитида инсон танаси тобора кучайиб бораётган юкларни енгишга қодир эмас. Бундай жараёнда ёш авлодни тарбиялашда ўқитиш, тарбиялаш ва соғломлаштириш таъсирларини бирлаштириш лозим бўлади [2]. Ўқувчиларнинг бўш вақтида ташкил қилинадиган шахсий иши муоммоси ҳуқуқий, социологик, ижтимоий ва тиббий-физиологик жиҳатларда ишлаб чиқилган муаммодир. Ёшларнинг ўтказган вақтларини таснифлаш, ундан оқилона фойдаланиш усуллари, бўш вақтдан фойдаланиш турларини аниқлаш ва режалаштириш масаласининг илмий ўрганилишига эҳтиёжи мавжуд.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДАЛОГИЯСИ

Бўш вақт педагогикаси бўйича маҳаллий тадқиқотчиларнинг изланишлари етарли даражада эмас. Ушбу мавзуга ёндош мавзуларда, жумладан, мактаб ўқувчиларининг синфдан ташқари ишларини, фаолиятини ташкил қилишнинг назарий асослари ва амалий жиҳатлари бўйича маҳаллий тадқиқотчилардан **Ш.Мардонов, А.Халиков, А.Садикова, Ф.Ибрагимова, Н.Артикова, Р.Шерметов, Э.Норқувватовлар** илмий изланишлар олиб борганлар.

МДҲ олимларидан **Г.Грушин, Г.А.Ефтеева, Б.И.Дубсон, В.В.Журавлев, Г.Е.Зборовский, С.А.Кравченко, Л.К.Круглов, Е.В.Бондаревская, Л.И.Новиковалар** умумтаълим мактаблари ўсмир-ёшлари бўш вақтининг фалсафий, шунингдек социологик жиҳатларини; **К.Д.Ушинский, А.С.Макаренко, С.Т.Шатский, П.П.Блонский, А.В.Мудрик, Н.Л.Селивянова, Н.Крупская, К.С.Романова** ва бошқалар бўш вақтни ташкил этишнинг психологик-педагогик жиҳатлари, унинг шахсни ривожлантириш ва мактаб ўқувчиларининг дунёқарашини шакллантиришга таъсири; **Н.Н.Водомеров,**

Ф.А.Гимадеева, С.Ш.Лукманова, М.В. Мухамедянова, Л.К.Петрова, Ш.А.Амоношвили, О.С.Газман, В.А. Краковский ва бошқалар ўқувчиларнинг бўш вақтини ташкил қилиш масалалари бўйича илмий тадқиқот ишларини олиб борганлар. Ўсмир ёшларнинг бўш вақтларини оқилона ташкил қилиш масаласи, бўш вақтнинг ижтимоий моҳияти, унинг тузилиши, шахснинг ривожланишида асосий функциялари **Б.А.Требугов**[7] томонидан тизимли ўрганилган. Болалар ҳаётида бўш вақтни педагогик ташкил этишнинг одамлар ҳаётидаги аҳамияти бўйича **К.Д.Ушинский, А.С.Макаренко, В.Н.Терскийлар**; шахсни шакллантириш ва ривожлантиришда бўш вақтдан фойдаланишнинг мақсадга мувофиқлиги масаласи **М.Г.Бушканатц, Б.А.Грушин, Г.А.Евтеева, Е.В.Соколов** тадқиқот ишларини олиб борганлар.

Тадқиқот ишимизда анализ, синтез, умумлаштириш, қиёсий таҳлил методларидан фойдаланилди.

МУҲОКАМА

Ғарбий Европа педагогикасида ўқувчининг бўш вақти масаласига илмий эътиборнинг қаратилишини таҳлил қиладган бўлсак, Германияда ўқувчиларнинг, бўш вақтини ташкил қилиш педагогикасига эътибор 1920 йиллардан бошланади. Бунда ўқувчиларнинг бўш вақтидаги фаолияти стратегиялари ишлаб чиқиладиган амалий фан сифатида шаклланишни бошлайди. 80-йилларда эса педагогиканинг ўзига хос таълим соҳасига эга бўлган мустақил бўлими сифатида шаклланади. 90-йилларда мазкур соҳанинг бошқа соҳалар билан алоқаларини тадқиқ этиш ва аниқлаш ишлари амалга оширилади. Ҳозирда Германияда бўш вақт педагогикасининг бир қатор йўналишлари жадал ривожлантирилмоқда [3]. Жумладан, немис тадқиқотчиси **Хорст Орашовский** бўш вақт педагогикасининг тарихий ривожланишини тизимли ўрганган. **Рената Фрикс** педагогик фаолиятда ўсмир-ёшларнинг ривожланишида вақтни бошқаришнинг ўрни ва аҳамиятини ўрганган ҳолда, бўш вақт педагогикаси ва вақтни бошқариш ўртасидаги боғлиқликни кўрсатади.

Россияда инсон бўш вақти тоифасини ўрганиш ва ривожлантириш бўйича ташаббус билан чиққан олим **С.Г.Струмилин** 1922-1924 йилларда илк бора социал тадқиқотларни амалга оширади. У бўш вақтдан тўғри фойдаланиш вазифасини қўяди [6]. Ўсмир-ёшларнинг шахсий иши (бўш вақти) масаласи ХХ асрнинг 60-йиллар охиридагина нисбатан мустақил хусусиятга эга бўлди ва назарий тушунишнинг муҳим объекти сифатида алоҳида эътибор қаратилди [7].

Мазкур масала катта миқиёсда илмий-тадқиқот ишига муҳтож, деб ўйлаймиз. МДХ олимларидан **М.В.Антропова, Ю. А. Ямпольская, А.А.Баранов, В.Р.Кучма** каби олимлар тадқиқоти шуни кўрсатадики, болалар ва ўсмирларнинг соғлиги ҳолатида мактабда ўтказиладиган вақт туфайли сезиларли салбий тенденциялар мавжуд [4]. Рус педагоги **А.Андреева** бўш вақт тушунчасининг таърифига тўртта нуқтаи назардан ёндашиш мумкунлигини таъкидлайди:

1. Бўш вақт – тафаккур сифатида, у бевосита юксак ақл ва маданият даражаси билан боғлиқ, бошқача қилиб айтганда у ақл ва рухий ҳолатдир.
2. Бўш вақт фаолият шакли сифатида меҳнат фаолияти билан ҳеч қандай боғлиқ бўлмаган, шахснинг ўзини ўзи англаш жараёнига устувор аҳамият бериладиган ўзига хос фаолият билан тавсифланади.
3. Бўш вақтда турли фаолият шакллари қўлланилиши мумкун ва у иш билан боғлиқ ёки боғлиқ бўлмаган фаолият учун учун ишлатилиши мумкун. Бўш вақт инсоннинг бажарилиши мажбурий бўлган, яъни ўз бурчи бўлмаган иш билан шуғулланадиган вақт ҳисобланади.

Бўш вақт олдинги учта тушунчани ўзида мужассамлаштиради, «иш» ва «ишламаслик» ўртасидаги чегарани йўқотади ва бўш вақт инсон хатти-ҳаракатларини тавсифловчи нуқтаи назардан баҳолайди [1]. Рус педагоги **Л.А.Затуливетер** мактаб ўсмир ёшларининг ўқувчиларнинг бўш вақтини ўтказишнинг мазмуни ва тузилишини ўрганган ҳолда, бўш вақтни ривожлантиришнинг типик даражаларини куйидагича кўрсатади: фаол ва пассив; етакчи ва анъанавий; ижодий ва тақлид; жамоавий ва индивидуал; уюшган ва спонтан; бошқариладиган ва назоратсиз; бир хил ёшдаги ва аралаш ёшдаги; халқаро ва миллий [8]. Фалсафий ва социологик адабиётларда бўш вақтни ўтказиш турларининг турли хилдаги таснифини кўришимиз мумкун.

Жумладан, рус тадқиқотчиси **Б.А.Требугов** бўш вақтни иккига: “**пассив вақт**” ва “**юқори фаолият**” га бўлишни таклиф қилади. У инсоннинг шахсий фаолиятида дам олиш ўз-ўзидан тиклаш функциясини бажаришига алоҳида эътиборни қаратади [7; 26]. **Б.А.Требугов** бўш вақтнинг моҳиятини рўёбга чиқариш даражасига кўра ёки бошқача айтганда, асосий фаолият турларининг баркамол шахсни шакллантиришга таъсири хусусиятларига кўра, ёшларнинг бўш вақтидаги барча фаолиятини асосий 3 та турга ажратади:

1. Маданий - ижодий. Бундай фаолият мажмуасининг умумий хусусияти - моддий ва маънавий қадриятларни яратиш ёки такрорлаш билан тавсифланади. Мазкур турдаги фаолиятга бадиий,

илмий-техник ижодкорлик, ижтимоий фаолият ва ўз-ўзини тарбиялашнинг турли шакллари киради.

2. Маданий ва истеъмолчилик услуги. Бу маънавий қадриятларни истеъмол қилиш билан боғлиқ фаолият шакли, бунга газета ва журналлар ўқиш, телекўрсатувларни томоша қилиш, кинотеатрга, концертга, музей ва турли кўргазма ва ҳ.з.ларга ташриф буюриш кабилар киради.

3. Турли хил дам олиш ва кўнгилочар фаолият турларини бирлаштирган реакция тип. Жумладан, туризм, спорт, рақс кечалари, кафе ва ресторанларга ташриф буюриш кабилар [7].

Норвегиялик олим Д.Ас инсоннинг вақт фондида бўш вақтнинг бошқа вақт турларидан фарқли хусусиятларини асослаган ҳолда, инсон томонидан танлаш эркинлиги билан тартибга солинадиган бўш вақтининг 4 хил турини таснифлайди:

- 1. Зарурий вақт.** Бу физиологик эҳтиёжлар учун сарфланадиган вақт(уйқу, озиқ-овқат, гигиена ва ҳ.з.)
- 2. Иш вақти.** Маош тўланадиган иш ёки ўқув фаолияти.
- 3. Белгиланган вақт.** Инсоннинг зиммасига юкланган ишониб топширилган фаолият шакллари бўлиб, иш характерига эга бўлсада пул тўланмайдиган фаолият шакли.
- 4. Бўш вақт.** Бўш вақтнинг ўзига хусусияти танлаш эркинлиги, яъни бажариш ёки бажармаслик, ҳиссий жиҳатининг мавжудлиги[9].

Америка ва Финляндия ўсмир ёшлари бўш вақти мазмунини ўрганишда улар қуйидаги тадбирларни ўз ичига олишини аниқлаштиради [10]:

- спорт фаолияти (30 хил спорт тадбирлари);
- уй юмушлари;
- севимли машғулотлари билан шуғулланиш;
- уйга вазифани тайёрлаш;
- телевизор кўриш, интернет тизимдан фойдаланиш;

Р.Петерсон ўз изланишлари давомида бўш вақтни қуйидагича таснифлайди:

1. Пассив бўш вақт.
2. Фаол дам олиш вақти (дам олиш масканлари, кўнгилочар жойлар ва ҳ.з.).
3. Бадиий ҳунармандчилик (чизиш, ясаш), санъатни истеъмол қилиш (музей, кўргазма, концерт, театр кабилар)
4. Халқ ҳаёти (этник жамоа билан боғлиқ ҳар қандай фаолият)
5. Норасмий ижтимоий ҳаёт (мулоқот ва бошқалар)

6. Уюшган ижтимоий фаолият (ихтиёрий фуқаролик фаолияти, диний ёки сиёсий иштирок) [11].

Рус олимаси **З.Ш.Саитгалиева** «бўш вақт» дейилганда биринчидан, эркин фаолият, ривожланиш учун жой таъминловчи, иккинчидан моддий ишлаб чиқаришдан ташқарида бўлган вақтнинг қисмини тушунади ва бу даврда шахснинг ақлий ривожланиши содир бўлиб бунда шахснинг таълими ортади, учинчидан, инсоннинг жисмоний қобилиятларини ривожлантириш, ижтимоий фаоллик, ҳамда ижтимоий эҳтиёжларини қондириш билан боғлиқ тадбирлар амалга ошишини таъкидлайди [5].

Бўш вақтнинг ижтимоий функциясини таҳлил қиладиган бўлсак, асосан тикловчи функцияси (пассив ёки фаол дам олиш, ўйин-кулги) шахснинг ривожланишида муҳим. Бўш вақтнинг мазмуни остида ҳар бир шахснинг ҳар томонлама ва уйғун ривожланиш жараёни: интеллектуал ривожланиш, таълим учун вақт, жисмоний ривожланиш каби турли фаолият турлари амалга оширилади. Европалик таниқли файласуф ва психологи **Э.Фроммнинг** фикрича, «Эркинлик, инсонга мустақиллик ва унинг мавжудлигининг мантиқийлигини олиб келди, лекин шу билан бирга уни изоляция қилади, унда кучсизлик ва ташвиш ҳиссини уйғотади. Инсон танлов олдида туради: янги қарамлик бўйсунуш асосида эркинликдан халос бўлиш ёки ижобий эркинликни тўлиқ амалга ошириш учун ўсиш». Аммо кўп ҳолларда, шахс мустақил бўлиш ва оқилона қарор қабул қилишда ҳали етукликга эришмаганлигини, ҳар бир инсон ўз ҳаётини бошқара олиши ва унга маъно бера оладиган тизимга эга бўлиши муҳимлигини таъкидлайди. **Демак, бўш вақт - инсоннинг меҳнат, оила ёки жамият билан боғлиқ мажбуриятлари ва эҳтиёжларидан ташқаридаги шахснинг индивидуал эҳтиёжлари қондириш билан кечадиган вақти.**

НАТИЖА

Тадқиқот ишимиз давомида ўсмир-ёшларнинг шахсий ишини ташкил қилиши давомида қайси бирини кўпроқ афзал кўришини ўрганиш учун сўровнома ўтказдик. Сўровнома натижалари кўпчилик ўсмирлар шахсий ишида асосан маданий-истеъмолчи типига хос бўлган ўйин-кулгу, интернет тизими орқали турли кўнгилочар лавҳаларни томоша қилиш, ўйин ўйнаш, мусиқа тинглаш каби фаолият шакллари маъқул кўришлари аниқланди. Шахсий ишида иккинчи ўринда турли хил дам олиш ва кўнгилочар фаолият турларини бирлаштирган реакцион типга хос бўлган фаолият шаклига ўрин берилган бўлиб, ўсмирларнинг оз

сонли бир қисмигина маданий ва ижодий фаолиятни афзал кўриши аниқланди.

Умумтаълим мактабларидаги 12-14 ёшли ўсмирлар одатда фаол, қизиқувчан бўлишини ҳисобга олган ҳолда, улардаги бўш вақтдан фойдаланиш масаласига етакчи масала сифатида қаралиши лозим. Чунки бўш вақтнинг оқилона ташкил қилиниши ҳам ижтимоий, ҳам шахсий аҳамиятга эга.

Статистик маълумотларга кўра шаҳардаги ўсмир болаларнинг касалланиш ҳолати қишлоқда яшовчи болаларга нисбатан анча юқори. Бунинг сабаби сифатида шаҳар болаларида ортиқча вақтнинг кўплиги, уларнинг аксариятида жисмоний ҳаракатсизликнинг кузатилиши ва болаларнинг интернет тизимида бесамар вақт ўтказаетганлиги каби кўплаб сабабларни кўрсатишимиз мумкун. Шаҳар шароитида маиший шароитнинг яхшилиги болаларнинг жисмоний жиҳатдан кам ҳаракатланишига сабаб бўлса, қишлоқ мактабларида яшаш учун шароитнинг етарли даражада эмаслиги табиий равишда (спорт тўғаракларисиз ҳам) болаларнинг уй юмушлари билан бандлиги жисмоний жиҳатдан фаол бўлишини, аммо мустақил ўқув фаолиятига вақт нисбатан кам ҳисобланади. Бошқа бир гуруҳ шаҳар болалари дарсдан ташқари бўш вақтларини мақсадли ўқув жараёнига, яъни асосан хорижий тилни ўрганиш, компьютер технология машғулоти ёки бошқа ҳар хил тўғаракларга сарф қилаётганлигини кўришимиз мумкун. Бу эса ёш авлодни учун ҳам, жамият учун ҳам ижтимоий-педагогик оқибатларни келтириб чиқармоқда.

ХУЛОСА

Ҳозирги замонавий шароитда бўш вақт шундай ташкил қилиниши керакки, ўсиб келаётган авлоднинг ҳам маънан, ҳам жисмонан ривожланишига замин бўлиши лозим. Зеро бўш вақтнинг мақсади бевосита мактаб дарс жарёни билан уйғун бўлиб, боланинг ҳар томонлама ривожланиши бўш вақт мазмуни, шакллари билан бевосита чамбарчас боғланган. Шундай экан жамиятда бола тарбиясида бўш вақт педагогикасига жиддий эътибор қаратиш долзарблигини бола тарбиясига маъсул бўлган ҳар бир субъект теран ҳис қилиши ҳамда вазифасига маъсулият билан ёндашиши зарур. Мамлакатимизда таълим сифати бевосита боланинг бўш вақтининг оқилона ташкил қилиниши билан боғлиқлигини ҳисобга олган ҳолда, айтишимиз мумкунки, бўш вақтга бола ривожланишидаги энг муҳим вақт сифатида қаралиши лозим.

REFERENCES

1. Андреева А.А. Особенности организации досуговой деятельности подростков /А.А.Андреева,Текст:непосредственный//Проблемы и перспективы развития образования:материалы VI Международ.науч.конф.г.Пермь,апрель:https:moluch.ru/conf/ped/archive/149/7546/
2. В.В.Борисова. Педагогическая технология оздоровительной работы как фактор оптимизации режима учебного дня младших школьников.дисс.пед.наук.2002.-С.202.
3. А.И.Сафуллина. Основные тенденции организации свободного времени учащейся молодёжи Германии.дисс.канд.пед.наук.13.00.01.Москва.2006.-С.177.
4. Ю.Ю.Суетнова. Роль гигиенический и социальных факторов в формировании здоровья городских и сельских подростков-школьников.// дисс.канд.наук. (14.00.07)2008.-С.152.
5. З.Ш.Сайтгалиева. Педагогические условия организации свободного времени подростка.дисс.канд.пед.наук: 13.00.01. Уфа, 2001.-С.181.
6. В.Х.Лукманова Свободное время школьника –подростка .дисс.пед.канд .наук.13.00.01.1984. –с.233.
7. Требугов Б.А. Свободного время как фактор формирования личности студента. :дисс.канд.филос.наук.09.00.02. 1983. -С.250.
8. Л.А.Затуливетер.Организованный досуг как фактор воспитания и развития учащихся. Дисс.пед.наук.13.00.01.1998.-С.245.
9. Studes of Time –Use :Problems and Prospects.Dagfinn As Norwegian Building Research Institute, Oslo// Acta Sociologiya 1978-Vol.21- -№ 2p.133.
10. Leisure patterns of American and Finnish Youth, International Review for the Sociology of Sport 1975 10:63.
11. Richard A. Peterson Chapter 8: Measuring Culture ,Leisure,and Time Use ANNALS, AAPSS, 453,January 1981.

ТАЯНЧ ҲАРАКАТ АППАРАТИ ШИКАСТЛАНГАН ТАЛАБАЛАРНИНГ ҲАРАКАТ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Элдор Абдурасулович Ўринбоев

Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети катта ўқитувчиси
urinboyeveldoreldor@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Таянч ҳаракат аппарати шикастланган талабаларнинг ҳаракат фаолиятини такомиллаштириш учун махсус ускуна ёрадамида ҳаракат фаоллиги координатасини аниқлаш масалалари ва таҳлили маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: асосий ҳаракат координацияси, епчиллик, аниқлик, мувозанат, мослашувчанлик, ҳаракатчанлик, сакраш қобилияти, аниқлик, ритм, пластика, тасниф.

КИРИШ

In order to calculate the radius of the inscribed circle and the triangle's inscribed circle, three tangent circles were investigated. We drew an appropriate diagram for the issue after plotting the diagram of the three circles with radii of 1, 2, and 3, and then we eliminated the circles because they were no longer necessary. We demonstrated how the triangle's inner circle is represented by the green circle. In addition, we demonstrated that the inscribed circle's radius equals 1.

We plotted a triangle produced by joining the centers of the three circles of the triangulated packing minimum density as well as a diagram of three mutually tangent circles to summarize the findings and give an overview of them.

We calculated the area of the union of the grey sectors $A(\beta_1, \beta_2, \beta_3)$ and the area of the normalized triangle $S(\beta_1, \beta_2, \beta_3)$ in order to determine the density of the packing in the triangle. As a result, in (3), we arrived at the density of the covered portion of the triangle as shown in Figure 5.

In some instances, where all of the disks' radii are equal, we can achieve the least density of all triangulated packings. The final value of δ is $\frac{\pi}{\sqrt{12}}$, which can only be reached when $\beta_1 = \beta_2 = \beta_3 = \frac{\pi}{3}$.

REFERENCES

- [1] T. Kennedy, "Compact packings of the plane with two sizes of discs. Discrete & Computational Geometry," *Springer*, pp. 255-258, 2006 .
- [2] M. Messerschmidt, "On compact packings of the plane with circles of three. Computational Geometry," *Elsevier*, pp. 2-3, 2020.
- [3] M. Brandt and H. Smith, " Optimal Packings of 4 Equal Circles on a Square Flat Torus," *math.berkeley.edu*, pp. 3-7, 2013.
- [4] R. Connelly and M. Pierre, "Maximally Dense Disk Packings on the Plane," *arxiv.org*, pp. 2-15, 2019.
- [5] V. Mityushev and W. Nawalaniec, "Basic sums and their random dynamic changes in description of microstructure of 2D composites," *Computational Materials Science*, pp. 64-74, 2015.

- [6] P. G. Szabó, M. C. Markót and T. Csendes, "Global Optimization in Geometry — Circle Packing into the Square.," in *Essays and Surveys in Global Optimization*, Boston, Springer, 2005, pp. 233-265.
- [7] A. Heppes, "Some densest two-size disc packings in the plane," in *Discrete & Computational Geometry*, New York, Springer, 2003, pp. 241-262.
- [8] A. Heppes, "Densest circle packing on the flat torus," in *Periodica Mathematica Hungarica*, New York, Springer, 2000, pp. 129-134.
- [9] A. Heppes, "On the densest packing of discs of radius 1 and 2^{-1} ," *Studia Scientiarum Mathematicarum Hungarica*, vol. 36, no. 3-4, p. 433–454, 2000.
- [10] T. Kennedy, "A densest compact planar packing with two sizes of discs," *arxiv.org*, pp. 10-15, 2004.
- [11] B. D. Lubachevsky, . R. L. Graham and F. H. Stillinger, "Patterns and structures in disk packings," in *Periodica Mathematica Hungarica*, New York, Springer, 1997, p. 123–142 .
- [12] B. M and S. H, "Optimal Packings of 4 Equal Circles on a Square Flat," *math.berkeley.edu*, pp. 3-7, 2013.
- [13] B. Frank and L. P. H, "Heron's Formula, Descartes Circles, and Pythagorean Triangles," *ResearchGate*, 2007.
- [14] M. T. Max, "Intersecting Circles and their Inner Tangent Circle," *Forum Geometricorum*, vol. 6, p. 297–300, 2006.



YOSH AVLODDA MA'NAVIY AXLOQIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH

Ro'zimurod Farhod o'g'li Po'latov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yoshlarni ma'naviy axloqiy jihatdan shakllantirishning samarali omillari, umumiy tushunchalar, axloqiy tarbiya, ularning mazmun-mohiyatini yoshlarga singdirish, tengdoshlariga bo'lgan madaniy va axloqiy munosabatlarni rivojlantirish, shaxs sifatidagi nuqtayi nazarini qaror toptirish, ma'naviy axloqiy tarbiya metodlari va yo'nalishlari belgilab berilgan.

Kalit so'zlar: axloq, ma'naviyat, marifat, ta'lim, tarbiya, odob, madaniy munosabatlar.

KIRISH

Ma'naviyat va axloq o'zaro bir-biriga juda yaqin tushunchalar bo'lib, ma'naviyat individ mansub bo'lgan guruhlar axloqi ta'sirida yuzaga keladi. O'z navbatida axloq guruh a'zolari bo'lgan individlar ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi hisoblanadi. Zero, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan yetukligining mezonini bo'lgan, ma'naviy kamolotga erisha olmaydi.

Bugungi globallashtirish jarayonida dunyoning har qarich yerida inson ongi va tafakkuri uchun jiddiy kurash ketayotgani barchamizga yaxshi ayon. Birda yovuz, birda madaniy ko'rinishdagi bu kurash har birimizdan atrofga teran nazar tashlash, jahonda kechayotgan turfa jarayonlarni aql va tafakkur bilan sarhisob etishga chorlaydi.

Ma'lumiki, Prezidentimizning **2019-yil 3-maydagi** "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori 2020-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasi da hamda joriy yilning 19-yanvar kuni Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati hamda vazirliklar, qator davlat va jamoat tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlashga chorlaydi.

Davlatimiz rahbarining “Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo’lsa, uning joni, ruhi ma’naviyatdir”, degan so’zlari mohiyatidagi uyg’onish nafasi Hazrat Navoiy da’vatlariga mohiyatan uyg’un bo’lib, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga azm-u shijoat bilan kirishgan xalqimiz uchun tarbiya, yaxshi xulq, aql-idrok, bilim, ma’naviyat naqadar tengsiz qudrat va ruhiy manba ekanligini yana bir bor anglatdi. Zero, yuksak ma’naviyat bilan jamiyat hayotining tanasi bo’lgan iqtisodiyot vujudiga jon, ruh kiradi, unga tiriklik, tengsiz yaratuvchi qudrat baxsh etadi.

Negaki ma’naviyat va ma’rifat barcha zamonlarda tengsiz qudrat, baxt-saodat, tinchlik, bunyodkorlik, hamjihatlik mezon, ruhiy poklanish va qalbni yuksaltiruvchi ne’mat bo’lib kelgan. Chunki u millatni, xalqni, demakki, insonlarni yuksak fazilatlar, kamolotga yo’lovchi axloqiy mezonlar asosida yashashga, xudbinlik, g’afolat asiriga aylanmay hamisha yaxshilik yo’lida bedor bo’lishga, bu olamni obod qilishga, go’zallikka burkashga chorlagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adolatlilik, ezgulik, haqqoniylik, rostgo’ylik, tartiblilik, mehnatsevarlik kabi sifat va fazilatlarni o’zida birlashtirgan shaxs tavsifi axloqiy tamoyillar deb ataladi. Axloqiy ongning o’ziga xos tushunchalari sifatida yaxshilik va yomonlik, burch vijdon, sha’n, qadr-qimmat kabilarni aytib o’tish joiz. **“Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”**gi qarorda ta’kidlanganidek, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni jaholat soyasidan asrash, tinimsiz chiranib yotgan ma’naviy tahdidlardan himoya qilish uchun tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlarini yangi talablar asosida yo’lga qo’yish, bu yo’nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligini mustahkamlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishi turgan gap.

Mavjud muammolarni hal etish yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish ko’lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida Vatanimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirish bo’yicha yagona tizim yaratish, yoshlarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishni talab qiladi. Bu borada nafaqat respublikamizda, balki jahon ta’lim tizimida yoshlarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mexanizmi, yoshlarning axloqiy sifatlarini rivojlantirishning amaliy pedagogik tizimi, o’qitish modellari texnologik taraqqiyot g’oyalari bilan



uyg'unlashtirilgan interfaol dasturlar ta'lim jarayoniga tatbiq qilingan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "XXI asrning Oliy ta'limi" Butunjahon deklaratsiyasi, UNESCOning "Oliy ta'limni isloh qilish va rivojlantirish" dasturiy hujjatlarida dunyo miqyosida ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga, modulli ta'limni tashkil etishga, o'qitishning zamonaviy usullarini joriy etish orqali talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasini yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qartigan. Ma'lumki, tarbiya yosh avlodni jamiyatda yashashga maqsadli tayyorlash jaroyoni bo'lib, maxsus tashkil etilgan davlat va jamoat institutlariorqali amalga oshiriladi, jamiyat tomonidan nazorat qilinadi va jamiyat tomonidan tuzatishlar kiritib turiladi.

Jahon oliy ta'lim tizimida yoshlarni kasbiy ijtimoiylashtirish, ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish, ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini tarbiyalash metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Koreya, Xitoy, AQSH, Rossiya, Germaniya, Fransiya kabi rivojlangan mamlakatlarda talaba-yoshlarning tafakkurini o'stirish, qobiliyatlarini erta aniqlash, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlari samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirishda modulli o'qitish, "blended learning" (aralash o'qitish), mahorat darslari, vebinarlar tashkil etilib kelinmoqda. Respublikamizda ko'pgina olimlar tomonidan ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining turli jihatlari o'rganilgan hamda ushbu tadqiqotlar natijalarini ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash imkoniyatlari tavsiya qilingan. Bu tadqiqotlarning ba'zilar keng qamrovli bo'lgan ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining ma'lum bir qirrasini tahlil etishga qaratilgan bo'lsa, boshqalari ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmunini boyitishga va turli o'quv kurslarida yangi usullarini qo'llashga yo'naltirilgan bo'lib, ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar tizimini takomillashtirish masalalari tadqiq qilingan.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya – yagona ijtimoiy tarbiya jarayonining bir qismi hisoblanadi. Ma'naviyat va axloqning mohiyati, uning me'yorlari va tamoyillari mazmunini tushunish yoshlarning ma'naviy axloqiy jihatdan fikr yuritishlariga imkon yaratadi. Ma'naviy-axloqiy tushunchalar ,baholash va muhokama yuritish asosida ma'naviy axloqiy e'tiqod shakllanadi va inson xatti-harakati va xulqi baholanadi. Ma'naviy-axloqiy e'tiqodga ega inson axloqiy me'yorlar talablarni ongli bajaradi va ularga hurmat oshadi. Jamiyatda ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining mazmuni uning maqsadlari bilan belgilanadi. Ya'ni , bu maqsadlar ijtimoiy munosabatlar tavsifi bilan belgilanadi. Yoshlarda ma'naviy-axloqiy hislarni shaxsiy sifatlarni va xulqini tarbiyalash hamda rivojlantirishni taqozo etadi. Natijada ular o'zlari va boshqalarning xatti-harakatlarini ana shu nuqtai nazardan boholaydilar. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq

farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi asosiy g'oyalar talaba shaxsini axloqiy shakllantirish mezoni sifatida belgilangan. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning asosiy xususiyatlari bo'lgan oila, mahalla, el-yurt tushunchalari muqaddasligi, ota-ona, mahalla-ko'y, umuman, jamiyatga yuksak hurmat-e'tibor, millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbat, sabr-bardoshlilik, mehnatsevarlik, halollik kabilar talaba-yoshlar shaxsini axloqiy shakllantirishning asosiy omillari ekanligi e'tirof etilgan. Yosh avlod tarbiyasi, avvalo, pedagogning kasbiy mahoratiga bog'liq. Shu o'rinda, yurt kelajagi va istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liqligini qayd etish mumkin. O'qituvchi kasbiy axloq va odob normalarini mukammal egallasagina, o'z kasbining fidoyisi bo'la oladi. Bugungi kunda ana shunday fidoyilik har qachongidan ham muhim ekanligi ushbu sohada olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining dolzarbligini yanada oshiradi..

O'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlillariga tayangan holda oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish bosqichlarini quyidagi ko'rinishda izohlash lozim ko'rildi.

Ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish boshqichlari:

- maqsad qo'yish, mazmunini aniqlash va tizim tashkil etish
- ijtimoiy
- baholash, korreksiyalash

Yoshlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish o'ziga xos bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Bunda, avvalo, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad hamda vazifalarini to'g'ri yo'lga qo'ya bilish, ish mazmunini aniqlash, maqsadga erishish uchun tizimli yondashuvni tashkil etish kerak. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi quyidagicha belgilandi: ta'lim muassasalarida izchillik asosida olib boriladigan ta'lim-tarbiya natijasida ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan kasbiy kompetentli mutaxassis tayyorlash.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodni jismonan va sog'lom, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning kelajagimizning munosib vorislari bo'lib yetishishlari uchun ko'maklashish davlatimiz siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zero, yoshlarimizning ma'naviy va axloqiy madaniyati jamiyatimizning ijtimoiy -iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyotida namoyon bo'ladi. Yoshlarda aynan ijtimoiy munosabatlarga kirishish uchun lozim bo'lgan ma'naviy-axloqiy



kategoriyalar, normalar, qadriyatlar tizimi haqida bilim hosil qilish hamda ulardan amaliy faoliyatda foydalanish ko‘nikmalari takomillashtirilishi muhim o‘rin tutadi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz (1-jild). – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 48 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 56 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907qarori//<https://lex.uz/docs/-3864155>.
6. Ismoilova Z.Q. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental-metodik asoslari (Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar). Ped. fan. dokt. ...dis. avtoref. – Toshkent: O‘zPFITI, 2006. – 46 b.
7. Quronov M. Milliy tarbiya. – Toshkent: Ma’naviyat, 2007. – 240 b.
<https://doi.org/10.31838/jcr.07.05.80>
8. Ismailova Z. & Ergashev B. (2019). New information and communication technologies in education system. In E3S Web of Conferences (Vol.135). EDP Sciences//<https://doi.org/10.1051/e3sconf/201913504077>
9. Karabayevna Z., Musurmanova A. & Xamroyevich R. (2019). Improving the competence of future vocational education teachers based on modular-rating education. International Journal of Engineering and Advanced Technology, 9(1), 6903–6906//<https://doi.org/10.35940/ijeat.A2997.109119>

ВЫБОР ПОРЯДКА РАЗРАБОТКИ НАГОРНЫХ КАРЬЕРОВ

Илхом Туйчибаевич Мислибаев

д.т.н., проф. Навоийский государственный горно-технологический университет

Гули Миржановна Самадова

к.т.н., доц. Таджикистанский государственный горный институт

АННОТАЦИЯ

В работе рассмотрены вопросы развития режима работы горных работ месторождения на косогоре. Определено отработки месторождения выраженным в форме рабочего борта карьера. Исследовано пути моделирования поперечного профиля месторождения.

Ключевые слова: карьер, коэффициент вскрыши, угол наклона косогора, угол падения рудного тела, геометрия и динамика развития борта карьера, уступ, плоские заряды, вскрыша, линейные элементы.

ВВЕДЕНИЕ

Выполненные экспериментальные исследования доказали возможность сокращения объема перепускаемых бульдозерами пород в комплексе за счет усиления метательного эффекта взрыва на сброс. Необходимо теперь изучить и обосновать технологию разработки месторождения в целом. В первую очередь это касается порядка его разработки.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДОЛОГИЯ

Как известно, отработку месторождения крутыми слоями в большинстве случаев, когда уголь откоса косогор меньше чем уголь откоса залежи можно начинать снизу вверх по склону. При этом происходит наращивание высоты борта карьера с нарезкой новых уступов вплоть до достижения бортом вершины горы (рис. 1). В дальнейшем высота борта будет длительное время постоянной (при отработке горного хребта или платообразной горы), либо начнет сокращаться (при отработке куполообразной возвышенности).

В процессе разработки месторождения возможны два варианта очередности (последовательности) взрывания породных массивов смежных по высоте заходов: сверху вниз по борту или, наоборот, снизу вверх. Наиболее распространен в практике первый вариант (рис. 2).




Рис. 1. Последовательность наращивания высоты борта карьера в начале отработки месторождения

1-17 - последовательно обрабатываемые заходки.

Геометрия и динамика развития борта карьера в этом случае состоят в следующем. В работе, как правило, находится один уступ. Все работы на нем (бурение, взрывание, уборка породы с подошвы) выполняются последовательно. После очистки рабочей площадки первого по высоте уступа и обнажения тем самым кровли следующего начинается цикл работ уже на нем. Горные работы таким образом постепенно опускаются вниз до подошвы горы к перегрузочной площадке.

После взрыва с использованием плоских зарядов на рабочей площадке остается навал объемом $V_{\text{ост.п.з}}$. Величина его не превышает $(0,18 - 0,36) \cdot V_{\text{зах}}$, где $V_{\text{зах}}$ - объем заходки в целике; при однорядном взрывании $V_{\text{зах}} = H_y \cdot W$, $\text{м}^3/\text{м}$; тогда

$$V_{\text{ост.п.з}} = 0,18 \cdot H_y \cdot W, \text{ м}^3/\text{м}.$$

Часть породы, сброшенной с рабочей площадки взрывом и бульдозерами, задерживается на бермах между уступами вплоть до полного их перекрытия. Перед взрыванием очередного уступа соответствующую берму необходимо очистить во избежание отрицательного эффекта взрыва на подпорную стенку, по этой причине ширина бермы не должна быть менее 4 м.

Кроме геомеханических функций (для придания борту необходимого угла устойчивости β), бермы между уступами несут и защитную функцию, они задерживают случайно оторвавшиеся от откоса и падающие одиночные куски с временно нерабочих уступов, расположенных выше рабочего. В этом случае ширину предохранительной бермы можно рассчитать по методу Н.М. Ройнишвили. Кусок, падая с вы-

соты H_y (рис. 3), скатывается по откосу уступа из точки A в точку B и, двигаясь по инерции, останавливается в точке C . Длина отрезка BC , называемого расстоянием длинного скатывания, составляет:

$$AC = H_y \cdot x_3 + 0.5, \text{ м, (1)}$$

где x_3 - коэффициент, учитывающий расстояние длинного скатывания, по рекомендации Н.М. Ройнишвили при угле откоса уступа $\alpha = 70 - 75^\circ$, с крепостью $f = 6 - 10$ (по шкале проф. М.М. Протодьяконова), $x_3 = 0.42$




Рис. 2. Взрывание породного массива заходок сверху вниз

1-6 - последовательно взрывающиеся заходки остальные обозначения - в тексте.




Рис. 3. Схема к расчету расстояния длинного скатывания (по Н.М. Ройнишвили).

Следовательно, при $H_y = 10$ м величина e_y будет равна 4,7 м. Окончательно принимается $e_y = 5$ м.

За полный цикл отработки всех заходок крутого слоя механизированной уборке подлежит порода в объеме $V_{мех}$:

$$V_{мех} = V_{берм.} \cdot (n_y - 2) + V_{ост.п.з.} \cdot (n_y - 1) \quad \text{м}^3/\text{м}, \quad (2)$$

где n_y - число уступов в крутом слое; $V_{ост.п.з.}$ - объем породы, остающейся на рабочей площадке каждого уступа после взрыва плоских зарядов, $\text{м}^3/\text{м}$; $V_{берм.}$ - объем породы, подлежащей уборке с берм между уступами перед их взрыванием, $\text{м}^3/\text{м}$;

$$V_{берм.} = \frac{b_y^2}{2K_p \cdot (ctg\alpha'_p - ctg\alpha)}, \quad \text{м}^3/\text{м}, \quad (3)$$

$$\text{Тогда коэффициент подвалки} \quad K_{подв} = \frac{V_{мех}}{V_{вз}} * 100, \% \quad (4)$$

где $V_{вз}$ - объем взорванной горной массы на всех уступах одного крутого слоя, $\text{м}^3/\text{м}$;

$$V_{вз} = H_y \cdot W \cdot n_p \cdot n_y, \quad \text{м}^3/\text{м}; \quad (5)$$

n_p - число рядов скважин в заходке (при $e=W$).

При $e_y = 5$ м и $n_y = 5$ коэффициент $K_{подв}$ определяется высотой уступа H_y , числом рядов скважин n_p и величиной сопротивления по подошве W (табл. 1). В аналогичных условиях расчета показатель $K_{подв}$ при традиционной технологии взрывания (без плоских зарядов) значительно выше: механизированной подвалке подлежит не менее 57 % взорванной горной массы (табл. 2). Функция $K_{подв} = f(H_y)$ носит степенной характер (рис. 4).

Таблица 1.

Значение коэффициента подвалки $K_{подв}$ в зависимости от величины H_y , n_p и W при отработке месторождения сверху вниз и использовании плоских зарядов, %

Число рядов скважин, n_p	Сопротивление по подошве W , м								
	2,6			4,0			6,0		
	Высота уступа H_y , м								
	10	15	20	10	15	20	10	15	20
1	43,6	30,2	21,8	32,0	21,4	16,0	26,0	17,4	13,0
2	36,0	24,0	18,0	31,2	20,8	15,6	31,2	20,8	15,6
3	39,0	26,0	19,5	39,0	26,0	19,5	45,0	30,0	22,5

Таблица 2

Значение коэффициента подвалки $K_{\text{подв}}$ в зависимости от величины H_y , n_p и W при отработке месторождения сверху вниз и использовании традиционной технологии взрывания, %

H_y	n_p	$W, \text{ м}$		
		2,6	4,0	6,0
10	1	94,97	82,40	76,35
15		71,33	61,30	57,30
20		-	-	-
10	2	77,87	74,95	76,15
15		58,15	57,12	60,21
20		-	-	-
10	3	74,99	76,15	79,40
15		57,04	60,21	66,16
20		-	-	-

Порядок отработки месторождения со взрыванием смежных заходок снизу вверх рассмотрен в работе [1]. В этом случае предохранительные бермы на борту не создаются, а на всех уступах сохраняются рабочие площадки (рис. 5), Исходное положение при отработке каждого крутого слоя - полностью очищенные рабочие площадки на всех уступах. Взрывные работы начинаются с самого нижнего уступа и перемещаются к вершине горы. До окончания взрывных работ рабочие площадки не очищаются и полностью заваливаются сброшенной взрывом породой с вышерасположенных уступов. Очистка их осуществляется уже сверху вниз с помощью бульдозеров. Вслед за подвалкой ведется обуривание очищенных участков уступов следующего крутого слоя. При правильной организации возможно завершить обуривание уступов к концу перепуска горной массы и осуществить каскадное взрывание всех уступов крутого слоя.

Так как при данном порядке отработки месторождения подвалка может вестись на нескольких уступах (с опережением в вертикальных плоскостях), то здесь может быть достигнута более высокая производительность карьера. Исключаются работы по очистке предохранительных берм перед взрывом - что присуще предыдущей технологии. Объем работ по механизированной подвалке взорванной горной массы составляет:

$$V_{\text{мех}} = V_{\text{р.п.}} * (n - 2) + V_{\text{ост.п.з.}}, \text{ м}^3/\text{м} \quad (6)$$

где $V_{\text{р.п.}}$ - объем породы, остающейся на рабочей площадке после ее завала, $\text{м}^3/\text{м}$;



$$V_{p.n.} = \frac{B_{p.n.}^2}{2K_p \cdot (ctg\alpha'_p - ctg\alpha)}, \quad m^3 m \quad (7)$$

С учетом формул (5) и (6) по формуле (7) можно подсчитать коэффициент подвалки $K_{подв}$.

Если принять ширину рабочей площадки $B_{p.n.}$ такой же, как и в предыдущем случае ($B_{p.n.} = 9$ м), то при $W = 4$ м, однорядном взрывании и $n_y = 5$ коэффициент $K_{подв}$ будет изменяться в следующих пределах (табл. 3).

Таблица 3.

Значение коэффициента подвалки $K_{подв}$ в зависимости от величины H_y , W при взрывании заходки снизу вверх и использовании плоских зарядов, %

Высота уступа H_y	Сопротивление по подошве W		
	2,6	4,0	6,0
10	66,97	60,93	60,65
15	44,64	40,62	40,43
20	33,48	30,46	30,32

Из сопоставления данных табл. 1 и 3 следует, что взрывание заходок снизу вверх приводит к увеличению объема переэкскавации породы в 1,3-2,3 раза. Кроме того, для реализации данного порядка отработки месторождения необходимо соблюдать жесткое соотношение между шириной рабочей площадки и высотой уступа с тем, чтобы, с одной стороны, избежать недопустимого выполаживания рабочего борта (когда вся взорванная и подавленная горная масса полностью остается на рабочих площадках уступов), а с другой выдержать технологические требования к предельным значениям этих параметров. Как показали расчеты, взрывание заходок снизу вверх возможно только при высоте уступов более 20 м и ширине рабочих площадок 5-11 м.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Первое условие не всегда достижимо по соображениям безопасности, так: как буровые станки и бульдозеры работают непосредственно под откосом борта. Работа бульдозеров на площадках указанной ширины возможна, но здесь она осложняется из-за необходимости обрабатывать навал перепущенной сверху породы высотой более 7-10 м.

В итоге на основе сопоставления достоинств и недостатков того и другого порядка отработки



месторождения рекомендуется отрабатывать его по технологии со взрыванием заходок сверху вниз.

REFERENCES

1. Пермяков Р.С. Особенности разработки нагорных месторождений Заполярья. Л.: Наука, 1969, 234 с.
2. Мислибаев И.Т., Самадова Г.М. Разработка графоаналитической модели поперечного профиля месторождения на косогоре.// Горный вестник Узбекистана. – Навои, 2022. – №4. – С. 39-43.
3. Мислибаев И., Самадова Г.М., Туйчибаев З.И. Особенности открытой разработки нагорных месторождений. Материалы III-международной конференции “Комплексное инновационное развитие зарафшанского региона: достижения, проблемы и перспективы”. г. Навои, Узбекистан 27-28 октября 2022 г. Том.1. –С. 162-173
4. Бурштейн М.Ф. Исследование направленного сброса зарядами глубинного заложения в применении к производству капитальных вскрышных работ на нагорных месторождениях. Канд. дисс., Т.: 1970. -189 с.
5. Березин А.И. Обоснование параметров первого этапа открытой разработки крутопадающей залежи нагорного типа. Известия Сев.-Кав. научн. центра высшей школы. Серия техника и науки -1974. –№ 3. –С. 52-53.
6. Вологев Б.М., Максимов В.К., Бакшеев А.И. Особенности формирования нагорной части карьеров на крутых склонах. Горный журнал. М.: -1983. -№ 9. С. 61-65.

CAPSICUM ANNUUM O‘SIMLIGINI KASALLANTIRUVCHI VIRUSLAR MONITORINGI, SIMPTOMAL-ANALIZ, TARQALISHI

Aydinay Abdugapparovna Maxatova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Aniqlash va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi
(biologiya) yo‘nalishi 1-kurs magistranti
aydinay9500@gmail.com

Voxid Baxromovich Fayziyev

Chirchiq davlat pedagogika universiteti kafedra mudiri, b.f.d dots.
fvaxid@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada *Capsicum annuum* o‘simligining viruslar bilan kasallanish monitoringi va ularning simptomal-analizi, tarqalishi, o‘simliklarga yuqadigan viruslar va ular keltirib chiqaradigan kasalliklar haqida.

Kalit so‘zlar: *Capsicum annuum*, viruslar, simptomlar, simptomal analiz, tamaki mozaikasi virusi, capsicum chlorosis virus.

ABSTRACT

This article focuses on the monitoring of viral infection of the *Capsicum annuum* plant and their symptomatic analysis, distribution, plant viruses and the diseases they cause.

Keywords: *Capsicum annuum*, viruses, symptoms, symptomatic analysis, tobacco mosaic virus, capsicum chlorosis virus.

KIRISH

Qalampir tomatdoshlar (*Solanaceae*) oilasiga mansub bo‘lib, madaniy holda *Capsicum annuum* L. turi ekiladi. Poyasi o‘tsimon, tik o‘sadi, bo‘yi 25-30 sm dan 80 sm gacha, shoxlanuvchan bo‘ladi. Barglari bandli mayda va ingichka, usti silliq yoki tukli, uzunchoq shaklda. Gullari ikki jinsli, mayda oq, sariq yoki och binafsha rangda bo‘lib, 9 ta tojbargi bor. Ekilgandan 80-90 kun o‘tgach, iyun-iyul oyida gullaydi va kuzgi sovuq tushguncha davom etadi.

Qalampirlar fakultativ o‘zidan changlanuvchi o‘simlik. Chunki 25% gacha mevalar chetdan changlanish evaziga hosil bo‘lishi mumkin. Chetdan changlanishda hasharotlar (chumolilar, tripslar va qisman asalarilar) changlatuvchi bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, achchiq va shirin qalampirlar bir-biridan uzoq ekilishi shart. Mevasi 2, 4, 6 kamerali, ko‘p urug‘li rezavor. Achchiq qalampir mevasi yirik emas, shakli cho‘ziq (shoxsimon, xartumsimon, bigizsimon) bo‘lib, po‘sti yupqa etli. Pishgan mevalari qizil, sariq yoki to‘q

sariq rangda bo'ladi. Urug'lari och sariq, yassi-yumaloq, 1000 tasi 4-8 g. Urug'larining unuvchanligi 80%. Ildiz sistemasi yuza, asosiy qismi 20-30 sm chuqurlikda joylashgan [1].

Capsicum annum o'simligi issiqqa, namlikka va tuproqdagi oziq moddalarga nihoyatda talabchanligi bilan farq qiladi va o'sish davrining uzoq davom etishi bilan ajralib turadi. Bu o'simlik yorug'liksevar o'simlik. Yorug'likning yetishmasligi gulini to'kib yuborishiga, kam meva tugishiga va hosildorlikning keskin pasayishiga sabab bo'ladi.

Tuproq harorati 13°C dan yuqori bo'lganda achchiq qalampirning urug'i una boshlaydi. Qalampir uchun kunduzgi harorat 25°C va tungisi 15-18°C bo'lganda optimal harorat hisoblanib, o'simlik yaxshi o'sib rivojlanadi. Harorat 13-15°C da urug' sekin una boshlaydi va nihollar 18-20 kunda paydo bo'ladi, 25°C haroratda nihollar 8-10 kunda unib chiqadi. Harorat 11-13°C bo'lganda o'simlik o'sishdan to'xtaydi va minus 0,5-1°C sovuqda nobud bo'ladi. Havo harorati 25-30°C bo'lganda o'simlik yaxshi o'sib rivojlanadi.

Capsicum annum o'simligi chirindiga boy, mexanik tarkibi yengil bo'lgan tuproqlarda yaxshi o'sadi. Og'ir tuproqlarda o'simlik sekin o'sadi, undan tashqari, kun issiq bo'lganda u fuzarioz so'lish kasaliga chalinadi.

Ushbu o'simlik pomidorga nisbatan havoning nisbiy namligiga kamroq talabchan bo'lib, o'simlik 55-60% namlikda yaxshi o'sib, rivojlanadi. Nihollar paydo bo'lgandan keyin vegetatsiya boshida juda sekin o'sadi.

Ko'chat to'liq shakllanishi va dalaga ekishga yaroqli bo'lishi uchun 55-60 kun talab qilinadi. Ochiq dalaga ekilgan ko'chat tuproq namligi yetarli bo'lsa, u yaxshi tutib qoladi, lekin u uzoq muddat ko'karmay turadi. 1,5-2 haftadan so'ng, tuproqqa ishlov berilgandan keyin ko'chat sezilarli darajada ko'kara boshlaydi. 28-35 kundan keyin o'simlikni o'sishi juda tezlashadi.

Naviga qarab nihollar yoppasiga paydo bo'lgandan 60-70 kundan keyin o'simlik gullaydi, 80-85 kundan keyin mevasi texnik yetiladi va 115-120 kundan keyin biologik yetiladi,

So'ngi yillarda Capsicum annum o'simligining 100 ga yaqin o'z va turdosh kasallantiruvchi viruslari borligi xalqaro maydonda o'rganishlar natijasida aniqlangan bo'lib, bu viruslar hosildorlikni va mahsulot sifatini pasaytirib, xalq xo'jaligiga zarar yetkazmoqda.

Shuning uchun bu izlanishlarda muammolarni hal etish uchun quydagicha maqsad qo'yildi:

- Capsicum annum o'simligining virusli kasalliklarini biologiyasi va sistemetikasini o'rganish, ular bilan ishlash

mexanizmini tuzish, ulardan ayrimlarini ajratish hamda identifikatsiya qilish.

• Capsicum annum o'simligini kasallantiruvchi viruslar monitoringini shakllantirish, simptomal-analiz qilish va tarqalishini o'rganish.

ASOSIY QISM

Capsicum annum o'simligini kasallantiruvchi viruslarga quyidagilar kiradi:

- Tobacco mosaic virus (TMV) Tamaki mozaikasi virusi.
- Tomato mosaic virus (ToMV) Tomat mozaikasi virusi.
- Cucumber mosaic virus (CMV) Bodring mozaikasi virusi.
- Tomato spotted wilt mosaic virus (ToMMV) Pomidorning dog'li so'lish virusi.
- Cucumber green mottle mosaic virus (CGMMV) Bodringning yashil rangli mozaika virusi.
- Pepper mild mottle virus (PMMoV) Qalampirning yengil qo'ng'iroq virusi.
- Pepper mottle virus (PMoV) Qalampir xiralashish virusi.
- X-potato virus - Kartoshka X virusi
- Y-potato virus – Kartoshka Y virusi
- Watermelon mosaic virus (WMV) tarvuz mozaikasi virusi.
- Zucchini yellow mosaic virus (ZYMV) qovoq mozaikasi virusi
- Alfalfa mosaic virus (AMV) Beda mozaikasi virusi.

Capsicum annum o'simligini kasallantiruvchi viruslar monitoringi- simptomal analiz, tarqalishi yuzasidan Toshkent viloyati Chinoz tumanidagi yopiq dala maydoni va Toshkent viloyati Yangi yo'l tumanidagi ochiq dala maydonlarida ekilgan bulg'or qalampiri va achchiq qalampir o'simliklarini o'rganish bo'yicha kuzatildi (1rasm).



1-rasm. Capsicum annum o'simligini ochiq va yopiq maydonda yetishtirilishi

Bunda Chinoz tumanidagi yopiq dala maydonida (issiqxonada) 13 sotixli yer maydoniga 3000 dona bulg'or qalampirining "Oqqari" va "Yupqapo'choq" navlari bog'lab ekish yo'li bilan ekilgan. 1 kv/m da o'rtacha hisobda 8 dona capsicum annum o'simligi ekilgan. 1kv/m dagi 8 ta o'simlikning o'rtacha hisobda 3-4-5 donasida virusli va shira kasalliklari kuzatilgan (2-rasm).

Bunda viruslar bilan kasallanish quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$A=n*100/N$$

Bu yerda: A-o'simlikning kasallanish darajasi;

N-umumiy o'simliklar soni;

n-kasallangan o'simliklar soni;

Ushbu formulaga ko'ra 1kv/m da umumiy o'simliklar soni 8 tani va viruslar bilan kasllangan o'simliklar o'rtacha 4 donani tashkil qilsa, quyidagicha hisoblanadi:

$$4*100/8 =50\%,$$

ya'ni 1 kv/m joyda o'simlikning o'rtacha 50% da virus bilan zararlanish kuzatilmoqda.



2-rasm. Capsicum annum o'simligining yopiq maydonda kasallangan barglari

Keyingi ochiq dala maydoni Yangi yo'l tumanidagi Elubay qishlog'ida joylashgan "Ozod MCHJ" 1 gektar maydonga ekilgan 20 ming tup "Yupqapo'choq" navi avgust oyida ekilgan va hozirda vegetativ gullash va shu bilan bir qatorda mevalari hosilini terib olish jarayoni ketmoqda. Bu ochiq maydondagi 1kv/m da 10 ta o'simlik o'rtacha hisobda ekilgan. Ularda issiqxonaga nisbatan virusli kasalliklar ko'proq va boshqacharoq kuzatildi. Umumiy hisobda 20 ta o'rganish nuqtasi belgilab olindi va 1kv/m da 3-4 dona o'simliklarda kasallanish belgilari kuzatildi (3 rasm).

1kv/m da umumiy o'simliklar soni 10 tani va viruslar bilan kasllangan o'simliklar o'rtacha 4 donani tashkil qilsa, quyidagicha hisoblanadi:

$$4 \cdot 100 / 10 = 40\%$$

ya'ni 1 kv/m joyda o'simlikning o'rtacha 40% da virus bilan zararlanish kuzatilmoqda.



3-rasm. *Capsicum annum* o'simligining ochiq maydonda kasallangan barglari

Shuningdek, *Capsicum annum* o'simligi o'zining indikator o'simliklariga ega bo'lib, bularga: *Datura stramonium*, Nikatin tabak, Nikatin Burley, Ganfrena, Tabak, *Vigna* kabi o'simliklar kiradi.

O'rganishlar natijasida *Capsicum annum* o'simligining 2 xil virusi: Tamaki mozaikasi virusi va *Capsicum chlorosis* virusi o'rganish uchun ajratib olindi. Ushbu viruslar o'simlikda quyidagi belgilar bilan nomoyon bo'ladi.

1. Tamaki mozaikasi - Qo'zg'atuvchisi-Tobacco mosaic virus. Qalampir o'simligida keng tarqalgan viruslardan biri bo'lib, u asosan keng dala va yopiq joylarda yuqadi (1-rasm). Tamaki mozaikasi virusi nafaqat *Capsicum annum* o'simligida, balki boshqa o'simliklarda- tamakida, sabzavotlarda va boshqa madaniy o'simliklarda ham uchraydi. Boshqa o'simliklardan farqli o'laroq mozaika trips, shira va chirildoq

orqali emas, balki o'simlik shirasi orqali yuqadi. Virus asbob-uskunalar, hashorotlar va mexanik shikastlangan o'simliklar bilan ishlagan ishchilar orqali tarqaladi.

Kasallikning xarakterli belgilari- mozaika shaklida barg plastinkasida sariq-yashil dog'larning paydo bo'lishi. Infeksiyalangan shoxlari o'sishni to'xtaydi, gullar va barglar o'ralib qoladi, deformatsiyani va kichrayib qoladi Ochiq gullari ustida jigarrang chiziqlar paydo bo'ladi. Ikkinchi shtamm barg tomirlarining uzunligi bo'ylab to'qimalar nekrozini keltirib chiqaradi. Keyinroq poya - barglarida qora chiziqlar va nekroz paydo bo'ladi, mevalari yaxshi rivojlanmay o'sadi. Mozaik transpiratsiyani buzadi, bu esa o'simlikning haddan tashqari qizib ketishiga olib keladi va natijada hosildorlik pasayadi.

O'simlikning vegetatsiyasi davrida o'simlikdagi so'ruvchi hashorotlar yoki issiqxonalarda kasal o'simliklar bilan ishlagan ishchilar sog'lom o'simliklar bilan ishlasa yuqadi [3].

Virus o'simlik qoldiqlarida va hatto kiyim-kechaklarda bir necha oy, hattoki 50 yilgacha ham yashashi mumkin. Bundan tashqari, tamaki mozaikasi juda yuqori haroratga chidamli. Tamaki mahsulotlari – virusning keng tarqalgan manbai hisoblanadi, sababi chekuvchi insonlar kasal o'simliklarga to'g'ridan to'g'ri teginadi. Virus juda tez tarqaladi.

O'simliklarda viruslarni davolash usullari mavjud emas. Oldini olish uchun chidamli navlarni yaratish va o'simlikka Farmayod yoki Fitolavin biologik preparatlarni purkab turish lozim.



4-rasm. Tamaki mozaikasi virusini achchiq va shirin qalampirda kechishi.


2. Qalampir xlorozi virusi-Capsicum chlorosis virusi

Qo'zg'atuvchi —**Capsicum chlorosis virus (CaCV)**

Kasallik yoz oylarida juda havflidir, ayniqsa virus boshqa viruslar bilan qo'shilganda havf ortib ketadi.

Kasallikning qalampir barglarida paydo bo'lish simptomlari:

- O'simlikning rangi o'zgarishi (asosan sarg'ayib keyin qorayib ketadi)
- Yetuk o'simliklardagi qabariq barglar
- Mevalarning maydalashib yoki yo'q bo'lib ketishi
- Barglarda xlorotik va nekrotik dog'lar va halqalar, apikal nekrozlar va barglarning buzilishi kuzatildi.
- Barg pichog'ining chetidan ichkariga burish alomatlari



5-rasm.

XULOSA

Capsicum annum o'simligida uchraydigan ushbu viruslarni chuqur o'rganish mamlakatimizda ushbu o'simlikka bo'lgan ehtiyojni sezilarli darajada qondirishga olib kelishi mumkin. Sababi, viruslarni kelib chiqishini, ularga qarshi kurash choralarini o'rganish orqali bu muommalarni batamom bartaraf etishimiz mumkin.

Fermer xo'jaliklarida ushbu mahsulotdan olinadigan hosil yuqori darajaga yetishi mamlakatimizdagi tub aholining ehtiyojini qondirish va eksport salohiyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

REFERENCES

1. 100 kitob to'plami, AChChIQ QALAMPIR YeTISHTIRISH 36-kitob, Rustam Mamatqulov, «Агробанк» АТБ.-Тошкент: "ТАСВИР" нашриёт уйи, 2021. - 44 б.
2. Болезни сладкого и острого перца, Мария Чурсина <https://semena.cc/blog/bolezni-ovoshhnyh-kultur/bolezni-sladkogo-i-ostrogo-percza-i-ih-lechenie/>.
3. Вирусные болезни перца в Узбекистане, Юлдашев Жумабой, диссертационная работа Ленинград 1991г, стр 1-20.
4. <https://agronomu.com>
5. <https://www.botanichka.ru>

JAHON ILM FANI RIVOJIDA ABU ABDULLOH MUHAMMAD IBN MUSO AL-XORAZMIYNING TABIATSHUNOSLIK HAQIDAGI QARASHLARINING SIVILIZATSIYA RIVOJIDAGI O'RNI

Islomjon Yuldashevich Mullajonov

Chirchiq OTQMBYU Gumanitar fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jahon sivilizatsiyasi rivojiga bebaho hissa qo'shgan Sharq allomasi va mutafakkiri Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy o'z davrida qo'lga kiritgan ilmu – fan sohasidagi yutuqlari, ilm-fanning turli yo'nalishlaridagi izlanishlari va qomusiy bilimlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Sivilizatsiya, ilm-fan, algoritim, algebra, "Kitab Muxtasab Al-jabr val-muqobala".

ABSTRACT

This article discusses the achievements of the scholar and thinker of the East Muhammad ibn Musa al-Khorazmi, who made an invaluable contribution to the development of world civilization, in the field of science, his research in various fields of science, and his encyclopedic knowledge.

Keywords: Civilization, science, algorithm, algebra, "Kitab Mukhtasab Al-jabr wal-muqabala".

KIRISH

Buyuk matematik, astronom va geograf Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy – dunyo ilm faniga mislsiz ulkan hissa qo'shgan alloma, Algebra fani va Algoritim terminlarining "otasi", buyuk matematik, tarixchi, falakkiyotshunos, geograf sifatida butun dunyoga mashhur. Buyuk alloma vatandoshimizning shaxsiy hayoti haqidagi ma'lumotlar nihoyatda kam miqdorda saqlanib qolgan.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy VIII asrning oxiri va IX asrning birinchi yarmida yashab ijod etdi. Bu davrda Markaziy Osiyo arab xalifaligi tarkibiga kirar edi. Rivojlanib kelayotgan mavjud tuzum taqozo qilgan ijtimoiy-iqtisodiy talablar bu davrdagi taraqqiyot jarayonining asosiy omillaridan biri bo'ldi. Qurilish, savdo-sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik va boshqa sohalarni yanada taraqqiy ettirish uchun astronomiya, geodeziya, geometriya kabi fanlarni rivojlantirish zaruriyati tug'ildi. O'sha davrning ilg'or olimlari bu fanlarning amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lib, Muhammad Xorazmiy esa shu olimlarning peshqadami va yo'l boshchisi edi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'rta asrlar davrida Markaziy Osiyo hududida mavjud bo'lgan madaniyat, ilm – fan va ma'naviy ma'rifiy yutuqlar ham qadimiy hususiyatga ega bo'lib, bu hududda ham ilgari surilgan g'oyalar, yaratilgan asarlar va ilgari surilgan ta'limotlar ham jahon fani va madaniyatida o'z o'rni va mavqeiga egadir.

Ayniqsa, O'rta asrlarda Yaqin Sharq, xususan, Markaziy Osiyoda vujudga kelgan ilmu – fan va madaniyat rivoji yaqqol ko'zga tashlanadi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "...Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi IX-XII va XIV-XV asrlarda bamisoli po'rtaadek otilib chiqqan ikki qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbai hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan Sharq uyg'onish davri – Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan"[1].

Bu davrda yuz bergan ma'naviy – madaniy yuksalish natijasida jahon ilmu – fanini yanada rivojlantirgan bir qator mutafakkir olimlar, qomusiy bilim egalari, jumladan, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, shuningdek, A.Temur va Temuriylar davrida yashab ijod etgan Mirzo Ulug'bek va uning Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi singari ko'plab olimlarni tilga olib o'tish mumkin. Buyuk mutafakkirlar orasida o'zining tengsiz yutuqlari va qimmatli g'oyalari bilan ajralib turuvchi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy ham o'z davri fani va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan.

Xorazmiy algebra faniga asos soldi, ilmiy ma'lumot va traktatlarni bayon etishning aniq qoidalarini ishlab chiqdi, u astronomiya, geografiya va iqlim nazariyasi bo'yicha ko'plab ilmiy asarlar muallifidir. Allomaning dunyo ilm-fani rivojidadagi xizmatlari umume'tirof etilgan bo'lib, Sharq olimlari orasida faqat uning nomi va asarlari «algoritm» va «algebra» kabi zamonaviy ilmiy atamalarda abadiylashtirildi.

Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Allomaning dunyo ilm-fani rivojidadagi xizmatlari umume'tirof etilgan bo'lib, Sharq olimlari orasida faqat uning nomi va asarlari "algoritm" va "algebra" kabi zamonaviy ilmiy atamalarda abadiylashtirildi"[1].

Hozirgi davr zamonaviy texnologiyalari va umuman insoniyat yaratgan texnosfera algoritm asosida ishlamoqda. Algoritmalar qadimgi Bobil, Yunoniston davlatlarining fani bilan



chambarchas bog‘liq. Biroq, uni yanada takomillashtirgan holda, “Algoritm algebraik masalalarni yechish usuli sifatida bundan o‘n ikki asr oldin Al-Xorazmiy tomonidan qo‘llanilgan”[2].

XII asrda «Al-jabr» kitobi lotin tiliga «Algebra», muallifining ismi esa «Algorizmi» deb tarjima qilinishi keyinchalik bu atamaning «Algorizm» deb atalishiga olib keldi[2].

Algoritm usuli orqali odatda algebraik amallarni ketma – ketlikda bajaralishi bugungi kunga kelib, murakkab qurilmaga ega bo‘lgan texnologiyalarni boshqarishni asosini ham tashkil etmoqda. Transformatsiyalanish natijasida algoritm matematika, kibernetika va boshqa shu kabi fanlarning o‘rganish sohasidan kengroq doiraga ko‘tarildi.

Natijada jamiyatning deyarli barcha sohalarida algoritm metodi keng miqyosda qo‘llanila boshlandi.

Fan va texnikaning rivojlanishi bilan bog‘liq holda «algoritm» tushunchasi va uning mazmuni kengaymoqda, rivojlanmoqda, umumiy algoritmni yaratish muammosi yuzaga kelmoqda. Algoritm nazariyasi asrimizning ulkan yutug‘i hisoblanadi. Keng ma’nodagi, algoritm – eng avvalo, masalani yechishning to‘g‘ri tanlangan usulidir. Algoritmni avtomatik qurilmalar (telefonlar, kassa apparatlari)ning ishlash prinsiplari sifatida ham tasavvur etish mumkin. Sayyohlik yo‘nalishlari, ma’lumotnomalar, eshik qulflarini ochish qoidalari, dorilarni tayyorlash yo‘l-yo‘riqlari, pazandalik retseptlari – bularning barchasi algoritmldir.

Hozirgi kunda dunyodagi barcha mashina, mexanizm va avtomatlar, transport, aviatsiya, kosmonavtika va aloqa vositalari algoritm yordamida ishlasa-da, algoritm atamasi Al-Xorazmiy nomidan olinganligini bu sohalarida ishlovchi barcha mutaxassislar ham bilishmaydi. Bu borada chuqur tadqiqotlar olib borgan O. F. Fayzullayevning ijodini alohida qayd etish lozim. U algoritm metodini falsafiy-metodologik jihatdan tahlil qilishga alohida e’tibor qaratgan. Olimning ishlarida algoritm metodining universal xususiyati, uni jamiyatning deyarli barcha sohalarida uchratish mumkinligi qayd etilgani holda, umumilmiy metod darajasiga ko‘tarilayotgani izohlangan.

Hozirgi kunda biz foydalanayotgan o‘nlik pozitsion hisoblash tizimini, nol belgisi va qutblar koordinatalarini yaratilishi, algebra faniga asos solinishi shuningdek, astronomiya, geografiya va boshqa fanlarda ilgari surilgan ilmiy g‘oyalar bugungi kunga qadar o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Xorazmiy, yuqorida qayd etganimizdek, dunyoga birinchi navbatda o‘zining – “Kitab Muxtasab Al-jabr val-muqobala” (“Tiklash va qarama qarshi qo‘yish haqida muxtasar kitob”) asari

bilan mashhur. Asar nomining soʻzma-soʻz maʼnosi shundan iborat: “Al-Jabr” - tiklash va “val-Muqobala” -qarama qarshi qoʻyish. Bularning Xorazmiy asaridagi tom maʼnosi va mohiyati, asarda tahlil qilingan chiziqli va ikkinchi darajali tenglamalarni yechish jarayonida, tarixda ilk marotaba Xorazmiy tomonidan qoʻllanilgan usul – tenglamaning maʼlum va nomaʼlum hadlarini guruhlash, yaʼni tenglikning oʻng tarafiga maʼlum qiymatlarni, chap tarafiga esa nomaʼlumlarni tartiblash – “Tiklash”, ularni oʻzaro matematik amallar yordamida soddalashtirish, qisqartirish va yechish – “Qarama qarshi qoʻyish” deb atalganligidir. Ushbu asar nomidagi “Al-Jabr” soʻzidan keyinchalik talaffuzdagi oʻzgarishlar (Yevropa tillari tufayli) “Algebra” soʻzi paydo boʻldi.

Mazkur asarning asl qoʻlyozma matni yoʻq boʻlib ketgan, ammo uning 1140 yilda ingliz matematigi Robert Chesterski tomonidan tarjima qilingan lotin tilidagi nusxasi saqlanib qolgan. Bu asar nomi “Book Algebra and al-mukabala” boʻlib, hozirda Kembridjda saqlanadi. Shuningdek, “Al-jabr val-muqobala” ning ispaniyalik yahudiy Ioann Sevilskiy tomonidan oʻgirilgan tarjima nusxasi ham mavjud boʻlib, uni mazkur muallif oʻzining "Boshlangʻich arifmetika" asarining birinchi qismiga kiritgan.

Kitob mantiqan ikki qismga boʻlib tasnif qilingan: **Nazariy** va **Amaliy** qismlar.

Nazariy qismda Xorazmiy birinchi va ikkinchi darajali tenglamalarning yechish muammolari, ularning maʼlum qoida va belgilari boʻyicha tasniflash (klassifikatsiya) borasida soʻz yuritadi va aniq misollar yordamida mazkur turdagi tenglamalarning yechish usullarini keltiradi.

Xorazmiy tenglamalarni quyidagi sinflarga boʻlib oʻrganishni tavsiya etadi:

- 1) Kvadratlar ildizlarga teng, misol $5x^2=10$;
- 2) Kvadratlar songa teng; masalan, $5x^2=80$;
- 3) Ildizlar songa teng; masalan, $4x=20$;
- 4) Ildizlar ham kvadratlar ham songa teng; masalan, $x^2+ax+b=c$;
- 5) Kvadratlar va sonlar ildizlarga teng; masalan, $x^2+21=10x$
- 6) Ildizlar va sonlar kvadratlarga teng; masalan, $3x+4=x^2$

Xorazmiy “Al-jabr val-muqobala” ning bu qismda 40 ta turli murakkablikdagi misollar yordamida ushbu turlardagi tenglamalarning yechish usullarini batafsil bayon etarkan, shuningdek, ularning isbotini geometrik shakllar yordamida ham yaqqol, yaʼni, amaliy koʻrsatib boradi. Shuningdek “Al-jabr val-muqobala” ning bu qismda geometriyaga oid masalalar, asosan, shakllarning yuzasi va hajmini hisoblashga doir muammolarning yechimlari bayon qilinadi. Xususan, “Oʻlchovlar haqida bob” da u turli xil koʻpyoqlarning yuzini hisoblash usullari va formulalari, aylaning yuzasini

aniqlash formulasi va piramidaning hajmini hisoblash formulalarini batafsil mulohazalar yordamida keltirib o'tadi.

Amaliy qismda esa, muallif, "Al-jabr val-muqobala"da keltirilgan matematik tenglamalarning amaliy qo'llash muammolarini ko'rib chiqadi va mamlakatda sun'iy suv yo'llari (kanallar) qurish, yer maydonlarini o'lchash, xo'jalik va maishiy masalalar, shuningdek "Al jabr val-muqobala"da, shariat qonunlari asosida meros taqsimoti masalalari kabilarga tatbiq etishga misollar va yo'riqnomalar keltirilgan alohida bob – "Vasiyatlar kitobi" mavjud bo'lib, bu esa, Xorazmiyning musulmon shariati qonun qoidalaridan ham mukammal ilmga ega bo'lganligi va uning yuksak faqihlik salohiyatidan darak beradi.

Al-Xorazmiy o'z davrida qo'lga kiritgan ilmu – fan sohasidagi yutuqlarini yanada chuqurroq o'rganish talab etiladi. Zero, Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining qo'lyozmalari Yevropa va Osiyoning Buyuk Britaniya, Germaniya, Ispaniya, Rossiya, Fransiya, Misr, Hindiston, Eron va boshqa ko'plab mamlakatlaridagi kutubxonalarining "oltin fond"ini tashkil etadi. Bu faktlar nimadan dalolat beradi? Bu, eng avvalo, o'rta asrlarda yashab, ijod etgan buyuk Sharq alloma va mutafakkirlarining tengsiz asarlari va ilmiy merosi faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma'naviy mulki ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Bu – bebaho boylik, yangi va yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai, kerak bo'lsa, yangi kashfiyotlar uchun ajoyib materialdir"[1].

1983-yili YUNESKOning qarori bilan Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning 1200 yillik yubileyi o'tkazildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yurtimizdan yetishib chiqqan Xorazmiy, Farg'oniy, Farobiy, ibn Sino, Beruniy va boshqa buyuk alloma, qomusiy olimlarning ilmiy merosi haqli ravishda umumbashariy mulkka aylangan. Mustaqillik yillariga kelib ushbu buyuk zotlar faoliyati va ilmiy merosi har tomonlama chuqur o'rganilishi boshlanganligini o'zi bir katta yutuqdir.

Maktab va ota-ona hamkorlik munosabatlarinig mustahkam emasligi, ota-onalarning o'qituvchilarga ishonchi yetarli darajada emasligi, farzandiga nisbatan chora qo'llashga yo'l qoymayotganligi kabilardir. Bugungi kunda o'qituvchi nufuzini oshirish boyicha bir qancha samarali ta'lim islohatlari amalga oshirilayotganligiga qaramasdan biq qancha muomolar mavjud. O'qituvchining dars jarayonini, o'quvchilar tomonidan videotasvirga olinishi, ijtimoiy tarmoqlarga tarqatilishi, ushbu lavhaga izohlarning yozilishi o'qituvchining psixologiyasiga salbiy ta'sir qiladi. Agar o'qituvchi darsni yuqori saviyada o'tsa muammo emasku, deyishingiz ham mumkin. Muammoli tomoni shundaki, o'qituvchi o'zining internet tarmog'ida muhokamalarga sabab bo'lishini hohlamaydi, sababi qasddan salbiy fikrlar bilan qoralanishi ehtimoli mavjud. Bining fikrimizcha, o'qituvchi ota-ona tomonidan emas, balki muassasa rahbari tomonidan jazolanishi lozim. Ota-onalarning meyoridan ortiq farzandini erkalatishlari, bolalarini himoya qilishga urinishi natijasida tarbiyaviy jarayonga, qolaversa ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Fikrimizcha, mazkur muammolarning oldini olishda qonun hujjatlarini mukammalashtirish va qayta ko'rib chiqishga ehtiyoj mavjud. O'qituvchilarning sha'nini himoya qilishda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga (197⁵-moddaga) o'zgartirish kiritish maqsadga muvofiqdir. Chunki, o'qituvchining sha'nini kamsituvchi harakatlarga nisbatan javobgarlikka tortish bo'yicha huquqiy asosga alohida to'xtalinmagan. O'qituvchining daxlsizligini ta'minlaydigan qonun hujjatlarini ishlab chiqish zarur. Shu bilan birgalikda sifatsiz ta'lim uchun ham o'qituvchini ma'muriy javobgarlikka tortish masalalarinini ham ko'rish maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchi o'quvchini dars vaqtida ta'lim jarayoniga halaqit qilsada, unga munosib jazo qo'llay olmaydi. Sababi jazo qo'llashga huquqiy asos yo'q. Ammo ushbu o'quvchilarning ta'lim sifati va tarbiyasiga ota-ona emas o'qituvchi-murabbiylar birinchi navbatda javobgar. Ta'lim-tarbiya berishni istagan o'qituvchi nohaq, buni istamagan o'quvchi haq bo'lib chiqaveradi. Bunda o'qituvchi nima qilishi kerak? Bilmasvoy o'quvchiga kamida qoniqarli baho qo'yiladi. Tarbiyasiz bolaga ham na'munali xulq egasi deb tavsifnoma yoziladi. Eng asosiy muammo o'quvchi mustaqil hayotga shu

tartbiya va bilimi bilan yo'l oladi. Ta'limda, qonunchilikda ko'rsatilmagan o'qituvchi, o'quvchi va ota-onalar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlari qonuniy tartibga solinishi, huquqiy asoslari belgilanishi zarur.

Muammoning yana bir yechimi sifatida har bir dars o'tiladigan sinf xonalari va laboratoriyalarga kuzatuv kameralari o'rnatilishi kerak. Kuzatuv vositalari orqali ta'lim jarayoni sifatini nazorat qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Shu o'rinda e'tirozli fikrlar berilishi tabiiy, sababi maktablarning 7500 ga yaqini qishloq hududlarida joylashgan, 2500 ga yaqini esa shaharda joylashgan. Qishloq maktablarida internet tizimi bilan bog'liq muommolar mavjud. Shaharlarda joylashgan maktablarga qaratilgan e'tibor kabi, qishloq hududlarda joylashgan maktablarga ham e'tibor va nazoratni kuchaytirish lozim.

2. Ikkinchi muammo bu – Moddiy-texnik ta'minotning yetarli darajada emasligi. Ayrim chet el davlatlarida o'qituvchilarning oylik maoshi boshqa kasb egalariga nisbatan ancha yuqori. Masalan Yaponiyada, o'qituvchining oylik maoshi vazirlarning oylik maoshi bilan tenglashtirilgan. O'rtacha 4000 dollargacha maosh oladi. Bizda esa o'rtacha oliy ma'lumotli o'qituvchi 3 000 000 (250 dollar), ga yaqin oylik maoshi bilan ta'minlanadi. Ya'ni 15-16 barobar kam. To'g'ri oylik maoshni hisoblashda davlatning rivojlanganligi, yillik budjeti, import, eksport salohiyati va boshqa bir qancha iqtisodiy shkalalarni tahlil qilish lozim. Bizning hududga Yaponiyaning oylik maoshi shart emas, lekin o'qituvchining ehtiyojlarini qondirishga, oiladagi, hayotidagi muammolarni hal qilishga yetarli darajada bo'lishi kerak. Undan tashqari o'qituvchida yozilmagan qonun qoidalar asosida to'siqlar bor. Masalan o'ziga birlashtirilgan sinf xonalarini ta'mirlash, o'quv ko'rgazmali vositalarni shaxsiy hisobidan tayyorlash va boshqa bir qancha muammolar hali ham mavjud. Hududmizda 300 ga yaqin yangi maktab qurilishiga ehtiyoj sezilmoqda. O'qituvchilar soni ham yetarli darajada emas, ayniqsa rus tili, matematika, ingliz tili, informatika va axborot texnologiyalari fanlaridan bo'sh ish o'rinlari boshqa fanlarga nisbatan ko'proq. Maktablarda bo'sh ish o'rinlarning o'z vaqtida to'ldirilmasligi oylik maoshning kamligidandir. Bir muammo o'z vaqtida hal qilinmasa boshqa muammolarni o'ziga ergashtiradi.

Yopiq va ochiq sport maydonlarining yo'qligi, maktablarning ta'mirga muhtojligi, qo'shimcha o'quv xonalariga bo'lgan ehtiyoj, AT bilan to'liq ta'minlanmaganligi muommolari mavjud. Vaholanki, bugungi rivojlanish jadallik bilan yuqorilab borayotgan bir davrda moddiy-texnik ta'minot ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

3. Uchinchi muammo bu - maktabdagi o'quv dasturlarining murakkabligi.

Maktablarda o'qitilayotgan darliklarning ko'pchiligida tizimlilik tamoyiliga rioya qilinmayapti. O'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish maqsadida darsliklar yildan yilga murakkablashib bormoqda. Bu bir tomondan ijobiy tomonga ega bo'sa, ikkinchi tomondan murakkab topshiriqlar o'quvchida fanga nisbatan qiziqishning pasayishiga olib kelishi mumkun.

4. To'rtinchi muammo bu - ta'lim va tarbiya balansining to'g'ri olib borilmayotganligi.

Ta'lim va tarbiya bir-biridan ajralmas tushunchadir. Bu jarayonda ishtirokchilar nafaqat maktab, balki ota-ona va mahallaning ham o'z o'rnini bor.

O'qituvchining asosiy belgilangan vazifasi o'quvchiga ta'lim berishdir. Ammo shu o'rinda haqli savol tug'iladi. **Ta'lim-tarbiya** tendensiyasi to'g'rimi, yoki **tarbiya-ta'lim**. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, bola tarbiyasida tarbiya-ta'lim tendensiyasi Sobiq SSSR davrida kuchli bo'lganligi bizga ma'lum. O'qituvchi o'quvchini jazolay olgan. Sababi ularga iqtidorli, bilimli yoshlardan ko'ra, berilgan vazifalarni so'zsiz bajaradigan itotkor yoshlar kerak bo'lgan. Bilimli fuqarolar o'zlarining manfaatida tarbiyali odamlarning mehnatidan foydalanishgan. Bu berayotgan tushunchalarimiz tarbiyasiz bilimli odam bo'lish kerak degani emas. Bugungi davrda bilimli va tarbiyali fuqarolarga ehtiyoj yuqori. Ta'limni tekshirish uchun jurnalga qo'yilgan baholar yetarli bo'ladi. Bu baholar shunchaki o'qituvchining dars o'tganligiga huquqiy asos bo'lyapti. Aslida esa o'quvchini baholashda muammolar ko'p. Oddiy bir holat o'qituvchi darsga kelmadi, dars o'tilmadi, lekin jurnal to'ldiriladi, asossiz baholar qo'yiladi. O'qituvchi o'quvchining qiziqishini bilimni inobatga olmasdan jurnalga qoniqarli baho qo'ydi. Ota-ona bolasidan qoniqarli bahoni qayta topshirib o'zgartirishni talab qildi. Lekin buning imkoni yo'q ekan, sababi buyrokratik to'siqlar. **Kundalik kom** saytida bahoni o'zgartirish imkoni bo'lsada, uni o'qituvchi o'zgartirmaydi. Agarda o'qituvchi bahoni o'zgartirsa, mukofat puli berilmas ekan. Bunday yozilmagan qonun qoidalar o'quvchida fanga nisbatan qiziqishning pasayishi, intilishning yo'qolishini yuzaga keltirib, bahosini (agar u haqiqatdan past baho olgan bo'lsa) to'g'irlashga harakat qilmaydi. Bunday voqeiliklar orqali ta'lim sifatini baholashning aniq tartibi yo'qligini asoslamochimiz.

Respublikamiz maktablardagi o'quvchilar soni 6 000 000 ortiq. Bugun davomat 99 %, bu juda zo'r natija deb qabul qilinadi, lekin 1% (60 000 ta) o'quvchilar qayerda, nima ish bilan mashg'ul. Davomat 99 % bo'lganida ham ko'ryapsiz bu juda katta muammo, davomatimiz zo'r deb aytishga haqqimiz yo'q. Respublikamiz bo'yicha bir kunda 60 000 o'quvchi nazoratsiz. Maktabga bormagan o'quvchilar (kasalligi

tufayli sababli yoki shunga o'xshash holatlar bundan mustasno) ning, noto'g'ri yo'llarga kirib qolish hollari kuzatiladi. Demak tarbiya masalasida davomat bo'yicha ota-onalarning javobgarliklarini oshirish qonun hujjatlari bilan ko'rib chiqilishi eng muhim choralardan biriga aylanmoqda. Ta'lim sifatini ta'minlashda jahon tajribasini tahlil qiladigan bo'lsak, Finlandiyada barcha maktablar davlat tasarrufidagi maktablar bo'lib xususiy maktablar yo'q.

Maqolada turli xil muammolarni tahlil qilishga, o'rganishga, qisman bo'lsada ularning yechimini ko'rsatishga harakat qildik. Ilmiy tadqiqot jurnallarida chop etilayotgan maqolalarda umumta'lim maktablarda ta'lim sifatini ta'minlash muammolari bo'yicha bir qancha fikrlar takliflar bor, lekin ularning amaliy ijrosi sekinlik bilan bajarilayotganligi yoki umuman bajarilmayotganligi **asosiy muammodir**.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktab ta'lim-tarbiyasining bugungi kundagi ahvolini "Qurbaqa sindromi" bilan qiyoslash mumkin. Qurbaqani suvga solib, sekin astalik bilan suvni qaynatsak, qurbaqa suvdan chiqishga harakat qilmaydi va o'ladi. Agar qaynab turgan suvga qurbaqani solsangiz, qurbaqa yashashga harakat qilib, suvdan sakrab chiqib ketishga harakat qiladi. Xuddi shu jarayonni ta'limga ham taqqoslash mumkin, astalik bilan bilimsizlikka ko'nikib boriladi, to'satdan talab qilinadigan bilimga negativ fikrlar bildiriladi, e'tirozlar kuchayadi. Bugungi kunda kadrlar sifatini ta'minlashda oliy ta'limga talabalarni qabul qilish jarayoni va o'qituvchilarni attestatsiya qilish tartibini ham qayta ko'rib chish zarur. Zero sifatsiz kadrlar sifatsiz avlodni tarbiyalaydi. Ta'limdagi muammolar davlatning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Maktab ta'limi muammolari tizimli va maqsadli ravishda hal qilinishimaqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi muammolarni tahlil qilish asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Ta'lim tizimi taraqqiy etgan davlatlarining samarali ta'lim ta'lim tizimini tahlil qilish va respublikamiz ta'lim sohasiga tatbiq qilish.
2. O'qituvchining daxlsizligini ta'minlaydigan qonun hujjatlarini ishlab chiqish.
3. Sifatsiz ta'lim uchun ma'muriy javobgarlikni joriy qilish.
4. O'qituvchi, o'quvchi va ota-onalar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni qonun talablarini bilan tartibga solish, ma'muriy javobgarlik kodeksi moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.
5. Bola tarbiyasida ota-onalarning ma'suliyatini oshirish, maktabdagi salbiy davomat bo'yicha ota-onalarni qonun orqali javobgarlikka tortish.

6. Ta'limda va qonunchilikda ko'rsatilmagan kamchiliklarni o'rganish va huquqiy asoslarini belgilash.

7. Maktabning moddiy-texnik ta'minotni kuchaytirish.

8. Maktabdagi murakkab o'quv darsliklarini tizimlilik tamoyili asosida zamon talablariga moslatirish va hokazo.

REFERENCES

1. 2020 yil 23 sentabr, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi 637-sonli qonuni (yangi tahriri).
2. 2019 yil 8 oktabr, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 5847-sonli farmoni
3. 2020 yil 29 oktabr, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 6097-sonli farmoni.
4. 2019 yil 29 oktabr, O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi 576-sonli qonuni.
5. 2020 yil 24 iyul, O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi 630-sonli qonuni.
6. 2019 yil 31 dekabr, "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining 1059-sonli qarori.
7. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Sh.M.Mirziyoyev. Toshkent 2021.
8. Yangi O'zbekiston Demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. Sh.M.Mirziyoyev. Toshkent 2021.
9. R.J. Ishmuhamedov, M.Yuldoshev, "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar". Ta'lim tizimi xodimlari, metodistlar, o'quvchilar tarbiyachi va murabbiylar uchun qo'llanma. Toshkent - 2017. 3-nashr.
10. Vaxobov M.M. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qitish sifati monitoringi modelini takomillashtirish // pedagogika fanlari doktori diss. -T., 2016. - 260 b
11. Varchenko YE. I. Upravleniye kachestvom obrazovaniya v obrazovatelnom uchrejdennii // Molodoy ucheniy. 2013. № 3. -S. 471-474.
12. Subetto A.I. Kachestvo obrazovaniya: problemi otsenki i monitoringa / A.I.Subetto // Obrazovaniye. 2002, № 2. S. 18-21.
13. Mardonov SH.Q. Yangi ta'limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. - T.: Fan, 2006. - 232 b.
14. S.A.Toshtemirova. Klaster yondashuvi asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish. 13.00.01.ped.fan.bo'yicha (PhD) Chirchiq. 2021. -S.160.
15. Xamraqulov J. Sifatli ta'lim - iqtisodiy taraqqiyot poydevori // Iqtisodiyot va moliy. Toshkent. 2011, № 11. B. - 50.
16. Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta'lim klasteri ilmiy-pedagogik muammo sifatida // Zamonaviy ta'lim. -T.: 2019, № 10 (83). -B. 10-15.



O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY-NAZARIY ASOSLARI

Maftuna Furqatovna Yakubova

Jizzax davlat pedagogika universiteti magistri

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekistonda maktabgacha ta'limni rivojlantirishning huquqiy-nazariy asoslari haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim, ta'lim dasturlari, intellektual, estetik tarbiya, jismoniy rivojlantirish, uzluksiz ta'lim, ilk qadam, ta'lim sifati, rejalashtirish dasturi.

ABSTRACT

This article talks about the legal and theoretical foundations of the development of preschool education in Uzbekistan.

Keywords: modern education, educational programs, intellectual, aesthetic education, physical development, continuous education, first step, quality of education, planning program.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimini yaxlit uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalari sanaladi.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida qator islohotlar o'tkazilmoqda, ularning bari bolalar va pedagoglar manfaatlarini yo'lida xizmat qilishiga, shuningdek maktabgacha ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, 2018-yilning sentabr oyidan tatbiq qilinadigan yangi maktabgacha ta'lim dasturi davlat talablariga asoslangan va respublikadagi barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari yangi dastur bilan tanishtirilgan. Davlat va dastur talablarini o'zida jamlagan hujjatlar paketi barcha mintaqalardagi MTTlarga yetkazilgan. Bundan tashqari, O'zbekistonda birinchi



marta hammaga mavzuiy rejalashtirish dasturlari tarqatilganligi ham maktabgacha ta'lim tashkilotlarining metodik jihati desak mubolag'a bo'lmaydi. "Ilk qadam" deya nomlangan yangi dasturning asosiy tamoyili - ta'lim jarayoniga qo'shilayotgan kichik yoshli bolalarning ilk qadamlari sanalib, bu dastur asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya ishlari yanada mukammallashti. *"Umuman olganda, davlat talablarida kichik va maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni besh yo'nalishda rivojlantirish kerakligi ko'rsatilgan. Bu besh yo'nalishni rivojlantirib, bola 4 kompetensiyaga ega bo'ladi, ya'ni u 1-sinfga chiqishga motivatsiya oladi"*, - degan edi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vaziri Agrippina Shin. Ushbu dastur asosida bilim olish jarayonini o'yinlar orqali rivojlantirish yotadi. Bolalarda ilm olish, ijod, ijtimoiy yo'nalish kabi tushunchalar rivojlana bordi, sog'lom hayot tarzi tarbiyalanadi va ular ijtimoiy muhitda o'zlarini qanday tutish kerakligini tushuna boshlashdi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlar sifati yanada oshdi, zamonaviy ta'lim berish ommalashdi.

NATIJALAR

O'zbekistonda maktabgacha ta'limni rivojlantirish maqsadida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev qaroriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangani ham sohani eivojlantirishga qaratilgan muhim qadam desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu

- konsepsiya o'zida quyidagilarni nazarda tutadi:
- maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;
- maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta'minlash;
- maktabgacha ta'lim tizimiga maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish;

➤ maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning sog'lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta'minlash;

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2019-yilda amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi»ning ishlab chiqilishi, 2019–2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari hamda 2025–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlanganligi ham maktabgacha ta'lim sohasining huquqiy asosini ta'minlashga hizmat qiladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu kabi normativ –huquqiy hujjatlarnin yuritish O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi har yili 1 dekabrqa qadar o'tayotgan yilning «Yo'l xaritasi» bajarilishi yakunlarini batafsil o'rganish asosida keyingi yil uchun «Yo'l xaritasi»ni ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi, shuningdek, «Yo'l xaritalari»ning bajarilishi ustidan doimiy monitoring olib boradi. Ushbu monitoringga ko'ra har bir MTTning normativ huquqiy hujjatlari tahlil qilinadi.

MUHOKAMA

Ma'lumot o'rnida aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yaxshi ish haqi to'lanmasa, bu kasbga qiziqish bo'lmaydi, albatta. Shu kunga qadar qanchadan-qancha tajribali, yaxshi kadrlar past ish haqi sabab bu kasbni tark etgan. Shu bois joriy yilning mart oyida Prezidentning pedagoglarning maoshini oshirishga doir qarori chiqqanligi ham sohani rivojlantirishning ustuvor vazifasini ta'minladi. Agrippina Shinning so'zlariga ko'ra, o'tgan 27 yil davomida maktabgacha ta'lim tizimidagi tarbiyachilar va MTT xodimlarining tarif stavkasi biror marta oshirilmagan. Shu boisdan ham 2018 -yilning mart oyida Maktabgacha ta'lim vazirligi birinchi marta pedagoglarning bazaviy tarif stavkalarini 30 foizga oshirish taklifi bilan chiqdi. Shu yilning sentabridan oliy ma'lumotga ega pedagoglar uchun bazaviy tarif stavkalari yana 30 foizga oshirildi. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqildi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni uyg'un rivojlantirish sohasidagi ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda, sifatli maktabgacha ta'limni tashkil etishda davlat talablarini qayta ko'rib chiqish; mavjud amaliyot va ilg'or xorijiy tajri bani o'rgangan holda, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalashning soddalashtirilgan tartibini joriy etish, ularning tashkiliy-huquqiy shakllarini takomillashtirish bo'yicha ishlar olib borildi.

XULOSA

Hozirgi kunda maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va o'quv jarayonini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining infratuzilmasi va moddiy-texnik jihozlanishini yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda. Maktabgacha ta'limni uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas, birlamchi bo'g'ini sifatida takomillashtirish bo'yicha davlatimiz rahbari tomonidan qator muhim hujjatlar qabul qilinib borilayapti. Bu esa maktabgacha ta'lim sohasini yanada takomillashga qaratilgan chora tadbirlar sifatida e'tirof etilayapti desak mubolag'a bo'lmaydi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-2707-son qarori. // «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», 2017 yil 9 yanvar, 1-son, 11-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrda «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-3261-son qarori. // «Xalq so'zi» gazetasining 2017 yil 11 sentyabrda 181 (6875)-soni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrda PQ-3305-son «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son «2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.
5. L.R.Mirjalolova Tanlov fani moduli T.: Iste'dod, 2018. – 223 b
6. Ksendzova, GF Maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda psixologik-pedagogik yordam / GF Ksendzova // Yakutsk IPKRO nashriyoti, 2006 yil - S 146-148

METHODS OF ENGLISH TEACHING IN PRIMARY SCHOOLS

Ziyoda Shavkat kizi Turgunova

Student, Chirchik State Pedagogical University

ziyodaturgunova49@gmail.com

Diana Valeryevna Abduramanova

Senior teacher, Chirchik State Pedagogical University

diana1207saliyeva@gmail.com

ABSTRACT

This article discusses effective and up-to-date techniques of teaching English in order to pique the interest of students in elementary school in the subject of English language study.

Keywords: technique, games, primary classes, pantomime, learning through stories.

INTRODUCTION

After our state's independence, the number of young people interested in studying other languages expanded, and as a result, our nation provides several options for language study. The young of Uzbekistan must now have a comprehensive understanding of foreign languages. One of the primary reasons for development is that foreign language proficiency is becoming a fundamental aspect of professional education. Foreign language proficiency is becoming an essential component of professional education in contemporary culture. Diverse specialists have a high degree of interaction with international partners; thus, they have a strong propensity for communication. People study foreign languages at kindergarten, then in school, via different training classes, or on their own. They acquire this knowledge by becoming familiar with the most useful data sets.

LITERATURE ANALYSIS AND METHODOLOGY

One of the decisions that led to positive learning in primary education is the decision of the first President of the Republic of Uzbekistan of December 2012 "On further improvement and measures of the system of learning foreign languages" PQ 1875 . In accordance with this decision, in order to learn foreign languages, mainly English, from elementary school, to further increase their interest in learning foreign languages, English

lessons from 1st grade in all secondary schools will be taught in a variety of interesting game styles. along with teaching and development of oral speech of students.

Starting from the 2nd grade, the teaching of the letters of the alphabet and the formation of grammatical skills in children is carried out step by step. In many developed countries of the world, knowledge of a foreign language is becoming mandatory, and new methods of teaching a foreign language are being developed. Many people have started learning a foreign language on their own. The reason for this is that not everyone has the opportunity to attend special courses. Compared to adults, children's brain activity in learning a foreign language is that they can receive unlimited information quickly and without any difficulties. Even scientists have proven it in the experiment. One of the main reasons for this is that children have a strong tendency to learn a language in terms of imitation, they have more time than adults, and they retain the information they learn quickly.

DISCUSSION

It should be noted that 6-7-year-old children memorize information not by understanding its meaning, but mechanically, that is, simply by repeating it. Therefore, it is necessary not to start teaching the language to elementary school students learning English with grammatical methods, because from the first steps of learning a foreign language, it can be tiring, boring, and lose their interest in learning the Hittite language. can be turned off. Teaching language to most elementary school students can be a bit more difficult. That's why it puts some responsibility on teachers. At the same time, it will be possible to use the following modern methods to teach the English language meaningfully and interestingly to primary classes.

1 The method of remembering by sight. It is well known that some young children remember better the information they see than what they hear. Therefore, the lessons are taught through various visual aids, posters, toys, visible and frequently used objects in everyday life, and teaching new words with the participation of learned words. you need to learn how to make smart sentences. For example: desk (dack), ball (boll), doll (doll), board (blackboard), pen (pen).

Since these words are used a lot in everyday life, the child memorizes them involuntarily.

2 Method of memorizing words by singing a spoon and reciting a poem. For children who are difficult to understand and remember, if that word is sung to music, the child will memorize it quickly and

easily. In this way, the children will learn new words and it will greatly help the development of their speech activities.

3 TO- includes most of the competitive grammar and vocabulary games. This means that the children complete the tasks given by the teacher on time. As a result, there will be competition among students, and their interest in learning the language will increase. After all, as Chinese thinkers say, all human interests arise through competition.

4. Mixed technique. Here we can optionally combine different techniques. For example, children can play games, sing songs, recite poems, draw pictures, describe new words through various actions, and compete in groups. The advantage of mixed media is its diversity. In this, the student will not get bored and will not be limited to one thing.

5. The method of teaching through cartoons. Children are interested in watching different cartoons. Besides watching cartoons in English, if they do not understand the words in the cartoon, they try to understand the words used by the characters of the cartoon characters. This is one of the interesting and effective ways of language learning for children.

6. The method of teaching through interesting games. The role of teaching English through various games is incomparable. Playing various games during the lesson will increase their enthusiasm for learning science in the classroom. It encourages inactive students to better participate in the lesson. The following examples are clear examples of our words.

7. Merry Riddles game Teaching riddles to students is important in learning English. They learn unfamiliar words and find the answer to the riddle.

Pantomime (Pantomime) In this, the teacher tells the students a word, and the student has to explain it to the rest without making a sound through various actions. The rest should say his English name.

8. The method of learning through the senses (tasting vegetables, fruits, food, touching various objects, smelling flowers) I want to pass "the pedagogue who wants the children to keep something firmly in their memory, tries to involve as many of the child's sensory organs as possible, for example, the eyes, ears, sound organs, and even the organs of smell and cognition in the process of memorization should do."

RESULTS

These experiences show that the game is the best tool to deal with clarity, technologies and different methods and forms of teaching students in a foreign language, if it is a lesson type.

Properly organized games support interest in foreign language learning and foreign language learning. However, games cannot be neglected. Under normal conditions, the teacher draws special attention to the place that is arbitrarily open, and at other times it is necessary to refer to the disciplinary action. Properly graded play helps to increase discipline. Attention and conscious discipline are the keys to the power of knowledge. Play is the main activity of children. This is inextricably linked with motivation. Games, especially with a clear element of play, lead to special activities of students. But in order to achieve the goal, the student's task is to direct the students' activities in the right direction. Any person, especially a child, is fully manifested in the ability to play. If students are communicating in a foreign language, the game opens up rich and educational opportunities. We are sure that a little role-playing during the lesson will stimulate speech activity. In fact, language learning through the senses is more useful and effective than other methods. For example, in the process of tasting a single apple, the student knows its color, taste, size, smell, and also says its English name. As a result, when the teacher asks the children the English name of the colors, the children immediately remember the time when they ate the fruit. Therefore, the use of such methods helps the student to retain information in his memory for a long time. Using these and many similar methods and games, it is possible to ensure that children learn English well and perfectly. The results of these methods are obviously very beneficial.

CONCLUSION

In conclusion, it can be said that teaching language to primary school pupils is not a must, but rather, it may serve as a foundation for their future understanding via the use of engaging games and inventive techniques. When a result, as the educational system sets itself the goal of training a free-thinking, well-rounded individual, we instructors will contribute in the future by devising methods for properly using modern technology. There are several benefits of teaching foreign languages (English) to children as early as elementary school. And by doing so, we can enhance their knowledge and abilities. They will have the opportunity to study English in greater depth without difficulty in higher levels, and they will also have the chance to speak this language, based on the information they have obtained in elementary school. Therefore, it is vital to instill in children the importance of language studies from an early age. It is vital to create specific settings at home for the pupils and to prepare the classroom with English language materials. For instance, it is required to bring the English alphabet, which serves as a reminder of the English language, to hang a



map of the United Kingdom or the globe, to bring a television for use with different multimedia apps, and to create similar circumstances. Every activity will inevitably bring fruit. Teaching language to primary school pupils is not required; rather, it is based on an engaging activity, and sessions using several successful ways may serve as a foundation for their future understanding. It is crucial to appropriately convey to kids the significance of learning a foreign language in natural settings. This brilliant thinker, Farabi, was also fluent in other different languages and produced works in these languages. This chance enabled academics to study global science and achieve greatness. As our grandfather Ze'ro Navoi said, "He who knows the language - knows the world".

REFERENCES

1. Decision PQ-1875 of the President of the Republic of Uzbekistan dated December 10, 2012 "On measures to further improve the system of learning foreign languages".
2. Turdaliyeva.G.N. "Modern approaches and innovations in teaching English in primary grades" 2020
3. Bekmuratova.U.B "Using innovative technologies in teaching English"
4. Iriskulov.A.T. and others; Kids English pupil's book 2nd grade-Tashkent - Uzbekistan; 2014.
5. Abduramanova, D. V. (2021). Methods of teaching English as a foreign language. *Academic research in educational sciences*, 2(8), 260-263.
6. Abduramanova, D., Aliyev, D., & Rasulmetova, S. (2021). Student autonomy as a principle of organization of learning foreign languages. *Academic research in educational sciences*, 2(5), 1588-1593.
7. Makhmudov, K. (2020). Innovative Cluster of Pedagogical Education: Common Goals and Specific Interests. *Academic Research in Educational Sciences*, (2), 182-187.
8. Makhmudov, K. (2022). The Role, Competences and Methods of a Teacher in Learner's Forming Intercultural Communication. *International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology*, 11(3), 2688-2691.
9. Makhmudov, K. (2021). Learning a Target Language within its Culture as an Effective Method. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 620-623.
10. Abduramanova, D. V. (2021). Teaching heterogeneous classes. *Academic research in educational sciences*, 2(3), 966-970. DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00494

11. Abduramanova, D. V. (2020). Significant features of organizing scientific extra-curricular activities. *Academic Research in Educational Sciences*, 1 (3), 718-722.
12. Abduramanova, D. V. , Turgunova, Z. (2022). Virtual reality as a new method of teaching foreign language. *Academic research in educational sciences*, Volume 3, Issue 3, Uzbekistan, pp. 473-477.
13. Abduramanova, D. V. , Pak O. (2022). Role-play in teaching English as a foreign language in primary schools. *Academic Research in Educational Sciences*, 3(4), Uzbekistan, pp. 1066-1071.
14. Abduramanova, D. V., Ruzmatova Z. (2022). Essential management system as a primary tool of a successful business process. *Academic Research in Educational Sciences*, 3(11), Uzbekistan, pp. 683–686.



СЕМИРИШ ВА АЛЛЕРГИК КАСАЛЛИКЛАРНИНГ ЎЗАРО БОҒЛИҚЛИГИ ВА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ТАРҒИБ ҚИЛИШ

Дилафруз Гайратовна Абдуллаева

Тошкент тиббиёт академияси, доцент, PhD

abdullaeva.dg1976@gmail.com

Наргиза Илхомовна Икромова

Тошкент шаҳар ИИББ тиббиёт поликлиникаси шифокори

АННОТАЦИЯ

Семизлик ҳозирги вақтда инсоннинг умр кўриш давомийлигини қисқартирувчи ва унинг сифатини пасайтирадиган бир қатор касалликларнинг ривожланиши билан боғлиқ бўлган мультифакториал, сурункали, қайталанувчи касаллик сифатида қаралади. Семириб кетиш шу қадар кенг тарқалдики, у сурун ривожланган мамлакатлар аҳолисининг тўйиб овқатланмаслик муаммосини ва ҳатто юқумли касалликларни орқага сурди, аммо охириги икки омил илгари инсон саломатлиги учун асосий таҳдид деб ҳисобланган.

Калит сўзлар: семизлик, аллергия касалликлар, соғлом турмуш тарзи, COVID-19.

ABSTRACT

Obesity is currently considered as a multifactorial, chronic, relapsing disease associated with the development of a number of diseases that reduce a person's life expectancy and reduce its quality. Obesity has become so widespread that it has pushed into the background the problem of malnutrition in the population of underdeveloped countries and even infectious diseases, although the last two items were previously considered the main threats to human health.

Keywords: obesity, allergic diseases, healthy lifestyle, COVID-19.

КИРИШ

Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти (ЖССТ) маълумотларига кўра, 20-асрнинг ўрталаридан бошлаб юқумли касалликлар эпидемияси сурункали юқумли бўлмаган касалликлар эпидемияси билан алмаштирилди, улар дунёдаги барча ўлимларнинг 60 фоизини келтириб чиқаради ва кўпинча бу касаллик ортиқча вазн (ОВ) ва семириш билан боғлиқ. ЖССТ экспертлари семизлик дунёдаги энг кенг

тарқалган сурункали касалликлардан бири бўлиб, глобал юқумли бўлмаган эпидемия даражасига яқинлашмоқда деган хулосага келди (ЖССТ, 2015).

Ҳозирги вақтда семириш инсоннинг умр кўриш давомийлигини қисқартирадиган ва унинг сифатини пасайтирадиган бир қатор касалликларнинг ривожланиши билан боғлиқ бўлган полиэтиологик, сурункали, қайталанувчи касаллик сифатида қаралади (Васюкова, О. В. 2015; Гусева, А. А. 2015; Джумагазиев, А. А., 2016). Каладзе, Н. Н., 2015; Карапетян, А. Р., 2015). Семизлик ва бронхиал астма билан оғриган болаларда нафас чиқариш оқим тезлигининг ёмонлашиши алоҳида эътиборга лойиқдир (Баранов А.А., 2010). ЖССТ маълумотларига кўра, ОВ ва семириш 2-тоифа диабетнинг барча ҳолатларининг 44% гача, юрак-қон томир касалликларининг 23% гача ривожланишини олдиндан белгилаб беради (ЖССТ, 2013).

Ортиқча вазн ва семизлик соғлиқ учун зарарли бўлиши мумкин бўлган ғайритабiiй ёки ортиқча тана ёғининг натижасидир (ЖССТ, 2020). Мисол учун, 2016 йилда 18 ёшдан ошган 1,9 миллиарддан ортиқ катталар ортиқча вазнга эга бўлган. Уларнинг 650 миллиондан ортиғи семириб кетган ва 18 ёшдан ошган катталарнинг 39 фоизи (еркакларнинг 39 фоизи ва аёлларнинг 40 фоизи) ортиқча вазнга эга эди. 2016 йилда дунёнинг катта ёшли аҳолининг тахминан 13 фоизи (эркакларнинг 11 фоизи ва аёлларнинг 15 фоизи) семириб кетган. 1975 йилдан 2016 йилгача бутун дунё бўйлаб семириб кетган одамлар сони уч барабар ошди. Ўзбекистонда болалар ва ўсмирларда семиришнинг олдини олиш ишларига катта эътибор қаратилган (Шайхова Г.И., Раҳимов Б.Б., 2017).

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Хорижий ва маҳаллий муаллифларнинг адабиёт маълумотларини ўрганиш асосида биз болалар ва ўсмирларда семиришнинг патогенези ва тарқалишида рол ўйнайдиган энг кенг тарқалган этиологик омилларни, шунингдек, бошқа касалликлар билан боғлиқлигини аниқладик.

НАТИЖАЛАР ВА МУҲОКАМА

Республиканинг катта ёшли аҳолиси орасида семиришнинг тарқалиши ҳозирги кунда 1000 аҳолига ўртача 31-34 тани ташкил этади, бунда маълум ҳудудларга қараб кўрсаткичларда сезиларли фарқлар мавжуд. Бу фарқлар кўп жиҳатдан бирламчи тиббий ёрдамда ташхис сифатига боғлиқ. Шунингдек таъкидлаш керакки, мамлакатимизда болалар ва

ўсмирлар ўртасида семиришнинг тарқалиши катталарникига қараганда 1,5-2 баравар юқори ва 50-66 %о ни ташкил этади.

Семизлик билан оғриган болалар ва ўсмирларнинг умумий касалланиш таркиби бўйича касалликларнинг рейтинг ўринлари бошқа болалардан сезиларли даражада фарқ қилади, гарчи иккала ҳолатда ҳам биринчи 6 ўринни деярли бир хил касалликлар тоифалари эгаллайди. Семириб кетган болаларда эндокрин тизим касалликлари ва овқатланишнинг бузилиши, шунингдек, ушбу касалликлар оқибатида келиб чиқадиган хасталиклар устунлик қилади. Ушбу патологияни камайтириш бўйича мақсадли чора-тадбирларни амалга оширишда республикада болалар ва ўсмирларда семириш билан касалланишнинг аниқланган минтақавий хусусиятларини ҳисобга олиш керак [3].

Семириб кетиш жуда кўп мамлакатлар аҳолисининг соғлиғига таҳдид солмоқда ва уларнинг рўйхати доимий равишда ўсиб бормоқда. Семириб кетиш шу қадар кенг тарқалдики, у суст ривожланган мамлакатлар аҳолисининг тўйиб овқатланмаслик муаммосини ва ҳатто юқумли касалликларни орқага сурди, гарчи охирги икки омил илгари инсон саломатлиги учун асосий таҳдид деб ҳисобланган. Семириб кетиш деярли барча тана тизимларининг ҳолатига салбий таъсир кўрсатганлиги сабабли касаллик деб ҳисоблана бошлади.

Семириб кетиш артериал қон босимининг ошишига, атеросклероз ва қандли диабетнинг ривожланишига, юрак ва қон айланиш тизими касалликларига, бўғинлар ва умуртқа поғонаси билан боғлиқ муаммоларга, гормонал фон ва эндокрин безлар фаолияти ўзгаришларига олиб келади. Семириб кетиш эндоген ва экзоген омилларнинг ўзаро таъсирига асосланади. Семириб кетишнинг турли хил таснифлари мавжуд ва улар орасида этиологик тамойилига кўра, ёг тўқималарининг тўпланиш турига, тана массаси индексига (ТМИ) кўра таснифлар мавжуд.

Шуни таъкидлаш керакки, ТМИ кўрсаткичи ўсиш даври тўлиқ бўлмаган болалар, 65 ёшдан ошган кексалар, спортчилар, мушаклари яхши ривожланган инсонлар ва ҳомиладор аёллар учун ишончли эмас [9].

Нотўғри овқатланиш ва семириш асосий сабаб бўлган бир қатор касалликлар мавжуд. Буларга баъзи юқумли ва паразитар касалликлар, неоплазмалар, эндокрин тизим касалликлари, овқатланиш бузилиши, метаболик касалликлар, қон касалликлари, гематопоестик аъзолар ва иммунитет механизми, рухий ва хулқ-атвор касалликлари, асаб тизими касалликлари, кўз касалликлари киради, қулоқ ва эшитиш аъзолари касалликлари, қон айланиш тизими касалликлари, нафас олиш касалликлари, овқат ҳазм қилиш касалликлари,

бириктирувчи тўқима мушак - скелет тизимининг касалликлари, тери ва тери ости тўқималарининг касалликларини киритиш мумкин [3].

Баъзан сохта аллергия касалликлар юзага келишида биологик фаол моддаларнинг фаолсизлантириш механизмлари бузилиши, гистаминаза ферменти фаоллиги пасайиши, гистамин, тирамин, фенилэтиламинга бой овқат истеъмоли, овқат қўшимчалари (бўёқлар, айниқса, тартазин ва натрий нитрит, сульфитлар, глутаматлар, ароматизаторлар, консервантлар, эмульгаторлар ва ҳк.) сабаб бўлиши мумкин. [4]. Қолаверса, аллергия касалликларнинг муттасил ортиб бораётгани аҳоли саломатлигига ўз таъсирини ўтказмоқда. Аллергия касалликлар билан оғриган беморларнинг сони сўнгги 10 йил ичида икки баравар кўпайди [1]. Эпидемиологик тадқиқотлар кўрсатишича, ортиқча вазнли инсонлар улуши сезиларли даражада ошган [7, 8, 12]. Овқатланиш инсон ҳаётининг ажралмас қисми бўлиб, болалар ва катта ёшли аҳолида ҳаёти учун хавфли реакцияларни келтириб чиқариши мумкин [6].

Турли муаллифлар берган маълумотлар бўйича, семизликнинг атопик аллергия жараёнларнинг шаклланиши ва кечишига таъсирини ўрганиш қарама-қарши натижаларни кўрсатади. Овқат аллергияси бўлган 2 ёшдан 18 ёшгача бўлган 4111 бола ва ўсмирнинг маълумотларини ретроспектив таҳлил қилишда семизлик ва атопия ўртасидаги боғлиқлик аниқланди, бу семиз болаларда умумий иммуноглобулин Е (IgE) ва махсус IgE нинг юқори даражаси билан ифодаланган. Маълум бўлишича, семириш атопия ва озиқ-овқат оқсилларига сезгирлик билан боғлиқ, аммо ўсимлик гулчанглари билан боғлиқ эмас [20].

Семизлик ва астма ўртасидаги боғлиқлик япон мактаб ёшидаги болаларда [11] ва корейс ўсмирларида аниқланган [22]. Бироқ, 48 нафар хитойлик мактаб ўқувчисида ўтказилган кузатувлар натижасида семизлик, астма ва атопия ўртасидаги боғлиқлик аниқланмади [10]. Катталар ва астма билан оғриган болаларда олиб борилган кейинги тадқиқотлар шуни кўрсатдики, семириш атопик астмага қараганда атопик бўлмаган астма билан кўпроқ боғлиқдир [6, 9, 21].

Астма бронхиал гиперреактивлик, бронхиал обструкция ва нафас олиш белгилари билан тавсифланган нафас йўллариининг сурункали яллиғланиш касаллиги эканлиги маълум. Семириб кетиш ва атопик дерматит ўртасидаги муносабатларнинг асосий механизмлари тўлиқ ёртилмаган. Бир қатор олимлар ортиқча вазн билан атопик дерматит ривожланиш хавфини ёғ тўқималарининг биологик фаоллиги билан боғлашади. Преадиipoцитлар ва етук адipoцитлар, юқорида айтиб ўтилганидек, энергия гомеостазини, иштаҳани, инсулинга сезгирликни тартибга

солувчи кўплаб адипоцитокинларни ёки аниқроғи адипокинларни чиқаради, эндотелиал, ангиоген, гематологик ва иммунологик функцияларга таъсир қилади. Бундан ташқари, бу таъсир эндокрин, паракрин ва аутокрин йўллар билан амалга оширилади.

Экспериментал маълумотлар шуни кўрсатадики, адипокинлар, шу жумладан лептин, адипонектин, резистин, шунингдек, бошқа цитокинлар: ўсма некроз омили-а, интерлейкин 6, TGFβ ва C-реактив оқсил, яллиғланишга қарши фаолликка эга, семизликнинг метаболик ва юрак-қон томир асоратларини ривожланиши учун бу асос ҳисобланади [13].

Гинекологияда менопаузанинг бошланиши билан юзага келадиган ва қорин бўшлиғидаги семириш, инсулин резистентлиги ва дислипидемия, шунингдек артериал гипертензия туфайли тез вазн ортиши билан тавсифланган менопаузадаги семириш деган атама мавжуд. Менопаузанинг ривожланиш механизмида эстрадиол концентрациясининг пасайиши кузатилади. Тадқиқотлар шуни кўрсатдики, эстрогенлар юрак-қон томир тизимига таъсир қилади, бу эса ўз навбатида юрак уриш тезлигининг пасайишига, қон томирларининг кенгайишига, плазма ренин ва ангиотензин II фаоллигининг тахминан учдан бирга пасайишига, инсулин концентрациясининг пасайишига, адреналин ажралишининг пасайишига, таъсир қилади. Кўпгина беморларда гипоэстрогенизм туфайли аёлларнинг тахминан 35-49% менопаузадаги метаболик синдромни ривожлантиради. Бундай ҳолда, қисқа вақт ичида, тахминан 6-8 ой ичида, менопаузадан кейин қорин бўшлиғида семириш ривожланиши билан тана вазнининг тез ўсиши кузатилади [15]. Кўп вазнли аёлларда поликистоз тухумдон синдроми мавжуд бўлиб, у препубертал ва пубертал даврда шаклланади. Гормонал фон эркақларда ҳам танадаги ёғнинг ортикча тўпланиши билан характерланади. Тестостерон даражасининг пасайиши жинсий гормонлар алмашинувидаги ўзгаришларга олиб келадиган иккиламчи жараён дир [14, 18].

Механизмда андрогенларни (тестостерон ва андростенедион) эстрогенларга (мос равишда эстрадиол ва эстрон) айлантиришда иштирок этадиган ароматаза фермент миқдори ортиб боради, бу эса гипофиз беши томонидан лютеинловчи гормон ишлаб чиқаришни камайтиради ва тестостерон ишлаб чиқаришга таъсир қилади [17]. Семириб кетган беморларда вазн йўқотиш билан тестостерон даражасининг нормаллашишини сезиш мумкин [19].

Семизликдаги тизимли яллиғланиш аллергик яллиғланишга туртки беради, деган фикр мавжуд. Масалан,

интерлейкин 6 даражаси семиришда ошади, юқори интерлейкин 6 эса ТМИ нормаллашганидан кейин ҳам қисман ёки назоратсиз БА билан боғлиқ [16].

Шунингдек, семиришда висцерал ёғ тўқималарининг массаси сезиларли даражада ошади, уларнинг юқорилиги метаболик синдромнинг ривожланишига ёрдам беради. Метаболик синдромга семизлик, инсулинга резистентлик ва гиперинсулинемия, артериал гипертензия, гиперлипидемия ва атеросклероз киради [2].

Болалик ва балоғат ёшидаги семизлик фонида гемодинамик бузилишлар билан бирга артериал гипертензия ривожланади. Тўқималарга қон таъминоти улардаги метаболизмга сезиларли таъсир қилади. Болаларда семиришнинг этиологик омиллари сабабларидан бири бу - жисмоний фаолиятнинг етарли даражада эмаслигидир. Семириб кетган болаларнинг жисмоний фаоллигини нормаллаштириш мураккаб муаммо бўлиб, бола танасининг функционал хусусиятларини ҳар томонлама ўрганишни ва жисмоний терапия усулларини ишлаб чиқишни ва беморларни уларни бажаришга ундашни талаб қилади.

Ҳозирги вақтдаги мавжуд маълумотларга кўра, ҳозирда семизлик COVID-19 оғир кечиши, ва ўлим хавфининг муҳим башоратчиси ҳисобланади. Бунинг сабаби семириш билан боғлиқ эндокрин ва метаболик касалликлар, шу жумладан аллергия патологиянинг ривожланиши бўлиши мумкин. Висцерал ёғ тўқималарининг кўплиги билан боғлиқ патологик жараёнлар иммунологик дисрегуляцияни кучайтиради ва бундай беморларни юқумли касалликларнинг ривожланишига кўпроқ мойил қилади.

ХУЛОСА

Шундай қилиб, семириш сурункали касаллик бўлиб, уни даволаш умрбод ва доимий равишда амалга оширилиши керак. Оғирликни йўқотишдан кам эмас, балки янги, камайган вазни доимий равишда ушлаб туриш ҳам муҳимдир. Семириб кетишда жараённинг ривожланиши ва кучайишида аллергия, эндокрин ва юрак-қон томир касалликларининг олдини олиш алоҳида рол ўйнайди.

REFERENCES

1. Гуцин, И.С., О.М. Курбачева “Аллергия и аллергенспецифическая иммунотерапия”, 2010. 228 с.
2. Петеркова, В.А., О.В. Ремизов “Ожирение в детском возрасте”, “Ожирение и метаболизм”, 2004. – № 1. – С. 1723

3. Рахимов Б.Б., Особенности заболеваемости детей и подростков Республики Узбекистан, страдающих ожирением – 2017, с.276
4. Абдуллаева, Дилафруз Гайратовна ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИДА ЯШИРИН АЛРГЕНЛАРНИ АНИҚЛАШ БЎЙИЧА ТАВСИЯЛАР // ORIENSS. 2022. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/oziq-ov-at-ma-sulotlarida-yashirin-allergenlarni-ani-lash-b-yicha-tavsiyalar>.
5. Гули Шайхова, Дилафруз Абдуллаева Аллергены в продуктах питания, управление пищевыми аллергенами // ОИИ. 2021. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/allergeny-v-produktah-pitaniya-upravlenie-pishevymi-allergenami>
6. Appleton S.L., R.J. Adams, D.H. Wilson Central obesity is associated with nonatopic but not atopic asthma in a representative population sample, 2006. – Vol. 118. – P. 1284–1291
7. Gorgievska-Sukarovska B., Sukarovska, J. Lipozencić, A. Susac Obesity and allergic diseases, 2008. – Vol.16, № 4. – P. 231–235
8. Jensen, M.E., L.G. Woocf, P.G. Gibson Obesity and childhood asthma – mechanisms and manifestations, 2012. – Vol.12. – P.186–192
9. Jarvis, D., S. Chinn, J. Potts, P. Burney Association of body mass index with respiratory symptoms and atopy, 2002. – Vol. 32, № 6. – P. 831–837
10. Leung, T.F., A.P. Kong, I.H. Chan Association between obesity and atopy in Chinese schoolchildren, 2009. – Vol. 149, № 2. – P. 133–140
11. Okabe, Y., Okabe, T. Itazawa, Y. Adachi Association of overweight with asthma symptoms in Japanese school children, 2011. – Vol. 53, № 2. – P. 192–198
12. Silverberg, J.I., E. Kleiman, H. Lev-Tov Association between obesity and atopic dermatitis in children, 2011. – Vol.127. – P. 1180–1186
13. Saltiel A. You are what you secrete, Nat Med. 2001; 7(8):887-8.,12
14. Saad F. The role of testosterone in type 2 diabetes and metabolic syndrome in men. 2009 p. 901–907
15. Shah R, Gayat E, Januzzi JL et al. Body mass index and mortality in acutely decompensated heart failure across the world: a global obesity paradox., 2014 p. 778-785
16. Shore S. Obesity and asthma: implications for treatment – 2007; 13: 56–62
17. Stanworthand RD, Jones TH. Testosterone in obesity, metabolic syndrome and type 2 diabetes. 2009 p. 74–90
18. Svartberg J et al Waist circumference and testosterone levels in community dwelling men. 2004 p. 657–63

19. Traish M, Saad F, Guay A. The darkside of testosterone deficiency: II. type 2 diabetes and insulinresistance. 2009 P. 23–32
20. Visness, C.M., S.J. London, J.L. Daniels Association of Childhood Obesity with Atopic and Non-Atopic Asthma, 1999-2006 / 2010. – Vol. 47, № 7. – P. 822–829
21. Visness, C.M., S.J. London, J.L. Daniels Association of obesity with IgE levels and allergy symptoms in children and adolescents, 2005–2006, 2009. – Vol. 123. – P. 1163–1169
22. Yu, S., H.B. Kim, S.Y. Lee The link between obesity and the prevalence of allergic disease, atopy and bronchial hyperresponsiveness in Korean adolescents, 2011. – Vol. 154, № 1. – P. 42–48



MODALITIES OF INSTRUCTING COMPUTER SCIENCE AS AN ACADEMIC DISCIPLINE

Gavxar Xaydarova

gvxrxyfr@gmail.com

Student, Chirchik State Pedagogical University

Diana Valeryevna Abduramanova

Senior teacher, Chirchik State Pedagogical University

diana1207saliyeva@gmail.com

ABSTRACT

In this article, the concept of teaching techniques as a scientific field, together with its purpose and topic, as well as its characteristics, is dissected. The primary components of the relationship between the technique of teaching computer science as a scientific and the fundamental ideas underlying the educational process have also been identified. This connection is being made in order to teach computer science as a science.

Keywords: teaching methods, science, computer science, development.

INTRODUCTION

For a long time, teaching methodology was considered a subfield of pedagogy that investigates teaching techniques without being regarded as an independent science. However, from the beginning of the 19th century, teaching methodology began to emerge as a distinct field of study. The word "methodology" has ancient Greek origins and means a manner of doing research, teaching theory, or both. In 1985, when the school subject «Fundamentals of Computer Science and Computer Engineering» was introduced, a new field of pedagogical science was established: the methodology of teaching computer science, the subject of which is the objectives, content, methods, and organisational structures of computer science education.

LITERATURE REVIEW AND METHODOLOGY

Teaching methodology is a field of pedagogical research that investigates the learning process with the goal of increasing its efficacy [1]. The approach comprises a collection of procedures, principles, and training instruments.

The objective of the teaching approach is the teacher-student interaction, during which subject information is conveyed

and skills and talents are developed (programs, textbooks, textbooks, extracurricular activities, etc.).

The topic of teaching methodology is the learning process, its regulations, and the collected information about the item being taught (i.e., scientifically based solutions to problems that are related to goals, content, principles, methods and techniques).

The teaching methodology is divided into 2 main parts, namely:

- a general methodology that examines the general principles of teaching;
- a private methodology considering an individual approach to teaching the topic.

The main task of the teaching methodology is to reveal the laws of learning, on the basis of which the regulatory requirements for the teaching activity of the teacher, as well as for the cognitive activity of students, are established.

Thus, the teaching methodology, which deals with the study of goals, content, methods and means of teaching, is formed as an independent science. The main task of the teaching methodology is to reveal the patterns of teaching a certain subject.

According to M.P. Lapchik, the subject of computer science, as well as cybernetics, is formed on the basis of wide areas of its applications, and the object is based on general patterns inherent in any information processes in nature and society. Computer science studies what is common to all the numerous varieties of specific information processes (technologies).

1. The methodology of teaching computer science is a branch of pedagogical science.
2. The object of which is the process of teaching computer science at school;
3. The subject is the design, construction, implementation, analysis and development of methodological systems for teaching computer science at school;

One of the main methods of teaching computer science is a pedagogical experiment.

On the basis of this, we can define the methodology of teaching computer science as the study of computer science as an academic discipline and the accuracy of the process of teaching computer science to students of various ages. In its study and findings, the technique of teaching computer science draws on philosophy, logic, pedagogy, mathematics, computer science, and psychology, as well as the general experience of computer science instructors.

The methodology of teaching computer science is an academic discipline [3] engaged in the development and research in accordance with the objectives and content of the training technical, software, educational, methodological, psychological, pedagogical, and organisational

support for the use of computer technologies in the school process.

If we view the technique of teaching computer science as a science, then we can see its relationship to the key components of the notion of the educational process, which are a collection of learning and research items. Consider the essential elements:

- teaching activities of the teacher
- educational activities of students;
- organization of training.

DISCUSSION AND RESULTS

The teaching process is a collaborative effort between a teacher and a pupil. All elements of the educational process should be interconnected, since if they are not, the process may be unproductive and in some circumstances impossible.

Because the notion of an algorithm originated in mathematics, the approach of teaching computer science is similar to the methodology of teaching mathematics. On the other hand, several conclusions of diverse mathematical statements contain an algorithmic structure, and a number of tasks in the technique of teaching mathematics are focused on learning to identify the algorithmic component of the conclusion.

The overall didactics of the topic include a threefold learning objective (training, development, and education), which is also reflected in the computer science resources. The technique for teaching computer science is based on a set of didactic principles of general didactics, which need rethinking and concretization with relation to computer science content.

The fast development of computer science as a scientific discipline and academic field is a feature of the computer science teaching technique. In this context, it is necessary to continuously update the content of education in line with the progress of science and technology [4].

The worldwide informatization of all spheres of human activity and the permeation of computer science into all other fields of study allow us to confidently assert that the approach for teaching computer science is intertwined with almost every other field of study.

CONCLUSION

The technique of teaching computer science as a science started to take form when the course «Fundamentals of Computer Science and Computer Technology» was introduced into secondary schools. The curriculum, materials, and teaching techniques were created



by scientists A.P. Ershova and V.M. Monakhova. The methodology of teaching computer science is an academic discipline concerned with the development and research of teaching technical, software, educational, methodological, psychological, pedagogical, and organisational support for the use of computer technologies in the school process, and closely related to philosophy, logic, pedagogy, psychology, and mathematics.

REFERENCES

1. Teaching methods as a pedagogical science [Electronic resource]. Access mode: https://studme.org/41881/sotsiologiya/metodika_prepodavaniya_sotsiologii_kak_nauchnaya_distiplina.
2. General methods of teaching computer science [Electronic resource]. Access mode: http://hosting.vspu.ac.ru/~mvv/mpi/mpi_1.pdf.
3. Kuznetsov A.A. General methods of teaching computer science. Part I: textbook for students of pedagogical universities / A.A.Kuznetsov, T.B.Zakharova, A.S.Zakharov— M.: Prometheus, 2016. — 300 p.
4. Methods of teaching computer science: Textbook for students of pedagogical universities/M.P.Lapchik, I.G.Semakin, E.K.Henner; Under the general editorship of M.P.Lapchik. – M.: Publishing Center «Academy», 201. – 624 p.
5. Abduramanova, D. V. (2021). Methods of teaching English as a foreign language. *Academic research in educational sciences*, 2(8), 260-263.
6. Abduramanova, D. V. (2020). Significant features of organizing scientific extra-curricular activities. *Academic Research in Educational Sciences*, 1 (3), 718-722.
7. Abduramanova, D. V. , Turgunova, Z. (2022). Virtual reality as a new method of teaching foreign language. *Academic research in educational sciences*, Volume 3, Issue 3, Uzbekistan, pp. 473-477.
8. Makhmudov, K. (2020). Innovative Cluster of Pedagogical Education: Common Goals and Specific Interests. *Academic Research in Educational Sciences*, (2), 182-187.
9. Makhmudov, K. (2022). The Role, Competences and Methods of a Teacher in Learner's Forming Intercultural Communication. *International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology*, 11(3), 2688-2691.
10. Abduramanova, D. V. , Юсупова Н. The significance of linguistic information in the English language classroom. *Academic research in educational sciences*, Volume 3, Issue 3, Uzbekistan, pp. 478-482.

11. Makhmudov, K. (2021). Learning a Target Language within its Culture as an Effective Method. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 620-623.
12. Abduramanova, D. V. , Yusupova N. (2022). Application features method in process of educational discussion in the foreign language classroom . *Academic Research in Educational Sciences*, 4(3), Uzbekistan, pp. 62–67.
13. Abduramanova, D. V., Murodjonova R. (2022). Невербальная коммуникация как основной инструмент социального взаимодействия. *Academic Research in Educational Sciences*, 3(5), Узбекистан, сс. 771-775.
14. Abduramanova, D. V., Ruzmatova Z. (2022). Essential management system as a primary tool of a successful business process. *Academic Research in Educational Sciences*, 3(11), Uzbekistan, pp. 683–686.



ГИПОТИРЕОЗ МОДЕЛИДА КАЛАМУШ ЖИГАРИ АНТИОКСИДАНТ ТИЗИМИГА АЙРИМ ПОЛИФЕНОЛЛАРНИНГ ТАЪСИРИ

Муҳаммаджон Абдувалиевич Мустафакулов

Ўзбекистон Миллий унверситети, Биофизика ва биокимё институти
mmustafakulov@bk.ru

Жасурбек Соибжон ўғли Мирзакулов

Хусен Қувондиқ ўғли Баҳодиров

Жаҳонгир Исмоилжон ўғли Туйчибойев

Мохимбону Абдуманнон қизи Равшанова

Гулшода Озат қизи Қаландарова

Ўзбекистон Миллий унверситети

АННОТАЦИЯ

Тиббиётда қўлланилиб келинаётган доривор моддалар орасида ўсимликлардан ажратилган биологик фаол бирикмаларининг аҳамияти катта бўлиб, булар юқори физиологик фаоллиги, фармакологик таъсири билан тавсифланади. Сўнги пайтларда тўқима ва ҳужайралардаги гипотиреоз ривожланишида энергия, кислороднинг фаол шаклини ҳосил бўлиши билан борадиган патологик жараёнларни коррекциялаш муаммоларига катта эътибор қаратилмоқда

Калит сўзлар: дигидрокверцетин, кверцетин, флавоноид, гипотиреоз, қалқонсимон без.

ABSTRACT

Biologically active compounds isolated from plants are of great importance among medicinal substances used in medicine, which are characterized by high physiological activity and pharmacological effects. Recently, much attention has been paid to the problems of correcting the pathological processes that go with the formation of the active form of energy and oxygen in the development of hypothyroidism in tissues and cells.

Keywords: dihydroquercetin, quercetin, flavonoid, hypothyroidism, thyroid glandю

КИРИШ

Организмда кечадиган ҳар қандай касаллик оқибатида эркин радикалларнинг ҳосил бўлиши кучайиб кетади. Тиббиётда қўлланилиб келинаётган доривор моддалар орасида ўсимликлардан ажратилган биологик фаол бирикмаларининг аҳамияти катта бўлиб, булар юқори физиологик фаоллиги, фармакологик таъсири билан тавсифланади. Сўнгги пайтларда тўқима ва ҳужайралардаги гипотиреоз ривожланишида энергия, кислороднинг фаол шаклини ҳосил бўлиши билан борадиган патологик жараёнларни коррекциялаш муаммоларига катта эътибор қаратилмоқда [1, 2].

Ҳозирги кунда мамлакатимизда қалқонсимон без етишмовчилиги билан боғлиқ касалликларни даволаш учун ижобий таъсирга эга дори воситаларини яратишга ва амалиётга жорий қилишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Республикамиз мустақилликка эришгандан буён гипотиреозга гипертиреоз хасталиги ва унинг оқибатларида келиб чиқадиган патофизиологик ўзгаришларни даволаш мақсадида маҳаллий ўсимликлардан олинган самарали дори воситаларини яратиш борасида кенг қамровли чора-тадбирлар амалга оширилиб, муайян натижаларга эришилмоқда [3].

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Тадқиқотлардан кўзланган асосий мақсаддиги дигидрокверцетин ва кверцетин флавоноидларнинг антиоксидантлик хусусиятлари ва уларни гипотиреоз моделида эркак оқ каламушлар органлари (қалқонсимон без, жигар, буйраклар, меъдаости беzi, юрак, жинсий органлар, ичак)даги оксидланишли стресс жараёни таъсиридаги бузилишларни коррекциялашдан иборат. ЎЗР ФА Биоорганик кимё институти ва Биофизика ва биокимё институти лабораториясида оқ каламушларда олиб борилди. Тажрибаларда 200±20 г каламушлардан фойдаланилди. Фойдаланилган каламушлар тоза, табиий ёруғлик режимидаги хоналарда алоҳида катакларда сақланди. Каламушлар озиқ-овқатни ва сувни чегараланмаган ҳолда истеъмол қилишди. Ҳайвонларнинг озукиси буғдой, писта, сут ва сут маҳсулотлари, гўшт маҳсулотлари, буғдой нони, кўкатлар, сабзавотлар, ош тузи ва емлардан иборат эди. Улар хона ҳарорати 22-24⁰С, намлиги 40-60% бўлган шароитда сақланди. Тажрибаларда қуйидаги фармакологик препаратлар ва реактивлардан фойдаланилди: ТБК (тиобарбитурат кислота), Н₂О₂, 2,2-дифенил-1-пикрилгидразил (ДФПГ), МДА, мерказалил, кверцетин, дигидроқверцетин, Рингер эритмаси (рН -7,4), фосфат тампони, дистилланган сув ва б. Фойдаланилган барча

реактивлар тажриба учун кимёвий тозалик квалификациясига эга [1, 2, 3].

Тажрибалар зотсиз вазни 100-120 гр бўлган оқ эркак каламушларда ўтказилди. Лаборатория ҳайвонларини озиклантириш виварий шароитда стандарт рационал шароитда олиб борилди. Тажрибалар *in vitro* ва *in vivo* шароитида қуйидагича босқичларда амалга оширилди: ДФПГ усули. Кверцетин ва дигидроқверцетин флавоноидларининг антиоксидант ва антирадикал хусусиятларини ДФПГ (радикал) эркин радикалининг оптик зичлиги ўзгаришини қайд этиш орқали амалга оширилди. Ушбу ишда АРА ни аниқлаш учун биз барқарор радикал 2,2-дифенил-1-пикрилгидразил (ДФПГ) молекулаларининг антиоксидантлар билан қайтарилиш кинетикасини спектрофотометрик ўлчов техникасидан фойдаландик. Синов аралашмалари сувда 1 мг/мл концентрациясида эритилди. H_2O_2 усули. Водород пероксидга нисбатан бирикмаларнинг антирадикаллик фаоллигини аниқлаш учун Руч услубига асосланган усул ишлатилган. 2 мл 20 М фосфат тампони, 1 мл 43 М водород пероксид эритмаси ва 1 мл дистилланган сувни ўз ичига олган ҳар бир найчага намуналар алоҳида қўшилди. Назорат сифатида фосфат тампони эритмаси ва фосфат тампонсиз водород пероксид эритмасини қабул қилиш ишлатилган. Хона ҳароратида 10 дақиқа инкубациядан сўнг, намуналарнинг оптик зичлиги фосфат тампонининг назорат эритмасига нисбатан 230 нм да ўлчанди. Водород пероксидни қабул қилиш фоизи қуйидаги формуладан фойдаланиб ҳисоблаб чиқилган:

$$H_2O_2\% = [(A_c - A_e) / A_c \times 100]$$

бу ерда A_c - водород пероксид эритмасининг фосфат тампонсиз оптик зичлиги ва A_e - намуналарнинг оптик зичлиги [4, 5].

Тадқиқот ҳайвонларида гипотиреоз чақириш учун мерказолилдан фойдаланилди. Тажриба учун ажратилган каламушлар гуруҳларга ажратилди: I гуруҳ – назорат ($n=8$), II гуруҳ – тажриба (гипотиреоз, $n=8$), III гуруҳ - тажриба (гипотиреоз+кверцетин, $n=8$), IV гуруҳ- тажриба (гипотиреоз+дигидроқверцетин, $n=8$), II, III ва IV гуруҳлардаги каламушларда гипотиреоз касаллиги чақириш учун бир кунлик очликдан сўнг бир марта мерказолил 50 мг/кг оғиз бўшлиғи орқали перорал юборилди. III гуруҳдаги каламушларга 14 кун мобайнида бир хил вақтда, бир марта мерказолил (50 мг/кг) ва кверцетин (10 мг/кг), IV гуруҳдагиларга мерказолил ва дигидроқверцетин (10 мг/кг) оғиз бўшлиғи орқали перорал юборилди. ЛПО маҳсулотларини ажратиб олиш тиобарбитурат кислотаси (ТБК) иштирокида олиб борилди. Реакция ИМ га 0,220 мл 70 % учхлор сирка кислотаси қўшиш билан тўхтатилди. Ушбу

босқичдан сўнг митохондрия суспензияси 15 дақиқа давомида 4000 айлана минут тезликда центрифуга қилинди. Сўнгра 2 мл чўкма усти суюқлиги олинди ва 1 мл 75% ли тиобарбитурат кислота (ТБК) қуйилди. Назорат пробиркасига 2 мл H₂O ва 1 мл ТБК қўшилди. Аралашма сув ҳаммомида 30 дақиқа давомида инкубация қилинди. Совутилгандан сўнг, 540 нм тўлқин узунлигида оптик зичликнинг ўзгариши аниқланди. Шунингдек, митохондрия мембранасида ЛПО жараёнини ўрганиш учун Fe²⁺/аскорбат тизимидан фойдаланилди. Ушбу тизим таъсирида митохондриялар мембранаси барьерлик функциясини йўқотди, натижада органелла ҳажми ошиб митохондрия бўқди. Ушбу ҳажм ўзгариши фотометрик усулда аниқланди. ИМ: KCl - 125 мМ, трис-HCl - 10мМ, рН 7,4; Концентрациялар: FeSO₄ - 10 мкМ, аскорбат - 600 мкМ; митохондрия миқдори 0,5 мг/мл. [6, 7, 8]. Олинган натижаларни статистик қайта ишлаш ва расмларни чизиш OriginPro 7.5 (Microsoft, USA) компьютер дастури ёрдамида амалга оширилди. Қолган қийматлар Стьюдент-Фишер жадвали иштирокида топилди. Бунда P<0,05 дан кичик бўлганда олинган тажриба натижалари статистик ишонарли деб ифодалайди.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР


Сўнги пайтларда реактив кислород турларининг (ROS) турли хил асалликларнинг патогенезидаги ролини ўрганишга қизиқиш ортди. Бир томондан, ROS табиий физиологик жараёнлар давомида ҳосил бўлади ва организмнинг иммунитет тизимини сақлаш, сигналларни узатиш ва гормонларни синтез қилиш учун зарурдир. Бошқа томондан, прооксидантларнинг юқори концентрациясидан келиб чиқадиган оксидланишли стресс оқсилларга, ҳужайра мембраналарига ва нуклеин кислоталарга зарар етказиши мумкин. олдини олиш ёки секинлаштириши мумкинлиги кўрсатилди [9].

Антиоксидантлар турли хил таъсир механизмларига эга бўлиши мумкинлиги сабабли, уларнинг фаолиятини турли усуллар ёрдамида ўрганиш мақсадга мувофиқдир. Ушбу ишда АРА бирикмалари икки усул билан баҳоланди: 1) ДФПГ эркин радикалига нисбатан ва 2) водород пероксидга нисбатан. ДФПГ нинг спиртли эритмасига синов аралашмалари қўшилса, эркин радикал молекулалар радикал бўлмаган шаклга айланади, ДФПГ нинг қизғиш бинафша эритмаси рангсизланади.

1-расмда ўрганилаётган намуналарни қўшганда ДФПГ эритмасининг оптик зичлиги ўзгариши кинетикаси кўрсатилган. Текширилаётган намуналарнинг АРА-ни



таққослаш учун ҳар бир бирикма учун концентрация 1 мМ модданинг концентрацияси билан тайёрланган эритмадан мос равишда 5, 10, 25, 50 ва 100 мл ни танлади.



1-расм. 50 мкл кверцетин ва дигидрокверцетин қўшилган ДФПГ спиртли эритмасининг оптик зичлиги кинетикаси (ДФПГ нисбати: полифенол 2: 1 га тўғри келади).

Олинган натижаларни таҳлил қилиб, хулосага келиш мумкинки, ўрганилган полифенолларни ДФПГ спиртли эритмасига қўшганда, ДФПГ эритмасининг оптик зичлиги кескин пасайиши кузатилади, бу текширилган кверцетин ва дигидрокверцетин бирикмаларининг антирадикаллик қобилиятини кўрсатади. Экспериментал маълумотлардан келиб чиқилиб, ўрганилаётган бирикмалар ДФПГ эркин радикалини қайтариш қобилиятига эга. Антирадикал фаолликни аниқлаш учун биз барқарор 2,2-дифенил-1-пикрилгидразил (ДФПГ) радикалидан, шунингдек t_{50} параметридан, ўрганилаётган моддалар учун радикалнинг бошланғич концентрациясини 50% га камайтириш учун зарур бўлган вақтдан фойдаландик. Бундан ташқари, кверцетин ва дигидрокверцетиннинг водород пероксидга нисбатан антирадикал фаоллиги ўрганилди. Олинган натижалар ROSнинг ушбу шаклига нисбатан ингибитор таъсир мавжудлигини кўрсатди. Кверцетин ва дигидрокверцетиннинг водород пероксидга нисбатан антирадикалфаоллиги навбати билан 76 ± 4.3 ва 64 ± 2.6 ни ташкил этди, синов намуналари инкубация муҳитига олдиндан тайёрланган 1 мМ эритмадан 150 мкл ҳажмда қўшилган. Ушбу хатти-ҳаракат, эҳтимол, ўрганилаётган бирикмалар молекулаларида ҳаракатланувчи водородли бир нечта гидроксил гуруҳлари мавжудлигининг натижасидир [47].

1-жадвал.

Реакция тезлиги константалари, 50% ингибитор концентрацияси (IC_{50}) ва ДФПГ концентрациясини ўрганилаётган полифеноллар билан реакцияга киришганда 50% (t_{50}) га камайтириш учун зарур бўлган вақт

K 10-3, c-1		IC 50, mcl		T 50, sec	
DQ	Q	DQ	Q	DQ	Q
1,2	5,3	14,3	7,2	105	9,6


Кверцетин ва дигидрокверцетинни ўрганишда олинган тажриба натижаларини таҳлил қилиш шуни кўрсатдики, кверцетин флавоноиди дигидрокверцетинга нисбатан АРА юқори бўлиб эркин радикалларни (ДФПГ ва H_2O_2) қайтариш хусусияти нисбатан юқори, булар учун ДФПГ билан реакция доимийси энг юқори, қиймати эса бирикманинг антирадикал самарадорлиги сифатида хизмат қилиши мумкин. Эркин радикаллар ва реактив кислород турларининг зарарли таъсирига антиоксидант муҳофаа тизими қарши туради, унинг асосий фаол звеноси антиоксидантлар - эркин радикал оксидланишини (ЕРО) ингибир қилиши, камайтириши, КП ни водород атоми билан алмаштириши мумкин бўлган бирикмалар. (аксарият ҳолларда) аксептор эркин радикал (кислород, азот) учун. Антиоксидантлар табиий (биоантиоксидантлар) ва синтетик келиб чиқиши мумкин. Ушбу гуруҳ моддалари ҳаракатланувчи водород атомга эга ва шунинг учун эркин радикаллар, шунингдек эркин радикал оксидланиш катализаторлари билан реакцияга киришади. Олинган натижалар шуни кўрсатадики, ўрганилаётган бирикмалар молекулаларида антирадикаллик фаолликни намойиш этувчи ҳаракатланувчи водород атомлари мавжуд. Шу муносабат билан, кверцетин ва дигидрокверцетиннинг антирадикаллик фаоллиги юқори эканлигини ҳисобга олиб, гипотиреоз билан оғриган беморларда юзага келадиган бузилишларни тузатиш имкониятларини ўрганиш ва уларни истиқболли антиоксидант ва антигипотиреоз дори сифатида кўриб чиқиш муҳимдир. Шу асосда, биз кейинги тадқиқотларимизда иккита полифенол бирикманинг гипотиреоз моделида каламушларнинг турли органларининг оксидланишли стрессига таъсирини ўрганиб чиқдик.

Шунинг учун ЛПО жараёнларини ўрганишда темир ионларидан фойдаланилади. Бу турли биологик фаол моддаларнинг антиоксидантлик хоссаларини ўрганишда




асосий тест тизимлардан бири ҳисобланади. Бундан ташқари ЛПО жараёнларининг кальций ионларисиз индукцияси митохондриялар мембранасида жойлашган барча фосфолипазаларнинг фаоллашувига олиб келиши ҳам кўрсатилган. Адабиётлардан маълумки, хужайраларнинг нормал фаолиятида субстратларнинг кислород иштирокида оксидланишидан 98% ҳолатда АТФ ва 2% ҳолатда кислороднинг фаол шакллари ҳосил бўлади. Патологик ҳолатларда эса бу мувозанат эркин радикалларнинг кўпайиши ҳисобига бузилади [32].

Олинган натижалардан кўриниб турибдики, *in vitro* тажрибаларда кверцетинфлавоноидининг турли концентрациялари таъсирида Fe^{2+} /аскорбат билан чақирилган митохондриялар бўкишига ингибирловчи таъсири келтирилган (3.13-расм). Инкубация муҳитига Fe^{2+} /аскорбат кўшиш митохондрияларда липидларнинг перекисли оксидланиши жараёнини кескин ортишига сабаб бўлади. Маълумки, Fe^{2+} /аскорбат тизими таъсирида митохондриялар бўкади ва уларнинг ҳажми ортади. Ушбу ҳолатда митохондриялар мембранасининг лабиллиги ортиб, митохондрия мембрана потенциали пасаяди [31]. Fe^{2+} /аскорбат тизими чақирган ЛПО жараёнига кемпферолнинг турли концентрацияларини таъсир эттириш орқали унинг мембранафаол хоссага эга эканлиги аниқланди.



Кверцетиннинг концентрацияси (микромолда)



2-расм. Кверцетиннинг ва дигидрокверцетин концентрацияси (микромолда) Fe^{2+} /аскорбат билан чақирилган митохондриялардаги липидларнинг перекисли оксидланиш жараёнига таъсири. Изоҳ: Ордината ўқида - Fe^{2+} /аскорбат таъсирида митохондриялар бўкиши кўрсатилган, абсциссаа ўқида - кверцетиннинг қўлланилган концентрациялари ифодаланган. Инкубация муҳити - 125 мМ KCl, 10 мМ трис-HCl, pH 7,4. (** P<0,01, *** P<0,001; n=4).

Митохондрияларда эркин радикаллар ҳосил бўлиши ва липидларнинг перекисли оксидланиши муҳим биологик жараёнлардан бири ҳисобланади. Кислород эркин радикаллари инициацияси ҳамда липидларнинг перекисли ва гидроперекисли ҳосилаларини ҳосил бўлиши оксидатив стресснинг кўриниши ҳисобланади. Эркин радикаллар липидларнинг перекисли оксидланиш жараёнини кучайтиради, натижада биологик мембрана структураси ва хоссалари ўзгаради ва ҳужайра фаолияти издан чиқади [55]. Ҳозирги вақтда оксидланишли стресс натижасида келиб чиққан липидларнинг перекисли оксидланиш жараёнини ингибирлаш, мембранавий бузилишларни коррекция қилиш мақсадида ўсимликлардан ажратиб олинган флавоноидларнинг таъсир механизмлари ва антиоксидантлик хоссалари ўрганилмоқда. Ҳозирги кунда флавоноидларнинг антибактериал, мембранафаол, вирусга қарши, иммуномодуляторлик, антиканцероген ва бошқа хоссалари борлиги кўрсатилган [9,11].

ХУЛОСАЛАР

Ўрганилган биологик фаол бирикмалар *in vitro* моделида ДФПГ ва H_2O_2 эркин радикаллариға нисбатан юқори антирадикал фаолликни намоён қилади. Шу билан бирға эркин радикаллар ва реактив кислород турларини қайтариш даражаси кверцетин флаваноидида дигидрокверцетин флаваноидиға нисбатан юқорироқ фаолликка эға эканлиги аниқланди. Дигидрокверцетин ва кверцетин турли орган тўқималарининг гомогенатида дозаға боғлиқ ҳолда ЛПО жараёнларини ингибирлаш хусусиятини намоён этиши ва шунинг билан бирға ушбу моддаларни антиоксидант фаолликға эға эканлиги аниқланди.

REFERENCES

1. Мамадалиева Н. И., Мустафакулов М. А., Саатов Т. С. Влияние фактора нервного роста на показатели антиоксидантной системы в тканях мозга крысы //Environmental Science. – 2021. – Т. 723. – С. 022021.
2. Ishankhodjaev T. et al. Study on Effects of Liposomal Quercetin on Biochemical Parameters of the Nigrostriatal System of Rats with Experimentally Induced Neurodegenerative Disease //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 6128-6143.
3. Мустафакулов М. А. и др. Изучение антиоксидантной и антирадикальной активности листьев *isatis tinctoria* L //Universum: химия и биология. – 2022. – №. 7-1 (97). – С. 40-44.

4. Мустафакулов М. А. и др. Исследование влияния липосомальной формы кверцетина на отдельные биохимические параметры ткани мозга животных с экспериментальной моделью нейродегенеративного состояния //Главный редактор. – 2023. – С. 33.
5. Saatov T. et al. Study on hypoglycemic effect of polyphenolic compounds isolated from the Euphorbia L. plants growing in uzbekistan //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2020. – Т. 70.
6. Irgasheva S. et al. TNF- α Gene G308A Polymorphism: Frequency in Patients with Type 2 Diabetes Mellitus //Int J Cur Res Rev| Vol. – 2020. – Т. 12. – №. 23. – С. 161.
7. Tuychiboyev J. I. et al. Gipotireoz modelida kalamush antioksidant tizimiga e vitamin va kurkuminning korreksiyalovchi tasiri //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 234-236.
8. Saatov T. et al. Assessment of hypoglycemic properties of extracts from some medicinal plants in the experimental diabetes model //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2022. – Т. 81.
9. Saatov T. et al. Neurodegeneration type and severity have linkage with plasma insulin in DM patients //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2022. – Т. 81.
10. Saatov T. et al. Correction of oxidative stress in experimental diabetes mellitus by means of natural antioxidants //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2021. – Т. 73.
11. Saatov T. et al. Antioxidant and hypoglycemic effects of gossitan //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2019. – Т. 63.
12. Мустафакулов М. А., Ибрагимов А. А., Ашуров А. А. Роль аптомеров в медицине, фармацевтике и биологии //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 252-258.



***G.BARBADENSE* L. ТУРИ НАВЛАРАРО F₁ ДУРАГАЙЛАРИДА АЙРИМ ҚИММАТЛИ-ХЎЖАЛИК БЕЛГИЛАРНИНГ ИРСИЙЛАНИШИ**

Нурали Эсонпўлатович Чоршанбиев

ЎзР ФА Генетика ва ўсимликлар экспериментал биологияси институти, таянч доктаранти

Саидғани Мухторович Набиев

ЎзР ФА Генетика ва ўсимликлар экспериментал биологияси институти, профессори, биология фанлари доктори

Элшод Алишер ўғли Пардаев

Қарши Муҳандислик иқтисодиёт институти таянч доктаранти

Азиз Обидович Қўзибоев

Қарши Муҳандислик иқтисодиёт институти таянч доктаранти

АННОТАЦИЯ

Мақолада *G.barbadense* L. тури навларининг F₁ дурагайларида ўсимлик маҳсулдорлиги ва 1000 та чигит оғирлиги белгиларининг ирсийланиши, навларнинг бу белгилар бўйича комбинацион қобилияти маълумотлари келтирилган. Ушбу белгилар F₁ дурагайларида полиген белгилар сифатида турли ҳолатларда ирсийланди. Ўсимлик маҳсулдорлиги асосан ижобий ўта доминантлик ва 1000 та чигит оғирлиги эса салбий, ижобий ўта доминантлик ҳолатларида ирсийланди. Ўсимлик маҳсулдорлиги бўйича юқори ижобий умумий комбинатив қобилияти (УКҚ) Марварид ($\hat{g}_i=2,44$) ва Сурхон-14 ($\hat{g}_i=2,95$) навларида, 1000 та чигит оғирлиги бўйича эса УКҚ Марварид ($\hat{g}_i=2,3$) ва Ғузор ($\hat{g}_i=2,8$) навларида юқорилиги аниқланди. Шундай қилиб, олиб борилган тадқиқотларимиз натижалари ингичка толали ғўзанинг ҳосилдор ғўза навлари селекциясида Марварид, Сурхон-14 ва Ғузор навларидан бошланғич ашё сифатида фойдаланиш мумкинлигини кўрсатади.

Калит сўзлар: *G.barbadense* L., ғўза, нав, дурагай, маҳсулдорлик, 1000 дона чигит оғирлиги, гетерозис, ирсийланиш, доминантлик коэффициенти, комбинацион қобилият.

ABSTRACT

The article presents information on the inheritance of traits of plant yield and weight of 1000 seeds in F₁ hybrids of *G.barbadense* L. species, as well as data on the combining ability



of varieties for these traits. These traits were inherited in different level as polygen traits in F_1 hybrids. Plant yield was inherited basicly positive superdominance and weight of 1000 seeds was negatively, positively superdominance. High positive General Combinative Ability (GCA) between varieties of plant productivity was found in varieties Marvarid ($\hat{g}_i=2.44$) and Surkhan-14 ($\hat{g}_i=2.95$), and in terms weight of 1000 seeds GCA Marvarid ($\hat{g}_i=2.3$) and Guzor ($\hat{g}_i=2.8$) was found high. Thus, the results of our research show that it is possible to use Marvarid, Surkhan-14 and Guzor varieties as initial forms in the selection of productive cotton varieties of fine fiber cotton varieties.

Keywords: *G.barbadense* L., cotton, variety, hybrid, productivity, weight of 1000 seeds, heterosis, inheritance, coefficient of dominance, combining ability.

КИРИШ

Маълумки, пахтачилик толаси мамлакатимиз қишлоқ хўжалигининг асосий тармоғидир. Ғўзанинг энг асосий маданий турлари - *G.hirsutum* L. ва *G.barbadense* L. лардир [15]. Дунёнинг 80% дан пахта майдонида ушбу иккита тетраплоид турларнинг навлари экилиб келинмоқда [11].

Халқаро пахта бозорида ингичка толали *G.barbadense* L. турига мансуб ғўза навларининг толаси ўрта толали навлар толасига нисбатан қиммат баҳоланади. Бу типдаги бир тонна толадан бир неча марта кўпроқ газлама йигирилади ва нархи ҳам юқори туради. Толаси V типга кирувчи ўрта толали навларнинг толасидан 8620 м² газлама тайёрланса, толаси I типга кирувчи ингичка толали навларнинг 1 тонна толасидан 15510 м² газлама тайёрланади [18].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 18 мартдаги ПҚ-170-сон “Сурхондарё вилоятида ингичка толали пахта етиштиришни илмий асосда амалга ошириш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ва 2022 йил 28 январдаги ПҚ-206-сон “Қишлоқ хўжалиги экинлари уруғчилигини янада ривожлантириш бўйича қўшимча чора тадбирлари тўғрисида”ги қарорларида янги ингичка толали ғўза навларини яратиш вазифалари белгиланган.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Ингичка толали *G.barbadense* L. турига мансуб ғўза навлари биологик хусусиятлари бўйича юқори иссиқлик хароратларига жуда талабчан бўлиб, жанубий ҳудудларида унча катта бўлмаган майдонларда етиштирилади. Мамлакатда ингичка толали

пахта етиштиришни йўлга қўйиш давлат иқтисодига катта фойда келтиради. Буни йўлга қўйиш учун *G.barbadense* L. тури ғўза навларининг тезпишар, толаси сифатли ва юқори ҳосилли навларни яратиш ва экин майдонларини кенгайтириш муҳим роль ўйнайди [6], [17]. Мисрда ингичка толали ғўза навларининг фойдаланмаган генетик ўзгарувчанлигини ўрганиш ва янги навлар яратиш бўйича кўплаб илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда [14]. Селекция жараёнида ҳосилдорликни оширишга юқори ҳосилдорликка олиб келадиган генларни бир генотипда тўплаш ёки салбий оқибатларга олиб келувчи генларни бартараф қилиш орқали эришилади [5].

Кўпчилик хорижлик селекционер олимлар ўз илмий изланишларида ғўза туричи, турлараро ва навлараро дурагайлаш асосида янги фойдали белги ва хусусиятларга эга бўлган қимматли манбалар олиш мумкинлигини кўрсатиб берганлар [9], [12].

Кўпгина олимлар қатор навларнинг умумий ва махсус комбинацион қобилиятини баҳолаш учун тадқиқотлар олиб боришган ва ғўзани генетик яхшилаш учун энг яхши донорларни аниқлаганлар [7], [13], [16]. Таъкидлаш лозимки, навларнинг комбинацион қобилиятини баҳолаш учун қўлланиладиган таҳлил усуллари генларнинг ўзаро таъсири, уларнинг миқдорий белгилар ирсийланишидаги аҳамиятини ва ҳам муҳокама қилишга ёрдам беради.

Тадқиқотларимиз Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академиясининг Генетика ва ўсимликлар экспериментал биологияси институтига қарашли Зангиота тажриба даласида олиб борилди. Тажриба даласининг тупроғи типик бўз тупроқ бўлиб, шўрланмаган, ер ости сувлари чуқур жойлашган (8,0 метрдан ортиқ). Агротехник тадбирлар ўсимликларнинг яхши ўсиб ривожланишини таъминлади.

Тадқиқот манбаи сифатида *G. barbadense* L. турига мансуб маҳаллий Марварид, Ғузор, Бўстон, Сурхон-14 навлари ва Л-167 тизмаси, уларнинг F₁ дурагайларида фойдаланилди. Тадқиқотда ҳар бир нав ва F₁ дурагай комбинацияси рендомизация усулини қўллаган ҳолда уч қайтариқда, ҳар бир қайтариқда 2 қатордан, ҳар бир қаторда 25 та уядан иборат ҳолда жойлаштирилди. Экиш схемаси 90x20x1. Тажриба олиб бориш жараёнида F₁ дурагайларида ўсимлик маҳсулдорлиги ва 1000 та чигит оғирлиги белгиларининг ирсийланиши ўрганилди.

F₁ дурагайларида ўрганилган белгилар бўйича ота-она шаклларининг доминантлик даражаси G.E.Beil ва R.E.Atkins [8] ишларида келтирилган S.Wright формуласи бўйича аниқланди:

$$h_p = \frac{F_1 - MP}{P - MP}$$

бунда h_p – доминантлик коэффициенти;

F_1 – дурагайнинг ўртача арифметик кўрсаткичи;

MP – иккала ота-она шаклининг ўртача арифметик кўрсаткичи;

P – энг яхши ота ёки она шаклининг ўртача арифметик кўрсаткичи.

Олинган рақамли кўрсаткичлар Б.А. Доспехов [3] услубида статистик ишловдан ўтказилди. Бунда ҳар бир белги бўйича олинган кўрсаткичлар дисперсион таҳлил қилинди, яъни навлар ва дурагайлар ўртасидаги фарқлар ишончилиги Фишер критерияси (F), тажрибанинг умумий хатоси $S\bar{x}$, ўртачалар фарқлари хатоси Sd ва энг кичик фарқланиш (ЭКФ) 95% лик ишончилилик даражаси бўйича аниқланди.

П.П.Литун, Н.В.Проскурин [4] ларнинг таъкидлашларича, амалий селекция соҳасида комбинацион қобилятини аниқлашда Гриффинг 4 усулидан (модель 1) кўп фойдаланилади. Шунинг учун биз ҳам ўз тадқиқотларимизда навларнинг комбинацион қобиляти Гриффингнинг [10] 4 – усулидан фойдаландик.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Ўсимлик маҳсулдорлигининг аниқлаш бўйича олган маълумотларимизга кўра, ўрганилган ингичка толали ғўза навлари гуруҳида энг юқори кўрсаткичга Бўстон нави (56,6 гр/ўсим)га эга бўлди. Бу белгининг кўрсаткичи Ғузор, Марварид, Сурхон-14 навлари ва Л-167 тизмасида мос равишда 55,0г, 52,4г, 51,3г ва 54,2 граммни ташкил этди (1-жадвал).

Ўсимлик маҳсулдорлиги белгиси 20 та F_1 дурагай комбинацияларидан 14 тасида ижобий ўта доминантлик, 5 тасида салбий ўта доминантлик ва Л-167 х Сурхон-14 комбинациясида юқори кўрсаткичли Л-167 тизмасининг тўлиқсиз доминантлиги ҳолатларида ирсийланади. Сурхон-14, Марварид ва Ғузор навларининг ўзаро тўғри ва тескари, яъни реципрок комбинацияларида ўсимлик маҳсулдорлиги белгиси ижобий ўта доминантлик ҳолатида ирсийланди. Белги кўрсаткичлари бир-биридан статистик ишончли фарқ қилмайдиган Ғузор ва Бўстон навларининг ўзаро реципрок комбинацияларида салбий ўта доминантлик ҳолати қайд этилди. Шундай қилиб, ўсимлик маҳсулдорлиги белгиси тажрибамизда ўрганилган ингичка толали ғўза навлари ва тизмасининг F_1 комбинацияларида асосан ижобий ўта доминантлик ҳолатида ирсийланди.

Бўстон х Сурхон-14 комбинациясида 158,5% ташкил этди. Бу дурагай комбинацияларидан ингичка толали ғўзанинг гетерозис селекциясида фойдаланиш мумкин.

Марварид навининг Ғузур, Бўстон навлари ва Л-167 тизмаси билан; Сурхон-14 нави ва Л-167 тизмасининг Бўстон нави билан олинган тўғри ва тескари ўсимлик маҳсулдорлигининг ўртача кўрсаткичи бўйича реципрок фарқланиш мавжудлиги асосида, бу дурагай комбинацияларда ўсимлик маҳсулдорлиги белгисининг ирсийланишида ядровий генлар билан бир қаторда, цитоплазматик генларнинг ҳам таъсири борлиги аниқланди.

1- жадвал

Ингичка толали маҳаллий ғўза навларининг F_1 дурагайларида қимматли-хўжалик белгиларининг ирсийланиши ва гетерозис самараси

№	Навлар ва F_1 комбинациялари	Ўсимлик маҳсулдорлиги, г/ўсим			1000 дона чигит оғирлиги, г		
		\bar{x}	hp	Гет, %	\bar{x}	hp	Гет, %
1	Марварид	52,4			120,0		
2	Ғузур	55,0			121,0		
3	Бўстон	56,6			123,0		
4	Сурхон-14	51,3			117,0		
5	Л-167	54,2			118,0		
6	Марварид х Ғузур	76,4	15,3	138,9	119,0	-3,0	-
7	Марварид х Бўстон	76,1	10,3	134,5	123,0	1,0	-
8	Марварид х Сурхон-14	62,6	21,4	119,5	119,0	0,33	-
9	Марварид х Л-167	59,9	7,3	110,5	117,0	-1,0	-
10	Сурхон-14 х Марварид	61,8	19,8	117,9	116,0	-1,67	-
11	Сурхон-14 х Бўстон	50,1	-1,5	-	99,0	-7,0	84,6
12	Сурхон-14 х Ғузур	73,5	11,3	133,6	116,0	-1,5	-
13	Сурхон-14 х Л-167	54,7	1,4	-	121,0	7,0	102,5
14	Л-167 х Ғузур	59,6	12,5	108,4	117,0	-1,7	-
15	Л-167 х Бўстон	43,5	-9,9	80,2	108,0	-5,0	91,5
16	Л-167 х Марварид	44,9	-9,3	85,7	121,0	2,0	-
17	Л-167 х Сурхон-14	53,4	0,4	-	110,0	-15,0	94,0
18	Ғузур х Сурхон-14	70,3	9,5	127,8	123,0	2,0	-
19	Ғузур х Л-167	55,4	2,0	-	110,0	-6,3	93,2
20	Ғузур х Бўстон	40,9	-18,6	74,4	124,0	2,0	-
21	Ғузур х Марварид	62,2	6,5	113,1	128,0	15,0	105,8

22	Бўстон х Сурхон-14	89,7	13,7	158,5	117,0	-1,0	-
23	Бўстон х Ғузур	40,1	-19,6	72,9	129,0	7,0	104,9
24	Бўстон х Л-167	63,2	6,5	111,7	114,0	-2,6	96,6
25	Бўстон х Марварид	64,9	5,0	114,7	120,0	-1,0	-
	ЭЖФ ₀₅	3,5			3,0		

Тадқиқотларимизда ўрганилган ота-она шакллари ва F_1 дурагайларида 1000 та чигит оғирлиги белгисини ўрганиш бўйича олган натижаларимизнинг таҳлилига кўра, нисбатан энг оғир чигитлар Бўстон навида (123,0 г), энг енгил чигитлар эса Сурхон-14 навида (117,0 г) қайд этилди. Ғузур ва Марварид навлари ўртасида ушбу белгининг ўртача кўрсаткичи бўйича статистик ишончли фарқ аниқланмади. Бўстон ва Ғузур навларининг ўзаро реципрок комбинацияларида, шунингдек Ғузур х Марварид ва Марварид х Бўстон комбинацияларида ҳам чигитлар оғир бўлиб, 123,0-129,0 граммни ташкил этди (1-жадвал).

Сурхон-14 навини Марварид, Ғузур ва Бўстон навлари билан чапиштириб олинган тўғри дурагай комбинацияларида 1000 та чигит оғирлиги белгисининг кўрсаткичлари 99,0-116,0 г, тескари Марварид х Сурхон-14, Ғузур х Сурхон-14 ва Бўстон х Сурхон-14 комбинацияларида эса мос равишда 119,0г; 123,0г ва 117,0 гни ташкил этди.

1000 та чигит оғирлиги белгиси 20 та F_1 комбинацияларидан 9 тасида салбий ва 6 тасида ижобий ўта доминантлик, 3 тасида паст кўрсаткичли навнинг ва 1 тасида юқори кўрсаткичли навнинг тўлиқ доминантлиги, 1 тасида эса юқори кўрсаткичли навнинг тўлиқсиз доминантлиги ҳолатларида ирсийланди. Шундай қилиб, тажрибамизда ўрганилган *G.barbadense* L. навлараро F_1 дурагайларида 1000 дона чигит оғирлиги белгиси асосан турли даражадаги салбий ва ижобий ўта доминантлик ҳолатида ирсийланди.

1000 дона чигит оғирлиги бўйича бир-биридан статистик ишончли фарқ қилмайдиган Марварид ва Ғузур навларининг Марварид х Ғузур комбинациясида 1000 та чигит оғирлиги 119,0 гни, доминантлик коэффициенти h_r эса -3,0 га тенг бўлди, яъни ушбу комбинацияда белги салбий ўта доминантлик ҳолатида ирсийланди.

1000 дона чигит оғирлиги бўйича кучсиз гетерозис самараси фақатгина 3 та комбинацияда, яъни Сурхон-14х Л-167 (102,5%), Бўстон х Ғузур (104,9%) ва Ғузур х Марварид (105,8%) комбинациялардагина аниқланди. Бу эса 1000 та чигит оғирлиги белгиси бўйича гетерозис

самараси *G.barbadense* L. навлараро F_1 дурагайлари учун унчалик характерли эмаслигини кўрсатади.

Марварид навини Ғузор нави ва Л-167 тизмаси билан; Сурхон-14 навини Бўстон, Ғузор навлари ва Л-167 тизмаси билан; Л-167 тизмасини Сурхон-14, Ғузор ва Бўстон навлари билан олинган комбинацияларда 1000 та чигит оғирлигининг ўртача кўрсаткичи бўйича реципрок фарқланиш мавжудлиги аниқланди. Бу ҳолат ушбу дурагайларда 1000 дона чигит оғирлиги белгисининг генетик назоратида ядровий генлар билан бир қаторда, цитоплазматик генларнинг ҳам иштирок этишини кўрсатади.

Комбинацион қобилятнинг дисперсион таҳлили умумий комбинацион қобилят (УКҚ) бўйича навларда фарқланиш мавжудлигини кўрсатди. Шундан сўнг навларнинг УКҚ самараси аниқланди. Тажрибамизда ўрганилган ғўза навларида ўсимлик маҳсулдорлиги бўйича УКҚ самараси (\hat{g}_i) турлича бўлди (2-жадвал). Юқори ижобий УКҚ Марварид ($\hat{g}_i=2,44$) ва Сурхон-14 ($\hat{g}_i=2,95$) навларида қайд этилди. Таъкидлаш бу навларда белгининг ўртача кўрсаткичи ҳам бошқа навлардан юқори бўлган эди. Энг паст УКҚ самараси ($\hat{g}_i=-4,6$) Л-167 тизмасида қайд этилди. Таъкидлаш лозимки, УКҚнинг ижобий кўрсаткичга эга бўлиши белгининг асосан аддитив генлар билан бошқарилишини билдиради.

2 - жадвал

Ингичка толали ғўза навларида ўсимлик маҳсулдорлиги белгисининг УКҚ самараси (\hat{g}_i)

♀ \ ♂	Марварид	Ғузор	Бўстон	Сурхон-14	Л-167	\hat{g}_i
Марварид	-	8,02	9,89	-2,19	-4,34	2,44
Ғузор	-	-	-17,61	10,11	3,26	-0,06
Бўстон	-	-	-	8,78	-0,17	-0,73
Сурхон-14	-	-	-	-	-3,15	2,95
Л-167	-	-	-	-	-	-4,6

Олган натижаларимиз юқори ҳосилли ғўза навлари селекциясида Марварид ва Сурхон-14 навларидан бошланғич ашё сифатида фойдаланиш мумкинлигини кўрсатади. Ўсимлик маҳсулдорлиги мос равишда ўртача 55,0 г, 56,6 г ва 54,2 г бўлган Ғузор, Бўстон навлари ва Л-167 тизмасида эса УКҚ самараси салбий кўрсаткич (\hat{g}_i мос равишда – 0,06; -0,73; ва -4,6) га эга бўлди. Белги кўрсаткичлари юқори бўлишига қарамасдан, Ғузор, Бўстон навлари ва Л-167 тизмаси УКҚ самараси бўйича паст кўрсаткичларни намоён қилдилар. Бу эса ушбу навларда маҳсулдорликнинг асосан рецессив генлар томонидан бошқарилишини билдиради.

Ўрганилган навларнинг F_1 авлодида белги бўйича ўзига хос комбинацион қобилият (ЎКҚ) константининг энг юқори кўрсаткичлари Ғузор х Марварид ($\hat{s}_{ij} = 10,11$), Марварид х Бўстон ($\hat{s}_{ij} = 9,89$), Бўстон х Сурхон-14 ($\hat{s}_{ij} = 8,78$), Марварид х Ғузор ($\hat{s}_{ij} = 8,02$), Ғузор х Л-167 ($\hat{s}_{ij} = 3,26$) комбинацияларида қайд этилди. Юқорида келтирилган дурагай комбинацияларда ЎКҚ мусбат, қолган комбинацияларда эса манфий кўрсаткичларга эга бўлди. Энг кичик ЎКҚ кўрсаткичи F_1 Ғузор х Бўстон ($\hat{s}_{ij} = -17,61$) комбинациясида қайд этилди.

Тажрибамизда ўрганилган ғўза навларида 1000 дона чигит оғирлиги белгиси бўйича УКҚ самараси (\hat{g}_i) турлича бўлди (3-жадвал). Юқори ижобий УКҚ Марварид ($\hat{g}_i = 2,3$) ва Ғузор ($\hat{g}_i = 2,8$) навларида аниқланди, ҳолбуки бу навларда белгининг ўртача кўрсаткичи ҳам бошқа навлардан юқори бўлган эди. Энг паст УКҚ самараси Сурхон-14 навида ($\hat{g}_i = -2,5$) ва Л-167 ($\hat{g}_i = -2,6$) тизмасида қайд этилди.

3 - жадвал

Ингичка толали ғўза навларида 1000 дона чигит оғирлиги белгиси бўйича УКҚ самараси (\hat{g}_i)

♀ \ ♂	Марварид	Ғузор	Бўстон	Сурхон-14	Л-167	\hat{g}_i
Марварид	-	0,4	1,2	1,3	-4,7	2,3
Ғузор	-	-	-0,3	5,7	-7,5	2,8
Бўстон	-	-	-	1,2	-4,4	0,0
Сурхон-14	-	-	-	-	2,6	-2,5
Л-167	-	-	-	-	-	-2,6

Тажрибамиздаги ингичка толали ғўза навларининг F_1 дурагайларида 1000 та чигит оғирлиги белгиси бўйича ЎКҚ константининг энг юқори кўрсаткичлари Ғузор х Сурхон-14 ($\hat{s}_{ij} = 5,7$), Сурхон-14 х Л-167 ($\hat{s}_{ij} = 2,6$), Марварид х Сурхон-14 ($\hat{s}_{ij} = 1,3$), Марварид х Бўстон ($\hat{s}_{ij} = 1,2$), Бўстон х Сурхон-14 ($\hat{s}_{ij} = 1,2$) комбинацияларида қайд этилди. Бу дурагай комбинацияларида ЎКҚ мусбат, қолган комбинацияларда эса манфий кўрсаткичларга эга бўлди. Энг кичик ЎКҚ кўрсаткичи F_1 Ғузор х Л-167 ($\hat{s}_{ij} = -7,5$) комбинациясида қайд этилди.

ХУЛОСА

Шундай қилиб, олиб борилган тадқиқотларимиз натижалари ингичка толали ғўзанинг ҳосилли ғўза навлари селекциясида Марварид, Сурхон-14 ва Ғузор навларидан бошланғич ашё сифатида фойдаланиш мумкинлигини кўрсатади.



REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 18-мартдаги “Сурхондарё вилоятида ингичка толали пахта етиштиришни илмий асосда амалга ошириш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-170-сонли Қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28-январдаги “Қишлоқ хўжалиги экинлари уруғчилигини янада ривожлантириш бўйича кўшимча чора тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-206-сонли қарори.
3. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта // -Москва, Агропромиздат, 1985. - С. 351.
4. Литун П.П., Проскурин Н.В. Генетика количественных признаков. Генетические скрещивания и генетический анализ //Учебное пособие. Киев. УМКВО. 1992. -С. 96.
5. Abdel-Monaem, M.A., Abido, W.A. E. Hadhzy, A., Ghoneima, M.H. EL-Mansy Y.M. & EL-Shazly, M. W. (2020). Genetic divergence among Egyptian cotton genotypes under water deficit conditions // Acta Ecologica Sinica, <https://doi.org/10.1016/j.chnaes.2020.11.007>.
6. Abdullaev Al.A., Abdullaev A.A., Salakhutdinov I.B., Rizaeva S.M., Kuryazov Z.B., Ernazarova D.Q., Abdurakhmonov I.Y. Cotton Germplasm Collection of Uzbekistan// The Asian and Australasian Journal of Plant Science and Biotechnology . 2013. - №2. - P. 15.
7. Abro S., Kandhro M.M., Laghari S., Arain M.A. and Deho Z.A. Combining ability and heterosis for yield contributing traits in upland cotton *G.hirsutum* L. // Pak.J.Bot., 2009. 41(4); -P.1769-1774.
8. Beil G.M., Atkins R.E. Inheritance of quantitative characters in grain sorghum // Iowa State Journal of Science., V.39.-№3. 1965.– P. 345-358.
9. Deyi Shao, Tao Wang, Haiping Zhang, Jiam EI Zhu, Feiyu Tang Genetic variability and Heritability Study in F₂ Segregants of Desi Cotton for Yield and its Component Traits.// Journal Botany. - Pakistan. 2016. - №48. - P. 1945-1949.
10. Griffing B.I. Concept of general and specific combining ability in relation to diallel crossing systems. Austr. Journ. Biol Sci., 1956, vol.9. –P.463-493.
11. Imran, M., A. Shakeel, F.M. Azhar, J. Farooq, M.F. Saleem, A. Saeed, W. Nazeer, M. Riaz, M. Naeem and A. Javaid. 2012. Combining ability analysis for within-boll yield components in upland cotton (*Gossypium hirsutum* L.). Genet. Mol. Res. 11:2790-2800.
12. Jawahar T.G., Patil B.R. Genetic variability and Heritability Study in F₂ Segregants of Desi Cotton for Yield and its

Component Traits.// International Journal of Current Microbiology and Applied Sciences. 2017.- №6. - P. 2679-2684.

13. Karademir C., Karademir E., Ekinçi R. and Gencer O. Combining ability estimates and heterosis for yield and fiber quality of cotton in line x tester design. Not.Bot.Horti Agrobo.Cluj-Napoca, 2009. 37(2):-P.228-233.

14. Yehia, W. M. and El-Hashash, E. F. (2019). Combining ability effects and heterosis estimates through line x tester analysis for yield, yield components and fiber traits in Egyptian cotton. Elixir Agriculture, 131, Pages. 53238-53246.

15. Rehman A., Mustafa N., D.X. and Azhar M.T. (2020). Heritability and correlation analysis of morphological and yield traits in genetically modified cotton. Journal Cotton Research, 3(23), 1-9. <https://doi.org/10.1186/s42397-020-00067-z>

16. Singh S., Singh V.V. and Choudhary A.D. Combining ability estimates for oil content, yield components and fibre quality traits in cotton *G.hirsutum* L. Using an 8x8 Diallel Mating Design. //Tropical Subtropical Agroecosystems. 2010. 12.-P.161-166.

17. Zhang J.F., A. Abdelraheem., Wu J.X. Heterosis, combining ability and genetic effect, and relationship with genetic distance based on a diallel of hybrids from five diverse *Gossypium barbadense* cotton genotypes.// Journal Science Business Media. 2017. - P. 1-16.

18. (<http://tadbirkor-fermer.uz/ingichka-tolali-uza-ustirish/>).

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE MEMORY OF PRIMARY SCHOOL CHILDREN

Makhliyo Zokir kizi Nurillayeva

3rd year student, Primary education, Karshi State University

ABSTRACT

This article discusses about memory, which is one of the characteristics of children of primary school age, and its strengthening during the lesson. Pedagogical recommendations were given to strengthen students' memory through interesting games and exercises.

Keywords: Memory, attention, thinking, sensory memory, exotic memory, tactical memory, long-term memory, short-term memory, etc.

INTRODUCTION

The decree No. PF-5712 aimed at improving the education system in our country "On approval of the concept of development of the public education system of the Republic of Uzbekistan until 2030" includes a plan to include the Republic of Uzbekistan in the ranks of the 30 most developed countries in the field of education. Improving the quality of education and raising it to a new level in order to achieve the goal is one of the urgent tasks. It is important to develop the psychological characteristics of students, such as memory, attention, and thinking.

The mental process of remembering and retrieving perceived objects and events or past experiences is called memory. According to scientists, there are no folds in the cerebral hemispheres of a newborn baby. Memory is formed in the child when he gradually begins to understand the events around him. These memories serve to form folds in the cerebral hemispheres, and the child begins to comment on the surrounding events. Remembering in children is strongly developed compared to other ages. Developing the ability to remember creates the foundation for a strong memory.

MATERIALS AND METHODS

The strong memory in children is explained by their curiosity. Every unfamiliar thing in nature attracts a child. As a result, the child wants to find answers to the questions that interest him, to approach the events around him in his own way. Inquisitive children have a better memory than their peers. Because when such children find answers to the questions

they are interested in, they will definitely keep it in their memory. Children's memory is greatly influenced by the external environment. Due to the fact that everyone's childhood was spent in different environments, some children have a very high ability to remember, some children have an average memory, and others have a very low memory. Not only the external environment, but also the internal environment plays a big role in strengthening the child's memory. If a child has high curiosity, he remembers things and events faster. The child should be interested in such a way that his attention is focused only on that thing. A child can concentrate only if he has a strong interest. Attention serves to store information in the child's memory. Children of preschool age have a high level of interest. At the same time, everything they need to remember should be shown in an interesting way for them. The child easily remembers the event that he was a direct participant in. Feeling objects with the help of sensory organs helps to keep these objects in the child's memory faster. Children of this age are interested in holding everything because of their low sense of fear.

At primary school age, children's ability to remember is much more developed. Therefore, in the first class, the main attention is paid to the following directions:

- speech;
- memory;
- logic and mathematics;
- concentration;
- reading;
- physical health.

A child's memory works "inside" intuition and perception. Memory first appears in print, then recognition, and is characterized by short-term storage. That's why there are frequent repetitions at this time. The use of various games and methods will give faster results. Games for remembering numbers or objects in pictures are widely used to strengthen memory. It helps the child to concentrate. Counting is also considered a good exercise to strengthen memory. In this case, numbers from 1 to 20 or from 20 to 1 should be counted in parallel. For example: 1, 20, 2, 19, 3, 18 and so on. Repeat this exercise every day and increase it to 10 and reach 100. Another method that is useful for memory is the "clap-handed" exercise, which requires more use of the right hand for clumsier people, and more of the left hand for others. With this exercise, the brain works better and memory recovery is improved.

RESULTS AND DISCUSSION

What is remembered is the material of memory, and what is remembered and recalled is the content of memory.

There are 3 main types of memory:

1. Sensory memory. Sensory memory helps to remember impressions of information.

In turn, touch memory is divided into several types.

Also known as visual sensory memory, "iconic memory" involves a very brief image.

"Echoic memory" is also known as auditory sensory memory. This type of sensory memory can last up to three to four seconds.

"Tactile memory" involves a very short period of sensory memory. This type of touch memory lasts about two seconds.

2. Short-term memory. Short-term memory is a type of human memory in which you can retain only a small amount of information. The duration of information storage with one-time perception is estimated in a few seconds. Short-term memory is also called primary or active. Short-term and long-term memory are opposites, they differ in the time of information storage.

The amount of short-term memory is very limited and it stores an average of 7 +/- 2 memories. The breadth of short-term memory is unique and lasts throughout life. Short-term memory is capable of processing a large amount of information and discards redundant information.

3. Long-term memory. Long-term memory can store traces of pictures for a very long time and allows them to be used in future activities. There are specific types of this mental process: biological, episodic, associative, reproductive, reconstructive, autobiographical.

Psychologists Carol Ames and Carol Dueck found that when parents and teachers emphasize a privilege, children's interest immediately fades.

What to start with?

Re-motivation to study is a long-term process and its success depends mainly on the parents. Memory refers to the psychological process of remembering, retaining, and re-creating thoughts, feelings, and images of events and things that are then understood. Developing a child's memory is a condition of successful teaching. Therefore, parents should deepen and teach this important process.

Today, the main causes of memory impairment that are not associated with serious diseases are:

- chronic fatigue (chronic fatigue syndrome)
- Psychoemotional stress (stress)
- harmful habits
- poor nutrition

The simplest and most delicious product that helps to strengthen memory is a banana. Just give the child 1 banana on an empty stomach and 1 banana before bedtime. Banana substances have a positive effect on blood circulation in the brain and the nervous system. In addition, eating bananas can help relieve stress, which is one of the causes of memory loss in children.

CONCLUSION

In conclusion, it is important to take into account their individual characteristics and deal with each student separately in order to strengthen the memory of children of primary school age.

REFERENCES

1. Ivanov PI, Zufarova ME General psychology. Textbook for undergraduate students of pedagogy and psychology. Tashkent-2004.
2. Kholnazarova MX, Mukhlibayev MK Age and pedagogical psychology. Textbook. Tashkent-2014.
3. Nishanova ZT, Kamilova NG and others. Developmental psychology. Pedagogical psychology. Textbook. Tashkent-2018.
4. www.eduportal.uz
5. www.ziyonet.uz
6. www.kitobsevar.uz

ВЕРМИКУЛИТ АСОСИДА ОЛИНГАН ИОНИТГА НИКЕЛ (II) ИОНЛАРИ СОРБЦИЯСИНИНГ ПСЕВДО-БИРИНЧИ ВА ПСЕВДО-ИККИНЧИ ТАРТИБЛИ КИНЕТИК МОДЕЛЛАРИ

Обид Хамзаевич Турсунмуратов

Чирчиқ давлат педагогика университети, таянч докторант

Фаёза Турғун кизи Хуррамова

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

АННОТАЦИЯ

Вермикулит асосида олинган ионитга сунъий эритмалардан Ni^{2+} ионларининг ютулиш қонуниятлари тадқиқ қилинди. Тадқиқот натижалари асосида металл ионларининг ионитга сорбциясини псевдо-биринчи ва псевдо-иккинчи тартибли кинетик моделлар ўрганилди. Олинган кинетик параметрлар жараённинг псевдо-биринчи тартибли моделга бўйсунгани ҳамда, вермикулит асосида олинган ионитга Ni^{2+} ионлари сорбцияланиши аниқланди.

Калит сўзлар: Вермикулит, сорбция, ионит, никел иони, кинетика, псевдо биринчи ва иккинчи кинетик модел.

КИРИШ

Бугунги кунда энг катта экологик муаммолардан бири бу саноат чиқинди сувлари таркибидаги зарарли ва хавfli моддаларнинг ортиб бораётганлигидир. Экотизимдаги ифлосланиш сув ва шу билан ўсимликлар ва ҳайвонларнинг ҳаёти сезиларли таъсир қилади. Энг ёмон ифлосланитирувчи моддалардан баъзилари табиий жараёнлар ва антропоген фаолият натижасида атроф-муҳитга чиқариладиган оғир металл ионлари ҳисобланади. Бу металл ионлари тўпланиши туфайли, ҳатто кичик концентрациялар ҳам тирик организмлар ҳолатини сезиларли даражада ёмонлаштириши мумкин муҳитни ҳосил қилади. Кўпгина саноат тармоқларидан чиқадиган оқова сувлар таркибида турли хил оғир металлларнинг деярли барчасини учратиш мумкин. Айниқса Co^{2+} , Cr^{3+} , Cu^{2+} , Ni^{2+} , Pb^{2+} , Zn^{2+} каби ионларнинг бундай сувлардаги концентрацияларининг ошиши атроф муҳитга зарарли таъсир кўрсатмоқда. Ушбу ифлосланитирувчи моддаларнинг ортиб бораётганлиги уларни чиқинди сувлар таркибида олиб ташлашни талаб қилади [1].

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Сувли эритмалардан оғир металлларни олиб ташлашнинг бир қанча усуллари мавжуд. Уларга анъанавий



усуллар: филтрлаш, коагулятсия ва ион алмашинуви. Бу усуллардан ион алмашинув усули муқобил усуллардан биридир. Металл ионларини олиб ташлашнинг ион алмашинув усули технологиялари, бу ҳатто паст концентрацияли металл ионлари учун ҳам самарали усул ҳисобланади. Сўнгги пайтларда тадқиқотлар "табиий ион алмашинувчи материаллар" га яъни табиий сорбентларга қаратилмоқда [2].

Сорбентларнинг табиий келиб чиқишига алоҳида эътибор берилишига асосий сабаб сотиб олиш харажатларининг камлиги ва фойдаланиш имкониятининг кенглиги қулай ҳисобланади. Табиий адсорбентлардан биосорбентлар, алуминосиликатлар ва сеолитлар кўп тарқалган. Алюмосиликат ҳисобланган гил минераллари табиий адсорбентларнинг энг муҳим гуруҳидир. Гил минералларидан фойдаланишнинг асосий афзаллиги уларнинг нисбатан осон топилиши ва табиий келиб чиқиши, ишлаб чиқариш нархининг пастлиги ва термик ва механик қаршилигининг юқорилиги ҳисобланади. Гил минералларига мисол қилиб гидратланган вермикулитларни келтириш мумкин. Бу минерал таркибида асосан магний ва темир силикатлар учрайди.. Вермикулит металл ионларни олиб ташлаш учун яхши адсорбентлардан бири ҳисобланади [3].

Лой ва гил минераллар бир қанча табиий кўринишлари учрайди, масалан, монтмориллонит, вермикулит, иллит, каолинит ва бентонит муқобил сифатида танилган бир неча сабабларга кўра оғир металлларни адсорбциялаш учун ишлатиладиган материаллар иқтисодий афзалликлар ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари, масалан катта ўзига хос сирт юзаси, мукамал физик ва кимёвий барқарорлик хусусиятларига эга.

Бошқа арзон нархлардаги адсорбентлар ҳам ўрганилган, буларга биоадсорбентлар гуруҳига мансуб сув ўтлари ва хитозан мисол бўла олади. Лекин уларнинг самарадорлиги гил минералларидек эмас. Гил минералларидан вермикулит юқори самарадор сорбент ҳисобланади [4].

Вермикулитнинг келиб чиқиши ва тарқалиш таснифи мавжуд бўлиб, улар слюда минераларини учта асосий гуруҳга ажратади: каолинит гуруҳи, иллит гуруҳи ва смектит-вермикулит гуруҳи. Смектит-вермикулит гуруҳларига мансуб вермикулит асосан калийли биотит, флогопитдан тозалаш натижасида ҳосил бўлади.

Вермикулитлар одатда жигарранг рангда ва бронза кўринишида бўлади. Аслида ранг, таркибий қисмларнинг миқдорига боғлиқ бўлади. Компонентларнинг турига ва нисбатларига қараб, қора рангдан тўқ жигар ранггача ва ҳаттоки яшил, сариқ ва

сарғиш-жигар ранггача ўзгаради. Минераларнинг таркибидаги фарқлар нафақат рангга, балки баъзи бошқа хусусиятларга ҳам таъсир қилади [5].

Вермикулит гидратланган алюминий ва магний силикатига эга бўлиб, ҳарорат $650-1000^{\circ}\text{C}$ гача қиздирилганда, вермикулитнинг зарралари қатламлар ва структуравий сувларнинг буғга айланиши туфайли асл ҳажмига нисбатан 8-30 барабар кенгайди. Совутгандан сўнг кенгайтирилган вермикулит янги ҳажмини сақлайди. Кенгайтирилган вермикулит зарралари ҳаво бўшлиқлари билан ажратилган ингичка плиталар сифатида қаралади. Вермикулит ёрдамида ишлаб чиқарилган материаллар ва маҳсулотлар кислота таъсирида ёнмайдиган, биологик ва нейтрал бўлиб, деформацияга чидамлилиги билан барқарор кучга эга ҳисобланади. Кенгайтирилган вермикулитнинг ўзига хос тортишиш кучи жуда паст. Ундан полимер асосидаги композициялар ишлаб чиқаришда фойдаланиш мумкин бўлади [6].

Хозирги кунгача вермикулитни сорбциялаш хоссалари, чиқинди сувларни тозалашда қўллаш кенг ўрганилиб келинмоқда ва тажриба натижалари уни Pb(II), Cd(II), Cu(II) ва бошқалар каби оғир металлларни чиқинди сувлардан тозалаш учун мос адсорбент эканлигини ўрганилган. Вермикулитга оғир металлларнинг адсорбцияси эндотермик жараён дир. Табиий “слюда” металл катионларининг адсорбцион механизмларига асосланиб, турли хил ишларда кўриб чиқилган ва энг муҳим адсорбцион жойлар базал жойлар ва кристалларининг чеккаларида жойлашган гидроксил жойлар эканлиги ўрганилган [7].

Вермикулитлардаги катион алмашилиш қобилияти, бу сирт ва қатламлараро ион алмашинуви жараёнлари ҳамда изоморфик алмашилиш натижасидир. Юқори сирт майдонлари билан боғлиқ бўлган бундай хусусиятлар ушбу материалларни саноат ва маиший чиқиндилардан оғир металл ионларини олиб ташлаш учун адсорбент материаллар сифатида ўрганилган. Вермикулитнинг катион алмашилиш сиғим даражаси қатлам ва ташқи юзада мавжуд бўлган алмашинадиган катионлар миқдорига боғлиқ бўлади. У доимий манфий заряд, катта сирт майдонларининг хусусиятларига ва катионларнинг сорбцияланиш қобилиятига эга, масалан, юқори катион алмашилиш қобилияти (120-140 ммол/мг) га тенг дир [8].

Оддий вермикулитнинг катион алмашилиш сиғим қиймати 89 смол (+)/кг эканлиги ҳам ўрганилган бўлиб, бу вермикулитлар учун характерли бўлганидан пастроқ қиймат (аслида 100-200 смоль (+)/кг га етади). Аммо маълумки, Палабора вермикулити таркибида ҳам, марказий жойларида ҳам ўзгарувчанликни намоён қилади. Палабора

вермикулит соф вермикулит эмас, аксинча, флогопит / биотитнинг сувли гидратациясини перколяция қилиш натижасида ҳосил бўлган аралаш қатламли вермикулит-биотитдир. Биотитнинг қатламлараро фазасида мустақкамланган K^+ катионларидан фарқли ўлароқ, вермикулитлардаги гидратланган қатламлараро ионлар нисбатан осон алмашинади[9].

Турли хил ишларда вермикулитнинг адсорбцион қобилияти оғир металлларга нисбатан эритманинг рН га боғлиқлиги ва адсорбцион сифим эритманинг рН даражаси ошиш сабаби кўрсатилган. Вермикулитнинг адсорбцион кучига ҳароратнинг оғир металлларга (Mn(II), Cd(II), Cu(II), Pb(II), Ni(II), Zn(II), Co(II), Cr(III), Fe(II), Al(III), Ca(II) ва Mg(II)) нисбатан таъсири ўрганилган. Ўзгартирилган вермикулитда Cd(II), Cu(II), Cr(III), Pb(II) ва Zn(II) ни адсорбциялаш қобилияти ҳарорат ошиши билан ортиб бориши аниқланган [10].

Ушбу илмий ишда никел ионларининг адсорбенти сифатида вермикулитдан фойдаланиш имкониятини ўрганиб чиқилди. Бунинг учун сунъий эритмалардан рангли металл ионларини ажратиб олишда Вермикулит асосида олинган ионитдан фойдаланилди. Бунда ионитга Ni^{2+} ионларини сорбция жараёнларининг механизмларига турли омилларнинг таъсири ўрганилди.

НАТИЖА ВА МУҲОКАМА

Вермикулит асосида олинган ионитга сунъий эритмалардан Ni^{2+} ионларининг сорбцияси ўрганилди. Бунинг учун $Ni(NO_3)_2 \cdot 6H_2O$ кристаллигидратларидан фойдаланиб Ni^{2+} ионларининг 0,1; 0,05; 0,025; 0,0125 моль·л⁻¹ концентрацияли эритмалар тайёрланди ва тайёрланган сунъий эритмалардан металл ионларининг сорбция давомийлиги 30, 60, 90, 120, 150, 180, 210, 240, 270, 300 мин ва 12, 24 соатларда ўрганилди. Бунинг учун HCl бўйича статик алмашилиш сифими 2,5 мг-экв г⁻¹ бўлган қуруқ сорбент 0,3 г дан аналитик тарозида ўлчаб олиниб, ҳажми 250 мл бўлган конуссимон қолбаларга солинди ва 100 мл дан туз эритмалари қуйилди. Сорбциядан олдинги ва кейинги эритмалардаги металл ионларининг концентрация ўзгариши *Спектрофотометр (Mikroplanshet rider Perkin Elmer)* (АҚШ) ёрдамида аниқланди (Ni^{2+} учун 720 нм тўлқин узунлиқда).

Сорбентга ютилган металл иони миқдори қуйидаги тенглама орқали ҳисоблаб чиқилган.

$$q_e = \frac{(C_0 - C_p)}{m} \times V$$

Бунда: q_e –ионитга ютилган металл иони миқдори моль/г, C_0 – металл ионларининг дастлабки концентрация моль/л, C_p – металл ионларининг мувозанат концентрацияси моль/л; V – эритма ҳажми л; m – куруқ сорбент массаси(г) [11].

Маълумки сорбция жараёнининг механизмини (кимёвий реакция тезлиги, диффузияни бошқариш ва масса узатилишини) аниқлашда кинетик моделлардан фойдаланилади. Сўнгги йилларда турли хил кинетик моделлар псевдо биринчи тартибли, псевдо иккинчи тартибли ва бошқа бир қанча усуллардан фойдаланилмоқда. Бунинг учун хлорид кислота бўйича САС қиймати 2,5 мг-экв/г бўлган вермикулит асосида олинган ионит ишлатилди.

Ушбу ишда қуйидаги кинетик моделлардан фойдаланилди


Псевдо-биринчи тартибли кинетик модель

Псевдо-биринчи тартибли кинетик модел қуйидаги Лагергрэн тенгламаси билан ифодаланади:

$$\log(q_e - q_t) = \log q_e - \frac{k_1}{2,303} t$$

Бу тенгламада: q_t ва q_e маълум вақтдаги ва мувозанатдаги сорбентнинг металлари сорбциялаган миқдори (мг/г). k_1 -биринчи тартибли сорбция жараёни тезлик константаси (мин^{-1}) бўлиб, $\log(q_e - q_t)$ ва t вақтга нисбатан тузилган чизикли графигида кесишиш қиялигининг бурчак қиймати - $k_1/2,303$ га тенг.

Тажрибада ҳисобланган Ni^{2+} ионларининг ПВХ асосидаги полиамфолитга сорбцияланиш жараёни кинетикаси 1 - расмда, $\log(q_e - q_t)$ ва t вақтга нисбатан тузилган графикдан псевдо биринчи тартибли кинетик параметрларини топиш орқали баҳоланди.



1 - расм. Вермикулит асосида олинган ионитга Ni^{2+} ионлари сорбциясининг псевдо-биринчи тартибли кинетик модели.

Шунингдек Ni^{2+} ионларининг вермикулит асосидаги ионитга сорбцияланиш жараёни кинетикаси псевдо-иккинчи тартибли кинетик параметрларини топиш орқали баҳоланди.

Псевдо-иккинчи тартибли кинетик модель

Псевдо-иккинчи тартибли кинетик моделл қуйидаги тенглама билан ифодаланади [12].


$$\frac{t}{q_t} = \frac{1}{k_2 q_e^2} + \left(\frac{1}{q_e}\right)t$$

Дастлабки сорбция даражаси ($t=0$) қуйидагича топилади:

$$h = k_2 q_e^2$$

Келтирилган тенгламаларда k_2 тезлик константаси, q_e – маълум массали сорбентга ютилган металл ионларининг миқдори (мг/г), t -вақт (минут).

Ni^{2+} ионларининг вермикулит асосидаги ионитга сорбцияланиш жараёни кинетикаси 2 - расмда t/q_e ва t вақтга нисбатан тузилган графикдан псевдо-иккинчи тартибли кинетик параметрларини топиш орқали баҳоланди.



2 - Расм. Вермикулит асосидаги ионитга Ni^{2+} ионлари сорбциясининг псевдо-иккинчи тартибли кинетик модели.

Вермикулит асосидаги ионитга Ni^{2+} ионларининг сорбцияланиш жараёни кинетикаси юқорида келтирилган 1 ва 2 - расмлардан фойдаланиб топилган тезлик константалари (k_1 ва k_2) ва корреляция коэффициентлари (R^2) 1 - жадвалда келтирилган.

1 - жадвал.

Вермикулит асосидаги ионитга Ni^{2+} ионлари сорбциясининг кинетик кўрсаткичлари ва фаолланиш энергияси.

Сорбент	Металлар	Дастлабки конс. (моль/л)	Псевдо-биринчи тартибли			Псевдо-иккинчи тартибли			E_a кЖ/моль
			Мувозана т адсорбция миқдори q_e (мг г ⁻¹)	k_1 (мин ⁻¹)	R^2	Мувозана т адсорбция миқдори q_e (мг г ⁻¹)	k_2 (г мг ⁻¹ мин ⁻¹)	R^2	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Вермикулит асосида ионит	Ni^{2+}	0,0125	92,8	0,006828	0,787 1	80	0,00578	0,6775	
		0,025	121,2	0,006898	0,893 1	102,5	0,00645	0,6799	19,8
		0,05	145,9	0,007784	0,849 9	128,5	0,007514	0,6957	
		0,1	164,8	0,007304	0,927 1	138,1	0,007578	0,6975	
		Ўртача k_1 ва k_2				0,007203		0,00688	

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Мазкур олиб борилган кинетик тадқиқотларда Вермикулит асосида олинган ионитга сунъий эритмалардан Ni^{2+} ионларини сорбцияси псевдо-биринчи псевдо-иккинчи тартибли кинетик моделларнинг тезлик константалари ҳисоблаб топилди. Тадқиқотларда кўринадики ионларнинг ионитга ютилиши псевдо-биринчи тартибли кинетик моделга бўйсунганлигидан далолат беради, ҳамда псевдо- биринчи тартибли кинетик моделнинг корреляцион коэффисенти тегишли равишда Ni^{2+} ($R^2=0,7871-0,9271$), псевдо- иккинчи тартибли кинетик моделнинг корреляцион коэффисенти Ni^{2+} ($R^2=0,6775-0,6975$) қийматлар тенлиги аниқланди. Бу эса Ni^{2+} ионларинг Вермикулит асосида олинган ионитга сорбцияланишида металл ионлари билан бир қаторда сорбент таркибидаги амина гуруҳ ҳам таъсир кўрсатганлигидан далолат беради. Шунингдек эритмалардаги адсорбция константаси қийматининг ҳарорат таъсирида ўзгаришини Аррениус қўйидаги тенглама орқали ифодалади [13,14].

$$\ln k_2 = \ln A_0 - E_a / RT$$



Бу ерда: A_0 экспонентал фактор, E_a - фаолланиш энергияси ва k_2 (г/мг мин) турли ҳароратлардаги псевдо-иккинчи тартибли кинетик константа.

Сорбция жараёнида металл ионларининг фаолланиш энергияси никель иони учун 19,8 кж/моль қийматлар асосида жараён сорбцияси Ni^{2+} учун фаолланиш энергияси аниқланди. Металл ионларининг сорбцияси металл катионлари ва ионит таркибидаги $>NH$ гуруҳлари орасидаги координацион боғланиш асосида боради. Бундан ташқари оралиқ металл ионлари ионит билан координацион боғ ҳосил қилиш кучи ҳам муҳим аҳамиятга эга. Шундай қилиб Ni^{2+} ионлари ионитга ютилиши аниқланди. Бу эса олинган ионитни саноат миқёсида оқова сувлар таркибидан металл ионларини ажратиш олиш имконини беради.

REFERENCES

1. Модификация гиалуроновой кислоты ХГ Курбанов, НН Ахмедова, НЖ Сагдиев, ОХ Турсунмуратов, *Universum: химия и биология*, 32-36
2. Tursunmuratov, O. X. (2022). Vermikulit asosida olingan ionitga statik sharoitda oraliq metall ionlarining sorbsiyasi. *Science and Education*, 3(12), 182-188.
3. Tursunmuratov O. Jurayev M. Bekchanov D. Mukhamediev M. Kinetics and isotherm of Cu^{2+} ion sorption on a new sorbent obtained on the basis of vermiculite *Universum технические науки, Москва, 2022, Issue: 12(105), 44-48 pages.*
4. Турсунмуратов О.Х., Қутлимуратов Н., Хушвақтов С., Бекчанов Д.Ж. Вермикулит асосида олинган янги ионитга Cu^{2+} ионларининг сорбция кинетикаси *Proceedings of the International Conference «Innovative approaches to the development of educationproduction Cluster in the oil and gas field» Tashkent 2022. pp-153*
5. Tursunmuratov Obid Xamzayevich, Bekchanov Davronbek Jumazarovich Vermikulit asosid a olingan ionitga Ni^{2+} ionlarining sorbsiya kinetikasi va izotermasi *Koordinatsion birikmalar kimyosining hozirgi zamon muammolari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy–amaliy konferensiya materiallar to’plami, Buxoro 2022 22-23-dekabr, 511-515 bet*
6. Tursunmuratov Obid Xamzayevich, Bekchanov Davronbek Jumazarovich Kinetics and isotherm of Cu^{2+} ion sorption on a new sorbent obtained on the basis of vermiculite *Koordinatsion birikmalar kimyosining hozirgi zamon muammolari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy–amaliy konferensiya materiallar to’plami, Buxoro 2022 22-23-dekabr, 511-515 bet*
7. О.Х.Турсунмуратов, Ф.Т.Хуррамова, Д.Ж.Бекчанов. Вермикулит асосида олинган ионитга Cu^{2+} ионларининг



сорбция изотермаси II International scientific and scientific-technical conference. Problems and prospects of Innovative technique and technology in agri-food chain. Tashkent 2022. pp-163

8. Мухамедиев М. Г., Хушвактов С.Ю., Жураев М. М. и, Ботиров С. Х., Бекчанов Д. Ж. Кинетика сорбции ионов меди (II) и никеля (II) полиамфолитом на основе поливинилхлорида UNIVERSUM 2021/12/25

9. Хушвактов, С. Ю. У., Жураев, М. М. У., Сагдиев, Н. Ж., Бекчанов, Д. Ж., & Мухамедиев, М. Г. (2019). Сорбция ионов меди (II) и никеля (II) на азот-и серосодержащем полиамфолите. Universum: химия и биология, (11-1 (65)), 66-70.

10. Бекчанов Д. Ж., Мухамедиев М. Г. СОРБЦИЯ ИОНОВ СВИНЦА (II) НОВОГО ПОЛИКОМПЛЕКСОНА СОДЕРЖАЩИЙ АМИНО-И СУЛЬФОГРУППЫ //Главный редактор: Ахметов Сайранбек Махсутович, д-р техн. наук; Заместитель главного редактора: Ахмеднабиев Расул Магомедович, канд. техн. наук; Члены редакционной коллегии. – 2022. – С. 48.

11. Juraev, M. M., Botirov S. Kh, and S. Y. Khushvaqto. "SEPARATION OF Cu (II) AND Ni (II) IONS FROM TECHNOLOGICAL SOLUTIONS USING POLYVINYL CHLORIDE BASED ION EXCHANGER." (2022).

12. Суюн, Ю. У. Х., Жураев, М. М. У., & Эштурсунов, Д. А. (2022). ПОЛИВИНИЛХЛОРИД АСОСИДАГИ ПОЛИАМФОЛИТГА МИС (II) ВА НИКЕЛ (II) ИОНЛАРИНИНГ СОРБЦИЯСИНИНГ ПСЕВДО-БИРИНЧИ ВА ПСЕВДО-ИККИНЧИ ТАРТИБЛИ КИНЕТИК МОДЕЛЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3(10), 5-13. Qutlimuratov N. M. MAHALLIY XOMASHYO VA CHIQUINDILAR ASOSIDA OLINGAN IONITLARNING KIMYOVIY BARQARORLIGI //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 639-647.

14. Кутлимуратов Н. М., Матчанова Г. О. ПОЛИВИНИЛХЛОРИД ПЛАСТИКАТИ ҲАМДА ЧИҚИНДИЛАР АСОСИДА ОЛИНГАН АНИОНИТГА Mn (VII) ИОНИНИНГ СОРБЦИЯ ИЗОТЕРМАСИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 1063-1071.

15. Qutlimuratov N. M., Tursunmuratov O. X., Bekchanov D. J. Polivinilxlorid plastikati asosidagi anionitning fizik-kimyoviy xossalari //SamDU ilmiy axborotnoma Samarqand. – 2020. – Т. 5. – С. 22-26.

UILYAM FOLKNER GUMANIZMINING O‘ZIGA XOSLIGI

Sitora Ikrom qizi Akramova

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti 2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada XX asr Amerika adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Uilyam Katbert Folkner ijodining o‘ziga xosligi, adib asarlarida insonparvarlik g‘oyalarining badiiy tadqiqi ko‘rsatilgan. Folkner asarlaridagi insonparvarlik g‘oyalari uning romanlari tarkibiga kirgan hikoyalari misolida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Уилям Фолкнер, Фолкнер хикоялари, инсонпарварлик, гуманизм, АҚШ адабиёти.

ABSTRACT

The article shows the uniqueness of the work of William Cuthbert Faulkner, one of the great figures of American literature of the 20th century, and the artistic research of humanitarian ideas in his literary works. The ideas of humanity in Faulkner's works are analyzed on the example of the stories included in his novels.

Keywords: William Faulkner, Faulkner stories, humanitarianism, humanism, US literature.

KIRISH

Adabiyot bo‘yicha Nobel mukofoti sovrindori, atoqli amerikalik yozuvchi Uilyam Folkner (Uilyam Folkner, 1897-1962) nomi haqli ravishda XX asr AQSh adabiyoti tarixida birinchi o‘rinlardan birini egallaydi. O‘tgan asr Amerika nasrida “Yoknapatof” siklida o‘xshashi bo‘lmagan roman, qissa va hikoyalar muallifi U.Folkner adabiy ongning zamonaviy ingliz tilida shakllanishiga, badiiy kashfiyotlar yaratilishiga jiddiy hissa qo‘shdi. Yozuvchi tomonidan yaratilgan asarlar 1950-90-yillarda Amerika adabiyotining rivojlanish xususiyatini sezilarli darajada aniqlab berdi.

Folkner har qanday yo‘l bilan ham o‘z “dunyosi” chegaralarini chetlab o‘tishga, o‘zining mittigina, “pochta markasi o‘lchamidagi” vatanining bir bo‘lagini nafaqat makonda, balki zamonda ham o‘rganishga harakat qildi. Folkner Amerika adabiy an'analarning qiyosan qisqaligini, Amerika tarixining o‘zining qisqaligini juda yaxshi bilgan va shuning uchun bu nisbatan tor tarixiy doiralar ichida har bir fakti, har bir epizodni tarixiy nuqtai

nazardan qo'yishga, o'tmishga va kelajakka aylantirishga juda qat'iylik bilan intiladi.

U.Folkner nasrining muhim sahifasini uning hikoyalari tashkil etadi. Yozuvchi XIX asrda V.Irving, E.A.Po, N.Gotorn, asr boshida M.Tven va S.Kreyn, XX asrda S.Anderson ijodida rivojlangan amerika qissalari an'analarini davom ettirish bilan birga, kichik nasrning ko'pchilik zamondoshlari va izdoshlaridan sezilarli darajada ajratib turadigan takrorlanmas o'ziga xos hikoya qilish uslubini yaratadi.

U.Folkner hikoya va qissalarni nafaqat tirikchilik maqsadida yozgan. U bu janrni juda yaxshi ko'rar edi, ko'plab hikoyalar keyinchalik uning romanlari tarkibiga kirdi. Folknerning "Bu o'n uchta" (1931), "Muso" (1942) to'plamlari, 1950-yilda Milliy kitob mukofotiga sazovor bo'lgan "Hikoyalar to'plami" nashr etilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

U.Folknerning ilk she'rlar kitobi 1924-yilda nashr etilgan. Birinchi romani "Askar mukofoti" 1926-yilda nashr etilgan. "Sartoris", "Shovqin va qahr", "O'lim to'shagida", "Ibodatgoh", "Avgust yog'dusi", "Avessalom, Avessalom!", "Qishloq", "Shahar", "Qo'rg'on", "Muso, kel", "Naql" singari yirik romanlar, hikoyalar hamda qissalar muallifi. Nobel mukofoti sovrindori. Ibrohim G'afurov XX asrning saksoninchi yillarida Folknerning "Emili uchun atirgullar", "To'zonli sentyabr", "Uosh", "Qora musiqa" singari hikoyalarini o'zbek tiliga tarjima qilgan edi.

Uilyam Folkner ijodi ko'plab adabiyotshunoslar tomonidan tadqiq etilgan. O'zbekistonda Muhammadjon Xolbekovning "XX asr modern adabiyoti manzaralari" (Jahon adabiyoti va madaniyati 18.09.2018), "Uilyam Folkner romanlari poetikasi" (Xorijiy filologiya jurnali 2022-yil 1-son), "Folkner olami" ("O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi. 2011-yil 43-son), Nazar Eshonqulning "Uilyam Folkner" (2017-yil, 3-may. Ziyouz.uz), A.X.Saidovning "Uilyam Folkner – insonparvar yozuvchi" ("Uilyam Folkner. Qissa va hikoyalar" kitobiga so'zboshi. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2013-yil" maqolalari va boshqa tadqiqotlar orqali o'rganilgan.

"U.Folkner Missisipining sarhadsiz madaniy sahosida yolg'izlikda ishlab,-deb yozgan amerikalik yozuvchi va tanqidchi Jon Oldrij, - o'z ijodi uchun bog' yarata oldi. Yozuvchi bu bog'ni shu qadar mehr bilan parvarish qildiki, u bugungi kunda ham butun insoniyat dunyosidagi mamnun odamlar tasavvurini oziqlantirishda davom ettirmoqda".

Fransiyalik yozuvchi J.P.Sartr esa maktublarning birida Folknerning romanlarini "erishib bo'lmaydigan badiiy jasorat" sifatida baholagan.

Maqolani yoritishda tasniflash, tahlil etish, qiyoslash, xulosalash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, U.Folkner ijodida INSON taqdiri uchun qayg'urish, odamlar boshiga tushadigan kulfatlar, ular hayotida duchor bo'ladigan adolatsizlik va shafqatsizlikni ko'rsatish asosiy o'rinni egallaydi. Buni yozuvchiningo'zi ham suhbatlarining birida "Men mansub bo'lgan yagona maktab - bu insonparvarlik maktabidir" degan edi.

O'smirlik paytidan uyidan chiqib ketib turli ishlarni bajargan, qiyinchiliklar ko'rgan Uilyam Katbert Folknerning bolaligi Mark Tven qahramonlari - Tom Soyer va Gek Finn hayotini eslatadi. Uilyamning bolalik hayoti o'z yoshiga xos bo'lmagan taassurotlar bilan to'la bo'lgan. U ikki marta qora tanlilar qatl etiladigan Linch sudini kuzatgan. Bu dahshatli irqiy fojia yosh Uilyamga qattiq ta'sir qilgan. Buni keyinchalik Amerikadagi irqiy muammo sifatida yozuvchining deyarli har bir asarida ko'tariladi.

Uilyam 1924-yilda "Marmar favn" ("The Marble Fawn") nomli ilk she'rlar to'plamini chiqarganda yozuvchi Shervud Anderson unga shunday maslahat bergan: "Siz, Folkner, qishloqlik yigitsiz. Siz bilgan hamma narsa – Missisipidagi bir qarich yerdir. Ammo shuning o'zi yetarli. Bu ham Amerika". U.Folkner asarlarida tasvirlangan mana shu "bir qarich yer" - yozuvchi tomonidan o'ylab topilgan Missisipidagi Yoknapatofa okrugi o'sha davrdagi Amerika janubi va butun mamlakat timsoliga aylangan. "Yoknapatofa" Chikeso hindularining tilida "vodiya tinch oqadigan daryo" ma'nosini anglatadi. U.Folkner Yoknapatofani Shimoliy Missisipining qadimiy xaritalaridan qidirib topgan. Bu joylardan oqib o'tadigan daryo shunday nomlangan. Yoknapatofa nomining ramziy ma'nosi esa "hamma narsani qamrab oladigan, boshlanadigan va oqib tushadigan joyi bo'lmagan daryo – hayotdir". U.Folkner bu hayot daryosi oqimida "oqib" ona yurti tarixini butun Amerika tarixi bilan bog'laydi. Yozuvchi aytganidek, "mo'jazgina pochta markasidek" keladigan o'z qadrdon yurti hayot manzarasi keyinchalik U.Folkner ijodining bitmas-tuganmas manbaiga aylangan.

Folkner o'z xayolida yaratgan ana shu jimitday okrugda yashovchi barcha odamning botiniy tarixini yozib chiqishni niyat qilgandi. Aslida, bu makon yozuvchi xayoliy va botiniy olamining bir ko'rinishi edi. U shu yo'l bilan o'z dunyosini, adabiyotda esa o'z so'zini yaratishga kirishdi. Yozuvchi bu dunyoni ko'z oldidagi yalang'och, ochko'z, nafsga va kibrga berilgan, bir-biriga bo'rilariday qaraydigan, yovvoyi va shafqatsizliklarga to'lib-toshgan dunyoga, Amerikaning yangicha, tobora texnikalashib, sovuqlashib, moddiylashib borayotgan hayotiga qarama-qarshi tarzda yaratgandi. U bolaligida eshitgan va ulug'langan, ko'z oldidagi yangi dunyo oldida kunma-kun

yo'qolib borayotgan mardlik, oriyat, sha'n, insonparvarlik kabi fazilatlarni ana shu dunyosida saqlab qolmoqchi edi, bunga ma'lum ma'noda erishdi ham.

Hayotni oqayotgan daryoga qiyoslagan Uilyam daryoning sokinligi aldoqchi ekanligi, aslida hayot daryosining muttasil oqimi dahshatli va shafqatsiz ekanligi haqida yozadi. Yozuvchi o'z yurti aholisi sonini bilgan va asarlarida ulardan 600 kishini nomma-nom atab tasvirlagan. Bunda yozuvchi asarlarida o'zi yashagan, bilgan, ko'rgan hayot haqiqatlarini badiiy ifoda etgan. Yozuvchi bu haqda shunday degandi: "Menda keng ko'lamli tarixiy manzaralarni yaratish niyati bo'lmagan, shunchaki qo'l ostimda bo'lgan maqbul asboblardan foydalandim. O'zim yaxshi bilgan narsadan, ya'ni tug'ilgan va hayotimning katta qismi o'tgan joydan foydalandim. Bu xuddi duradgor ish tutganidek - u panjara yasaydigan bo'lsa, yonida yotgan bolg'achadan foydalanadi".

Uilyam Folknerni ijodkor sifatida, eng avvalo, insonning jamiyat bilan o'zaro munosabatlari qiziqtirgan. Uni insonning ruhiy holatlari, u ega bo'lishi kerak bo'lgan axloqiy qadriyatlar qiziqtirgan. "Ziyoratgoh" ("Sanctuary", 1931) romanida shafqatsiz va qalbsiz odam - Katta ko'zli gangster tasvirlangan. "Lekin, — degandi U.Folkner bu hakda, - u men uchun yana bir yuqotilgan insoniy mavjudotdir. U hozirgi davr jamiyatida tasodifan yovuzlik ramziga aylangan, lekin men g'oyalar, ramzlar to'g'risida emas, balki odamlar haqida yozaman".

Yozuvchi "hayotdagi salbiy hodisalarni faqat ularga barham berish uchungina tasvirlash kerak", deb ta'kidlaganini yoddan chiqarmaslik lozim.

U.Folkner 1942-yilda jahon adabiyotida eng mashhur bo'lib ketgan «Ayiq» («The Bear») qissasini yozgan. Har yilning noyabr oyida bir guruh erkaklar o'rmon xo'jayini hisoblangan afsonaviy qari ayiq oviga yo'l oladi. Ruy berayotgan voqyealar o'spirin nigohi bilan tasvirlanadi, o'quvchi ko'z o'ngida uning tabiat bilan til topishga harakat qilishi, o'rmon bilan yakkama-yakka uchrashishga tayyorgarlik ko'rishining betakror lavhalari gavdalanadi. Ushbu asar U.Folknerning uslubi va falsafiy tamoyillarini yaqqol ifoda etgan. Asarda asosiy o'rinni odamlar, yovvoyi hayvonlar emas, balki tabiat - O'rmon egallaydi. U- bosh qahramon, barcha haqiqat va abadiylikning Odam Atosidir. Asardan tabiat bilan bahslashma, uni bo'sundirishga urinma degan xulosa kelib chiqadi. "Ayiq"da insonning tabiat bilan uzaro munosabatlaridagi ruhiy holati ochib berilgan, ona tabiatning zamonaviy mexanizatsiyalashgan sivilizatsiya bosimi ostida qanday halok bo'layotganligi chuqur iztirob bilan tasvirlangan. "Bu asar ramziydir,- degan edi U.Folkner. - Bu faqat bola to'g'risidagina emas, balki zamin, dunyo bilan bahslashish uchun voyaga yetadigan har bir inson mavjudoti haqidagi voqyeadir. Ayiq vahshiylik timsoli emas, balki qarish jarayonidir... Bola bu

ayiqdan ayiqlar to'g'risida emas, balki dunyo, inson, matonat, rahmdillik, mas'uliyat haqidagi narsalarni bilib oladi".

1949-yilda U.Folknerga "Hozirgi davr Amerika romanini rivojlantirishga salmoqli va badiiy jihatdan noyob hissa qo'shganligi uchun" Nobel mukofoti berilgan. Yozuvchi o'ziga bu yuksak mukofot berilishi marosimi uchun yozgan nutqida insoniyat muammolari hamda ijodkorning burchi va mas'uliyati to'g'risida shunday degan: "Men insonning halokatga uchrashi to'g'risidagi fikrni rad etaman... Men inson yo'q bo'lib ketishiga ishonishdan voz kechaman... Men odam faqat hamma uqubatlarga chidabgina qolmasdan, balki g'alaba qozonishiga ishonaman... Bu haqda yozish yozuvchining, shoirning burchidir. Insonning ruhini ko'tarib, uning yodiga matonat, shon-sharaf, g'urur, achinish, rahmdillik - o'tmishda uning qudrati bo'lgan hamma narsalarni yodiga solib, ruhini ko'tarish - yozuvchining faxriy vazifasidir. Shoirning so'zi inson ishlarining shunchaki qorozga tushirilgan yozuvlari bo'lmasligi kerak - u insonga kurashish va g'alaba qozonish uchun yordam beradigan mustahkam tayanch bo'lishi zarur... Inson faqat insoniyat ovozi hiech qachon uchmasligi uchun emas, balki inson o'z xarakteri, qalbi bo'yicha qaygurish, qurbonlikka tayyorligi va matonatligi uchun mangu barhayotdir."

U.Folkner adabiyotda "Amerika orzusi"ni tasvirlar ekan, ruh oqsuyaklarining qator avlodlari hayotini tasvirlaydi. G'urursiz va vijdotsiz, prinsipsiz va e'tiqodsiz, insoniy hissiyotlardan yiroq, ayyor, uddaburon, hayotda puldan boshqa hamma narsani qadrsiz deb bilgan Flem Snoups U.Folknerning boshqa qahramonlaridan farq qiladi.

Adib, aslida, asarlarida o'zi eshitgan afsonalardagi fazilatlarni ko'z-ko'z qilish o'rniga bu fazilatlarning qanday puturdan ketayotganini, o'zining xayolida yaratgan va bobolaridan meros qolayotgan insonparvarlik, g'urur, insoniylik, sha'n tushunchalari tanazzulga yuz tutayotganini ko'rsatib bergan. Folkner bobolari yashagan afsonaviy janubning go'zal o'tmishini va uning axloqini o'zi bilmagan holda asarlari orqali inkor ham eta boshlagandi. Bobosi haqidagi afsonalarda insonlar tabaqalarga bo'linar, zulm va zo'rlik, mustabidlik qahramonlik darajasida sharaflanardi, yozuvchi peshma-pesh o'zi yaratgan afsonalarda inson va uning qalbi ulug'lanar, zulm va mustabidlik qoralanardi.

Yozuvchi Nazar Eshonqul Folkner asarlari qahramonlari haqida shunday fikrlarni bildiradi: "...qahramonlarning yuzida tirikchilik va umr g'uborlari qorishig'ida ko'rinmay yotgan dardchil, muztar qalbni ko'ramiz. Yozuvchi aynan ana shu inson qalbini ko'rsatib berish va ta'riflash uchun asarni yozgandek taassurot uyg'onadi. Aslida ham shunday. Folkner adabiyot inson ko'ngliga hamdard bo'lishi kerakligini ko'p marta

ta'kidlagan, shuning uchun uning asarlari texnikalashgan, aniq o'lchamlarga qurilgan, ma'lum qoidalarga bo'ysundirilgan, hissiyot va shafqatdan, hamdardlik va hamko'ngillikdan xoli yangi hayotga zidma-zid tarzda yaratildi. Bu qahramonlar o'zlarining kichkina, dard va iztirobga to'la qalblarini zamon alg'ov-dalg'ovlaridan yashirib yurgan odamlarga o'xshaydi. Yuzi va zohiridagi zamon hamda beshafqat qismatdan yashirgan, unut bo'lish darajasiga kelgan, hayot g'uborlari ortida xiralashgan ko'ngil yo'lagini ko'rib qolamiz." Bu asarlarda voqyealar ham izchil rivojlanmaydi. Odatiy syujet chizig'i ham yo'q. Syujet xuddi «Shovqin va g'alayon» romanidagi kabi birdan o'tmishga qarab rivojlanib ketishi, biz bugun deb o'ylayotganimiz, asli, o'tmish bo'lishi yoki o'tmish deb o'ylayotganimiz xuddi "Emil uchun atirgul" hikoyasidagi kabi bugunga aylanishi, miqlardagidek o'tmish qiyofasini bugunga almashtirishi mumkin. Mazkur asarlarda dastavval o'zi bilan o'zi konfliktida turgan odam ichki kurashiga duch kelamiz. Boshqa asarlarda bu konflikt hududi kengayadi: o'zi bilan makon va zamon, o'zi bilan o'zini o'rab turgan olam konfliktida turgan odam tahliliga o'tiladi. Har qaysi holatda ham biz qahramon ichki dunyosining, inson qalbining mufassal chizgilariga guvoh bo'lamiz.

Folknerga qaysi adabiy oqimga mansubligini so'rashganda ikkilanmay: «Men shunday o'ylayman va, fahmimcha, bor gap ham shu: men taalluqli va mansub bo'lgan birdan-bir maktab bu – gumanizm maktabidir!» – degandi.

XULOSA

U.Folknerning ijodiy daholigi faqat tasavvurining kuchi, ehtirolarni bayon etishdagi mahoratidagina emas, balki uning asarlari folknercha insonparvarlik g'oya si bilan sug'orilganidir. Bu - ayrim odamlar, umuman butun sivilizatsiya davrida yul qo'yilgan xatolar va gunohlarga qaramasdan, insonlarga muhabbat, insoniyatga ishonchdir. U.Folknerning butun ijodi, eng yaxshi romanlari va hikoyalari kitobxonni hayot haqiqatiga tik qarashga o'rgatadi, eng yuksak insonparvarlik hislarini ular qalbiga joylashga chorlaydi. Adibning o'zi yozuvchining burchini "inson qalbini mustahkamlab, uning yodiga insonning adabiy shuhratini tashkil etadigan mardlik, umid, g'ypyp, rahmdillik, fidoyilikni solib, insoniyligini saqlab qolishga yordam berish"da deb bilgan.

REFERENCES

1. Muhammadjon Xolbekov. XX asr modern adabiyoti manzaralari. Uilyam Folkner. Jahon adabiyoti va madaniyati 18.09.2018
2. Xolbekov Muxammadjon N. Uilyam Folkner romanlari poetikasi. Xorijiy filologiya jurnali 2022-yil 1-son. <http://samxorfil.uz>



3. Muhammadjon Xolbekov. Folkner olami. «O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati» gazetasi. 2011-yil 43-son.
4. Nazar Eshonqul. Uilyam Folkner. 2017-yil, 3-may. Ziyouz.uz
5. A.X.Saidov. Uilyam Folkner – insonparvar yozuvchi./ “Uilyam Folkner. Qissa va hikoyalar” kitobiga so‘zboshi. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2013-yil.
6. Sinkler Lyuis. Amerikaliklarning adabiyotdan qo‘rquvi. 1930 yil. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/>
7. Uilyam Folkner. Qissa va hikoyalar. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2013-yil. -180 bet.
8. Uilyam Folkner. Quyosh zavoli. Rus tilidan Olim Otaxonov tarjimai www.kh-davron.uz
9. Uilyam Folkner, «Qissa va hikoyalar» (tuplovchi va suzboshi muallifi A.X.Saidov). «Yangi asr avlodi», 2013 yil.
10. Uilyam Folkner. Nobel mukofotini topshirish marosimida so‘zlangan nutq. 1950-yil Ruschadan Quadrat Do‘stmuhammad tarjimai. Ziyouz.uz
11. W. Faulkner. Essays, Speeches and Public Letters, N. Y., 1965, p. 114.



SHIRIN QALAMPIR NAV VA DURAGAYLARINI ISSIQXONALARGA EKISH MUDDATLARI

Jamshid Jumaqulovich Xolmamatov

Meva-sabzavotchilik, uzumchilik, issiqxona xo‘jaligi kafedrası assistenti
jamshid.xolmamatov@bk.ru

Mashhura Saydullo qizi G'ofurova

Tadqiqotchi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada shirin qalampirni dunyo bo‘yicha etishtirish holati, isitilmaydigan issiqxonalarda etishtirilayotgan navning biologik xususiyatlari, ko‘chat ekishning maqbul muddatlari, issiqxonalarining erta bahorgi havo, tuproq harorati hamda havoning nisbiy namligi tartibotlari to‘g‘risida tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Shirin qalampir, isitilmaydigan issiqxona, ekish muddatlari, nav namunalari, “Dar Tashkenta”, “Zarya Vostoka”, “Zumrad” haroratga bo‘lgan talabchanligi, o‘sov davri, tuproq, iqlim, fenologik ko‘rsatkichlar, gullash, meva tugish, hosildorlik

KIRISH

Bugungi kunda dunyo bo‘yicha shirin qalampir 1,950 mln. gektar maydonga ekilib, undan 80 mln. Tonnadan ortiqroq mahsulot etishtirilmoqda. O‘rtacha hosildorlik issiqxonalarda gektaridan 120–130 tonnani, ochiq maydonlarda esa 18,1–20,3 tonnani tashkil etmoqda. Hozirgi kunda shirin qalampir ekiniga qiziqish va ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda, bu ekin dunyoning barcha mamlakatlarida etishtiriladi.

ADABIYOTLR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Shirin qalampir etishtirishda bir necha yillardan buyon Xitoy (15,8 mln. t.), Meksika (2,300 mln. t.), Turkiya (2,160 mln. t.), Indoneziya (1,730 mln. t.) davlatlari shirin qalampir etishtirish bo‘yicha dunyoda etakchilik qilmoqda. Ushbu davlatlarda shirin qalampir yil davomida ham ochiq maydon, ham issiqxonalar sharoitida etishtiriladi. Uning issiqxona sharoitida etishtirishga mos qator navlari yaratilgan va etishtirish usullari ishlab chiqilgan. Respublikamizda esa ushbu sabzavot turi faqatgina ochiq maydonda etishtiriladi. Uning issiqxonada etishtirishga mos navlarini tanlash va issiqxonada

shirin qalampir etishtirish texnologiyasi elementlarini ishlab chiqish aholini yil davomida yangi sabzavot bilan ta'minlash imkonini beruvchi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Shirin qalampirni isitilmaydigan issiqxonalarda etishtirishda navning biologik xususiyatlari, ko'chat ekishning maqbul muddatlari issiqxonalarning erta bahorgi havo, tuproq harorati va havoning nisbiy namligi tartiboti aniqlandi.

Janubiy mintaqa sharoitida isitilmaydigan issiqxonalarda shirin qalampirdan eng erta hosil olish imkonini beruvchi havo harorati (20–23 °S), tuproq harorati (16–18 °S) va havoning nisbiy namligi (70–80 %) tartibotlari mart oyining birinchi o'n kunligidan boshlab yuzaga kelishi aniqlandi. Isitilmaydigan issiqxona sharoitida shirin qalampirni 35 ta nav namunalarining morfo-biologik va qimmatli xo'jalik belgilarini kompleks baholash asosida istiqbolli tizmalari boshlang'ich manba sifatida ajratildi.

Shirin qalampirni isitilmaydigan issiqxonalarda etishtirishda navning biologik xususiyatlari, ko'chat ekishning maqbul muddatlari issiqxonalarning erta bahorgi havo, tuproq harorati va havoning nisbiy namligi tartiboti aniqlandi.

arkaziy mintaqa sharoitida isitilmaydigan issiqxonalarda shirin qalampirdan eng erta hosil olish imkonini beruvchi havo harorati (20–23 °S), tuproq harorati (16–18 °S) va havoning nisbiy namligi (70–80 %) tartibotlari mart oyining birinchi o'n kunligidan boshlab yuzaga kelishi aniqlandi. Isitilmaydigan issiqxona sharoitida shirin qalampirni 35 ta nav namunalarining morfo-biologik va qimmatli xo'jalik belgilarini kompleks baholash asosida istiqbolli tizmalari boshlang'ich manba sifatida ajratildi.

Shirin qalampirni isitilmaydigan issiqxonalarda etishtirishda navning biologik xususiyatlari, ko'chat ekishning maqbul muddatlari issiqxonalarning erta bahorgi havo, tuproq harorati va havoning nisbiy namligi tartiboti aniqlandi.

Shu bois issiqxona sabzavotlarining assortimentini kengaytirish, yilning nomavsum davrida mahsulot etishtirish aholimizning o'sib borayotgan ehtiyojini qondirish maqsadida shirin qalampirni isitilmaydigan issiqxona sharoitida etishtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borishni maqsadga muvofiq.

Isitilmaydigan issiqxona sharoitida shirin qalampirning nav namunalarini o'rganish Shirin qalampirning 16 ta nav namunalari 2020-2021 yillarda ekib o'rganildi. Standart nav sifatida O'zbekistonda Davlat reestriga kiritilgan Dar Tashkenta navi tanlab olindi.

Isitilmaydigan issiqxonalarda sabzavot ekinlarini hosildorligini belgilaydigan muhim omillardan biri o'simlikni maqbul ekish muddatlari xisoblanadi. Yuqori va sifatli hosil olishga qaratilgan agrotexnik tadbirlar majmuasida ko'chatlarni maqbul ekish muddatlarini

aniqlash juda muhim hisoblanadi. Sabzavot ekinlarining biologik hususiyatlari, eng avvalo haroratga bo‘lgan talabchanligi va o‘svuv davrining davomiyligi, tuproq, iqlim, ob-havo sharoitlariga talabchanligi, shuningdek ishlab chiqarish rejasi va mahsulotning qanday maqsadda etishtirilayotganligiga qarab ko‘chatlar har xil muddatlarda ekiladi. Bundan tashqari, mahsulotni iste‘mol qilish davrini uzaytirish uchun ham ko‘chatlar turli muddatlarda ekiladi.

Respublikamizning ob-havo va tuproq iqlim sharoiti yildan-yilga o‘zgarib bormoqda. Bu esa, olimlarimiz oldiga mamlakatimiz iqlim sharoitiga mos yangi sabzavot ekinlarini yaratish, hamda yaratilgan ekinlarni ochiq va himoyalangan maydonlarda maqbul ekish muddatlarini o‘rganib undan yuqori hosil olish va aholini sabzavot ekinlariga bo‘lgan ehtiyojini yil davomida qondirish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni olib borishni taqozo etmoqda. Shirin qalampir aholi tomorqa erlarida sabzavot ekinlari qatorida ekib etishtirilmogda. Lekin isitilmaydigan plyonkali issiqxonalarda uning erta bahorgi ekish muddatlari bo‘yicha ilmiy asoslangan ma‘lumotlar etarli emas. Yilning nomavsum davrida isitilmaydigan plyonkali issiqxonalarda shirin qalampirdan yuqori va sifatli hosil olish uchun maqbul ekish muddatlarini aniqlash tadqiqotlarimizning asosiy maqsadi hisoblanadi. Himoyalangan erlarda sabzavot ekinlarini ekish muddatlarini to‘g‘ri belgilash katta ahamiyatga ega. Ekish muddatlari bir haftaga kechiksa hosildorlik 20–25 foizga kamayadi va ertagi hosil 7–10 kunga kechikadi.

Xorij adabiyotlarida shirin qalampirni isitilmaydigan plyonkali issiqxonalarda ekib yuqori va sifatli hosil olish mumkinligi to‘g‘risida ma‘lumotlar mavjud (P. W. Bosland va Alton L. Bailey 2004). Ammo, respublikamiz iqlim sharoitida bunday tadqiqotlar olib borilmagan. Shulardan kelib chiqib shirin qalampirni Dar Tashkenta, «Zarya Vostoka» va «Zumrad» navlari ko‘chati erta bahorda to‘rt muddatda ekildi. Isitilmaydigan issiqxona sharoitida turli muddatlarda ekilgan shirin qalampir navlarini fenologik kuzatuv natijalarini quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin. Isitilmaydigan issiqxonada erta bahorgi muddatda salqin havoda shirin qalampir ko‘chatlari tutib ketishi uchun etarli issiqlikni talab etadi. Shirin qalampirning Dar Tashkenta, «Zarya Vostoka», «Zumrad» navlari 70×40 sm ekish sxemasida turli muddatlarda ekildi.

Nihollar tutib ketish davrining davomiyligi Dar Tashkenta navining nazorat variantida ekilganda 10–75 % tutib ketishiga 4–7 kunnitalab etgan bo‘lsa, birinchi va ikkinchi variantlar uchun 4–9 kun kerak bo‘ldi. To‘rtinchi variantida ekilganda esa 3–6 kun talab etildi. Buni mart oyining birinchi o‘n kunligida havo harorati biroz yuqori bo‘lganligi va bu omil ko‘chatlarni keyingi

muddatlarda tezroq tutib ketishiga sabab bo‘lganligi bilan izohlash mumkin.

1-jadval

Isitilmaydigan issiqxona sharoitida turli muddatlarda ekilgan shirin qalampir navlarining fenologik ko‘rsatkichlari (2021–2022 y.y)

Ekish muddatlari	Nihollarning tutib ketishi, kun		Nihollar ekilgandan..., kun					
			gullaguncha		meva tukkuncha		texnik etilguncha	
	10%	75%	10%	75%	10%	75%	10%	75%
«Dar Tashkenta»								
1fevral	4,0	9,0	18,0	37,0	55,0	66,0	79,0	91,0
10fevral	3,0	8,0	16,0	34,0	51,0	57,0	67,0	82,0
1 mart (nazorat)	4,0	7,0	14,0	29,0	43,0	46,0	61,0	73,0
10mart	3,0	6,0	12,0	27,0	36,0	41,0	48,0	68,0
×	4,5	7,2	15	31,8	45,5	52,5	63,8	78,0
«Zarya Vostoka»								
1fevral	4,0	7,0	17,0	35,0	55,0	67,0	80,0	93,0
10fevral	3,0	6,0	16,0	34,0	48,0	60,0	71,0	83,0
1 mart (nazorat)	4,0	5,0	12,0	27,0	42,0	45,0	59,0	73,0
10mart	3,0	4,0	10,0	24,0	41,0	44,0	53,0	67,0
×	3,8	5,5	13,8	30,0	45,0	54,0	66,3	78,8
«Zumrad»								
1fevral	5,0	9,0	22,0	39,0	58,0	64,0	77,0	92,0
10fevral	4,0	7,0	18,0	36,0	49,0	63,0	72,0	87,0
1 mart (nazorat)	3,0	6,0	14,0	25,0	43,0	46,0	60,0	75,0
10mart	3,0	5,0	11,0	24,0	39,0	42,0	58,0	72,0
×	3,3	6,8	16,3	31,0	47,0	53,8	69,0	82,0

Nihollar ekilgan kundan yoppasiga 10–75 % gullashi Dar Tashkenta navining nazorat variantida 14–29 kundi talab etgan bo‘lsa, birinchi va ikkinchi variantlarda 16–34 kun va to‘rtinchi variantda ekilganda esa 12–27 kundan ,3kerak bo‘ldi.

Isitilmaydigan issiqxona sharoitida ko‘chat sifatiga katta e‘tibor berish lozim. Bahorgi muddatda shirin qalampirning ko‘chatini tutishi uning sifatli bog‘liq. Tajribalar uchun ekilgan ko‘chatlarning bo‘yi 13,5-22,7 sm, ko‘chatdagi barglar soni 5,0-8,8 dona bo‘lganlari tanlab olindi Ko‘chatlarni tajriba maydoniga o‘tkazilganda 94-98 % tutishi qayd etildi. Erta bahor oylarida ko‘chatlarning bunday tutishi yaxshi ko‘rsatkich hisoblanadi.

Isitilmaydigan issiqxona sharoitida ekilgan shirin qalampir navlarining hosildorligi aniqlanganda eng yuqori hosildorlik

Zumrad, Sabo, Yulduz, Shodlik navlarida kuzatildi va u 41,2- 45,2 t/ga ni tashkil etdi. Yuqori hosildorlik qayd etgan navlarning umumiy hosildorligi standart navga nisbatan 110,6-124,8 % yuqori bo'ldi. Hosildorligi standart nav bilan deyarli teng bo'lgan Tong, Podarok Молдовы, Bolgarskiy 79, Pamir, Kaliforniyskoe chudo navlari ham ajratildi. Ularning hosildorligi 47,7-49,0 t/ga ni tashkil etdi. Boshqa o'rganilgan navlar hosildorligi standart navga nisbatan 85,5- 96,1 % ni tashkil etdi. Umumiy hosilga nisbatan o'rtacha 5,8-10,8 % hosilning notovar bo'lishi albatta ko'p. Bunga bir nechta sabablar bo'lib, keyingi tadqiqotlarda tadqiq qilish lozimligini bildiradi.

2-jadval

Isitilmaydigan issiqxona sharoitida ekilgan shirin qalampir nav namunalari morfologik ko'rsatkichlari (2021–2022 yy.)

№	Navlar namunalari	Bir tup o'simlikdagi:					
		poya vazni		barglar soni		barg sathi	
		G	%	Dona	%	dm ²	%
1.	Dar Tashkenta (n-t)	906	100	526	100	92,2	100
2.	Zarya Vostoka	845	93,3	570	108,4	106,5	115,5
3.	Zumrad	860	94,9	620	117,9	105,3	114,2
4.	Nargiza	920	101,5	543	103,2	88,9	96,4
5.	Tong	970	107,1	513	97,5	88,6	96,1
6.	Sabo	1020	112,6	610	116,0	105,6	114,5
7.	Yulduz	775	85,5	552	104,9	92,8	100,7
8.	Shodlik	794	87,6	536	101,9	89,1	96,6
9.	Lastochka	830	91,6	530	100,8	91,4	99,1
10.	Podarok Молдовы	845	93,3	490	93,2	87,2	94,6
11.	Pamir	794	87,6	509	96,8	90,3	97,9
12.	Maxi Bell	1010	111,5	541	102,9	110	119,3
13.	Gampion	790	87,2	485	92,2	89,7	97,3
14.	Smorogd	960	106,0	610	116,0	112,4	121,9
15.	Bolgarskiy 79	741	81,8	532	101,1	93,5	101,4
16.	Kaliforniskoe chudo	923	101,9	504	95,8	96,1	104,2

Bir tup o'simlikdagi poya vazni nazorat Dar Tashkenta navida 906 grammni tashkil etgan bo'lsa, «Sabo» navidanazorat naviga nisbatan poya vazni 1020 grammni tashkil etib, nazorat variantidan 114 grammga yani (12,5%) og'ir bo'ldi. «Tong», «Maxi Bell», «Nargiza», «Smorogd» navlarining poyalarini vazni nazorat variantidan 14-125-150-40-17 grammga (1,5-14,8-17,4-4,3-1,5 %) og'ir bo'ldi. «Zarya Vostoka», «Zumrad», Yulduz, Shodlik, Lastochka, Podarok Молдовы, Pamir, Gampion, Bolgarskiy 79 navlarining poya vazni nazoratda ekilgan Dar Tashkenta navida 61-46-131-112-76-61-112-116 g ga (5–8%) engil bo'ldi. n 24–46 (3,0–4,8) grammga engil bo'lganligi

kuzatildi. Tajribada ekilgan shirin qalampir navlarining poyalari vazninig og'ir yoki engil bo'lishi, o'simlikning vegetatsiya davriga hamda o'simliklarning balandligiga bog'liq bo'ldi. Nazoratda ekilgan Dar Tashkenta navining bir tup o'simlikdagi barglari soni 526 donani (100 %) tashkil etgan bo'lsa, «Zarya Vostoka» navida barglar soni 691 donani tashkil etib, nazoratga nisbatan 44 donaga (8,4 %), «Zumrad», «Nargiza», «Sabo», «Yulduz», navlari barglar soni 44,94-1784-2884 donaga (17,9-3,2-16,0-4,9,16,0 %) ko'p bo'lganligi kuzatildi.

XULOSA

O'simliklarda barg sathining katta yoki kichik bo'lishi fotosintez, transpiratsiya va gaz almashinuvida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Barg sathida yoki hujayralarida sintezlangan mahsulotlar o'simlikning boshqa qismlari, ya'ni poya, ildiz, gul, mevalarga oziqalarni etkazib berishi hisobiga o'simlikning hosildorlik ko'rsatkichlarini ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgartiradi. Respublikamizning tabiiy iqlim sharoitidan kelib chiqib issiq kunlarning 150–180 kun bo'lishi isitilmaydigan plyonkali issiqxonalarda shirin qalampir o'simligini etishtirish uchun qulay hisoblanadi. Plyonkali isitilmaydigan issiqxonalarda shirin qalampir etishtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilib, ushbu sharoitda etishtirishga mos navlar tanlandi.

REFERENCES

1. Аббасов А.М. Характеристика районированных сортов. //Справочник по овощеводству, бахчеводству и картофелеводству. Ташкент. «Мехнат». 1986. – С. 29. 2.10. Аббасов А.М. Чучук калампир. // Сабзавоткорлар китоби. Тошкент. Мехнат. 1988. – 50 Б.
2. Абдуллаев Б. Выращивание помидора повторной культурой в Узбекистане. // Состояние, проблемы и перспективы овощеводства, бахчеводства и картофелеводства в Республике Узбекистан. Ташкент. 2003. – С. 156.
3. Abdullaev H.P., Tursunxo'jaev M.L., Xusanov D.N., Qishloq xo'jaligi erlaridan unumli foydalanish–malakatning oziq–ovqat xavfsizligini ta'minlash omili. // Toshkent, TURON–IQBOL. 2016. – 127– 133 B.
4. Авдеев Ю. И., Иванов Л.М., Кигапшаев О.И., Авдеев А. Ю. Перес. Селекция овощных пасленовых культур и огурца для фермерских, коллективных и дачных хозяйств. // Современное состояние картофелеводства и овощеводства и их научные обеспечение. с. Кайнар, НИИКОХ, 20–21 июля 2006 года. Алматы, 2006. – С. 132.

5. Azimov B. Ekish sxemalarining shirin qalampir navlari hosildorligiga ta'siri. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. – Toshkent. 2016. – №3. – 29–30 B.
6. Azimov B.J., Azimov B.B., Azimov B.B. Shirin qalampir navlari. // Sabzavot, poliz va kartoshka ekinlaridan yuqori hosil olish omillari. Toshkent, 2008. – 14 B.
7. Azimov B.B., Mavlyanova R.F., Azimov B.J. O'zbekistonda shirin qalampirdan yuqori hosil olish bo'yicha tavsiyalar. // Toshkent, 2016. – 9 B. 19. Azimov B.J., Xakimov R.A., Abbosov A. M., Azimov B.B. Shirin qalampir. // Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda yil davomida oyma – oy bajariladigan tadbirlar taqvim. Toshkent, 2008. – 39 B.
8. Azimov B.J., Bo'riev X.Ch., Azimov B.B. Sabzavotlarning kimyoviy tarkibi, ularning oziq-ovqat sifatidagi hamda shifobaxshlik xususiyatlari. // Sabzavot ekinlarining biologiyasi. Toshkent: "Mexnat", 2001. – 13–17 B.



AYOLLARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIKNING OLDINI OLISHDA KOMPLEKS TIZIMLI YONDASHUV: XALQARO TAJRIBA

Sardor Komil o‘g‘li Alimov

“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi, falsafa fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)

sardoralimov2507@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan ayollarni qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy reabilitatsiyani amalga oshirish bo‘yicha xorijiy tajriba o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: tazyiq, zo‘ravonlik, oilaviy zo‘ravonlik, shelter, qonunchilik, ayollar, himoya orderi, psixologik yordam, migrant ayollar

ABSTRACT

This article examines the foreign experience of supporting women who have suffered pressure and violence, protecting their rights and interests, and implementing social rehabilitation.

Keywords: harassment, violence, family violence, shelter, legislation, women, protection order, psychological support, migrant women

KIRISH

Bugungi kunda global miqyosda e‘tirof etilayotgan dolzarb ijtimoiy muammolardan biri butun dunyo bo‘ylab ayollarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonlik holatlari hisoblanadi. Insoniyat tarkibi azaldan ikki jins vakillaridan iborat ekan, ularning o‘zaro munosabatlarida bir-biriga nisbatan hurmat bilan yondashish zaruriyati, bir-birini to‘laqonli, teng huquqli inson sifatida qabul qila olishi zamonaviy dunyoning eng ustuvor talablaridan biriga aylangan. Afsuski, aksariyat holatlarda ayollar erkaklar tomonidan sodir etiladigan turli shakldagi zo‘ravonlik holatlari qurboniga aylanib qolmoqda. BMT ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyo miqyosida taxminan 736 million ayol (deyarli har uch ayoldan biri) umri davomida kamida bir marotaba u yoki bu shaklda zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan. Eng achinarlisi ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning aksariyati ularning turmush o‘rtoqlari (shu jumladan sobiq erlari), jinsiy sheriklari tomonidan sodir etilgan [1]. Albatta bu raqamlar muammoning ahamiyatini to‘liq ochib bermaydi. Birinchidan, odatda zo‘ravonlikka uchragan

ayollarning atiga 40 foizdan kamrog‘i yordam so‘rab murojaat qiladi [2]. Demak amaliyotda bunday holatlar 3-4 barobar ko‘proq sodir etilishi mumkin. Ikkinchidan, zo‘ravonlik holati ham bevosita, ham bilvosita taraqqiyot jarayoniga salbiy ta‘sir etib, uning iqtisodiy zararlarini aniq sonda ifodalashning imkoniyati yo‘q. Uchinchidan, har bir zo‘ravonlik ayol va uning farzandlari uchun og‘ir ijtimoiy-psixologik zarba. Ruhiy tushkunlik, depressiya, o‘z joniga qasd qilish kabi ko‘plab salbiy oqibatlar ham ijtimoiy taraqqiyotga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda butun dunyo bo‘yicha tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan ayollarning huquqlarini himoya qilish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jahonning 155 mamlakatida oilaviy zo‘ravonlik to‘g‘risida qonunlar qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekistonda ham 2019-yil 2-sentyabr kuni “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan bo‘lib, unda “jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka doir murossasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilinishini ta‘minlash, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlash [3]” xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan etib belgilangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Respublikamizda gender tengligini ta‘minlashga oid turli masalalar, jumladan xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarini o‘rganishga so‘nggi yillarda alohida e‘tibor qaratilib kelinmoqda. Jumladan, “Mahalla va oila” instituti tomonidan mazkur yo‘nalishda qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshiriladi, ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etilib, nashr qilib kelinadi[4]. Umuman olganda, bugungi kunda mahalliy mualliflar tomonidan xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlari psixologik, pedagogik, falsafiy, huquqiy nuqtai nazardan tadqiq etib kelinmoqda [5;6;7;8;9].

Tadqiqot jarayonida tanlab olingan yo‘nalish bo‘yicha tajribasini o‘rganish uchun davlatlarning geografiyasi hamda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarini oldini olish, zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan ayollarni qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirayotgan ishlari inobatga olindi. Tadqiqotda 2 ta Osiyo (Singapur, Yaponiya), 1 ta Yevropa (Shveysariya), 2 ta Amerika (Argentina va Kanada) hamda 1 ta Avstraliya (Avstraliya) qit‘asidan mamlakatlar tanlab olindi. Tanlab olingan mamlakatlarning barchasi AQSHning Jorjtaun instituti tomonidan tayyorlanadigan “Ayollar, tinchlik va xavfsizlik indeksi – 2021/2022” (Women, Peace and Security

Index – 2021/2022) ning “Jinsiy sherik tomonidan zo‘ravonlik” indikatori bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichga ega, jumladan Singapur va Shveysariya eng yaxshi natija qayd etgan [10]. Mamlakatlarning tajribasi o‘rganilayotgan kontent-analiz, data-analiz, qiyoslash, umumlashtirish kabi metodlardan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tazyiq va zo‘ravonlik holatiga uchragan ayollar bilan ishlashda har bir mamlakatning o‘z yondashuvi mavjud. Umuman olganda aksariyat o‘rganilgan mamlakatlarda mazkur yo‘nalishda faoliyat yurituvchi davlat va nodavlat organlarining faoliyatini ma‘lum bir davlat tashkiloti umumlashtirib, muvofiqlashtirib turadi. Masalan, Singapurda oilaviy hamda xotin-qizlarga taalluqli masalalar, xususan, tazyiq va zo‘ravonlik holatlarini kamaytirish, zo‘ravonlik qurbonlarini himoya hamda rehabilitatsiya qilish bilan bog‘liq davlat siyosatini Ijtimoiy va oila rivojlanishi vazirligi amalga oshiradi. Yoki Argentinada Ayollar, gender va xilma-xillik vazirligi, Yaponiyada Gender tengligi byurosi, Kanadada esa Ayollar, gender tengligi va yoshlar masalalari vazirligi mazkur yo‘nalishdagi faoliyatni umumlashtiradi.

2022-yil Singapurda “Singapur oilalari yili” deb nomlangan bo‘lib, 2025-yilgacha mo‘ljallangan “Oilalar uchun Singapur - 2025” (A Singapore Made For Families 2025) Milliy dasturi qabul qilingan[11]. Mazkur Milliy dasturga ko‘ra, “Oilalarning xavfsizligini ta‘minlash” yo‘nalishi belgilangan. Zo‘ravonlik va jinsiy tazyiqqa qarshi milliy ishonch telefoni tashkil etilgan - 1800-777-0000. 2023 yilda oilaviy zo‘ravonlikka nisbatan qonuniy himoyalash tizimini kuchaytirish, zo‘ravonlar uchun javobgarlik va rehabilitatsiya tizimini yaxshilash belgilangan. Mamlakat bo‘ylab turli yo‘nalishlardagi 48 ta oilaga xizmat ko‘rsatish markazlari, oilaviy zo‘ravonlik bo‘yicha 2 ta maxsus markazlar (TRANS SAFE markazi va Care Corner Project Start) faoliyati yaxshilanishi qayd etilgan.

Shveysariyada esa boshpana markazlari frauenhaus deb ataladi. Mamlakat bo‘yicha 2018-yilda jami 1771 ta oilaviy zo‘ravonlik holatlari bo‘yicha xotin-qizlar mavjud 19 ta ayollar boshpana markazlariga murojaat qilgan bo‘lsa, ularning 487 nafari joy yoki xodim yetishmasligi sababli rad etilgan. Yana 319 nafari esa boshqa sabablarga ko‘ra shelterlarga qabul qilinmagan. Barcha arizalarning deyarli yarmi rad etilgan, ushbu ayollarning 41 foizi boshqa inqiroz markazlaridan joy topa olishgan. 19 ta boshpanada qolgan 965 nafar ayollarning markazlarda qolish davomiyligi o‘rtacha 37 kunni tashkil etgan[12].

Ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holati Argentina uchun ham asosiy ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. 2022-

yilning yanvar-iyun oylarida 144-liniya (Línea 144) xizmatiga uch vosita (telefon, WhatsApp va elektron pochta) orqali jami 63 ming 202 murojaat kelib tushgan bo'lib, ularning 91 foizi oilaviy munosabatlar doirasida sodir etilgan. 2021-yilning mos davriga nisbatan zo'rvonlik holatlari 11 ming 117 taga ortgan. 94 foiz holatda psixologik, 64 foiz jismoniy, 41 foiz iqtisodiy, 14 foiz jinsiy zo'rvonlik sodir etilgan bo'lsa, 13 foiz holatda qurol yoki o'tkir vositalar ishlatilgan. Zo'rvonlik holatlarining 97 foizida qurbonlar ayollar, 87 holatda zo'rvonlar erkaklar hisoblanadi[13].

Mamlakatning poytaxti bo'lgan Buenos-Ayres shahrida 2021-yilda sodir etilgan tazyiq va zo'rvonlik holatlarini o'zida aks ettirgan shahar interaktiv zo'rvonlik xaritasi ishlab chiqilgan bo'lib, unda zo'rvonliklarning sodir etilishida shaharning qaysi kommunasi (kommuna – ma'muriy birlik) qanday natijaga ega ekanligi, aynan zo'rvonlikning qaysi turi qaysi kommunada ko'proq sodir etilishi, zo'rvonlikning oylar kesimida tahlili, qaysi davlat fuqarolariga nisbatan sodir etilganligi, qanday chora qo'llangani kabi ma'lumotlar aks etgan.

Kanada ham tazyiq va zo'rvonlikka uchragan ayollar va ularning bolalarini himoya qilish bilan bog'liq muammolar mavjud. Masalan, ayollar uchun boshpanalar va shelterlarga murojaat qiladigan oilaviy zo'rvonlik qurbonlarining 80 foizi rad javobini oladi. 2019 yil noyabr oyidagi o'rganishlar natijasiga ko'ra, bir kunda o'rtacha 620 nafar tazyiq va zo'rvonlikka duch kelgan ayol va ularning farzandlari rad javobini olgan. Bu esa oyiga deyarli 19 000 ayolning markazlarda joylasha olmasligini bildiradi. Bunga asosiy sabab esa mazkur boshpanalarda joy yetishmasligi hisoblanadi.

2020/2021-moliyaviy yilda Kanadadagi mavjud 500 dan ziyod markazlar, shelterga jami 43 729 nafar zo'rvonlik qurbonlari murojaat qilgan bo'lib, ularning 26 736 nafari yoki 61,1 foizi ayollar, 16 575 nafari yoki 37,9 foizi bolalarni tashkil etgan [14]. Murojaat qilgan ayollarning 12 foizdan ortiqrog'ining nogironligi borligi qayd etilgan. Aksariyat holatlarda ayollar va bolalarning shelterlarga murojaatlari ularning oilaviy, jinsiy, psixologik, moliyaviy zo'rvonlik va tazyiq holatida duch kelganligi bilan izohlanadi[15].

Avstraliyada ayollarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik holatlarini oldini olishda ijtimoiy himoya hamda alohida e'tiborga muhtoj toifalarga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Jumladan:

- Avstraliyada ayollarning zo'rvonlikka uchrash holatlarini oldini olishda ularning yosh davrlarining o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratiladi: voyaga yetmagan qizlar, voyaga yetgan ayollar hamda keksa ayollarga nisbatan zo'rvonlik jihatlari farqlanadi;

- nogironligi mavjud bo'lgan ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlarini tugatishga e'tibor qaratiladi. Avstraliyada 2019-yilda nogironligi bo'lgan odamlar 15 yoshdan keyin sog'lom odamlarga nisbatan 1,7 barobar ko'proq jinsiy zo'ravonlikka duch kelishgan [16];

- madaniy jihatdan boshqa guruhlariga mansub, migrant va qochqin ayollar va ularning bolalari ham alohida xavf guruhi sifatida tasniflanadi.

Zo'ravonlikning oldini olishda tashkilotlarning o'zaro hamkorlik tizimi.

Tazyiq va zo'ravonlik holatlarini oldini olish, zo'ravonlik qurboni bo'lgan ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash mamlakatda mavjud davlat va nodavlat tashkilotlarining hamkorligini talab qiladi. Mazkur yo'nalishdagi hamkorlik tizimi har bir davlat uchun o'ziga xos bo'lib, ularning har biriga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Shveysariyada tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarni himoya qilish bo'yicha quyidagi davlat va nodavlat tashkilotlari hamkorlikda faoliyat olib boradi[17]:

- ✓ Fuqarolik sudi;
- ✓ Qurbonlar bilan ishlash agentliklari;
- ✓ Politsiya;
- ✓ Ijtimoiy ta'minot organlari;
- ✓ Migrant ayollar uchun huquqiy maslahat organlari;
- ✓ Sog'liqni saqlash muassasalari;
- ✓ Maktablar;
- ✓ Maktabgacha ta'lim muassasalari va boshqalar.

Singapurda tazyiq va zo'ravonlik qurbonlari bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash, reabilitatsiya qilish bo'yicha davlat va nodavlat tashkilotlarining hamkorlik tizimi yo'lga qo'yilgan. Oilaviy sudlar, oilaga xizmat ko'rsatish markazlari, politsiya, kasalxonalar, ta'lim muassasalari, ijtimoiy xizmat agentliklari birgalikda zo'ravonlikka duch kelgan ayollarni qo'llab-quvvatlash doirasida hamkorlik qilib kelishadi.

Ijtimoiy va oila rivojlanishi vazirligi tarkibida Adult Protective Service - APS ya'ni "Kattalar uchun himoya xizmati" joriy etilgan bo'lib[18], mazkur tuzulma ikki yo'nalishda faoliyat olib boradi:

1) Ijtimoiy himoyaga muhtoj, oilaviy zo'ravonlikka duch kelgan shaxslarga yordam beruvchi tashkilotlarni nazorat qiladi, bunday shaxslarning tegishli xizmatlarga yo'naltirilishi, ularning xavfsizligini ta'minlash ishlarini muvofiqlashtiradi;

2) zo'ravonlikka uchragan shaxslarni himoya qilish bo'yicha strategik hamkor tashkilotlar – politsiya, shifoxona,

ijtimoiy xizmat agentliklari, oilaviy sudlarning birgalikdagi faoliyatini nazorat qiladi, umumiy strategiyasini ishlab chiqadi.

APS, shuningdek, tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan shaxslar bilan ishlovchi mutaxassislarning kasbiy malakasini oshiradi.

Argentinada 2022-2024-yillarga mo‘ljallangan Gender asosidagi zo‘ravonlikka qarshi Milliy harakatlar rejasi qabul qilingan bo‘lib, mazkur Milliy harakatlar rejasi 20 ta vazirlik va 5 ta milliy agentliklarning 100 ta qisqa, o‘rta va uzoq muddatli harakatlarini o‘z ichiga oladi. Milliy harakat rejasida vazirliklar, federal va munitsipial hokimiyat organlari o‘rtasida hamkorlik belgilab qo‘yilgan. Harakatlar rejasi doirasida zo‘ravonlikka uchragan ayollar uchun eng kam ish haqi miqdorida 6 oy nafaqa tayinlash, gender zo‘ravonlikka uchragan ayollarni qo‘llab-quvvatlash uchun yuridik shaxslarga eng kam ish haqining 47 barobaridan 70 barobarigacha va jismoniy shaxslar uchun eng kam ish haqining 23 barobari miqdorida subsidiyalar ajratish belgilab qo‘yilgan[19]. Argentinada ayollarga nisbatan zo‘ravonlik holatini oldini olish, ayollarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha hamkorlik tizimi Xotin-qizlar milliy kengashi tomonidan muvofiqlashtirilib, mazkur Kengash va Ayollar, gender va xilma-xillik vazirligi vakolatli organlar hisoblanadi. Shuningdek hamkorlik tizimiga Voyaga yetmaganlar va oila ishlari bo‘yicha Milliy Kengash (tazyiq va zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan ayollar uchun davlat va xususiy xizmatlarni muvofiqlashtiradi), Sud, Ijtimoiy taraqqiyot vazirligi, Adliya vazirligi (bepul yuridik yordam beruvchi markazlarning reestrini yuritadi), Xalq ta‘limi vazirligi, Sog‘liqni saqlash muassasalari (bepul birinchi tibbiy yordam beradi), Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik observatoriyasi (zo‘ravonlik holatlarining sabablarini o‘rganadi, muammoni ilmiy jihatdan tahlil qiladi), nodavlat notijorat tashkilotlari, ixtisoslashtirilgan politsiya korpusi (ayollar bilan bog‘liq va ayollarga nisbatan sodir etilgan huquqbuzarliklar bilan ishlaydi), munitsipial hokimiyat organlari, advokatura, kasaba uyushmalari ham kiradi.

Yaponiya Parlamenti tomonidan 2001-yil 13-aprelda qabul qilingan 31-sonli “Oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish va jabrlanuvchilarni himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunning 2.2-moddasiga ko‘ra, Bosh vazir, Milliy jamoat xavfsizligi komissiyasi, Adliya vazirligi va Sog‘liqni saqlash, mehnat va farovonlik vazirligi oilaviy zo‘ravonlikni oldini olish yo‘nalishida asosiy davlat siyosatini amalga oshiradi [20]. Hamkorlik tizimi tarkibiga prefekturalar va munitsipial ma‘muriyatlar, oilaviy zo‘ravonlik bo‘yicha maslahat va yordam markazlari, politsiya, sog‘liqni saqlash muassasalari, ijtimoiy yordam tashkilotlari, sud, nodavlat tashkilotlar ham kiritiladi.

Avstraliyada ham zo‘ravonlikka nisbatan davlat va nodavlat tashkilotlarining hamkorligini ta‘minlash maqsadida 2010-2022-yillarda Ayollar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish bo‘yicha Milliy reja ishlab chiqilib, amalga oshirilgan. 2022-yil 17-oktyabr kuni esa 2022-2032-yillarga mo‘ljallangan Ayollar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish Milliy rejasi e‘lon qilingan bo‘lib, mazkur Milliy reja shtat va federativ hukumat tomonidan qabul qilingan. Milliy reja jamiyatning barcha davlat va nodavlat tashkilotlari – hukumat, biznes subyektlari, OAV, maktablar va ta‘lim muassasalari, oila, oilaviy va jinsiy zo‘ravonlikka nisbatan kurashuvchi tashkilotlar va boshqalar hamkorlik qilishi belgilab qo‘yilgan. Milliy reja o‘z tarkibiga ikkita 5 yillik rejani qamrab olishi rejalashtirilgan. Milliy rejaning asosiy maqsadi – ayollar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning har qanday shakliga barham berishdan iborat. Milliy reja doirasi amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtirib borish, har yili parlamentga hisobot kirgizish bilan Oilaviy, maishiy va jinsiy zo‘ravonlik (DFSV) komissiyasi shug‘ullanadi.

Kanadada zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan ayollarni qo‘llab-quvvatlashda asosiy e‘tibor ularning sog‘lig‘ini va ruhiy holatini tiklashga qaratiladi. Umuman olib qaraganda, mamlakatda idoralararo ishlab chiqilgan dastur doirasida Sog‘liqni saqlash vazirligi, Bosh prokuratura, Adliya vazirligi, Ayollar va gender tengligi masalalari vazirligi, Kanada Qirollik politsiyasi kabi federal organlar, viloyat va mintaqaviy hukumatlar, vazirliklar, NNT va markazlar, xayriya tashkilotlari, ta‘lim muassasalari, advokatura va boshqa davlat va nodavlat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda.

Tazyiq va zo‘ravonlik bo‘yicha qonunchilik tizimi.

Har bir mamlakatning qonunchilik tizimi o‘ziga xos. Zo‘ravonlikka oid qonunchilik tizimi ham mamlakatda mavjud yuridik norma ijodkorligining bir qismi hisoblanadi. Ba‘zi mamlakatda qonunchilik bir bosqichli bo‘lsa (Singapur, Yaponiya), ba‘zilar federal va hududiy qonunchilik institutlari mavjud (Kanada, Avstraliya, Shveysariya).

Singapur Respublikasi Parlamenti tomonidan 1961 yil 15 sentyabr kuni qabul qilingan “Xotin-qizlar xartiyasi”ning 7 qism, 64-67 moddalari “Oila himoyasi” deb nomlangan. Xartiyada oilaviy zo‘ravonlik tushunchasiga izoh berib o‘tilgan. Xartiyaning 65 moddasida zo‘ravonlik holatida sud tomonidan himoya orderi berish tartibi belgilab berilgan. Zaruriyat tug‘ilganda sud bir kun ichida qisqa muddatli (28 kun) himoya orderi berishi tizimi ishlab chiqilgan (66 modda). 1871 yilda qabul qilingan Singapur Jinoyat kodeksiga ko‘ra, ayolning homilasini tushirish (312 modda), ayolni nikohiga olish yoki jinsiy ehtiyojini qondirish uchun o‘g‘rilash (366 modda), fohishalik qilish uchun

xotin-qizlarni mamlakatga olib kirish (373A modda) kabi zo‘ravonlik holatlari uchun jinoiy javobgarlik belgilangan[21].

Shveysariya boshqaruv shakliga ko‘ra konfederatsiya bo‘lganligi sababli butun mamlakat uchun federal qonunlarni mamlakat parlamenti ya‘ni Shveysariya Konfederatsiyasi Federal Kengashi qabul qiladi. 1991-yil 4-oktyabr kuni qabul qilingan (2007-yil 23-martda qayta qabul qilingan) “Jinoyat qurbonlariga yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Federal qonunida tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan ayollarga yordam berish masalasiga huquqiy baho berib o‘tilgan. 1937-yil 21-dekabr kuni qabul qilingan Shveysariya Jinoyat Kodeksiga ko‘ra, oiladagi zo‘ravonlik jinoiy javobgarlikka tortishga asos bo‘ladi[22]. Xotin-qizlarga nisbatan turli ko‘rinishdagi tazyiq va zo‘ravonlik holatlari jinoyat sifatida tasniflanadi.

Argentinada ayollarni zo‘ravonlikdan himoya qilishning kuchli normativ-huquqiy tizimi yaratilgan. Jumladan, Argentina Milliy kongressi tomonidan 1994-yil 28-dekabrda 24.417-sonli “Oilaviy zo‘ravonlikka qarshi himoya qilish to‘g‘risida”gi va 2009-yil 11-martda 26.485-sonli “Ayollarni har tomonlama himoya qilish to‘g‘risida”gi Milliy qonunlar qabul qilingan. Argentina qonunchiligiga “oilaviy zo‘ravonlik[23]”, “ayollarga nisbatan zo‘ravonlik[24]” tushunchalariga kiritilgan.

Yaponiya Parlamenti tomonidan 2001-yil 13-aprelda qabul qilingan 31-sonli “Oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish va jabrlanuvchilarni himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunining 1-moddasida “oilaviy zo‘ravonlik” (yoki “er-xotin o‘rtasidagi zo‘ravonlik”) tushunchasiga ta‘rif berib o‘tilgan. Bunda oilaviy ajralish, qonuniy nikohdan o‘tilmagan holatlarda zo‘ravonlik sodir etilishi ham oilaviy zo‘ravonlik sifatida talqin etiladi[20].

Avstraliyada tazyiq va zo‘ravonlik bo‘yicha qonunchilik tizimi federal, shtatlar qonunlari, sudlarning qarorlari asosida shakllantiriladi. Avstraliya federal parlamenti tomonidan 1975-yil 12-iyunda qabul qilingan va jami 84 marotaba o‘zgartirish kiritilgan 53,1975-sonli “Oila huquqi to‘g‘risida”gi federal qonun[25] hamda 2011-yil 7-dekabrda qabul qilingan 189,2011-sonli “Oila huquqi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga o‘zgartirish kiritish (oilaviy zo‘ravonlik va boshqa chora-tadbirlar) to‘g‘risida”gi federal qonun[26] mamlakatda zo‘ravonlik holatlari bilan kurashish, oldini olish bo‘yicha asosiy huquqiy yo‘nalishlarni belgilab bergan. Xususan, 53,1975-sonli federal qonunining 4AV moddasida va 189, 2011-sonli qonunda “oilaviy zo‘ravonlik”, “bolalarga nisbatan zo‘ravonlik”, “tazyiq” tushunchalariga izoh berib o‘tilgan. Qolaversa, 53,1975-sonli federal qonunga ko‘ra, oilaviy maslahatchilar, oilaviy nizolarni hal qiluvchi amaliyotchilar akkredatatsiyadan o‘tishi belgilangan. Qonun mediatsiya institutining asosiy yo‘nalishlarini ham belgilab bergan.



XULOSA

Tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan ayollarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganish asosida quyidagilarni taklif qilish mumkin:

- Milliy qonunchilikka “oilaviy zo‘ravonlik” tushunchasini kiritish. Jinoyat huquqida oilaviy zo‘ravonlikni alohida jinoyat sifatida tasniflash;

- Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka oid jinoyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirish. Masalan, Singapurda nomusga tegish jinoyati uchun 20 yilgacha ozodlik mahrum qilish jazosi belgilangan. Bizda esa ushbu holatda javobgarlik uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan belgilangan (O‘zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi 118-modda, 2-xatboshi);

- Tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan ayollarni himoya qilish, ularning reabilitatsiyasini amalga oshirishda faqatgina davlatga bo‘ysunuvchi reabilitatsiya markazlaridan tashqari nodavlat notijorat shaklidagi inqiroz markazlari, vaqtinchalik boshpanalar tashkil etish. Bu bir tomondan markazlar va ulardagi joylar sonining ortishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan raqobat tufayli soha mutaxassislarida professionalizm kuchayadi;

- Ayollarni reabilitatsiya qilish markazlarining joylashgan joyi, unda boshpana topgan ayollar haqidagi ma‘lumotlarning anonimligini ta‘minlash;

- Reabilitatsiya qilish markazlarining faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida ijtimoiy aksiyalar, targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish;

- Tazyiq va zo‘ravonlik holatlari bo‘yicha interaktiv xarita yaratish. Dastlabki bosqichda ma‘lum ma‘muriy birlik (masalan Toshkent shahri) uchun pilot loyiha sifatida shakllantirish, xarita ma‘lumotlarini avtomatik yangilanishini ta‘minlash;

- Tazyiq va zo‘ravonlik holatlarida xotin-qizlarning murojaat qilishi mumkin bo‘lgan davlat va nodavlat tashkilotlari (kasalxonalar, ichki ishlar organlari, reabilitatsiya markazlari, prokuratura, sud, NNT va boshqalar)ning manzili va telefon raqamlari, yordam berish shaklining yagona reestrini shakllantirish, internetda ochiq ma‘lumot sifatida joylashtirish;

- Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish bo‘yicha markazlarning internet saytini tashkil qilish, zo‘ravonlikka uchragan ayollarning onlayn murojaat qilishi va ularni tegishli davlat idoralari, xizmatlariga onlayn yo‘naltirish imkoniyatini yaratish;

- Xotin-qizlarning maishiy zo‘ravonlik qurboniga aylanib qolishlarini oldini olish maqsadida tashkil etilgan “1146” qisqa raqamli Ishonch telefoni faoliyatini o‘zbek va rus tillaridan tashqari, mahalliy aholining muloqot tillarida (qoraqalpoq, tojik, qozoq, qirg‘iz, turkman) olib borishini ta‘minlash;

- Oilada tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining takrorlanmasligi, oilaviy-maishiy nizolarning tinch yo‘l bilan hal bo‘lishi uchun oilaviy maslahat xizmatlari yoki oilaviy munosabatlarda mediatsiya institutini joriy etish.

REFERENCES

1. World Health Organization. (2021). Violence against women prevalence estimates, 2018: global, regional and national prevalence estimates for intimate partner violence against women and global and regional prevalence estimates for non-partner sexual violence against women. World Health Organization.
2. United Nations Economic and Social Affairs (2015). The World’s Women 2015, Trends and Statistics, p. 159.
3. “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zRQ-561-sonli Qonun. 02.09.2019. (<https://lex.uz/docs/-4494709>)
4. <https://moiti.uz/oz/services/library>
5. Бозорова О., & Ялилов Н. (2022). Jamiyatda xotin-qizlarning zo‘ravonlik jinoyati jabrlanuvchisi bo‘lib qolishining oldini olish masalalari. Вопросы совершенствования механизмов противодействия коррупционным рискам в сфере государственного управления, 1(01), 117–121. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/issues-improving/article/view/12630>
6. Imomqulova, F. (2022). JAMIYATDA AYOLLAR HOLATI HAQIDAGI QARASHLARNING EVOLUTSIYASI. AYOLLARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIK JAMIYATDA IJTIMOY MUAMMO. Scienceweb academic papers collection;
7. Alimov, S. K. (2021). The impact of human migration on theethosphere of emigrant country: Philosophical and ethical analysis. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 74-79.
8. Alimov, S. K. (2022). Tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan ayollarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo‘yicha xorijiy tajriba. MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA, 2022/1 (2), 71-76.
9. Ismailova, Z., Ismaylova, R., Saydivalieva, K., & Tuychieva, G. (2021). Development of gender entrepreneurship. In E3S Web of Conferences (Vol. 284, p. 11020). EDP Sciences.
10. Georgetown Institute for Women, Peace and Security and Peace Research Institute Oslo. (2021). Women, Peace, and Security Index 2021/22: Tracking sustainable peace through inclusion, justice, and security for women. Washington, DC: GIWPS and PRIO.

11. A Singapore Made For Families 2025. Our National Plan For A Family-Friendly Society <https://www.msf.gov.sg/Documents/MFF%202025%20Plan.pdf>
12. https://www.swissinfo.ch/eng/society/violence-against-women_shelters-for-victims-of-domestic-violence-struggle-with-capacity-issues/44957702
13. <https://www.argentina.gob.ar/generos/linea-144/datos-publicos-de-la-linea-144-2022>
14. <https://www150.statcan.gc.ca/n1/pub/85-002-x/2022001/article/00014/tbl/tbl04-eng.htm#shr-pg0>
15. Heidinger, L. (2021). Intimate partner violence: Experiences of first nations, Métis and Inuit women in Canada, 2018. Juristat: Canadian Centre for Justice Statistics, 1-21.
16. AIHW, (2019): Family, domestic and sexual violence in Australia: continuing the national story 2019: in brief, 2019
17. <https://frauenhaus-basel.ch/frauenhaus/>
18. <https://www.msf.gov.sg/about-MSF/our-people/Divisions-at-MSF/Social-Development-and-Support/Rehabilitation-and-Protection-Group/Adult-Protective-Service/Pages/default.aspx>
19. https://www.argentina.gob.ar/sites/default/files/2022/08/pna_2022_2024.pdf
20. https://www.gender.go.jp/policy/no_violence/e-vaw/law/pdf/nichiei.pdf
21. PENAL CODE 1871 <https://sso.agc.gov.sg/act/pc1871>
22. https://www.fedlex.admin.ch/eli/cc/54/757_781_799/de
23. <http://www.notivida.com.ar/legnacional/Ley%20NACIONAL%2024.417%20PROTECCION%20CONTRA%20LA%20VIOLENCIA%20FAMILIAR.html>
24. http://www.oas.org/dil/esp/Ley_de_Proteccion_Integral_de_Mujeres_Argentina.pdf
25. <https://www.legislation.gov.au/Details/C2022C00260>
26. <https://www.legislation.gov.au/Details/C2011A00189>

SPORT O'YINLARIDA HUJUM HARAKATLARI TEXNIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (VOLEYBOL MISOLIDA)

Mavlon Imomov

Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi

i-mavlon@samdu.uz

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada 13-14 yoshli voleybolchilarning hujum harakatlarni rivojlantirish jarayoni o'rganilgan. Tadqiqot davomida shug'ullanuvchilarni hujum harakatlari texnikasini samaradorligini oshirishga qaratilgan mashqlar majmuasi ishlab chiqildi va tajriba guruhidagi shug'ullanuvchilarda ushbu mashqlar qo'llanildi. Ishlab chiqilgan mashqlar majmuasi, tajriba guruhidagi shug'ullanuvchilarining hujum harakatlari samaradorligiga ijobiy ta'sir etdi. Tadqiqot natijalari yosh voleybolchilarning texnik-taktik tayyorgarligini oshirish va mashg'ulotlarni samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: mashg'ulot, hujum texnikasi, kombinatsiya, korrelyasion tahlil, voleybol.

IMPROVING THE TECHNIQUE OF ATTACKING MOVEMENTS IN SPORTS GAMES (FOR THE EXAMPLE OF VOLLEYBALL)

ABSTRACT

In this article, the process of developing offensive movements of 13-14-year-old volleyball players is studied. During the research, a set of exercises aimed at increasing the efficiency of the participants' attack techniques was developed and these exercises were used in the participants of the experimental group. The developed set of exercises had a positive effect on the effectiveness of the offensive movements of the participants in the experimental group. The results of the research serve to improve the technical and tactical training of young volleyball players and to organize training effectively.

Keywords: training, attack technique, combination, correlational analysis, volleyball.

KIRISH

Sport turlari ichida voleybol o'ziga xosligi, tomoshabopligi, qiziqarli ekanligi bilan ajralib turadi. Shu boiz yosh



voleybolchilarni zamon talablariga mos darajada tarbiyalash va tez orada jahon miqyosidagi jamoalar safiga kirishi uchun o'quv mashg'ulotlarni yuqori saviyada olib borishni takomillashtirish talab etiladi. Yosh voleybolchilarga hujum texnikasini dastlabki o'rgatish bosqichida ham yuqori texnik va taktik tayyorgarlikka alohida ahamiyat qaratish lozim.

ADABIYTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Zamonaviy voleybolda hujum texnikasi kundan kunga rivojlanib borishi bilan izohlanadi. Shuning uchun ham yosh voleybolchilarni o'quv mashg'ulotlar jarayonida hujum texnik harakatlarini rivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish orqali o'yinida, himoyadan hujumga o'tish tezligi, taktik "kombinatsiya"larni bajarish tezkorligi aniqligi oshadi. Buning natijasida texnik usullarni bajarilish vaqti qisqaradi.

13-14 yoshli voleybolchilarga hujum harakatlari texnikasini o'rgatish samaradorligini o'rganish, hamda tahlil qilish orqali ularni o'yinlardagi hujum samaradorligini aniqlash va amaliy tavsiyalar berishni maqsad qilib oldik.

Biz oldimizga qo'ygan maqsadni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni belgilab oldik.

1. Musobaqa oldi tayyorgarlik davrida yosh voleybolchilarning mashg'ulot jarayonini o'rganib chiqish.

2. Yosh voleybolchilarning musobaqa jarayonida hujum texnikasini bajarish samaradorligini aniqlash hamda olingan natijalarni tahlil qilish.

3. Mashg'ulot va musobaqa faoliyatini tahlil qilish asosida 13-14 yoshli voleybolchilarni hujum texnikasini amalga oshirish samaradorligini ilmiy asoslab berish.

Mashg'ulot jarayonida beriladigan mashqlar yordamida hujum texnikasini bajara olish imkoniyatini rivojlantirish va uni takomillashtirishda uslubiy ko'rsatmalar berish tadqiqotnin maqsadi hisoblanadi.

Muammoning nazariy tomonlari tahlil qilindi hamda ilmiy nazariy izlanishlar natijasida muammoning hozirgi holati o'rganildi va zarur bo'lgan tomonlari ustida ishlash kerakligi aniqlandi.

1. Bo'lgan muddatda pedagogik tajribalarning maqsadi, yosh voleybolchilarni mashg'ulot jarayonida hujum texnikasini rivojlantirish usullari o'rganildi va shu maqsad yo'lida tajriba olib borildi.

2. Tadqiqotning yakuniy natijalari olindi. Bu bosqichda tadqiqot natijalari umumlashtirildi va tahlil qilinib amaliy tavsiyalar berildi.

1-jadval

Voleybolchilarning hujum texnikasini bajarish darajasi

№	Ismi family asi	Turgan joyida balandlikk a sakrash (sm)	4 - zonada o'rnatilgan, moslamaga harakatlanib kelib sakirab qo'l tekkizish (sm)	Bog'lovchi yordamida 4-zonasidan 1, 6, 5 - zonalarga hujum zarbasini aniq ijro etish (har bir zonaga 3 martadan 9 marta)			To'siq qo'yuvchi o'yinchi qarshiligida 4-zonadan 1, 5 - zonalarga hujum zarbasini aniq ijro etish (10 marta)		Nazorat o'yinlarida bir tayim dovomida samarali hujum zarbalari tahlili (marta)
				1	6	5	1	5	
1	M.Sh	31	2.40	1	6	5	1	5	6
				1	3	2	2	3	
				6			5		
2	N.A.	30	2.39	1	6	5	1	5	5
				2	1	3	2	4	
				6			6		
3	M.A.	29	2.36	1	6	5	1	5	5
				2	2	2	1	3	
				6			4		
4	R.A.	26	2.35	1	6	5	1	5	6
				1	1	3		3	
				5			3		
5	A.D.	25	2.37	1	6	5	1	5	5
				1	3	2	1	3	
				6			4		
6	M.S.	24	2.38	1	6	5	1	5	4
				1	1	2	1	3	
				4			4		
7	A.Z.	26	2.39	1	6	5	1	5	4
					2	2	1	4	
				4			5		
8	S.N.	27	2.38	1	6	5	1	5	6
				1	2	2	1	4	
				5			5		
9	E.G'.	28	2.40	1	6	5	1	5	5
					2	2		6	
				4			6		
10	T.U.	22	2.37	1	6	5	1	5	5
				1	2	1	1	3	
				4			4		
ΣXi		268:10=26,8%	2379:10=237,9%	50:10=5,0%			46:10=4,6%		51:10=5,1%
Min-max		22-31	2.36-2.40	4-6			3-6		6-8
x±σ		31±0,9	2.40±0,4	6,0±0,2			6,0±0,3		8,0±0,2

Yuqoridagi jadvalga nazar tashlasak, test topshirgan 10 nafar shug'ullanuvchilardan 5-yo'nalishda ko'rsatgan natijalari

biz kutgan natijalarni bermadi. Shu sababli bu guruhga biz tavsiya etgan mashqlardan foydalanishni tavsiya etdik.

Ma'lum bir o'yin ampulasi tavsifi bilan usullar takomillashtiriladi. Avvaldan o'rganilgan o'yin usullari jamoadagi o'yinlar ampulasi, jismoniy tayyorgarligi va matreallarni individual o'zlashtirish usulini takomillashtiradi.

Hujum zarbalarini amalga oshirish shug'ullanuvchilardan atletik tayyorgarlikni, kuch, tezkorlik, chaqqonlik va egiluvchanlik sifatleri yaxshi rivojlanganligini talab etadi. Asosiy mashqlar tarkibiga tayanch-harakat apparatini mustahkamlovchi, avvalo to'piq, tizza, yelka, oyoq va qo'l panjalari, barmoq bo'g'inlarini va mushaklarning qisqarish tezligini oshirishga qaratilgan mashqlar kiritiladi. Umumrivojlantiruvchi mashqlar predmetsiz yoki predmetlar (to'ldirma to'p, gantellar, cho'ziluvchan elastik predmetlar va hokazo) bilan bajariladi [4,5].

Hujum harakatiga o'rgatishda quyidagi fazalarni qisimlarga bo'lib to'g'ri o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Bular quyidagilar:

- yugurish;
- sakrash;
- to'pga zarba berish;
- yerga qo'nish.

O'z navbatida, bu fazalar ham bir qancha mikrofazalarga bo'linadi. Yugurib kelish fazasida hujumchi ikkita asosiy vazifani hal etadi: balandroq sakrashga erishish va to'pning uchish tezligi, yo'nalishini to'g'ri aniqlash. Bunda hujumchi birinchidan, uch qadam harakatini amalga oshirish o'rgatiladi. Bunda o'yinchi, masofani aniqlab birinchi chap oyoq (agar o'ng qo'lda to'pga zarba bersa chap oyoq, chap qo'lda to'pga zarba bersa o'ng oyoq) oddiy qadam ikkinchi qadam birinchi qadamga nisbatan biroz kengroq qadam qo'yiladi. Uchinchi qadam yana kichik qadam oyoq uchlari biroz burib qo'yiladi.

Sakrash fazasida hujumchi tovondan oyoq uchiga tomon katta qadam tashlab harakat qiladi, oxirgi qadamda oyoqlarning oralig'i oldingiga nisbatdan biroz qisqaroq, qo'llar orqa tomonga harakatlantiriladi. Oyoqlar tizza qismida, gavda esa tos-son bo'g'imida bukiladi. Keyin esa qo'llar oldinga yuqoriga silkitiladi, oyoqlar tayanchdan uziladi, gavda orqaga biroz egilib, vertikal holatga keltiriladi. Zarba beruvchi qo'lning kafti bosh orqasiga o'tib ketmasligiga va tirsak yelkadan biroz yuqorida bo'lishiga e'tibor berish lozim.

Zarba berish fazasida o'ng (yoki chap) qo'l tirsak bo'g'imida to'g'rilanib, yuqoriga-oldinga cho'ziladi. Zarba berishda qorin, ko'krak, yelkava qo'l mushaklarining ketma-ket va keskin qisqarishi bilan bajariladi. Bunda zarba beruvchi qo'l kafti to'pning orqa-

yuqorisiga uriladi. Zarba kuchi taktik vazifani hal qilish bilan belgilanadi. Boshlang'ich o'rgatish bosqichida hujum zarbasining kuchiga emas, balki uning o'z vaqtida berilganligiga va yo'nalishiga e'tibor qaratish zarur.

Qo'nishda hujumchi oyoq uchlarida yerga tushadi va oyoq tizza qismi biroz bukuladi, chunki bu holatda tayanch-harakat apparati shikastlanishining oldi olinadi va keyingi harakatlarini bajarishga qulay sharoit yaratiladi.

Jamoa hujumini faqatgina to'g'ri hujum zarbalari bilan yakunlash kifoya qilmaydi. Shuning uchun hozirgi zamon voleybolida to'p yo'nalishini o'zgartirib bajariladigan hujum zarbalari ahamiyatliroqdir.

Hujumchilarning harakatli vazifalarini samarali hal etishning sharoitlari to'pning zarbasining o'zaro ta'siridan keyingi uchish tezligi mezonni bo'yicha aniqlanadi. Aynan shunday optimal mezon tanlanishi o'zini oqlagan, chunki to'pning zarbadan keyingi uchish tezligi ko'pincha ochko yutib olish uchun hal qiluvchi bo'ladi. Bu nafaqat kuch ishlatish, balki zarbaning boshqa turlariga ham taalluqli: qo'lni to'xtatib olish va aldamchi harakatlarni amalga oshirish bugungi kunda malakali voleybolchilar ham qo'llaydi. Shuning uchun harakatlarning maqsadga muvofiqligini ta'minlash vazifasini hal etishda harakatlar samaradorligi sharoitlarini ro'yobga chiqarish ham katta ahamiyatga ega.

Hujum zarbasini amalga oshirishni o'rgatishda ikkita katta vazifa hal etiladi:

1. Tayanch-harakat apparatini mustahkamlash, qo'l va oyoqning dinamik kuchini rivojlantirish;

2. Harakatlanuvchi obyektga (to'pga) tayanchsiz holatda javob reaksiyasini berish uchun zarur darajadagi koordinatsion harakatlarni bajara olish.

Bu harakatlarni rivojlantiruvchi mashqlar quyidagilar:

1. Qo'llarni to'lqin harakat qildirib joydan yuqoriga sakrash;
2. Biron jihoz (skameka, tumba) ustiga yuqoriga sakrash, xuddi shu holatda pastga sakrab tushish;
3. Tortib qo'yilgan turli balandlikdagi arqonlar ustidan sakrab o'tish;
4. Turli xil sakrashlar: gimnastik skameykalar ustidan bir oyoqlab va ikki oyoqlab sakrashlar;
5. Chapga, o'ngga, oldinga, orqaga sakrab yurishlar;
6. Har xil balandliklarga sakrab chiqish;
7. Joyida o'tirib turib balantlikka sakrash;
8. Joyida sakrab tizzalarini ko'krak qismiga tortib sakrash;
9. Turli xil balandlikdagi pretmetni sakrab tutish;
10. Joyidan o'tirib turib uzunlikka sakrash;
11. Arg'amchi bilan sakrashlar;

12. Maxsus rezinalar bilan qo‘l va oyoqlarni chuzish;
13. Har xil egilish mashqlarni bajarish;
14. Sherikning qarshiligini yengib bajariladigan cho‘zilish mashqlari;
15. Gimnastika xalqalarida tebranishlar va aylanma harakatlar;
16. Turgan joyida sakrab, so‘ng tez yugurish;
17. Yuqoriga osib qo‘yilgan to‘pga nisbatdan hujum fazalarini to‘g‘ri bajarish;
18. Yugurib, sakrash orqali tennis to‘pi bilan hujum harakatini taqlid qilish;
19. 40-50 sm balandlikdan pastga sakrab tushushlar;
20. Bir joyda zarba harakatini simulyatsiya qilish (zarbli qo‘lni oldinga va yuqoriga siltash);
 1. To‘pni o‘z ustiga baland otish va joyida sakramagan holda zarba berish;
 2. To‘pni oldinga otgan holda sakrab zarba berish;
 3. Devorga qarama-qarshi joylashgan holda to‘pga zarba berish harakatini bajarish;
 4. Xuddi shu faqat sakrab bajariladi.
 5. Mashq juftlikda bajariladi. Birinchi o‘yinchi to‘pni yuqoridan ikki qo‘llab tutib turadi. Ikkinchi o‘yinchi hujum fazalarini to‘g‘ri bajargan holada sakrab to‘pga zarba berish harakatlarini amalga oshiradi. Mashqni bajarishda to‘pga zarba beruvchi o‘yinchi zarba imitatsiyasini bajaradi.
 6. O‘yinchi devordan 2-3 m masofa uzoqlikda qo‘lida to‘p bilan joylashadi. Qo‘lidagi to‘pni yuqoriga o‘z ustiga otadi va otilgan to‘pga polga qarata zarba beradi. Poldan ko‘tarilib devorga tegib qaytgan to‘pga qayta zarba beradi. Mashq shu tariqa bir necha marotaba bajariladi.
 7. O‘zi tomonidan to‘r oldida yuqoriga otilgan to‘pga sakrab zarba berish;
 8. Sherigi tomonidan to‘r oldida yuqoriga otilgan to‘pga zarba berish;
 9. 3-zonadan uzatilgan to‘pga 4-zonadan yo‘nalish bo‘yicha hujum zarbasini amalga oshirish;
 10. 3-zonadan uzatilgan to‘pga 2-zonadan yo‘nalish bo‘yicha hujum zarbasini amalga oshirish;
 11. Maydonning 5-zonasida o‘yinchilar ketma-ket joylashadi. Murabbiy 3-zonadan 4-zonaga ikki qo‘llab pastdan to‘pni to‘r ustiga uzatadi. Uzatilgan to‘pga hujumchilar, hujum fazalarini to‘g‘ri bajargan holda sakrab to‘pni yuqoridan ikki qo‘llab tutib oladi. Mashq ketma-ketlikda bajariladi
 12. 11-mashq kabi, bunda faqat hujumchilar to‘pga sakrab zarba berish harakatini amalga oshiradilar
 13. 1-6 va 5-zonalarga o‘yinchilar bir chiziqqa ketma-ket joylashadi. 2-3 va 4-zonalarda bog‘lovchi o‘yinchilar to‘r yonida.



1-6 va 5-zonalardagi o'yinchilar to'pni yuqoridan ikki qo'llab uzatadi va hujumni amalga oshirish uchun harakatlanadi. Bog'lovchi o'yinchilar to'pni ikki qo'llab yuqoriga uzatadi. Harakatlanib kelayotgan o'yinchilar hujum zarbasini amalga oshiradi.

14. O'yinchilar hujum chizig'ining 2-3-4-zonalarda joylashadi. Bog'lovchi o'yinchi 3-zonada, murabbiy maydon markazidan 3-zonada joylashgan bog'lovchi o'yinchiga to'p uzatishni amalga oshiradi. Bog'lovchi o'yinchi yuqoridan ikki qo'llab to'pni 2-3-yoki 4-zonalarga harakatlanib kelayotgan o'yinchilarning biriga uzatadi. To'p uzatilgan zonadagi o'yinchi hujum zarbasini amalga oshiradi. Mashq to'siq qo'yuvchi o'yinchilar bilan birgalikda amalga oshiriladi.

15. Yakkalik to'siqqa qarshi hujum zarbasini amalga oshirish;

16. O'yinchilar maydonning ikki tamonida 2-zonada joylashadi. Qo'lidagi to'pni o'z ustiga otgan holda hujum zarbasini amalga oshiradi.

17. To'rdan uzoqroq uzatilgan to'plarga zarba berish harakatlarni amalga oshiriladi;

18. O'yinchilar maydonning bir tamonida joylashadi. Murabbiy maydonning ikkinchi tamonidan to'pni to'r ustidan uzatadi. Uzatilgan to'pni 1-6-va 5-zonada joylashgan o'yinchilar pastdan ikki qo'llab qabul qilib 3-zonada joylashgan bog'lovchi o'yinchiga uzatadi. Bog'lovchi o'yinchi to'pni 2-3-yoki 4-zonalarning biriga uzatadi. To'p uzatilgan zonadagi hujumchi hujum zarbasini amalga oshiradi. Mashq to'siq qo'yuvchi o'yinchilar bilan amalga oshiriladi.

19. Murabbiy topshirig'iga muvofiq ko'rsatilgan zonalarga hujum zarbasini to'g'ri berish;

20. Hujum zarbalarini o'zlashtirish darajasiga qarab turli variantlardagi mashqlar to'siq qo'yish bilan bajarish.

Mashg'ulotlarda yuqorida sanab o'tilgan mashqlar va jxozlardan unumli foydalanish tavsiya etiladi. Hujum texnikasini samarali bajarishga o'rgatishda eng samarali mashqlarni tanlash va murabbiy tomonidan o'ylab topilgan mashqlardan ham samarali foydalanish talab etiladi [5,6,7,8].

2-jadval. Voleybolchilarning hujum texnikasini bajarish darajasi

№	Ismi familyasi	Turgan joyida balandlik a sakrash (sm)	4 - zonada o'rnatilgan, moslamaga harakatlanib kelib sakirab qo'l tekkizish (sm)	Bog'lovchi yordamida 4- zonasidan 1, 6, 5 - zonalarga hujum zarbasini aniq ijro etish (har bir zonaga 3 martadan 9 marta)			To'siq qo'yuvchi o'yinchi qarshiligida 4-zonadan 1, 5 - zonalarga hujum zarbasini aniq ijro etish (10 marta)		Nazorat o'yinlarida bir tayim dovomida samarali hujum zarbalari tahlili (marta)
				1	6	5	1	5	
1	M.Sh.	39	2.52	1	6	5	1	5	9
				2	3	4	2	5	
				9			7		
2	N.A.	38	2.50	1	6	5	1	5	7
				2	3	3	3	5	
				8			8		
3	M.A.	34	2.47	1	6	5	1	5	7
				1	3	3	3	3	
				7			6		
4	R.A.	33	2.46	1	6	5	1	5	8
				1	2	4	1	4	
				7			5		
5	A.D.	34	2.49	1	6	5	1	5	9
				2	4	3	2	4	
				8			6		
6	M.S.	32	2.48	1	6	5	1	5	6
				2	2	2	3	3	
				6			6		
7	A.Z.	35	2.50	1	6	5	1	5	7
				1	2	3	2	5	
				6			7		
8	S.N.	30	2.48	1	6	5	1	5	8
				2	2	3	3	4	
				7			7		
9	E.G'.	37	2.51	1	6	5	1	5	7
				2	3	2	2	6	
				7			8		
10	T.U.	30	2.47	1	6	5	1	5	7
				1	2	3	2	4	
				6			6		
ΣXi		342:10=34,2%	2488:10=248,8%	71:10=7.1%			66:10=6,6%		75:10=7,5%
Min-max		30-39	2.46-2.52	6-9			5-8		9-6
x±σ		39±0,9	2.52±0,6	9,0±0,3			8,0±0,3		9±0,3

Tadqiqot natijalarining qiyosiy tahliliga ko'ra yosh voleybolchilarning hujum texnik harakatlarini bajaraolish ko'rsatkichlari tadqiqotdan oldingi ko'rsatkichlariga nisbatan tadqiqotdan keyingi ko'rsatkichlari sezilarli darajada o'sganligi ma'lum bo'ldi. Hujumchilarning

hujum harakatlarini rivojlantirishda ularning mashg'ulot jarayoniga biz tavsiya etgan mashg'ulot mikrotsikllari va mashqlar majmuasining samarasi deya ta'kidlasak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Mavjud nuqtai nazarlarga ko'ra, voleybolda hujum harakati aniqligini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulot mashqlari ikki asosiy usuldan foydalanish bilan bajariladi, ya'ni uzluksiz va interval tavsiflardagi usullar. Ushbu har ikkala usullardan foydalanish bir tekisda va shuningdek, o'zgaruvchan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

Shunday qilib, o'yinda hujum harakatni muvofiqiyatli amalga oshirish harakatlarining asosini tahlili, yuqori depsinish, qo'l va gavdaning faol harakatlarini muvofiqashtirishdan iboratdir. Shubhasiz, musobaqa faoliyatining pedagogik nazoratida olingan natijalar mashg'ulot jarayonining ayniqsa, sportchilar individual texnik harakatlarining rivojlantirish bosqichida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi [9,10].

- ✓ таълим ва тарбиянинг инсонпарвар ва демокритик характерда эга эканлиги;
- ✓ таълимнинг узлуксизлиги ва изчиллиги;
- ✓ таълим тизимининг дунёвий характерда эга эканлиги;
- ✓ давлат таълим стандартлари асосида билим олишнинг ҳамма учун очиклиги;
- ✓ таълим дастурларини танлашга ягона ва табақалаштирилган ёндашув;
- ✓ билимли бўлиш ва истеъдодни рағбатлантириш;
- ✓ таълим тизимида давлат ва жамоат бошқарувини уйғунлаштириш;



Ўзбекистон Республикаси “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”да таълим тизимини тубдан ислоҳ қилиш, замон талаблари асосида қайта қуриш, узлуксиз таълим тизимининг турлари, таълим муассасалари олдидаги вазифалар, кадрлар тайёрлаш миллий моделини амалиётга тадбиқ этиш масалалари билан бир қаторда узлуксиз таълим тизимининг принциплари ҳам кўрсатиб ўтилган .

Муҳтарам юртбошимиз Ш.Мирзиёевнинг таълим-тарбияга оид асарлари, йирик методист олимларнинг илмий тадқиқотлари илмий-назарий ва методологик жиҳатдан асос вазифасини ўтади [1,2].

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Ушбу мақоланинг назарий аҳамияти дарс мавзусининг хусусиятлари ҳамда кўзда тутилган мақсадларга мувофиқ танланади ва тегишлича тайёргарлик кўрилади. Генетика асослари мавзусини ўқитишда модулли таълим технологияси бўйича иштирок этиш учун ўқувчиларнинг таёрликларига ўзига хос талаблар қўйилади, булар машғулотда фаол иштирок этиш учун зарур билимларни ўзлаштирганлик, мулоқотга таёрлик, ўзаро ҳамкорликда ишлаш, мустақил фикрлаш, ўз фикрини эркин баён қилиш ва ҳимоя қила олиш кўникмалари ва бошқалардан иборат. Машғулотда вақтдан унумли фойдаланиш зарур шарт ҳисобланади.

Амалий аҳамияти дарсларни ташкил этиш учун зарур воситаларни тўғри танлаш, тайёрлаш ҳамда машғулот ўтказувчилар ва уларнинг вазифалари аниқ белгиланган бўлиши лозим. Генетика асослари мавзусини ўқитишда фойдаланиладиган модулли таълим технологияси билан анъанавий таълим усуллари орасида ўзига хос фарқлар мавжуд бўлиб, ҳар бир ўқитувчи бу фарқларни қиёслаши, уларнинг бир-бирига нисбатан афзалликлари ва камчиликларини дарсни режалаштириш ва уни ўтказиш усуллари танлашда тўғри ҳисобга олиши лозим [4].

Модулли таълим технологияси модулларга асосланади. Модул лотинча сўздан олинган бўлиб, *қисм* (блок) деган маънони билдиради.

Генетика асослари мавзусини ўқитишда модулли таълим технологияларидан фойдаланишда дарсда фойдаланиладиган мавзу мантиқий тугалланган фикрли қисмлар, яъни модулларга ажратилади ва ҳар бир қисмни ўқувчилар мустақил ўзлаштиришлари учун ўқув топшириқлари тузилади. Шу ўқув топшириқлари асосида, ҳар бир модул якунида савол-жавоб ўтказилади ва хулоса чиқарилади.

Мазкур дарсларда ўқувчиларнинг билиш фаолияти модулларни кетма-кет ўзлаштиришларини назарда тутган ҳолда ташкил этилади. Ҳар бир модулни ўзлаштириш жараёни ўқувчиларнинг яхлит билиш фаолиятининг элементи саналади, яъни бир дарсда яхлит ташкил этилиши кўзда тутилган ўқувчиларнинг ўқув фаолияти мавзу ажратилган модулларга мувофиқ ҳолда ўқув фаолияти элементлари (ЎФЭ)дан ташкил топади. Агар дарсда ўрганиладиган мавзу мазмуни 4 та модулдан иборат бўлса, ўқувчиларнинг ўқув-билиш фаолияти мос ҳолда 4 та ўқув фаолияти элементи (ЎФЭ) дан ташкил топади. Шунини қайд этиш керакки, дарс якунида ўқувчиларнинг ўз фаолиятларини таҳлил қилиши ва ўз-ўзини баҳолашини амалга ошириш мақсадида модул дастурини яқунлаш босқичи бўлади. Шу сабабли фикр юритилаётган ушбу дарсда фойдаланиладиган модул дастурида 5 та ўқув фаолияти элементи (ЎФЭ) бўлади. Ўқитувчи шу асосда модул дастурини тузади [5].

Таълим муассасаларининг асосий вазифаларидан бири, ўқувчиларга инсоният тарихи давомида яратилган билимларни етказиш, фанлар асослари бўйича мунтазам билим олишлари учун тегишли шароит яратиш, зарур ахборотларни танлаш ва мустақил ўқишни ўргатиш орқали билим олишга бўлган эҳтиёжларини қондириш ва қизиқишларини орттиришдан иборат.

Ушбу вазифаларни анъанавий таълим технологиясидан фойдаланилган ҳолда ҳал этиб бўлмайди, шу сабабли таълим-тарбия жараёнига модулли таълим технологиясини қўллаш зарурати вужудга келди.

Модулли таълимнинг асосий моҳияти, ўқувчилар модул дастурлари ёрдамида мустақил ишлашига асосланган ўқув-билиш фаолияти орқали белгиланган мақсадга эришадилар.

Модул дастурлари мавзунинг таълимий, тарбиявий ва ривожлантирувчи мақсадидан келиб чиқадиган модул дастурининг дидактик мақсади, ўқувчиларнинг дарс давомида бажарадиган ўқув топшириқлари, топшириқларни бажариш бўйича берилган кўрсатмалар, модул дастурини яқунлаш қисмини ўзида мужассамлаштиради.

Модул дастурларини тузишда ўқитувчи эътиборини қуйидагиларга қаратиши зарур:

➤ Модул дастуридан кўзда тутилган дидактик мақсадни аниқ ёритиш. Анъанавий таълимда, дарс ишланмасида ўқитувчи дарснинг таълимий, тарбиявий ва ривожлантирувчи мақсадларини ўз зиммасига юклайди, яъни ўқувчиларда муайян тушунчаларни шакллантириш, илмий дунёқарашни кенгайтириш, тарбия

бериш ва ҳ.к. Модул дастурининг дидактик мақсади дарснинг юқорида қайд этилган мақсадларига уйғун ҳолда ўқувчиларнинг зиммасига юклатилади. Шунини қайд этиш керакки, мақсад аниқ бўлса, унга мувофиқ ҳолда тадбирлар қўлланилади ва унга эришиш осон бўлади.

➤ Ўқув материални ўрганишнинг мантикий йўналиши (индуктив ёки дедуктив тарзда берилганлиги)ни аниқлаш. Модулли таълим тамойиллари ҳисобга олинган ҳолда ўқув материални мазмунан тугалланган мантикий кетма-кетликдаги кичик қисм (модул)ларга тақсимлаш.

➤ Ўқувчилар томонидан ўқув материалларини ҳар бир модули ёки қисмини ўзлаштириши учун ташкил этиладиган ўқув фаолияти усулларини белгилаш.

➤ Ўқув фаолияти усулларига боғлиқ ҳолда модул дастуридан ўрин олиши лозим бўлган ўқув элементларини ва уларнинг кетма-кетлигини аниқлаш.

➤ Ўқувчилар билимини аниқлаш ва назорат қилиш бўйича дастлабки жорий назорат, ахборот тўплами, ўқитиш мазмунини қайта ишлаш, якуний назорат ва ўқувчилар билимидаги типик камчиликлар ҳамда хатоларни бартараф этиш йўллари белгилаш.

➤ Ўқувчилар учун асосий ва қўшимча адабиётларни танлаш.

Ўқувчилар модул дастури ёрдамида ўқув материални мустақил ва ижодий ўрганиш жараёни мазкур мавзунини ўзлаштириш учун дастурда белгиланган вақт доирасида амалга оширилишига эришиши лозим.

Модул дастурини муваффақиятли қўллашнинг муҳим шарти, унда ўқувчиларнинг ўқув-билиш фаолиятининг ўқув элементларини тўғри танлашидир. Чунки ўқувчилар модул дастури билан ишлаганда, айнан шу ўқув элементларини бажарадилар.

Биз қуйида ўқув фаолияти элементларининг турлари ҳақида фикр юритамиз.

Модулли дастурда жуда кўп ахборот манбаларидан фойдаланилади, шу сабабли ўқув фаолияти элементларини ахборот манбаларига кўра тавсифлаш мақсадга мувофиқ.

Модулли таълим технологиясидан фойдаланишда ўқитувчи қуйидаги мезонларга амал қилиши лозим:

❖ Ўқувчиларга мустақил ўзлаштириш учун тавсия этиладиган ўқув материали ўқувчиларнинг ўқув имкониятларини ҳисобга олган ҳолда, улар уддалай оладиган ва шу билан бирга максимал даражада қийин бўлмаслиги керак.

❖ Ўқувчилар ўқув материални дастурда белгиланган

вақт доирасида эгаллашлари керак.

❖ Ўқитувчи ўқувчиларни ўқув материалларини мустақил ва ижодий ўзлаштириш кўникмасига эга бўлишига эришиши лозим. Бунда, дастлаб ўқитувчи дарсга олиб кирадиган ахборотни икки қисмга ажратади. Биринчи қисмини ўқувчилар ўқитувчи ёрдамида, иккинчи қисмини ижодий ва мустақил ўзлаштиришлари лозим. Кейин белгиланган мавзуларни модулли дарс шаклида ўтказишни мўлжаллаб, модул дастурларини тузади.

Модул дастури ўқитувчилар томонидан тузилиб, унда ўқитиш мақсадлари мавзуни ўрганиш босқичлари, ўқувчилар томонидан бажариладиган ўқув фаолияти элементлари, ўқувчилар билимини назорат қилиш йўллари кетма-кет ёзилади.

Шуни қайд этиш керакки, модул дастурлари бу — дарс матнини ва ўқитувчи томонидан ўқув материални режалаштириш эмас, балки ўқувчиларнинг у ёки бу мавзуни мустақил ва ижодий ўрганишларига мўлжалланган ўқув фаолияти дастуридир.

Модул дастурлари ўқитувчилар томонидан тузилиб, унда ўқитиш мақсадлари, мавзуни ўрганиш босқичлари, ўқувчилар томонидан бажариладиган ўқув топшириқлари, ўқув фаолияти элементлари, ўқувчилар билимини назорат қилиш йўллари кетма-кет ёзилади.

Қуйида ўқув ахбороти манбаларига боғлиқ ҳолда ташкил этиладиган ўқув фаолияти элементларининг турлари жадвал тарзида берилмоқда:

Т/р	Ўқув фаолияти элементи тури	Ўқув ахбороти манбалари
ЎФЭ-1	Матнли ўқув элементи	Дарслик, қўшимча ўқув адабиётлар, газета ва журналлар
ЎФЭ-2	Жадвалли ўқув элементи	Жадваллар, моделлар, диаграммалар
ЎФЭ-3	Кўргазмали ўқув элементи	Жадваллар, расмлар, композициялар
ЎФЭ-4	Оғзаки ўқув элементи	Ўқитувчи ёки маърузачининг маърузаси, ўқувчиларнинг ахбороти
ЎФЭ-5	Компютерли ўқув элементи	ЭХМ хотирасига киритилган ахборотлар, таълим дастурлари, мултимедиалар

ЎФЭ-6	Аудио-видео, техниквоситали ўқув элементлари	Кинофилм, диафилм, диапозитивлар, видеофилм, магнит тасмалари, дисклар
ЎФЭ-7	Табиий объектли ўқув элементлари	Табиий объектлар, микро ва макро препаратлар, гербарий, тулумваҳ.к.

Модулли дарсларда мавзу мазмунидан келиб чиққан ҳолда юқорида қайд этилган ўқув фаолияти элементларидан яқка тартибда ёки тегишли ЎФЭ дан мажмуа ҳолда фойдаланиш мумкин.

Кичик гуруҳлар учун тузилган модул дастурларидан фойдаланишда икки хил ёндашув мавжуд:

1. Мусобақа усули.

Ўқитувчи ўқувчиларни тенг сонли кичик гуруҳларга ажратиб, модул дастури воситасида мустақил ишларни ташкил этади. Ҳар бир модул якунида савол-жавоб, ўқув баҳси мусобақа тарзида ўтказилади. Гуруҳлар ўртасида ғолиблар аниқланади. Гуруҳ аъзолари ўз фаолиятини ҳамкорларининг фикрини ҳисобга олган ҳолда баҳолайди.

2. Кичик консултантлар усули.

Ўқитувчи ўқувчиларни тенг сонли кичик гуруҳларга ажратиб, модул дастури воситасида мустақил ишларни ташкил этади. Ҳарбиргуруҳга кичик консултантлар тайинланади. Кичик консултантлар гуруҳ ишини бошқаради, ўқувчиларнинг фаолиятини назорат қилади, тегишли ҳолларда ёрдам уюштиради. Ҳар бир модул якунида савол-жавоб, ўқув баҳси ўтказилади. Ўзаро назорат орқали ўқувчилар баҳоланади.

Модул дастурининг турлари ва уларнинг моҳияти дидактик мақсадларни амалга ошириш имкониятларини таққослаганда яққол кўринади.

Қуйида модулли таълим технологиялари асосида ташкил этилган дарсда ўқитувчи ва ўқувчиларнинг ўқув билиш фаолиятидаги ўзига хос хусусиятлари билан танишамиз.

Модулли таълим технологиясига асосланган дарсларда ўқувчиларнинг ўқув-билиш фаолияти модул дастурлари асосида ташкил этилади. Ўқувчилар ўқув материални модул дастуридан ўрин олган ўқув топшириқларини сифатли бажариш орқали мустақил ўзлаштирадилар ва ўз ўқув фаолиятининг субъектига айланадилар. Шу тариқа ягона таълим-тарбия жараёнининг иккита субъекти — ўқитувчи ва ўқувчи ўқув жараёнидан кўзланган мақсадга эришади.

Ўқитувчи ўқув материалларини модулларга ажратади ва модул дастурини яратади. Ҳар бир модулнинг хусусий дидактик мақсади ва ўқув топшириқларини аниқлайди. Машғулот юзасидан назорат тест топшириқлари ва мустақил иш топшириқларини тузади. Ўқувчиларнинг мустақил ўқув билиш фаолиятини ташкил этади. Модул дастурининг дидактик мақсади ва ўқув топшириқлари билан таништиради. Ўқувчиларнинг модул дастури ёрдамида мустақил ишларини ташкил этади. Муаммоли вазиятларни вужудга келтиради, тегишли ҳолларда ёрдам уюштиради.

Модул дастуридан ўрин олган ҳар бир модул якунида ўқув баҳси, савол-жавоб, мунозара, ақлий ҳужум ўтказилади. Модул дастурини яқунлайди, машғулот юзасидан тест топшириқлари ёрдамида ўқитувчи назоратини амалга оширади. Эришилган натижани таҳлил қилиб ўқувчиларга эришилган натижасига мувофиқ ҳолда мустақил ва ижодий иш топшириқларини тавсия этади.

Ўқувчилар модул дастурининг дидактик мақсади, модуллар, модулларнинг хусусий дидактик мақсадлари, машғулот давомида бажариладиган ўқув топшириқлари, топшириқлар юзасидан кўрсатмаларни англайди. Ўз ўқув билиш фаолиятини ташкил этади. Машғулот матнини мустақил ўзлаштиради, ўқув топшириқларини сифатли бажаради, саволларга жавоб топади. Муаммоли вазиятлардан чиқишнинг оптимал вариантларини таклиф этади. Ўқув баҳси, савол-жавоб, мунозара ва ақлий ҳужумда фаол иштирок этади ва ҳ.к. [5,6].

Биология (Цитология ва генетика асослари) курси умумтаълим мактаб ва академик лицейларнинг ўқувчилари учун мўлжалланган бўлиб, уни ўзлаштириш мобайнида ўқувчиларга ирсият, ўзгарувчанлик, янги ўсимлик, ҳайвон, микроорганизм формаларини яратиш, органик олам эволюциясининг умумий қонуниятлари ҳақида билим беришдан иборат. Ҳар қандай билим илмий тушунчалардан ташкил топади. Генетикага оид билимларга ирсият, ўзгарувчанлик, уларнинг моддий асослари хромосома, ген ҳамда генотип, фенотип, гомозигота, гетерозигота, Мендел, Морган қонунлари, жинс билан боғлиқ ирсийланиш, генларнинг ўзаро ва кўп томонлама таъсири, ўсимлик, ҳайвон, одам, микроорганизмлар ирсиятини ўрганиш методлари, селекцияда қўлланиладиган методлар каби тушунчалар киради.

Хусусан, “Генетика асослари” мавзусини ўқитишда модулли таълим технологияларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Қуйида ушбу технология асосида дарсларни ташкил этишга оид дарс ишланмаси берилмоқда.

Ўзгарувчанлик назарияси ва қонуни мавзусини ўқитишда модулли таълим технологияларини қўллаш.

Дарсинг мавзуси: Ўзгарувчанлик назарияси ва қонуни

Дарсинг таълимий мақсади: ўқувчиларни ўзгарувчанлик ва унинг хиллари: комбинатив, рекомбинатив, мутацион, модификацион ўзгарувчанлик; мутацион назария ва мутация хиллари: ген, хромосома, геном мутациялари; мутацияларнинг селекциядаги аҳамияти билан таништириш.

Дарсинг тарбиявий мақсади: ўқувчиларни ўзгарувчанлик ва унинг хиллари билан таништириш орқали илмий дунёқарашини шакллантириш, касбга йўллаш.

Дарсинг ривожлантирувчи мақсади: ўқувчиларнинг ўзгарувчанлик ва унинг хиллари ҳақидаги билимларини, дарслик устида мустақил ишлаш кўникмаларини ривожлантириш.

Дарсни жиҳозлаш: мавзуга оид жадваллар, проектор, слайдлар.

Дарсда фойдаланиладиган технология: модулли таълим технологияси (Ўқувчиларнинг кичик гуруҳларда ишлашига мўлжалланган модул дастури)

Асосий тушунчалар ва таянч билимлар: ўзгарувчанлик, комбинатив, рекомбинатив, мутацион, модификацион ўзгарувчанлик, мутацион назария, ген, хромосома, геном мутациялари, аллофен организмлар.

Дарсинг бориши:

I. Ташкилий қисм

II. Ўтган мавзу юзасидан ўқувчиларнинг билимларини назорат қилиш ва баҳолаш учун топшириқлар бериш.(1 - илова)

III. Ўқувчиларни дарс мавзуси, мақсади, бориши билан таништириш ва уларнинг фаолиятини ўқув топшириқларини бажаришга йўллаш.

IV. Янги мавзунини ўрганиш:

а) Янги мавзу бўйича тузилган модул дастурини тарқатиш ва ўқувчиларни модул дастурининг дидактик мақсади билан таништириш;

б) Ўқувчиларнинг фаолиятини модул дастуридаги ўқув топшириқларини мустақил бажаришга йўллаш;

в) ҳар бир ўқув фаолияти элементи топшириқларининг тўлиқ бажарилишини назорат қилиш, тегишли кўрсатмалар бериш;

г) ҳар бир ўқув фаолияти элементи якунида савол-жавоб ёки мунозара ўтказиш.

Ўқитувчи ушбу дарсда ўрганиладиган ўқув материални қўйдаги мантикий тугалланган фикрли уч қисмга яъни модулга ажратади:

1. Ўзгарувчанлик ва унинг хиллари: комбинатив, рекомбинатив, мутацион, модификацион ўзгарувчанлик.

2. Мутацион назария ва мутация хиллари: ген, хромосома, геном мутациялари.

3. Мутацияларнинг селекциядаги аҳамияти, селекцияда қўлланиладиган асосий усуллар, аллофен организмлар олиш.

V. Аллел бўлмаган генларнинг ўзаро таъсирида белгиларнинг ривожланишига доир масалалар ечиш.

VI. Янги мавзу юзасидан ўқувчиларнинг билимларини назорат қилиш ва баҳолаш учун топшириқлар бериш. (2 - илова)

VII. Дарсни умумий яқунлаш. Уйга вазифа: Мустақил равишда 5-§ матнини ўқинг. 16-18 расмларни кўринг ва улар маъносини шарҳланг. Қуйидаги саволларга жавоб топинг:

1. Генетик инженерия қандай фан?

2. Генетик инженерия фанининг пайдо бўлиши ва унинг мақсадлари ҳақида сўзлаб беринг?

3. Штаммлар қандай ҳосил бўлади?

4. Трансформация жараёнида ташқаридан кирган ДНК молекуласи мутация ҳосил қила оладими?

5. Қандай ҳодисалар бактерия ҳужайрасини фаг томонидан лизис қилинишидан сақлаб қолиши мумкин?

6. Трансдукция жараёни қандай кечганда бактерия амутация бўлмайди?

7. Трансдукцияда фаглар қандай рол ўйнайди?

“Ўзгарувчанлик ва унинг хиллари. Мутацияларнинг селекциядаги аҳамияти” мавзуси бўйича ўқувчиларнинг кичик гуруҳларда ишлашига мўлжалланган модул дастури.

Модул дастурининг дидактик мақсади: Сиз кичик гуруҳларда ўқувчилар билан ҳамкорликда ишлаб ўзгарувчанлик ва унинг хиллари: комбинатив, рекомбинатив, мутацион, модификацион ўзгарувчанлик; мутацион назария ва мутация хиллари: ген, хромосома, геном мутациялари; мутацияларнинг селекциядаги аҳамияти; селекцияда қўлланиладиган асосий усуллар; аллофен организмлар олиш жараёнлари билан танишишингиз, дарслик устида мустақил ишлаш кўникмаларингизни ривожлантиришингиз зарур.

ЎФЭ	Ўқувчилар ўзлаштириши лозим бўлган ўқув материаллиги оид топшириқлар	Топшириқларни бажариш бўйича кўрсатмалар
<p>1-ЎФЭ</p> <p><i>Мақсад: Ўзгарувчанлик ва унинг хиллари: комбинатив, рекомбинатив, мутацион, модификацион ўзгарувчанликни ўрганиш.</i></p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Дарсликдаги матнни диққат билан ўқинг ва қуйидаги саволларга жавоб топинг: 2. Ўзгарувчанлик нима 3. Комбинатив ўзгарувчанликнинг моҳиятини аниқланг 4. Рекомбинатив ўзгарувчанликнинг моҳиятини аниқланг 5. Мутацион ўзгарувчанликнинг моҳиятини аниқланг 6. Модификацион ўзгарувчанликнинг моҳиятини аниқланг 7. Реакция нормасини ўрганишнинг аҳамиятини аниқланг 		<p>Ўқувчилар гуруҳи билан ҳамкорликда ишланг.</p> <p>Ўқувчилар гуруҳи билан ўтказилади-ган савол-жавобда фаол иштирок этинг.</p>
<p>2-ЎФЭ</p> <p><i>Мақсад: Мутацион назария ва мутация хиллари: ген, хромосома, геном мутацияларини ўрганиш.</i></p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Мутация назариясининг яратилишини ўрганинг. 2. Мутациянинг қандай турлари борлигини аниқланг. 3. Ўндай мутациялар ген мутациялари дейилади? 4. Хромосома мутацияларининг моҳиятини аниқланг. 5. Геном мутациялари нима? Доминант ва ресессив мутацияларни аниқланг. 6. Соматик ва генератив мутацияларни аниқланг. 		<p>Ўқувчилар гуруҳи билан ҳамкорликда ишланг.</p> <p>Ўқувчилар гуруҳи билан ўтказилади-ган савол-жавобда фаол иштирок этинг</p>
<p>3-ЎФЭ</p> <p><i>Мақсад: Мутацияларнинг селекциядаги аҳамияти, селекцияда қўлланиладиган асосий усуллар, аллофен организмлар олишни ўрганиш.</i></p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Мутацияларнинг селекциядаги аҳамиятини аниқланг. 2. Мутациялар олиш бўйича селекцияда қўлланиладиган асосий усулларини аниқланг. 3. Аллофен организмлар олиш усулларини аниқланг. 		<p>Ўқувчилар гуруҳи билан ҳамкорликда ишланг</p>



4-ЎФЭ	<p>Модул дастурини яқунлаш.</p> <p>Модул дастурининг дидактик мақсадини ўқиб чиқинг. Сиз унга қай даражада эришдингиз? Ўзингизнинг ўқув фаолиятингизни беш балли тизимида баҳоланг. Ўқув фаолиятингиздан қониқиш ҳосил қилган бўлсангиз ўзгарувчанлик ва унинг хиллари: комбинатив, рекомбинатив, мутацион, модификацион ўзгарувчанлик; мутацион назария ва мутация хиллари: ген, хромосома, геном мутациялари; мутацияларнинг селекциядаги аҳамияти; селекцияда қўлланиладиган асосий усуллар; аллофен организмлар олиш жараёнларига оид атамалардан фойдаланиб кроссворд тузинг. Агар ўз ўқув фаолиятингиздан эришилган натижа сизни қаноатлантирмаса, модул дастури ёрдамида мавзунини қайта ўрганинг.</p>	Ўқувчилар гуруҳи билан ўтказилади-ган савол-жавобда фаол иштирок этинг.
-------	--	---

ХУЛОСА

Ахборот-коммуникацияси технологиялари ривожини билан интерактив усуллар, инновацион технологиялар, педагогик ва ахборот технологияларини ўқув жараёнида қўллашга бўлган қизиқиш, эътибор кундан-кунга кучайиб бормоқда. Инновацион технологиялар педагогик жараён ҳамда ўқитувчи ва ўқувчи фаолиятига янгилик, ўзгаришлар киритиш, уни амалга ошириш бўлиб, бунга асосан интерактив усуллардан тўлиқ фойдаланилади. Интерактив усуллар бу- ўқитувчи ва ўқувчи ҳамда ўқувчилараро ўзаро биргаликдаги ҳаракатдир. Ўқитувчининг вазифаси ўқувчиларни ушбу дарсга қизиқтириш, уларнинг бирламчи фикрларини тинглаш, жавоб беришга ундаш, жавоблар ичида биологияга умуман боғлиқ бўлмаган мавзулар кўтарилганда ҳам ўқитувчи бунга алоҳида аҳамият бермаслиги, ўқувчиларни янада кўпроқ фикрлашга, биология ичига чуқурроқ кириб боришга ундаб туриш керак.

Генетика асослари фанидан ташкил этиладиган таълим-тарбия жараёнида модул технологияларини йўлга қўйишнинг муҳим аҳамияти ва самарадорлиги ўқитувчи томонидан ўқувчиларнинг билиш фаолиятини ўқитиш вазифалари ва мақсадларига мувофиқ ташкил эта олиш кўникмаларини эгаллаганлик даражасига боғлиқ бўлади. Модулли таълим технологиясидан фойдаланишнинг афзаллик томонлари, уни анъанавий таълим технологияси билан таққослаганда аниқ кўринади.

Анъанавий таълим	Модулли таълим
<p>Дарслар бир хил тарзда олиб борила-ди. Вақтдан унумли фойдаланилмайди. Ўқув материални ўзлашти-ришда дастлабки боскичда бўлади.</p> <p>Уй вазифасининг ҳажми ортиб кетади. Ўқувчиларнинг ўзаро мулоқоти, мустақиллиги, нутқини ривожланти-риш имконияти чекланган. Янги мавзунинг ўрганишда ўрта савияли ўқувчига нисбатан мўлжал олинади.</p> <p>Ўқувчилар фаолияти суст, тайёр билимларни ўзлаштиришга қаратила-ди. Ўқувчилар билимини ўқитувчи баҳолайди. Педагогик муносабатлар авторитар технологияга асосланади.</p>	<p>Модул дастури талаблари асосида олиб борилади. Вақтдан самарали фойдаланилади. Ўқувчилар томонидан ўқув матери-яли юқори даражада ўзлаштирилишига, ўз устида мустақил ишлашига имкон ярати-лади. Ўқувчилар яқка, жуфт ҳолда кичик гуруҳларда ишлайди, улар ўртасида дўс-тона мулоқот, ўзаро ёрдам, ҳамкорлик вужудга келади, нутқи ривожлантирилади.</p> <p>Ҳар бир ўқувчи ўз қизиқиши, иқтидорига асосланиб билимини ошириш мақсадида мустақил ва ижодий ишлаб янги билим-лами ўзлаштиради. Ўз-ўзини назорат, ўзаро назорат ва ўқитувчи назорати амалга оширилади. Педагогик муносабатлар ўза-ро ҳамкорликка асосланади.</p>

REFERENCES

1. Ш.М.Мирзиёев “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик- ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак”. Тошкент. Ўзбекистон. 2017. -104 б.
2. Ш.М.Мирзиёев “Қонун устиворлиги ва инсон манфаатларни таъминлаш- юрт тараққиёти ва халқ фарованлигининг гарови” Тошкент. Ўзбекистон. 2016. -48 б.
3. Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 йил. 11-12-сон, 295-модда.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 28-декабрдаги “Олий ўқув юртидан кейинги таълим ҳамда олий малакали илмий ва илимий педагогик кадрларни аттестациядан ўтказиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги № 365 сонли Қарори.
5. А.Т.Ғофуров, А.Абдукаримов, Ж.Толипова, О.Ишанкулов, М.Умаралиева. “Биология” дарслик. Тошкент 2018 йил
6. Л.Б.Голиш, Д.М.Файзуллаева “Педагогик технологияларни лойиҳалаштириш ва режалаштириш” Ўқув услубий қўлланма - Тошкент - 2010-йил.



7. Ж.О. Толипова, А.Т. Гофуров. Биология таълими технологиялари. - Т.: Ўқитувчи, 2002.
8. Ж.О. Толипова, А.Т. Гофуров. Биология ўқитиш методикаси. Педагогика олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. - Т.: Молия-иқтисод, 2007.
9. Рахимов А. К., Нурметов Х.С., Саидова Д.С. “Узлуксиз таълим тизимида педагогик таълим инновацион кластерининг роли”. Academic Research in Educational Sciences, журнал 2020 1(1), 48-53 бетлар.
10. D. U. Zakirov, X.S. Nurmetov ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ ШКОЛА – ОСНОВНОЙ ИСТОЧНИК ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 2 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723, 25-31 бетлар



ЖАМОАЛАРНИ БОШҚАРИШДА БОШҚАРУВНИНГ ЎРНИ

И. И. Жураев
Эркин изланувчи

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақола иқтисодиёт соҳасига оид бўлиб, мақолада менежмент, бошқарув усуллари, бошқарув функциялари, бошқарувнинг турлари ҳамда бошқарувнинг ижтимоий – психологик усуллари ёритилган.

Калит сўзлар: менежмент, режалаштириш, бошқарув функциялари, мотивлаш, назорат қилиш, бошқарув турлари ва усуллари, ижтимоий-психологик, маркетинг, инновацион бошқариш.

ABSTRACT

This article belongs to the field of economics, and it deals with management, management methods, management functions, types of management and socio-psychological aspects of management.

Keywords: management, planning, management functions, motivation, control, types and methods of management, socio-psychological, marketing, innovation management.

АННОТАЦИЯ

Эта статья относится к области экономики, и в ней рассматриваются менежмент, методы управления, функции управления, виды управления и социально-психологические аспекты управления.

Ключевые слова: управление, планирование, функции управления, мотивация, контроль, виды и методы управления, социально-психологический, маркетинг, инновационный менеджмент.

Ғарб менежментининг бугунги замонавий назарияси бошқариш функцияларини таснифлашда, энг аввало унинг асосий (умумий) функцияларига устуворлик беради, булар қуйидагилар:

- ✓ режалаштириш;
- ✓ ташкил қилиш;
- ✓ тартибга солиш;
- ✓ мувофиқлаштириш;
- ✓ назорат;



✓ рағбатлантириш, яъни мотивлаш ёки мотивация бериш [1].

1. Режалаштириш - бошқаришнинг асосий ва дастлабки функцияси ҳисобланади. Ҳар қандай бошқариш режа тузишдан бошланади. Бу режада бошқарув мақсадлари ва вазифалари, уларни амалга ошириш муддатлари белгиланади, вазифаларни амалга ошириш усуллари ишлаб чиқилади, халқ ҳўжалиги бўғинларининг ўзаро алоқалари ўрнатилади.

2. Ташкил қилиш, бу функция бошқарув объекти доирасида барча бошқарилувчи ва бошқарувчи жараёнларнинг уюшқоқлигини таъминлайди.

3. Мувофиқлаштириш ва тартибга солиш. Режалаштириш бошқаришнинг стратегияси ҳисобланса, мувофиқлаштириш бошқаришнинг тактик масалаларини ҳал қилади. Мувофиқлаштириш маблағларни тежаш мақсадида бошқарувдаги параллелизм ва бир-бирини такрорлашни бартараф қилиш имконини беради. Тартибга солиш мувофиқлаштиришнинг давоми бўлиб, у содир бўлиб турадиган муаммоларни бартараф қилиш йўли билан ишлаб чиқариш жараёнларини амалга оширишни мақсад қилиб қўяди. Унинг ёрдами билан вужудга келиши эҳтимоли туғилган муаммоларнинг олди олинади.

4. Назорат. Бу функциянинг мақсади “тутиб олиш”, “айбини очиш” “илинтириш” эмас, балки бошқарув объекти содир бўлаётган жараёнларни ҳисобга олиш, текшириш, таҳлил қилиш ва маълум тартибда шу объект фаолиятини ўз вақтида созлаб туришдир. Таъсирчан назоратни ташкил қилиш ҳар бир раҳбарнинг функционал ишидир. Мунтазам назорат йўқ жойда юқори пировард натижаларга эришиб бўлмайди.

Бошқариш режалаштиришдан бошланиб, фаолиятни ташкил қилиш, уни рағбатлантириш билан давом эттирилиб, назорат билан тугайди. Бу ерда мувофиқлаштириш барча функциялар жараёнида ўз аксини топади. Бу функциялар бошқарувнинг ҳамма босқичларига хос бўлган умумий хусусиятларга эга бўлиб, бошқарув аппаратининг барча раҳбарлари ва мутахассислари фаолиятида мавжуд бўлади. Уларни, шунингдек, бошқарувнинг ҳамма томонларини қамраган функциялар дейиш ҳам мумкин, чунки улар бошқарув тизимини ҳам бўйига (вертикалига), ҳам энига, яъни горизонталига қамраб олади.

Бошқариш функциясини таснифлашнинг иккинчи ёндошувида бошқариш ишини аниқ ижрочилар бўйича тақсимлашга устуворлик берилади. Бунда бир бутун аниқ функциялар тизими ажратилади. Масалан, замонавий ғарб фирмаларида ишлаб чиқаришга оид 30-35 тадан кам бўлмаган функциялар ажратилади. Булар қуйидагилардир:

✓ асосий ишлаб чиқаришни бошқариш;

- ✓ кўшимча ишлаб чиқаришни бошқариш;
- ✓ ишлаб чиқаришга хизмат қилувчи ишлаб чиқаришни бошқариш;
- ✓ маркетингни бошқариш;
- ✓ молиявий бошқариш;
- ✓ сифатни бошқариш;
- ✓ меҳнатни бошқариш;
- ✓ ходимларни бошқариш;
- ✓ инновацияни бошқариш мисол бўла олади. Булар бир-бирига боғлиқ бўлиб, ўзаро бир-бирини тўлдириб боради [1].

Олимларнинг фикрича, бошқариш фаолиятининг турларига кўра, функциялар қуйидагича бўлади. Масалан,

- ✓ бошқаришнинг иқтисодий функциялари;
- ✓ бошқаришнинг социал функциялари;
- ✓ бошқаришнинг маънавий-маърифий функциялари [2].

Қайд қилинган функциялар бир-бири билан боғлиқ ва маълум даражада тартибга солинган кўп унсурлардан, таркибий қисмлардан иборат бўлиб, улар яхлитликка эга. Шунинг учун ҳам бошқариш жараёнида уларнинг бирортаси ҳам эътибордан четда қолмаслиги керак.

Ҳозирги кунда олимлар, тадқиқотчилар томонидан бошқарувнинг ижтимоий-психологик усуллари кенг ўрганилмоқда. Бошқарувнинг ижтимоий-психологик усуллари - бу ишлаб чиқарувчи ва айрим шахсларга уларнинг ижтимоий эҳтиёжлари ва психологик хусусиятларига таъсир этиш билан бошқариш воситасидир [4]. Бошқарувнинг ижтимоий-психологик усуллари қўллаш корхонада юз бераётган ижтимоий ҳодисаларни чуқур ўрганиш ходимлар нерв системаси кайфиятига таъсир этувчи психологик (руҳий) омилларни билишни талаб этади.

Кишилар фикрлаш усулида ўзгариш юз бериши ва улар маданий ҳамда билим даражаси ортиб бориши билан ижтимоий-психологик усуллар аҳамияти ҳам ортиб боради. Бундай шароитда шахснинг эҳтиёж ва манфаатлари маънавий соҳа томон ўзгариб боради. Ўз меҳнатидан қониқишнинг муҳим омили бўлиб, ишлаб чиқарувчиларнинг раҳбар билан ўзаро яхши муносабати, ишлаб чиқаришдаги қулай ижтимоий-психологик вазият хизмат қилади. Бошқарувнинг ижтимоий-психологик усуллари ишлаб чиқаришда мавжуд ижтимоий механизмни (ўзаро муносабат тизими, ижтимоий эҳтиёжлар) қўллашга асосланади. Ҳаммага маълумки, бошқарувнинг ижтимоий усуллари ижтимоий тартибга солиш воситасида амалга оширилади.

Ижтимоий тартибга солиш усуллари турли гуруҳлар ва шахслар мақсади ва манфаатларини аниқлаш ва ростлаш йўли билан ижтимоий муносабатларни тартибга солиш ва уйғунлаштириш мақсадида қўлланилади. Бошқарувнинг психологик усуллари жамоада мақбул психологик ҳолат ташкил этиш йўли билан кишилар ўртасидаги муносабатларни тартибга солишга қаратилгандир. Психологик усулларга кичик гуруҳ ва жамоаларни ташкил этиш, меҳнатни инсонийлаштириш, малакали кадрлар танлаш ва уларни ўқитиш кабилар кирази. Инсон фаолияти маълум рағбатлантирувчи омилларга асосланган бўлиб, маълум мақсадга эришишга қаратилгандир. Рағбатлантирувчи омил - мақсад муносабати инсон фаолияти ўзагидир. Умумий маънода рағбатлантирувчи омил - бу инсонни фаолият юритиш учун ундовчи омил бўлиб, мақсад эса инсон уни амалга ошириш натижасида эришишни хоҳлаган нарсадир.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, бошқарув функцияси деганда у ёки бу объектни бошқаришга оид аниқ вазифаларни ҳал этишга қаратилган бир турдаги ишлар мажмуи тушунилади. Демак, бошқарув муайян функциялар орқали амалга оширилади. Функцияларни аниқлаш, уларнинг моҳиятини очиш ва ўрганиш бошқарув жараёнини тўғри ташкил қилишнинг муҳим шартидир.

REFERENCES

1. Рустамбоев Х. Ўзбекистон Республикаси конституцияси ва президентлик институти. –Т.: 2002.
2. Худойбердиева В. Давлат бошқарув органлари тизими ва маъмурий ислоҳот. –Т.: 2005.
3. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. –Т.: 2012. -556 б.
4. <https://staff.tiame.uz/storage/users/14/presentations/NDRIKO6FPLgKNnss7JCBvxPg1bdVqnrJm9mDOvdb.pdf>.



CONTENTS

1. Nematova, S. E., & Usmonaliyev, I. I. (2023). O‘ZBEKISTONDA BANKNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION XIZMAT TURLARINI JORIY ETISH YO‘LLARI. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 5–10.
2. Олимова, Н. Х., & Каримов, О. О. (2023). КОРХОНА ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ МОЛИЯЛАШТИРИШ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ УСУЛЛАРИ. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 11–21.
3. Тешабоева, О. Н., & Ташматова, Н. Х. (2023). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА АГРАР СЕКТОРДА ТАДБИРКОРЛИК РИВОЖЛАНИШИНИНГ ЎЗИГА ҲОС ЖИҲАТЛАРИ. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 22–30.
4. Karimzai, Z., & Shinwaray, M. I. (2023). KIND OF MORPHOPHONEMIC CHANGES IN PASHTO LANGUAGE. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 31–39.
5. Jumayev, S. B., Hayrulloev, J. J., & Akbaraliyev, I. A. (2023). ZAMONAVIY AXBOROT TECHNOLOGIYALARINING PEDAGOGIKA BILAN UZVIY BOG‘LIQLIGI. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 40–45.
6. Nizomov, S. S., Burxonov, R. R., & Yo‘ldoshev, M. Q. (2023). TEXNOLOGIYA FANIGA STEAM TA‘LIMIY YONDASHUVNING ANAMIYATI. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 46–53.
7. Шералиев, М. Х., & Тиланова, М. А. (2023). НАМАНГАН ВИЛОЯТИ ТУПРОҚ-ЭКОЛОГИК ВАЗИЯТИ ВА УЛАРНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 54–60.
8. Рахмонов, С. (2023). ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТИНИ ЎТАШ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 61–67.
9. Рахмонов, С. (2023). ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТИ ТИЗИМИДА КАДРЛАР ЗАХИРАСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 68–76.
10. Xursanov, R. (2023). THE GENESIS OF THE RIGHT TO INFORMATION IN THE PERIOD OF DIGITALIZATION. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 77–84.
11. Раджабова, Г. А. (2023). ПРОЯВЛЕНИЕ «НОВОГО РЕАЛИЗМА» В ТВОРЧЕСТВЕ ЗАХАРА ПРИЛЕПИНА. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 85–90.
12. Юлчиев, А. О., & Зайлобиддинов, Д. Н. (2023). ВОПРОСЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 91–100.
13. Кабиров, М. (2023). МУЛОҲИЗАҲО ПЕРОМУНИ ЯК РУБОИИ УМАР ИБРОҲИМИ ХАЙЁМ. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 101–105.
14. Mirzaraximov, S. H. (2023). ELEKTR ENERGIYASI TEJAMKORLIGI. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 106–110.



CONTENTS

15. Эшмуродов, М. Х. (2023). ТЎҒРИ БУРЧАКЛИ СОҲАДА ИССИҚЛИК ТЎЛҚИНЛАРИ ТАРҚАЛИШИ МАСАЛАНИ ЕЧИШ. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 111–115.
16. Jalolov, I. S. (2023). PROKATLASH JARAYONIDAGI TERMAL QATTIQLASHTIRISHNING AVTOMATIK BOSHQARUV NAZORATI. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 116–121.
17. Мадрахимов, Ш. Н., Амиров, Ш. Қ., Нурбаев, Э. Д., Садиқов, Д. Р., & Каримов, М. Г. (2023). ҚОРАБАЙИР ЗОТЛИ НАСЛЛИ АЙҒИРЛАРНИНГ ЭКСТЕРЬЕР ХУСУСИЯТЛАРИ. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 122–130.
18. Элмуродов, Э. (2023). ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШДАГИ МАВЖУД МУАММОЛАР ВА ЕЧИМЛАР. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 131–141.
19. Салимжонова, З., & Турғунов, Э. Қ. (2023). КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИНИНГ АҲОЛИ ТУРМУШ ФАРОВОНЛИГИНИ ЯХШИЛАШ, МАМЛАКАТ ВА ХУДУДЛАР ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИНИ ОШИРИШДАГИ ЎРНИ. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 142–151.
20. Shaturaev, J. (2023). METHODOLOGY OF TEACHING ENGLISH AT THE PRIMARY SCHOOL LEVEL: ENHANCING ENGLISH LANGUAGE SKILLS. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 152–166.
21. Abdirayimov, A. R., & Muminov, N. S. (2023). QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA VUJUDGA KELAYOTGAN MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 167–173.
22. Xaitov, B. T. (2023). XORAZMSHOHLAR DAVLATI HALOKATINING AYRIM JIHATLARI. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 174–179.
23. Абдуллаева, Д. Г., Ишназаров, Ш. П., Рахимова, Д. И., & Фаттахова, Ф. А. (2023). БОЛАЛАРДА МИКРОНУТРИЕНТ ТАНҚИСЛИГИ, ОВҚАТ АЛЛЕРГИЯСИ ВА ЗАМБУРУҒЛАРГА СЕЗУВЧАНЛИК МУАММОСИГА ЯНГИЧА ЁНДОШУВ. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 180–185.
24. Alieva, M. T., Ikhtiyarova, G. A., & Kholturayeva, N. R. (2023). ANALYSIS OF PROCESSES OF ADSORPTION OF ORGANVERMICULITE TO BENZENE AND WATER VAPOR. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 186–191.
25. Ташметов, Т. Х. (2023). ЁШЛАР МАЎНАВИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШ ТЎҒРИСИДАГИ ИННОВАЦИОН ҲОЯЛАР ВА ҚАРАШЛАР. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 192–197.
26. Авулова, Н. Т. (2023). ЎҚУВЧИ КУН ТАРТИБИНИ ОҚИЛОНА ТАШКИЛ ҚИЛИШ ОРҚАЛИ УЛАРНИНГ ФАОЛИЯТ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 198–208.



CONTENTS

27. Эшмуродов, М. Х. (2023). ЁРДАМЧИ МАТРИЦАЛАРНИ КИРИТИШ ВА УЛАРНИНГ ЭЛЕМЕНТЛАРИНИ АНИҚЛАШ УСУЛЛАРИ. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 209–214.
28. Ишкobilов, Ф. Х. (2023). КОМПЬЮТЕР ИМИТАЦИОН МОДЕЛЛАР АСОСИДА ЯРАТИЛГАН ВИРТУАЛ ЛАБОРАТОРИЯ УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ЎҚИТИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 215–221.
29. Носирова, З. Х. (2023). «БОШҚАРУВ ТАМОЙИЛЛАРИ» ФАНИНИ ЎҚИТИШДА КЕЙС ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 222–230.
30. Авулова, Н. Т. (2023). ЎҚУВЧИЛАРНИНГ БЎШ ВАҚТЛАРИНИ ТЎҒРИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 231–238.
31. Ўринбоев, Э. А. (2023). ТАЯНЧ ҲАРАКАТ АППАРАТИ ШИКАСТЛАНГАН ТАЛАБАЛАРНИНГ ҲАРАКАТ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 239–247.
32. Xodjayeva, N. P., & Murotov, O. O. (2023). ZARARLI GAZLARNING ATMOSFERA VA INSON SALOMATLIGIGA TA’SIRI. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 248–256.
33. Jabborkulova, N. (2023). PEDAGOGICAL CONFLICTS AND THE SOCIAL-PSYCHOLOGICAL MEANS OF THEIR ELIMINATION. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 257–262.
34. Ergmatov, Q. M., Shakirov, B. B., & Qorachayeva, O. A. (2023). MARKAZDAN QOCHMA KOMPRESSORLAR GAZ YOKI XAVO OQIB O‘TAYOTGANDA HARAKAT MIQDORINING O‘ZGARISHINI ANIQLASH. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 263–269.
35. Madalov, N. E. (2023). HISTORY OF THE STUDY OF PROVERBS IN ENGLISH LINGUISTICS. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 270–273.
36. Мадалов, Н. Э. (2023). ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДАГИ ОДДИЙ ТАБИАТ ҲОДИСАЛАРИ БИЛАН БОҒЛИҚ МАҚОЛЛАРНИНГ ЧОҒИШТИРМА ТАҲЛИЛИ. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 274–277
37. Abduraxmonova, Z. N., & Islamov, O. (2023). NAVOIYNING “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDA NUTQ MADANIYATI VA MULOQOT ODOBINING TALABLARI HAQIDAGI QARASHLARI. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 278–281.
38. Majitova, A. T. (2023). INSEPARABILITY OF LANGUAGE AND CULTURE. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 282–289.
39. Мирзаахмедов, М. (2023). ОЗОД ШАРАФИДДИНОВ - ЧЎЛПОНИШУНОС. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 290–297.
40. Шадманова, Н. И. (2023). МОНОЛОГИЧЕСКАЯ И ДИАЛОГИЧЕСКАЯ РЕЧЬ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 298–302

CONTENTS

41. Noori, H., & Besharat, R. (2023). MINIMUM DENSITY OF TRIANGULATED PACKING'S THREE DIFFERENT SIZE CIRCLES. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 303–315.
42. Po'latov, R. F. (2023). YOSH AVLODDA MA'NAVIY AXLOQIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 316–320.
43. Мислибаев, И. Т., & Самадова, Г. М. (2023). ВЫБОР ПОРЯДКА РАЗРАБОТКИ НАГОРНЫХ КАРЬЕРОВ. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 321–327.
44. Maxatova, A. A., & Fayziyev, V. B. (2023). CAPSICUM ANNUUM O'SIMLIGINI KASALLANTIRUVCHI VIRUSLAR MONITORINGI, SIMPTOMAL-ANALIZ, TARQALISHI. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 328–334.
45. Mullajonov, I. Y. (2023). JAHON ILM FANI RIVOJIDA ABU ABDULLOH MUHAMMAD IBN MUSO AL-XORAZMIYNING TABIATSHUNOSLIK HAQIDAGI QARASHLARINING SIVILIZATSIYA RIVOJIDAGI O'RNI. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 335–340.
46. Axmedova, M. (2023). YANGI O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 341–344.
47. Khujametova, M., & Abduramanova, D. V. (2023). THE EVOLUTION OF EDUCATION: OBJECTIVES AND PROSPECTS. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 345–349.
48. Толиболдиева, Н. Б., & Абдураманова, Д. В. (2023). ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 350–355.
49. Kosimova, S., & Abduramanova, D. V. (2023). A DESCRIPTION OF THE ADOLESCENT PERIOD AND ITS CHARACTERISTICS. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 356–359.
50. To'rayev, A. M. (2023). UMUMTA'LIM MAKTABLARDA TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 360–366.
51. Yakubova, M. F. (2023). O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY-NAZARIY ASOSLARI. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 367–370.
52. Turgunova, Z. S., & Abduramanova, D. V. (2023). METHODS OF ENGLISH TEACHING IN PRIMARY SCHOOLS. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 371–376.
53. Абдуллаева, Д. Г., & Икромова, Н. И. (2023). СЕМИРИШ ВА АЛЛЕРГИК КАСАЛЛИКЛАРНИНГ ЎЗARO БОҒЛИҚЛИГИ ВА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ТАРҒИБ ҚИЛИШ. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 377–384.



CONTENTS

54. Xaydarova, G., & Abduramanova, D. V. (2023). MODALITIES OF INSTRUCTING COMPUTER SCIENCE AS AN ACADEMIC DISCIPLINE. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 385–389
55. Мустафакулов, М. А., Мирзакулов, Ж. С., Баходиров, Х. Қ., Туйчибойев, Ж. И., Равшанова, М. А., & Қаландарова, Г. О. (2023). ГИПОТИРЕОЗ МОДЕЛИДА КАЛАМУШ ЖИГАРИ АНТИОКСИДАНТ ТИЗИМИГА АЙРИМ ПОЛИФЕНОЛЛАРНИНГ ТАЪСИРИ. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 390–398
56. Чоршанбиев, Н. Э., Набиев, С. М., Пардаев, Э. А., & Кўзибоев, А. О. (2023). G.BARBADENSE L. ТУРИ НАВЛАРАРО F1 ДУРАГАЙЛАРИДА АЙРИМ ҚИММАТЛИ-ХЎЖАЛИК БЕЛГИЛАРНИНГ ИРСИЙЛАНИШИ. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 399–408.
57. Nurillayeva, M. Z. (2023). SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE MEMORY OF PRIMARY SCHOOL CHILDREN. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 409–412
58. Турсунмуратов, О. Х., & Хуррамова, Ф. Т. (2023). ВЕРМИКУЛИТ АСОСИДА ОЛИНГАН ИОНИТГА НИКЕЛ (II) ИОНЛАРИ СОРБЦИЯСИНИНГ ПСЕВДО-БИРИНЧИ ВА ПСЕВДО-ИККИНЧИ ТАРТИБЛИ КИНЕТИК МОДЕЛЛАРИ. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 413–421.
59. Akramova, S. I. (2023). UILYAM FOLKNER GUMANIZMINING O'ZIGA XOSLIGI. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 422–428.
60. Xolmamatov, J. J., & G'ofurova, M. S. (2023). SHIRIN QALAMPIR NAV VA DURAGAYLARINI ISSIQXONALARGA EKISH MUDDATLARI. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 429–435.
61. Alimov, S. K. (2023). AYOLLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKNING OLDINI OLISHDA KOMPLEKS TIZIMLI YONDASHUV: XALQARO TAJRIBA. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 436–446.
62. Imomov, M. (2023). SPORT O'YINLARIDA HUYUM HARAKATLARI TEXNIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (VOLEYBOL MISOLIDA). *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 447–456.
63. Abdullakhanova, G. S., & Kudratova, U. R. (2023). THE CONCEPT OF TRUTH AS THE BASIS OF ARISTOTEL'S LOGIC. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 457–464.
64. Karimova, N. S. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI AXLOQIY TARBIYALASHDA, XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 465–468.
65. Namozov, I. C., & Jabbarova, Z. R. (2023). SITRUS MEVALI O'SIMLIKLAR KO'CHATINI QALAMCHALARIDAN KO'PAYTIRISHDA NOVDALAR YOSHINI ILDIZ OLISHIGA TA'SIRI. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 469–474.



CONTENTS

66. Ahmedov, X. R., Panjiyev, H. A., & Usmonov, K. M. (2023). SURXONDARYO NEFTGAZLI REGIONIDAGI YUQORI QOVUSHQOQLI NEFT KONLARIDA QUDUQLARNING QAZIB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 475–481.
67. Кошанова, Н. М., & Исмоилова, Н. Ш. (2023). ДУНЁДА ГЕНДЕР АССИМЕТРИЯСИНИНГ ТАРИХИЙ МАНЗАРАСИ. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 482–489.
68. Mukhiddinova, B. A. (2023). LINGUISTIC FEATURES OF ADVERTISING TEXTS. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 490–493.
69. Мирзорахимов, О. К. (2023). ЗНАЧЕНИЕ РОДНОГО СЛОВА И ЗАДАЧА ОБУЧЕНИЯ ЯЗЫКУ. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 494–498.
70. Mahmudaliyeva, H. H., & Nurmetov, X. S. (2023). HAYOTIMIZGA XAVF SOLAYOTGAN VIRUS VA BAKTERIYALARNING KELIB CHIQISHI, HAYOT TARZI, RIVOJLANISHI VA ULARGA QARSHI KURASH. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 506–512.
71. Karimova, N. B. (2023). O'QUV FAOLIYATINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING AHAMIYATI. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 513–518.
72. Нурметов, Х. С., Хамраев, Р. Ж., Жумамуродова, Г. Б., & Азимова, У. Х. (2023). ГЕНЕТИКА АСОСЛАРИ МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА МОДУЛЬ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДА ИННОВАЦИОН МОДЕЛИНИНГ ЎРНИ. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 519–532.
73. Жураев, И. И. (2023). ЖАМОАЛАРНИ БОШҚАРИШДА БОШҚАРУВНИНГ ЎРНИ. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 533–536.

